ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 4. 3-4

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.12.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.10.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
www.philologicalresearch.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.10.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
www.philologicalresearch.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

UMURQULOV BEKPO‘LAT
Badiiy nutq va uning shakllanish asoslari 7

IBRAGIMOV YULDASH MATKARIMOVICH
Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalari leksikasi tadqiqi masalasi 13

ШАРИФ ЁКУБОВ
Девони Фоний ғазалларидаги Бесутун атамасининг таҳлили 13

SHUKUROV RAHMATILLO
Qadimgi davr manbalarida Farg‘ona vodiysi toponimiyasi tahlili 19

AHMEDOV HAKIM YARASHEVICH
Xalq dostonlarida frazeologik birliklarning uslubiy tavsifi 23

AMONTURDIYEV NURALI RASHIDOVICH
O‘zbek tili etnografizmlar tizimida motivlashuv masalasi 26

ISMOILOV XURMATILLO TO‘LQINJON O‘G‘LI
Paralingvistik haqoratlar va ularni verballashtirish masalasiga doir 30

USMONOVA SHAHODAT
Publitsistik matn tarjimasida pragmatik modulyatsiya va semantik uyg‘unlik 35

RAXIMOVA UMIDA DJUMAYEVNA
Hamid Olimjon ijodida qofiyaning o‘rni 39

UMIROVA SVETLANA
Mualliflik korpusining amaliy qo‘llanilish sohalari 42

TURDIMURODOV SIROJIDDIN
Evfemik maqollar badiiylik va milliylikni kuchaytiruvchi vosita sifatida 45

TURAKULOVA UMIDAXON ANVAROVNA
Erkin o‘xshatishlarda lingvomadaniy xususiyatlarning aks etishi (Tohir Malik qissalari misolida) 48

SAATOVA SURAYYO ISMAILOVNA
Ijtimoiy tarmoq lisoniy shaxsining voqelanishi 52

РАДЖАПОВА НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА
Отражение и формирование: роль гендерных терминов
в восприятии материнства в современном обществе 55

SARBAROVA DILNOZA NOSIRJON QIZI
Sifatlarning badiiy matndagi funksional-stilistik o‘rni 59

XUSANOVA ZUXRA
AQSH va O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy matbuot matnlarida lingvopragmatik strategiyalar:
leksik-uslubiy xosliklar va ta’sirchan til vositalari 62

QURBONOV AKMALJON TAVAKALJON O‘G‘LI
Hid bilish sezgisiga oid til birliklari semantikasi 65

SUYAROVA NARGIZA YULDOSHEVNA
Metaforalarning nasriy asarlardagi tasviriy va ekspressiv imkoniyatlar 68

МУНДАРИЖА

SOBIROVA GULSHANA FAXRIDDINOVNA
O‘zbek tilida haqoratli leksika: korpus lingvistikasi asosida tahlil va bazaviy resurs yaratish 70

JUMAYEVA DILAFRO‘Z ORIFJON QIZI
«Kuntug‘mish» dostoni frazeologizmlarining semantik-statistik tahlili 75

ISLOMOV SARDOR SANJAROVICH
O‘zbek tilining onomastik sathi haqida 79

RAHMATULLOYEV AHTAM A’ZAM O‘G‘LI
Fors tilidagi ot so‘z turkumi borasida rus tilshunoslarining qarashlari 82

OMANOV SHUHRAT G‘ANIYEVICH
Nemis tilidagi “Eigentlich” modal partikelining so‘roq gaplardagi semantik imkoniyatlari hamda tarjima xususiyatlari 84

GAFUROVA NIGORA SA’DULLAYEVNA
Nonverbal means in virtual texts 87

XOLMUXAMEDOV B.F.
Mualliflik leksikografiyasining rivojlanishi va taraqqiyot yo‘li 90

TO‘RAYEVA ZARRINA ABDIMUROT QIZI
O‘zbek onlayn media sarlavhalarida klikbeyt 93

XUDOYKULOVA UMIDA A’LAMJONOVNA
Sintaktik parallelizmning nazariy asoslari 96

ADABIYOTSHUNOSLIK

DAVRONOVA MAHFUZA ISROILOVNA
Xalq og‘zaki ijodidagi maqollarda ayol konsepti 100

ARSLONV ABDIMUROD KAROMATOVICH
Nurboy Jabborovning adabiy-matnshunoslik merosi: ilmiy maktab, metodologiya va amaliy natijalar… 103

SAIDOVA MUHABBATXON SHUKRULLAYEVNA
Shukur Xolmirzayev asarlarida folklor motivlari va ularning estetik funksiyasi… 106

BARZIYEV OYBEK XABIBULLAYEVICH
Pisandiy va Haziniy ijodida Andijon zilzilasining nazmiy bayoni 110

SULTANOVA RAISA XAYRULLAYEVNA
«Ra’no va Zebo» dostonida Xiromiy badiiy mahorati… 112

BO‘RIYEVA MARVARID HAMDAMJON QIZI
«Javr-u zulmung garchi o‘lmaklik nishonidur manga…» 116

QOSIMOV ANVAR
Kuper ijodida indeys va o‘zbek nasrida milliy qahramon obrazlari… 120

ADABIY TAQRIZ

ҚУРОНОВ ДИЛМУРОД
“Меҳробдан чаён”нинг учинчи нашри ҳақида 123

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 11-12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

BADIIY NUTQ VA UNING SHAKLLANISH ASOSLARI

Umurqulov Bekpo'lat,
Termiz davlat universiteti professori,
filologiya fanlari doktori

Til so'zining «nutq» (so'zi) ma'nosida qo'llanilishi stilistikaga oid tadqiqotlarning ko'pchiligida uchraydi. S.Usmonov «nutq» ma'nosini bir necha so'z bilan ifodalanib kelganligi va ifodalanayotganligini qayd etadi[1]. Buning sababi til va nutq orasidagi bog'liqlik, ya'ni nutqning til elementlaridan tuzilishidir. Til nutq uchun asos, biroq nutq o'z xususiyatlaridan kelib chiqib, til vositalaridan foydalanish qonuniyatlarini belgilaydi. Buning yorqin namunasi badiiy nutq bo'lib, unda til vositalarining «erkinligi», so'zning turli ma'nolarda qo'llanilishi, nutq uslublarining barcha turlariga xos so'zlarning ishlatilishi, sinonimlar va so'z variantlariga boylik va boshqalar nutq talabi natijasidir. Til va nutq orasidagi bu xususiyatni X.R.Kurbatov shunday ifodalagan: «Til nutq uslubini vujudga keltiradi. O'z navbatida nutq uslubi tilni shu uslub talablariga moslashuviga majbur qiladi»[2]. Tilning nutq jarayonida yangi vazifa bajarib kelishining asosiy manbai badiiy nutq bo'lib, lug'aviy vositalarning shu nutq talabi bilan qo'llanilishi natijasida badiiy nutq o'ziga xos muhim jihatlarini namoyon etadi.

Badiiy asar tilini tadqiq qilish masalalarigi bo'lgan qiziqish XX asrning 20 yillaridan boshlangan. Bu sohadagi dastlabki tadqiqotlar R.Yakobson[3], G.Vinokur[4] tomonidan yaratilgan va tilshunoslikda yangi yo'nalish tadqiqiga asos solingan edi. OPOYAZchilardan boshlab Praga lingvistik to'garagigacha[5] bo'lgan turli filologik maktab namoyondalari badiiy adabiyotning spetsifik xususiyatlari, badiiy ifoda, badiiy asarning tabiati, strukturasi va badiiy til masalalarini o'rganishning nazariy asoslari xususida diqqatga sazovor fikrlarni o'rtaga tashladilar. R.Yakobson, Y.Tinyanov, V.Vinokur, Y.Mukarjovskiy, B.Tomashevskiylar boshlab bergan badiiy matn tadqiqi V.V.Vinogradov, V.M.Jirmunskiy, V.V.Timofeyev, YE.M.Galkina-Fedoruk, R.A.Budagov, V.P.Grigoryev, I.S.Ilinskaya, A.Grigoryeva kabi tadqiqotchilar tomonidan rivojlantirilib borildi. Bugungi kunda badiiy nutq masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar qay darajada ko'p bo'lsa, badiiy matn undagi til masalalari talqini haqidagi fikr-mulohazalar ham shu darajada ko'p va turli-tumandir. Badiiy matnning mohiyati matndagi til vositalarining san'atkorona qo'llanilishi bilan bog'liq bo'lib, matndagi zohiriy va botiniy ma'nolarni anglash orqali asarning ichki va tashqi ma'nosining his etilishi badiiy asar tilining xususiyatlarini ochishga yordam beradi. Badiiy matn uchun muhim asos badiiy nutqning qurilishi bo'lib, badiiy tilning xususiyatlari adabiy tilga nisbatan belgilanadi Chunki badiiy matnga xos birliklarning tabaqalanishi va qo'llanilishi ko'pgina hollarda badiiy nutqning qurilishi bilan bog'liq bo'ladi. Badiiy matnlarda noadabiy formalarning adabiy til uchun meyor bo'la olmaydigan, badiiy ifodalarning ko'plab ishlatilishi badiiy matn bilan adabiy til orasida muayyan chegara mavjudligini ko'rsatadi. Badiiy nutq haqidagi tadqiqotlarda bu holatlar hisobga olingan holda, badiiy adabiyotning adabiy til tizimida tutgan o'rni ko'pincha nazardan chetda qolib ketadi. Badiiy nutqqa adabiy tilning o'ziga xos maxsus shakli sifatida qarash uning asosiy xususiyatlarini belgilashda muhimdir. Zero, badiiy nutqning alohida nutq turi ekanligi adabiy tilning boshqa kitobiy va nokitobiy shakllariga qiyosan belgilanadi. Badiiy nutqning til tizimida tutgan o'rni shakl nuqtai nazaridan ushbu xususiyati bilan o'lchansa, mazmunan badiiy obrazlilik, badiiy matnning mohiyatini tashkil etadi.

Shaklan badiiy nutq umumxalq tilida mavjud bo'lgan lug'aviy vositalarni o'ziga aks ettirib, til vositalarining ifodaviylik ko'lamini ko'rsatuvchi manbadir. Shu jihatdan ham badiiy nutqning adabiy til tizimida tutgan o'rni tilning boshqa shakllaridan alohida farqlanadi. Binobarin, badiiy adabiyot adabiy tilga keng ta'sir etuvchi, uni boyitib boruvchi manbadir. Darhaqiqat, jamiyat hayotida yuz beradigan voqea-hodisalar, til faktlari va undagi o'zgarishlar dastlab badiiy adabiyotda o'z aksini topadi. Badiiy

[1] Усмонов С. Кўрсатилган асар. – Б. 145.
[2] Қурбатов Х.Р. Татарская лингвистическая стилистика и поэтики. – М.: Наука, 1978. – С. 10.
[3] Якобсон Р. Новейшая русская поэзия. – Прага: Политика, 1971.
[4] Винокур Т. Маяковский – наватор языка. – М.: сов. писатель, 1943.
[5] Прага лингвистик тўгараги Чех олими Матезиус ва Р.О.Якобсон ташаббуси билан 1926 йилда Прагада ташкил топган бўлиб, тилга функционал нуқтаи назардан ёндошиш бу тўгаракнинг асосий масалаларидан бири бўлган.

adabiyot insoniyat hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan o‘ta murakkab jarayonni aks ettiruvchi manba sifatida inson tiliga taalluqli bo‘lgan barcha vositalarni o‘zida mujassamlashtiradiki, bu holat o‘z navbatida badiiy nutqning keng qamrovli va ko‘p funksiyaligidan dalolat beradi.

Ma’lumki, badiiy nutq adabiy tilga, so‘zlashuv, rasmiy, ilmiy va publitsistik nutqqa xos barcha xususiyatlarni qamrab oladi. Nutq ko‘rinishi sifatida muallif nutqi va personajlar nutqi, monologik va dialogik nutq asosida quriladigan badiiy matn umumxalq tilidagi faol va nofaol bo‘lgan lug‘aviy birliklarni cheklanmagan miqdorda qamrab olishi bois nutqning funksional turlari tizimida tutadigan o‘rnini yorqin gavdalantirishda murakkabliklar tug‘diradi. Shu boisdan ham V.D.Levin badiiy adabiyot tili yakdil ma’nodagi stilistik sistemani tashkil etmaydi va har qanday stilistik qamrovdan xoli deb hisoblasa[1], V.P.Murat «Badiiy adabiyot tili uchun butunlay xos bo‘lgan tilning umumiy xususiyati mavjud emas»[2], – deb yozadi. Ushbu fikrlardan kelib chiqilgan holda shuni ta’kidlash lozimki, zamonaviy fanning muhim belgilaridan biri o‘rganilayotgan masalaning obyektiv qonuniyatlarini hisobga olish sanaladi. Akademik I.Sulton badiiy adabiyot tilining asosiy xususiyatlari sifatida emotsionallik, ta’sirchanlik, serqatlamlik, obrazlilik kabi badiiy nutqqa xos sifatlarini alohida ajratadi[3]. Badiiy adabiyot tilining qamrovdorligi unga turlicha yondoshishga olib kelgan. Shu ma’noda yuqoridagi fikrlarni badiiy adabiyot tilining real holatidan kelib chiqqanligini inkor etmagan holda badiiy adabiyot tilining stilistik qamrovdan xoli emasligini e’tirof etish joizdir. Binobarin, badiiy matnlarda ko‘plab ko‘chma ma’noli so‘zlarning qo‘llanilishi, ko‘pma’nolilik, ifoda vositalarining turli-tumanligi badiiy matnning sinonimlarga boyligi, sinonimlarning ma’lum qismini badiiy nutqqa xosligi badiiy nutqning uslubiy imkoniyatlarini vujudga keltirishi shubhasizdir. Shuningdek, badiiy adabiyot uchun butunlay xos bo‘lgan obrazli ifodalar – badiiy nutqning alohida xususiyati ekanligini ham e’tirof etish lozimdir. Ko‘rinadiki, badiiy nutqqa xos bo‘lgan barcha xususiyatlar matn uchun umumiy xususiyatlar. Adabiyotshunos G.Imomova badiiy nutqni voqelikning ko‘zgusi sifatida talqin qilar ekan, nasriy bayonda uning mohiyatini to‘g‘ri aks ettiradi[4].

Badiiy nutq mohiyatan ta’sirchan nutq bo‘lib, ta’sirchanlik nutqning qurilishi bilan ham bog‘liq. Demak, nutqning qurilishi badiiy matnning o‘ziga xos muhim xususiyatlaridan biridir. Akademik V.V. Vinogradov badiiy adabiyot tili masalalariga oid tadqiqotlarida bir necha bor badiiy asar kompozitsiyasini (tuzilishini) o‘rganish masalasini qo‘ygan. V.V. Vinogradov badiiy adabiyotning kontekstidan tashqari asarning asosiy kompozitsiyasi semantik-estetik birligi bir butun holda adabiy asarning qurilishi ekanligini ko‘rsatgan»[5].

Ko‘rinadiki, badiiy matn va uning nutqiy qurilishi badiiy adabiyotning asosiy mohiyatini vujudga keltiruvchi belgilardan hisoblanadi. Ma’lumki, har qanday til shaklining namoyon bo‘lishi nutq bilan bog‘liq. Agar nutq qurilishi jihatdan bir-biridan farqlanmasa, unda tilning turli uslubiy ko‘rinishi ham vujudga kelmaydi. Shu boisdan ham nutq til vositalarining reallashuvidagi muhim jarayon. Binobarin, til tizimidagi barcha lug‘aviy va uslubiy vositalarning nutq turlari orasidagi tabaqalanishi ma’naviy ehtiyojning mahsulidir. Zero, til vositalarining fikr ifodalanish jarayonida tabaqalanishi nutq turlarini shakllantirganki, bu hol chuqur lingvistik qonuniyat asosida vujudga kelgan. Badiiy nutq ana shunday lingvistik qonuniyatning mahsuli bo‘lib, undagi turli-tuman ifodalar, fikrni bayon etishdagi rang-barangliklar, uslubiy va obrazli vositalarning cheklanmaganligi, sintaktik jihatdan o‘ziga xoslik badiiy nutqni nutq turi sifatida alohidaligini ta’minlagan.

Badiiy nutqni lingvistik jihatdan tahlil qilish jarayonida badiiy asar qurilishini, matnni o‘rganish, matnni badiiy nutqning muhim ko‘rinishi sifatida kuzatish zarurligi L.V.Sherbaning ilmiy qarashlarida o‘z ifodasini topgan. L.V. Sherba matnning til materiali sifatida namoyon bo‘lishini ta’kidlab, uni o‘z holidagidek, ya’ni til materiali sifatida o‘rganish lozim ekanligini qayd qiladi[6].

Demak, badiiy nutq uchun asos bo‘ladigan matnning o‘ziga xos qurilishi mavjud ekan, badiiy nutqqa stilistik qamrovdan holi bo‘lgan yoki umumiy xususiyatlarga ega bo‘lmagan nutq sifatida yondoshish to‘g‘ri kelmaydi. Zero, tilning funksional uslublarga tabaqalanishini ko‘rsatuvchi belgilardan biri nutq qurilishidir.

Nutq qurilishi fikr ifodalash uchun ham katta imkoniyat yaratadi. Chunonchi, badiiy nutqning o‘ziga xos nutq tuzilishiga ega ekanligi, fikrni ta’sirchan, obrazli ifodalash imkoniyatini yaratganki, bu hol badiiy nutqni adabiy til tizimidagi alohida, o‘ziga xos nutq ko‘rinishi sifatida shakllanishini ta’minlagan. Shu

[1] Левин В.Д.О место языка художественной литературы в системе стилей национального языка. «Вопросы культуры речи» – М., 1955. – С. 68.

[2] Мурат В.П. Об основных проблемах стилистики. – М., 1957. – С. 22.

[3] Иззат Султон. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б. 199-209.

[4] Имомова Г. Кўрсатилган асар. – Б. 28.

[5] Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. – М.: АН. 1963. – С.75.

[6] Щерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность. – Л., 1974. – С. 26.

boisdan ham M.N.Kojina nutq qurilishini funksional uslub turlarini bir-biridan ajratib turuvchi faktorlardan biri deb hisoblaydi[1]. Badiiy nutq qurilishi nuqtai nazaridan nisbatan erkin. Unda adabiy til meyorlaridagi grammatik holatlarga asoslanilganidek, ko‘pgina hollarda, grammatik qamrov doirasidan chetga chiqiladi. Bu holat o‘z navbatida badiiy nutqning yana bir muhim xususiyati – estetik ko‘lamdorligini kengaytiradi.

Badiiy nutq umumxalq tilida mavjud bo‘lgan barcha vositalarni o‘zida aks ettirganligi uchun ham adabiy tilning rivojlanish bosqichiga bevosita ta’sir etib boradi. V.V.Vinogradov badiiy nutqning umumxalq tilidagi barcha vositalarni o‘zida qamrab olishini nazarda tutgan holda, umumxalq tili negizida tushunish, idrok etish lozimligini ta’kidlasa[2], A.I.Yefimov adabiy til normasining shakllanib, stabillashib borishida badiiy nutqning muhim o‘rni borligini ta’kidlaydi[3]. Badiiy nutq adabiy til normasiga ta’sir etib boradi. Bu holat uning boshqa nutq ko‘rinishlaridan farqli ravishda turli-tuman nutqiy vositalarni o‘zida qamrab olishi asosida yuzaga keladi. Darhaqiqat, badiiy nutq adabiy tilning muhim ko‘rinishlari hisoblangan ilmiy, ommaviy nutqdan keskin farqlanganidek, tilning barcha uslubiy ko‘rinishlari uchun xos bo‘lgan vositalarni keng ko‘lamda qamrab olishi jihatdan, badiiy nutqqa yaqin turgan publitsistik nutqdan ham farqlanadi. A.I.Yefimov badiiy nutqni adabiy til tizimidagi boshqa uslubiy ko‘rinishlaridan farqlovchi muhim xususiyatlaridan biri nutqiy vositalarning turli-tumanligi ekanligini ta’kidlash bilan birga, badiiy nutq nafaqat nutqiy vositalarning tarkibi jihatidan, balki badiiy-estetik ko‘lamdorligi bilan ham adabiy nutqning boshqa ko‘rinishlaridan farqlanadi, – deb yozadi[4]. Shuning uchun ham badiiy nutq ma’lum ma’noda murakkab. Chunki u dastlab murakkab jarayon hisoblangan ijod natijasida vujudga keladi.

Akademik L.V. Sherba badiiy nutqni rasmiy-axborot nutqiga qiyoslab shunday yozadi: «Badiiy nutq rasmiy nutqqa nisbatan, shubhasiz ko‘p qirrali, biroq bu vositalar nutqda osonlik bilan vujudga kelmaydi»[5]. Badiiy nutqning muhim xususiyati shundaki, u adabiy til va adabiy til tizimiga kirmaydigan nutq ko‘rinishlariga xos lug‘aviy birliklarni birlashtiradi. Shu boisdan ham faqat adabiy til normasidagi vositalar emas, balki umumxalq tilida mavjud bo‘lgan barcha vositalar badiiy nutqda badiiy bo‘yoq vazifasini bajaradi.

Nutqning biror shakli yo‘qki, badiiy nutqdek rang-barang, qamrovdor bo‘lsa. Shu nuqtai nazardan yondoshilsa, kengqamrovlik badiiy nutqning muhim xususiyatlaridan hisoblanadi. Nutqiy vositalarning keng miqyosda qamrab olinishi badiiy nutqning imkoniyatlarini boyitadi, uni ma’lum ma’noda erkin nutq ekanligini ko‘rsatadi. Biroq nutq «erkinligi» tushunchasi badiiy nutq uchun ham nisbiydir. Chunki badiiy nutqda qo‘llaniladigan barcha lingvistik vositalar badiiy nutq madaniyati talablariga javob berib, badiiy nutqning estetik ko‘lamdorligini oshirish sari yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur.

Zero, badiiy nutqning lug‘aviy tarkibi mislsiz darajada keng va bu vositalarning ko‘pi birinchi navbatda badiiy qonuniyatlar asosida qo‘llanilganidek, badiiy qonuniyatlarni «tan olmaydigan» lug‘aviy vositalar ham badiiy matnlarning katta qismini tashkil qiladi. Shu ma’noda badiiy nutqda lug‘aviy vositalarning chegaralanmagan miqdorda qo‘llanilishi, bu nutqning lug‘aviy imkoniyatining keng ekanligini ko‘rsatadi. Bizningcha, til tizimidagi lug‘aviy vositalarning badiiy nutqda keng ko‘lamda qo‘llanilishiga sabab bo‘ladigan omillar nimalardan iborat ekanligini ochish badiiy nutqning xususiyatlarini belgilash uchun ma’lum imkoniyatlarni yaratadi. Shuning uchun badiiy nutqda qo‘llaniladigan lug‘aviy vositalarni leksik ma’no bilan bog‘liq ravishda, badiiy nutqning muhim xususiyati bo‘lgan obrazlilikni, estetik-ta’sirchanlikni uyushtirishi, turli uslubiy imkoniyatlarni vujudga keltirganligi nuqtai nazaridan o‘rganish va tahlil qilish mohiyatga yetishishning asosiy yo‘lidir.

Badiiy nutq o‘ziga xos xususiyatlari, tabiiyki, lug‘aviy va uslubiy jihatlari bilan bir-biridan keskin farqlanuvchi nutq ko‘rinishlariga ega. Obrazlilik, badiiylik jihatdan o‘zaro yaqin bo‘lgan nasriy va she’riy nutq ham ko‘pgina jihatlari bilan farqlanadi. Akademik G‘.Abdurahmonov adabiyotning har bir janrini lingvistik nuqtai nazardan shunday izohlagan: «Adabiyotning har bir janri o‘z tiliga va badiiy til vositalariga egadir. She’riy til proza tiliga nisbatan murakkab va ohangdor bo‘lib, maxsus badiiy nutq vositalari (qofiya, vazn, ritm va shu kabilar)ni taqozo etadi. Proza tili esa aniq, sodda, ravon va so‘zlashuv tiliga yaqin bo‘lishi shart».[6]

Antik ritoriklar har qanday nutqning ikki tomoni mavjudligini qayd etar ekan, birinchi muhim tomon sifatida so‘z tanlashni e’tirof etadi[7]. Ma’lumki, so‘z

[1] Кожина М.Н. Стилистика русского языка. – М.: Просвещение. 1977. – С. 65.
[2] Виноградов В.В. О языка художественной литературы. – С. 233.
[3] Ефимов А.И. Стилистика художественной речи. – М., 1961. – С. 59.
[4] Ефимов А.И. Шу асар. – С. 60.
[5] Щерба Л.В. Современный русский литературный язык // Русский язык в школе. 1939. – №4. – С. 24.
[6] Абдураҳмонов Ғ. Адабий асар тилини ўрганиш ҳақида // Ўзбек тилини ўқитиш методикаси масалалари. Тошкент: Фан, 1966. – Б. 5-6.
[7] Антычные теории языка и стиля. – С. 189.

tanlash va uni matnda qo‘llash jihatidan nutqning bu ikki turi keskin farqlanadi. Nasriy nutqda bu imkoniyat she’riy nutqqa nisbatan bir necha barovar keng. SHe’riy nutqning o‘lchovliligi, vazn va qofiya talablari so‘zlarning hamma vaqt ham erkin qo‘llanilishiga monelik qiladi. Antik ritoriklar nasriy va she’riy nutqni bir-biridan qisman farqlanuvchi, bir xil nutq deb hisoblashgan, she’riy nutq o‘lchovli va ritmik, prozaiklikdan bezakdorligi bilan qochuvchi nutq[1], deb hisoblashgan. Bezakdorlik bu nutq turlarining har ikkalasida ham mavjud, biroq nutqning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda namoyon bo‘ladi. Nasriy nutqda ham she’riy nutqqa xos xususiyatlar ufurib turadi. Bu haqda akademik Izzat Sulton shunday yozgan: «Epik turning «vakili» bo‘lgan romanda ham biz muallifning shunday mulohazalarini uchratamizki, ular o‘zlarining mazmuni, ulardagi shaxsiy kechinmalarning lirizmning quvvati jihatidan lirikaga, she’rga o‘xshash taassurot qoldiradi. Romanda tabiat tasviri lirizm bilan sug‘orilgan bo‘ladi»[2]. Bu nutq turlarini o‘zaro farqlovchilar asosan, vazn, qofiya va ritm jihatidan keskin farqlanishini e’tirof etadilar. Y.Tinyanov nasriy nutqni ritmik bo‘lmagan nutq hisoblovchilarga javoban nasrning tovush tuzilishi she’riyatning tovush tuzilishiga yaqinligini ta’kidlaydi[3]. Antik ritoriklar nasriy nutqning o‘lchovdorligi haqida nasr to‘lig‘icha nasr bo‘lmasligi kerak, unda u quruq bo‘lib qoladi, biroq u to‘lig‘icha o‘lchovdor ham bo‘lmasligi kerakligini qayd etishgan[4]. Bu fikrlar nasriy va she’riy nutqning mohiyat jihatidan bir xil asosga egaligini, shunga ko‘ra ko‘p jihatdan umumiylik xususityalari mavjudligini ko‘rsatadi. Shu bilan bir qatorda nasriy va she’riy nutqning o‘ziga xos jihatlari ham mavjud bo‘lib, bu quyidagilarda ko‘rinadi.

Badiiy nasr, avvalo, ifoda shakliga ko‘ra, ya’ni muallif nutqi, dialogik nutq va monologik nutq shaklida namoyon bo‘lishi bilan she’riy nutqdan farqlanadi. Badiiy nasrda muhim o‘rin tutadigan dialoglar haqida fikr yuritar ekan, Y.Solijonov hozirgi o‘zbek nasridagi dialoglarning ikki tipini: tasviriy va drammatik dialoglarni ajratadi. Tasviriy dialoglar suhbatdoshlardan birining ta’rif-tavsifini, xarakter-xususiyatini va hatti-harakatini ifodalashini ta’kidlab o‘tadi[5]. Aslida fikrning dialogik tarzda ifodalanishi badiiy nasrning muhim jihati, badiiy-ta’sirchanligini ta’minlash vositalaridan biri bo‘lib, o‘zbek nasri tarixi ham dialogik ifoda usuli badiiy nasrning muhim ifoda usuli ekanligidan dalolat beradi.

Badiiy nasr uchun til vositalari nisbatan erkin. Unda doimiy o‘lchovning mavjud bo‘lmasligi, qofiyadoshlikni talab qilinmasligi, personajlar nutqi orqali adabiy meyor hisoblanmaydigan so‘zlarning ko‘plab ishlatilishi badiiy nasrni muhim jihatlaridan hisoblanadi.

Nutqiy tuzilishi jihatidan badiiy nutqning bu turlari quyidagicha farqlanadi.

She’riy nutq misralardan, ya’ni alohida nutq bo‘laklaridan tashkil topadi. Badiiy nasr jipslashgan, bog‘lanishli nutq. SHe’riy nutq she’riy texnika mosligiga asoslanadi. Nasriy nutq erkin nutq, undan o‘lchovdorlik doimo talab qilinmaydi. She’riy nutq inversiyali (gap bo‘laklarining o‘rin almashishi) nutq, nasriy nutq esa grammatik jihatdan adabiy til meyorlarga mos nutq. Unda ba’zan uchraydigan gap bo‘laklarining o‘rin almashishi badiiy nasrning spetsifik xususiyatini belgilamaydi. She’riy nutq lirik nutq. Badiiy nasrdagi ko‘pgina hollar lirikaga xos emas[6].

She’riy va badiiy nutqni fikrning obrazliligi, badiiy ta’sirchanligi jihatdan bir-biriga qiyoslash maqsadga mos emas. Biroq til vositalarining qo‘llanilishi nuqtai nazaridan, fikrning ifodalanish usuli jihatidan, uslubiy vositalarga boylik, fikrni ifodalash shakli jihatidan o‘zaro farqlanish mavjud.

Badiiy nasrning muhim jihatlaridan biri o‘ziga xos badiiy ifoda shakliga egaligidir. Bu shakl bayonda hikoya uslubiga egalikda, ta’rif va tavsifning mavjudligida, ifodaning, asosan, dialogik shakllarda namoyon bo‘lishida ko‘rinadi.

Badiiy nasrda nutqning obrazli ifodalarga boyligi so‘zlarning ko‘pma’noliligi va ko‘chma ma’nolarda qo‘llanilishi, badiiy nasr uchun xos bo‘lgan tasviriy vositalarning mavjudligi nutqning bu turini o‘ziga xosligini belgilaydi.

O‘zbek badiiy nasrining lug‘aviy-uslubiy shakllanishida Rabg‘uziyning «Qissasi Rabg‘uziy», A.Navoiyning «Holati Sayyid Hasan Ardasher», «Holati Pahlavon Mahammad», «Hamsat ul-Mutaxayyirin» kabi memuar – xotiralardan iborat asarlari, Boburning «Boburnoma», Xojaning «Miftohul adl», «Gulzor», Yusuf Amiriyning «Chag‘ir va Bang», Yaqiniyning «O‘q va Yoy», Gulxaniyning «Zarbulmasal» asarlari asos bo‘lgan.

Bu asarlarning har birida badiiy nasrning mukammal namunalarini uchratish mumkin. «Qissasi Rabg‘uziy» o‘zbek badiiy nasrining ilk va noyob namunalaridan hisoblanadi. Bu asar badiiy nasrning bayon uslubini shakllanishi, ta’rif va tavsifning badiiy nasrning muhim jihati ekanligini ko‘rsatuvchi asar-

[1] Ўша асар. – Б. 190.
[2] Иззат Султон. Адабиёт назарияси. – Б. 232.
[3] Тынянов Ю. Проблема стихотворного языка. – С. 36-39.
[4] Антычные теории языка и стиля. – С. 171.
[5] Солижонов Й. Нутқ ва услуб. – Тошкент: Чўлпон, 2002. – Б. 66.
[6] Адабиёт назарияси. 1-том. – Тошкент: Фан, 1973. – Б. 66.

dir. Asarda ifoda jihatidan hikoya uslubi yetakchilik qiladi, bu usul hozirgi o‘zbek badiiy nasrining ham asosiy bayon uslubidir. Masalan, *Onasi Ismoilning yuzinga boqdi, aydi. Oytak yuzin, kuntak ko‘rkin, qalamtek ko‘zin, o‘qtak kirpukin, aqiqtak erinlarin, yinjutak tishlarin, pistatak og‘zin, qizil mengizin, silig‘ yuzin, bo‘ynin quchub, o‘pub aydi.* Ushbu matn hikoya tarzidagi nutqdan iborat bo‘lib, undagi tasvirlash, o‘xshatish matnning badiiy ifodalanganligini ko‘rsatadi. Yuzni – oyga, ko‘rkni – quyoshga, kiprikni – o‘qqa, lablarni – aqiqqa, tishni – injuga qiyoslanishi o‘zbek badiiy nasri uchun an’anaviy ifodaga aylangan. «Qissasi Rabg‘uziy» badiiy nasrning muhim mezoni bo‘lgan badiiy ifodaga boy asarlardan. Masalan, *Bu kun Kun otlig‘ sulton Hut otlig‘ qishloqdin Hamal otlig‘ yozg‘a o‘g‘radi. Adiz ko‘k yig‘lar, yag‘ir yer kular. Bulutlar yosh oqitsa yosh o‘g‘lon onadin tug‘artek yosh yashab o‘lgan qora yerdin ko‘k, yosh o‘tlar unar.* Bu parchada hut oyining tugab, hamal oyi kirganligi, kunning uzayib boshlagani, yomg‘ir yog‘ib yerning yashnashi, o‘tlar unib chiqishi tasvirlangan. Tasvirdagi kunning Sultonga, hut oyining qishga, hamalning bahorga tegishliligi tasviri, Bahorda yomg‘ir yog‘ishining ko‘k yig‘isi sifatida ifodalanishi, ko‘k yig‘laganda yerning kulishi (yashnashi), bulutlarning yomg‘ir hosil qilishini yosh oqizishga qiyoslanishi, bulutlar yosh oqizganda ko‘m-ko‘k yangi o‘tlar unib chiqishini onadan yosh o‘g‘lon tug‘ilishiga qiyoslanishi, yomg‘ir yog‘ishini ko‘k yig‘lar, yomg‘irdan so‘ng o‘tlar unib chiqishini yer kular kabi metaforik ifodalar orqali ifodalanishi badiiy ifoda bo‘lib, nasrning badiiyligini belgilovchi muhim omildir.

Mubolag‘a badiiy nasrning yetakchi ifoda usullaridan, bu san’atning ham noyob namunalarini «Qissasi Rabg‘uziy»da uchratish mumkin. *Ko‘rmasmusan Kun otlig‘ malik bir tun yoriminda odiz ko‘ktin yag‘iz yerga ko‘rkluk yuzni ko‘rgalu yuzun tushsa! Yusufg‘a sajda qilu keldi.* Matndagi kunning tunda Yusufning chiroyli yuzini ko‘rish uchun turishi *adiz ko‘k, yag‘iz yer, ko‘rkluk yuz* kabi tasviriy ifodalar matnning badiiy bo‘yoqdorligini kuchaytiruvchi badiiy nasrga xos ifoda usullaridir.

Badiiy tasvir badiiy nasr poetikasining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, matnning badiiy-bo‘yoqdorligi, estetik-ta’sirchanligini ta’minlovchi muhim omil. Keltirilgan matnlardagi badiiy tasvirlar «Qissasi Rabg‘uziy» asarining badiiy ifodalarga boy badiiy nasr namunasi ekanligidan dalolat beradi.

Badiiy nasr nutqiy qurilishi jihatdan muallif va personajlar nutqi qorishmasidan iborat bo‘lgan nutqiy shaklga ega. Adabiyotshunos Y.Solijonov muallif nutqi bilan personaj nutqining chatishuvi nasriy asar poetikasining muhim xususiyatlaridan biri ekanligini e’tirof etadi[1].

Nutqning dialogik shaklda bo‘lishi badiiy nasrning boshqa nutq turlaridan ajratib turuvchi muhim jihatlaridandir. *Sulaymon taxtdin indi, qarinchqani undadi. Aydi: «Ey qarinqcha qarinchqalarni naluk qachurding? Qarinchqa aydi: Sen maliksen, men ham malikmen. ...Sulaymon aydi: «Andoq cherikingni naluk qachirding?» Aydi: «Sening cheriking kecharda bilmayin bosqaylar. Ular halok bo‘lg‘aylar deb qachirdim».* Bu matn muallif va personajlar nutqining chatishuvidan tashkil topgan, dialogik nutq shaklidagi matn. Matndagi Sulaymon va Qarinchqa so‘zlashuvi badiiy nasrda uchraydigan intoq san’atining ilk namunasi hisoblanadi. Keyinchalik bu san’at Yusuf Amiriyning «Chog‘ir va Bang», Yaqiniyning «O‘q va Yoy», Gulhaniyning «Zarbulmasal» asarlarida qo‘llanilgan va badiiy ifodaning muhim ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘lgan. Hozirda badiiy nasrning ertak janrida bu badiiy san’atning mukammal namunalarini uchratish mumkin. Hozirgi o‘zbek nasrining muhim tasviriy vositalari hisoblangan metafora, o‘xshatish, sifatlash, jonlantirish badiiy nasr uchun an’anaviy vositalar bo‘lib, bu badiiy san’atlarning ham mukammal namunalarini «Qissasi Rabg‘uziy» asarida uchratish mumkin. Masalan, *...kirpuklari o‘qtek, yuzi kuntek, yoruq yanoqlari qizil nortek, engi qumiyur, qaroqlari qinayur, aqiq erkinlik, tishlari gavhartek, tor og‘izlik, so‘zi suchuk, o‘zi silig‘, qilig‘i tuzun, beli ingichka, surati bu, sifati bu teyu un qildi.* Bu matnda kipriklar – o‘qqa, yuz – kunga, yanoqlar – qizil norga, tishlar – gavharga o‘xshatiladi, predmet narsaning muhim xususiyatlari *yoruq yanoq, qizil nor, aqiq erkinlik, tor og‘iz* kabi sifatlashlar yordamida aniq ifodalanib, insonning yuz tuzilishining badiiy tasviri yaratiladi. Zulayxo aydi: «Ul yana bir bo‘stonda chechaklar suvsiz qolmish, so‘lmish, anga suv bergil» gapida esa *chechak* so‘zi ko‘chma ma’noda Zulayxoni ifodalashda qo‘llanilgan.

«Qissasi Rabg‘uziy»ning ifoda usuli, ifoda shakllari, bayon tarzi, tasviriy vositalar qo‘llanilishi hozirgi o‘zbek badiiy nasrining uslubiy jihatdan shakllanishi uchun muhim asos bo‘lganidek, badiiy nasr uchun tabaqalangan, badiiylik belgisi bilan ajratiladigan *chechak, yonoq, bitik, ko‘k, g‘orat, g‘addor, cherik, farah, faryod, ezgu, ezgulik, ko‘ks, aro, bisyor, inonmoq, so‘rdi (so‘ramoq), birla (bilan), mubtalo (bo‘lmoq), jilva (qilmoq)* kabi so‘zlarni «Qissasi Rabg‘uziy»da uchratish mumkin. Bu muayyan tipdagi so‘zlarning badiiy nasrda qo‘llanilishi an’anaviy tus olganligidan dalolat beradi.

Nutqning mohiyatini belgilaydigan asosiy vositalardan biri ifoda usuli jihatidan o‘ziga xosligidir. Shu nuqtai nazardan badiiy nasr cheksiz imkoniyatlarga

[1] Солижонов Й. Кўрсатилган асар. – Б.39.

ega bo‘lib, unda fikrni rang-barang nutqiy shakllar orqali bayon etish imkoniyati kuchli. Nutqning ifoda shakli badiiy-obrazlilikni, bo‘yoqdorlikni ta’minlash uchun keng yo‘l ochib beradi. Obrazli ifodaning mavjudligi badiiyatning muhim belgisi bo‘lib, badiiy nasrning bosh mezonidir.

XVIII asrning oxiri XIX asrning birinchi yarmida yashab o‘tgan Muhammad Sharif Gulxaniyning «Zarbulmasal» asari ham shu jihatdan o‘zbek badiiy nasrining nodir namunalaridan bo‘lib, nasriy nutq umumxalq tilining ma’no ifodalash doirasi kengligini, lug‘aviy bo‘yoqdorligini namoyon etuvchi nutq ekanligini ko‘rsatuvchi asarlardan biridir. «Zarbulmasal» ifoda xususiyati jihatdan o‘ziga xos, takrorlanmas bo‘lib, unda qahramonlarning xususiyatlari bir-biri bilan o‘zaro muloqot davomida ochib berilgan.

«Zarbulmasal» badiiy ifodalarga boyligi, til vositalaridan badiiy obraz, badiiy tasvir yaratish maqsadida mahorat bilan foydalanilgan badiiy nasr namunasidir. Jumladan, asardagi Boyo‘g‘li maskanining tasviri badiiy ifodaning go‘zal namunasi sifatida o‘quvchiga badiiy-estetik zavq bag‘ishlaydi. *Ammo aning havosi xush va bodi dilkash. Sabza rayohin, anvoyi gullar, chechaklar kasratidin qo‘rg‘ong‘a qo‘ng‘on chog‘da tovusning parlaridek turlanib, munaqqash ko‘rinur erdi...* («Zarbulmasal») Matnda Boyo‘g‘li maskaninig havosi yoqimli, shabadalari dilni yayratuvchiligi, maysa va rayhonlarning ko‘pligidan turli-tuman bo‘lib ko‘rinishidan tovus patlariga qiyoslanishi, ushbu qiyosning vujudga kelishi uchun asos bo‘lgan *sabza rayohin, bodi dilkash, anvoyi gullar, chechaklar kasratidan* kabi ifodalar badiiy ifoda shaklining hosil bo‘lishiga olib kelgan. Asardagi Boyo‘g‘li qizining tasviri ham obrazli ifodaning namunasi bo‘lib, badiiy nasrning muhim belgilaridan biri shu xildagi ifodalar ekanligidan dalolat beradi. Masalan, *Boyo‘g‘lining bir qizi bor erdiki, mehri xovoriy yuziga banda erdi.* Bu ifoda badiiy nasrda mubolag‘a san’ati namoyon bo‘lishining namunasidir. YA’ni qiz shu darajada go‘zalki, uning husniga Sharq quyoshi ham bandi. Tasvir jarayonida qizning oftobdek (quyoshdek) tovlanishi, pazandaligi va kunduzi ko‘rinmasligi quyidagicha tasvirlangan. *Va ul qiz oftobi olam tobdek har xomni pishirub, hech maxluq ani kunduzi ko‘rmoqqa chorasi yo‘q edi.*

Yozuvchi bu tasvir orqali ikki narsaga diqqatni tortadi. Birinchidan, qiz shu darajada go‘zalki, unga qarashga ko‘z qamashadi, qarab bo‘lmaydi, shu bois uni kunduzi ko‘rishga chora yo‘q. Ikkinchidan, asardagi obrazlar ramziy Boyo‘g‘lining kunduzi o‘zini ko‘rsatmasligiga ham ishora bor.

Badiiy nasrning muhim xususiyatlaridan biri fikr ifodalash jarayonida boshqa narsalarga ishora qilinishidir. Bunday ifoda uslubi shubhasiz, badiiylikni, ta’sirchanlikni ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Tabiat, biror narsa-hodisani tasvirlashda uning barcha belgilarining izohlanishi badiiy nasrning muhim xususiyatlaridan bo‘lib, «Zarbulmasal»-da ham ana shunday tasvirlarni uchratish mumkin. Masalan, *Alqissa Yapaloqqushning bir Qarg‘a do‘sti bor erdi: SHo‘ranul, qushlar ko‘zig‘a go‘l, o‘z ishig‘a pishiq, haromzodai tarror, o‘g‘ri mishiq, harif ayyor solor, davlatmandlar asnofida mumsik beor, har murda ustida tayyor...* Mazkur matndagi SHo‘ronul ta’rifi unga xos muhim xususiyatlarni ochib berishga qaratilgan, bu hol ham badiiy nasrda tasvir uslubi fikr bayon etishdagi muhim usullardan ekanligini ko‘rsatadi. Matnda nasrdagi qofiya – *pishiq, mishiq; tarror, ayyor, solor, beor,* tayyor usulidan ham foydalanilgan bo‘lib, zamonaviy o‘zbek nasrida ham bu san’atdan foydalanib turiladi. Asarda uchraydigan *qurratul ayn, tole garduningiz burji, saodat partovlik masturalik sadafi, nozparvar mahliqo qiz, ro‘zg‘or qizlarining avlolari* kabi obrazli ifodalar badiiy nasrda bayon uslubining nafisligini, badiiy-ta’sirchanligini ta’minlanishining mezonidir. O‘zbek mumtoz badiiy nasrining mavjud ifoda usullari bugungi badiiy nasrning uslubiy shakllanishi uchun asos sifatida xizmat qilgan.

Resume. Badiiy nutq adabiy tilning obrazlilik, estetik ta’sirchanlik va ifodadorlik imkoniyatlarini keng qamrovda namoyon etuvchi asosiy manba hisoblanadi. U til vositalarining qo‘llanilishi nuqtayi nazaridan erkin bo‘lib, unda umumxalq tilida mavjud barcha til birliklaridan samarali foydalanish imkoniyatlari mavjud. Maqolada badiiy nutqning shakllanishi haqida fikr-mulohazalar bildirilgan.

Resume. Artistic speech is the main source that broadly demonstrates the possibilities of imagery, aesthetic impact, and expressiveness of the literary language. It is free from the point of view of the use of language tools, and it has the opportunity to effectively use all language units available in the common language. The article expresses opinions on the formation of artistic speech.

Резюме. Художественная речь является основным источником, широко демонстрирующим образность, эстетическое воздействие и выразительность литературного языка. Она свободна с точки зрения использования языковых средств и имеет возможности эффективного использования всех языковых единиц, существующих в общенародном языке. В статье высказываются мнения о формировании художественной речи.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 11-12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

QORAQALPOG'ISTON O'ZBEK SHEVALARI LEKSIKASI TADQIQI MASALASI

Ibragimov Yuldash Matkarimovich,
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogia instituti
o'zbek tili kafedrasi professori,
filologiya fanlari doktori

Dialekt va shevalarni tadqiq etish xalqning tarixi, etnogenezi, etnik yashash yo'li, mazkur hududning madaniy, iqtisodiy turmush tarzi bilan uzviy bog'liq ravishda qaraladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi o'zbek shevalari leksikasini tadqiq etish borasida etnik guruhlarning tarqalish holatlari, ularning qanday tarmoqlarga bo'linish masalalari qisqacha bayon etiladi.

Dialektlarni tadqiq etish ishi juda muhim, chunki dialektlar ilmiy jihatdan adabiy tilning moddiy bazasiga manba sifatida baholansa, ular hozirgi adabiy til leksikasini boyituvchi manbalardan biri sifatida tan olinadi.

Til jamiyatning rivojlanishi uchun xizmat qiladi. Ushbu jarayon davomida u sayqal topadi, ma'no jihatdan kengayadi. Tilning rivojlanish holatini jamiyatning rivojlanishi belgilaydi, jamiyatning tarixini, o'sha tilda so'zlashadigan xalqning tarixini bilmasdan, tilning rivojlanish tarixini tushinish mumkin emas[1]. Demak, har qanday tilni, dialekt va shevalarni, uning taraqqiyot yo'lini o'rganish uchun, o'sha tilning egasi bo'lgan xalqning o'tmishdagi hayot yo'liga e'tibor qaratish lozim.

Dialektlarni o'rganishning ahamiyati haqida mashhur turkolog P.M.Melioranskiy ham juda ahamiyatli fikr bildirib, uni o'rganish qadimgi estaliklarni bilishga, til tarixini tadqiq etishga juda foydali ekaniga alohida e'tibor qaratgan edi[2].

Xalqning o'tmishda kechirgan hayot yo'li bir qancha tarixiy sharoitlarni yechib berishga yordamlashadi, bir xalq tilida bir qancha dialektning paydo bo'lishi haqida ma'lumot olish imkonini beradi. Masalan, o'zbek tilining o'g'uz va qipchoq lahjalaridan misol keltiraylik. Qipchoq lahjasi Amudaryoning quyi qismida, uning ikki qirg'og'iga qator-qatora joylashib, makon etgan o'zbek xalqining o'tmish tarixi bilan sug'orilib, o'zining leksik tarkibi bilan asosiy leksik fondi ko'p boy so'zlarni to'plasa, o'g'uz dialekti, asosan, uning leksikasi ham shunday yo'lni o'tdi. Xalqning og'zaki so'zlashish tilining boyligini yig'ish, tadqiq etish, boshqa dialekt va shevalarga solishtirib, o'zaro solmog'ini belgilash mas'uliyatli ish. Har bir adabiy tilning dialektal bazasini tadqiq etish davrida deydi: N.A.Baskakov, - hozirgi aniq tarixiy sharoitlarni, uning barcha taraqqiyot jarayonini e'tiborga olish lozim[3].

Keltirilgan metodologik holatlarni hisobga olib, Qoraqalpog'iston Respublikasi o'zbek shevalari lug'at tarkibi taraqqiyoti xalqimizning o'tmishdagi tarixiy bosqichlari bilan teran bog'lab, tadqiq etishni ma'qul ko'rdik. Qoraqalpog'iston Respublikasi o'zbek shevalari lug'at tarkibi taraqqiyotining tarixiy sharoitlari o'zining asosiy belgilari bo'yicha, O'rta Osiyodagi asosiy turkiy tillar bo'lgan o'zbek, qoraqalpoq, qozoq, turkman tillari leksikasining rivojlanish sharoitlari o'xshash bo'lib keladi»[4]. Bu holat dialektal leksika uchun ham tegishlidir.

Bundan tashqari, «Orolbo'yi o'zbek shevalari tadqiqi» (Ibragimov.,1992,34-48) nomli monografiyamizda masalaning o'rganilish tarixiga alohida bob ajratilgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasida istiqomat qiluvchi xalqlar bir daryodan suv ichib, bir havodan nafas olib, tarixning barcha davrlarida birga bo'lgan, yonma-yon qadam tashlab, turmushning shodu xurramligi, g'am-u g'ussasini teng totgan xalqlardir. Shuning uchun ham, ularning tili, tarixi, dini, milliy qadriyati, dili, tagi azal-azaldan mushtarakdir. Ular qadimda qipchoq ittifoqi davrida «92 ***bovli qipchoq"***, Oltin O'rdaning mashhur xoni O'zbekxon davrida «92 ***bovli o'zbek",*** **«92 bovli urug'-turk"** deb atalgan. Bu davrda ularning etnik tarkibiga mo'g'ul tip etnik guruhlar ham aralashganlar. Ya.G'.G'ulomov, N.A.Aristov, N.A.Xanikov, S.P.Tolstov, T.A.Jdanko,

[1] Чикобаева А.С. Введение в языкознание, ч.1. – М., 1952. – С.78.
[2] Мелиоранский П.М. Араб-филология турецком языке. – СПб,1909. – С. 1-11.
[3] Баскаков Н.А. Выступление по докладам во время регионального совещания по диалектологии тюркских языков. – Баку, 1956. – С.167.
[4] Баскаков Н.А. Состав лексики каракалпакского языка и структура слова. «Исследования по сравнительной грамматике тюркских языков», IV, Лексика. – М., 1962. – С.69.

S.Kamolov, X.D.Doniyorov, Sh.Shoabduraxmonov, F.Abdullaev, B.Jo‘raev, O.Madraximov, E.O‘rozov, V.Egamov, D.Nosirov, M.Valiev, R.Qo‘ng‘urov, M.Axmedov, O‘.Bekbaulov, Z.Do‘simov, O‘.Dospanov, Q.Abdimuratov, Yu.M.Ibrohimov va boshqa olimlar turkiy xalqlarning 92 bovlidan tashkil topganligini har tomonlama asoslab berganlar. Turkiy xalqlarning, jumladan, o‘zbek xalqining ham 92 bovli urug‘-qabiladan tashkil topganligi haqida ularning og‘zaki ijod namunalari, shajaralari, ayrim shoirlarning asarlarida ham qimmatli va boy tarixiy ma’lumotlar mujassam. Masalan, XVII asrda yashab ijod etgan buyuk shoir Turdi (Farog‘iy) ham o‘zbek eloti ***92 urug‘-qabilaning*** birikuvidan tarkib topganligini ta’kidlab:

Tor ko‘ngillik beklar, man-man demeng, kenglik qiling,

To‘qson ikki bori (bovli) o‘zbak yurtidur tenglik qiling, - deb ularni birlashishga, inoq, totuv, hamjihat yashashga chaqiradi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida qadimdan o‘zbeklarning *qo‘ng‘irot, qipchoq, nayman, mang‘it, xitoy, kanagas, qangli, qurbanoq, qiyot, qatag‘on, tartuvli, bo‘gajəli, qarg‘asha, xonjig‘ali, qo‘shtamg‘ali, kerayit, qo‘lop, joloyir, uyshun, uzun, kinik, boysun, bolg‘ali, muytan, no‘kis, no‘g‘ay, do‘rman, ochamayli, sag‘ir, sarsan, djaqayim, chanchqili, shirin, sayot, bayot, juvondir, avshar, bijanak, chandir, saxtiyan, uyg‘ur, qarapoq (qoraqalpoq), alosh (qozoq), turqmon, igdir, saripo‘stin, qorachakman* kabi urug‘-qabilalar birga yashab keladilar. Bu urug‘-qabila nomlarining ko‘pi hozirgi vaqtda qoraqalpoq, qozoq, tatar, turkman, nug‘ay, qirg‘iz, uyg‘ur, boshqurd, qo‘miq, qorachoy, balqor, xakas, cho‘lim, chuvash xalqlari o‘rtasida ham aynan uchraydi. O‘zbeklar orasida o‘zlarining qaysi urug‘-qabilaga mansubligini farqlash hozirgi vaqtda faqat qariyalar uchungina xosdir. Qoraqalpoq, qozoq, qirg‘iz, turkman, boshqirdlarning kattasidan-kichigigacha o‘zlarining qaysi urug‘ yoki qabila, to‘b, bo‘lakka tegishli ekanligini yaxshi ajratib bera oladilar.

N.A.Aristov Markaziy Osiyo jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi urug‘-qabilalar tarkibini tadqiq etish butun turkiy xalqlarning etnik tarkibini bilib olishga yo‘l ochishini, qipchoq o‘zbeklari tarkibida alohida-alohida qadimgi turkiy qabilalarni uchratish mumkinligini batafsil bayon etadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi turkiy xalqlarda «***Tumanlining tubi bir, tub otasi Mayqibiy***» - deb (Amu va Sir daryolarning quyi oqimida yashovchi barcha turkiy xalqlar) o‘zlarini ***tumanli*** deb ataydilar. Ular shajaralarida ham o‘zlarining kelib chiqishini bir manbaga bog‘laydilar. Masalan, qoraqalpoq xalqining mumtoz shoiri Berdaq o‘z shajarasida: *Mo‘ytan, Qo‘ng‘irot, Xitoy, Qipchoq, Kenagas, Mang‘it* ipakdek bari olti urug‘ qoraqalpoq o‘zbekdan ajralgan ekan...”,[1] - deb yozadi. Biz bu o‘rinda Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi o‘zbek shevalari vakillari nutqidan yozib olgan shajarani fikrimizning tasdig‘i sifatida keltirishni ma’qul ko‘rdik.

Shajarada bayon qilinishicha, Anas Sahobadan Mug‘oz degan o‘g‘il tug‘iladi, Mug‘ozdan Jo‘bol, Jo‘boldan Suxayl degan o‘g‘il dunyoga keladi. Suxaylning Oqcho‘lpon degan xotinidan Otar va Tatar degan ikki o‘g‘il tug‘iladi. Otardan Estek va Boshqiz (Boshqird) degan bolalar bunyod bo‘ladi. Tatardan esa No‘g‘ay tug‘iladi. Suxaylning ikkinchi xotini Quraydan Duyim va Olomon degan ikki o‘g‘il dunyoga keladi. Duyimdan Tuman, Tumandan Turke, Turkedan Tanas, Tanasdan Turmiz, Turmizdan Anji, Anjidan Dat kelib chiqqan. Olomondan esa, Jeyilxon va Seyilxon degan o‘g‘illar tug‘iladi. Seylixondan sakkiz aris (sakkiz qabila, bo‘g‘im) turkman kelib chiqqan. Jeyilxondan Mayqibiy degan bir bola, Mayqibiydan O‘zbek va Jonibek degan bolalar dunyoga keladi. O‘zbekdan hozirgi o‘zbeklar kelib chiqqan. Jonibekdan Ayriqalpoq degan bir bola, Ayriqalpoqdan Olosh (qozoqning otasi), Qirg‘iz, So‘zoq ajralib chiqqan. So‘zoqdan qoraqalpoq ajralib chiqqan, (Bu shajara 1966 yil Xo‘jayli tumani, Aeroport ko‘chasi, 26-uyda yashovchi Kumisboy Alpisboev tilidan yozib olindi). Bu bir muncha afsonaga o‘xshab ko‘ringani bilan «Har *qanday afsonaning asosida haqiqatlik yotadi deganlaridek*», turkiy xalqlarning genetik yaqinliklarini izohlashda yaqindan yordam berishi aniq.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi xalqlari o‘rtasida asr-asrlardan davom etib kelayotgan qon-qarindoshlik, hamkorlik va do‘stlik munosabatlari rishtasi mustaqillik ato etgan ne’matdir. Viloyat, tuman, qishloq kengashlarining hisob ma’lumotlariga nazar tashlasak, o‘zbek-qoraqalpoq; qozoq-o‘zbek, qoraqalpoq-qozoq, qozoq-turkman kabi aralash, nikohlar miqdori 25-30 foizdan ziyod.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining intensiv rivojlanish davri avval xorazmiylar, keyinroq o‘g‘uz va qipchoqlar nomi bilan bog‘liq. Shu tufayli mazkur mintaqadagi turkiy tillarning barchasi uchun umumiy bo‘lgan qadimiy xorazmiy tilining substrat hodisasi saqlangan. Masalan, ***həz*** kayif, ***yap*** ariq, ***solma*** ariqcha, ***sarxum*** –tojik. *sar* bosh, *xum* – suv soladigan sopol idish;

otiz – ekin ekiladigan maydon, dala;
chel marza, ***zenggi*** norvon;
adan - eshikdan kirgan joy, poygoh;
adrasman - isiriq;

[1] Ахметов С., Исмаилов Б. Бердақтың «Шежере» шығармасыныңда қарақалпақ урыулары тарыхына қатнасы. – Сабақлық. Қарақалпақстан, 1990.

Gəldimiyan, Durbədik, Mazdubast, Mizdakxon, Zamaxshar, Gəvγrqal'a, Chilpiq, Hojimuluq\Əjimullq (Hoji momo o'gli) *Izmuxshir (Zamaxshar)* kabi tarixiy nomlar toponimlar saqlanib kelmoqda. Ushbu tarixiy er-suv nomlarini avaylab, asrab saqlab qolish lozim.

Rezyume. Ushbu maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasi o'zbek shevalari leksikasini tadqiq etish borasida etnik guruhlarning tarqalish holatlari, ularning qanday tarmoqlarga bo'linish masalalari va sheva vakillari nutqidan yozib olgan shajarani keltirishni ma'qul ko'rdik.

Resume. In this article, we found it appropriate to present a genealogy recorded from the speech of dialect speakers, as well as to examine the distribution of ethnic groups in the Republic of Karakalpakstan, their subdivision into various branches, and the study of the lexicon of Uzbek dialects.

Резюме. В данной статье мы рассмотрели целесообразным привести родословную, записанную из речи носителей диалектов, а также рассмотреть вопросы, связанные с распространением этнических групп в Республике Каракалпакстан, их делением на различные ветви и исследованием лексики узбекских диалектов.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 11-12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ДЕВОНИ ФОНИЙ ҒАЗАЛЛАРИДАГИ БЕСУТУН АТАМАСИНИНГ ТАҲЛИЛИ

Шариф Ёкубов,
Термиз давлат университети
ўзбек тили ва адабиёти кафедраси доценти,
филология фанлари номзоди

Алишер Навоийнинг тожик тилида ёзилган назмий асарлари жам қилинган "Девони Фоний" китобида ҳам Бесутун атамасидан унумли фойдаланади. Ўзбек тилидаги ғазалларидаги каби Бесутун атамаси Фарҳод номи билан деярли ёнма-ён қўлланилади. Шоир асарларида Фарҳоднинг кечмишлари тоғу тошларда ўтганлиги туфайли унга нисбатан "тоғ аҳли" бирикмаси ҳам қўлланилади. Мажнуннинг саргўзаштлари чулу биёбонда ўтганлиги учун "дашт аҳли" бирикмаси қўлланилади.

Алишер Навоий устозларининг асарларига жавоб сифатида татаббуълар ҳам ёзган. Татаббуъ бирор шоирга эргашиб устоз қаламига мансуб шоирнинг услубини сақлаган ҳолда унга жавоб қилмоқ ҳисобланади. Шоир устозларининг асарларига ўз ҳурматини ифодалаган ҳолда татаббуъ ёзади. Навоийнинг бу усулга қанчалик жиддий аҳамият берганлигини "Девони Фоний" мисолида ҳам яққол ҳис этиш мумкин. Девондаги 554 ғазалнинг 361 таси татаббуъ жанридаги шеърлар бўлиб, устозлари: Хофиз, Жомий, Амир Хусрав, Саъдий, Абдураҳмон Котибий, Мавлоно Шоҳий, Камол Хужандий ғазалларига қилинган татаббъулар[1] ҳисобланади.

Ба Кӯҳкан нигару Бесутун, ки он гуй
Дили тапандаву ин як ғами гарони ман аст. **(ДФ, 77)**

Бизнинг диққатимизни ўзига тортган ушбу байт шоирнинг Амир Хусрав Деҳлавийга татаббуъ қилиб ёзилган ("Татаббуъи Мир ғазалидан олинган).

[1] Ёқубжон Исоқов. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014. –Б. 225.

Ушбу ғазал шоирнинг маъшуқаси томонидан кўрсатилган жабру ситамлардан зорланишини ифодалайди. Олдинги байтларда турли воситалар ёрдамида ўзининг руҳий кечмишларини ифодалаб келган шоир ушбу бандда Бесутун ва Кўҳкан образларига мурожаат қилади. Севикли ёр томонидан етказилаётган озорни Кўҳкан образи орқали ифодалайди. Кўҳкан (Фарҳоднинг лақаби)нинг Бесутун тоғини майдалаётгани, уни ковлаш учун тешаси билан тоққа берилаётган ҳар бир зарбаси тоғ қаърини емиради. Унинг ҳар бир зарбаси тоғ жинсларига таъсир қилади. Унга зил кетади. Шоирга гўзал маҳбубанинг эътибор бермаслигидан зорланиши баён этилади. Маъшуқа томонидан етказилаётган азоб-уқубатни Фарҳод тешасининг зарбига қиёс қилади. Кўҳкан тешаси тоғ жинсларига қанчалик зарб берса, ёрнинг етказаётган ситам, азоб ва изтироблари шоирнинг қалбини шунчалик ларзага келтиради. Кўҳкан ураётган теша менинг юрагимга урилаётган зарбадир. Фарҳод тешасининг ҳар бир зарби бу менинг юрагимни ларзага келтиради.

Ўзбек мумтоз адабиётида мавҳум нарсаларни ҳаётий нарсаларга, воқеаларга қиёслаб ўрганиш ўша нарсанинг моҳиятини англаб олишга ёрдам беради. Ўтмишдаги буюк алломалар, хусусан, Ал-ҳаким Ат-Термизий ҳазратлари ҳам Муҳаммад с.а.в.нинг ҳадисларини тушунтиришда ундан ўринли фойдаланган. Имоннинг кўпайиши ва камайиши ҳакидаги мунозарани фарқлашда қуёш нурининг камаймаслиги, аммо қуёшнинг ерга тушиб турган нури қуёш билан ер ўртасида булутлар пайдо бўлса ердаги қуёш нурининг хиралашиши мисолида тушунтирган эди[1]. Алишер Навоий ҳам мавҳум фикрларни, хусусан бевафо ёр томонидан етказилган жабру ситамларни баён этишда бу усулдан самарали фойдаланади. Бу ҳакда таниқли навоийшунос Нусратулла Жумахўжанинг қуйидаги фикрлари жуда муҳимдир. “Шоирнинг маҳоратига қойилки, у мавҳум, сирли нарса ва хусусиятларни ҳаётий ҳодисалар билан қиёслаш воситасида аёнлаштириб ҳайратомўз тарзда тасвирлаб беради”[2].

Ғазалнинг ҳар бир байтида турли хил нарса ва ҳодисалар асосида маҳбуба томонидан етказилаётган жабру ситам ҳақида фикр юритилади ҳамда у Фарҳод ва Бесутун тоғидаги воқеаларга қаратилади. Фарҳоднинг тоғ қаърига ураётган ҳар бир зарбаси Бесутун тоғига эмас, менинг юрагимга урилаётган зарбадур деб зорланади. Бесутун атамаси шоир қалбига етказилаётган жабру ситамни курсатиш воситаси бўлиб хизмат қилади. Ғазалнинг 4-бандида маъшуқа томонидан етказилаётган ситам Кўҳкан тешаси томонидан Бесутун тоғи қаърига етказилган зарба шоирнинг юрагига урилаётган зарбага қиёс қилинади. Бу зарба шоирнинг қалбини ларзага келтиради.

(Сийнаи ман кўҳи ғам...)

Сийнаи ман кўҳи ғам меканам аз нохунаш,

Бори билам Бесутун, ман ба тахаш Кўҳкан. **(ДФ-1-Ж.186.)**

(Мазмуни: Кўксим ғамнинг тоғи, уни тирноқ билан қазийман,

Дилим юки Бесутун тоғи, мен унинг остида тоғ қазувчи Фарҳодман).

Юқоридаги бандда лирик шоир ўз кўксини ғам тоғига қиёс қилади. У тоғни тирноғи билан қазийди. Шоирнинг кўкси шундай жафокашки, у тоғга ўхшатилади. Бу тоғ ғам ва изтироблар билан тўла. Ушбу тоғни тирноғи билан қазийдики, бу ғам тоғи туганмасдир. Бу ерда ғам ва изтироблар макони кўкси билан дили (қалби)даги оғир юк Бесутун тоғига қиёс қилинади. Ғам тоғи кўксини тирноқ билан қазиса, қалбидаги юкни тирноқ билан эмас, тоғ қазувчиси Кўҳканнинг тешаси билан қазийман деган фикрни айтиб, қалбидаги ғам-ташвишларининг чексизлигига ишора қилади. Бу ерда ҳам тирноқ ва Кўҳкан тешаси билан кавлаш деталлари орқали ишқнинг даражасини, маъшуқа етказган жабру жафо туфайли ошиқ чекаётган изтиробларни бўрттириб кўрсатиш имконини яратади. Мумтоз адабиётда ғамни тирноқ билан қазиш иборасини қўллаш анъна тусига кирган эди. Бу ибора ошиқ чеккан туганмас ва чексиз ғамга нисбатан ишлатилади. Навоий яна бир ғазалида ушбу иборани:

Решлар кўксумда кўр, Фарҳод баҳсин кўйким, ул

Қозмади мендек бало тоғини тирноғи била. **(FC-377)**

бандида ҳам мувоффақиятли қўллайди. Ушбу байтда лирик шоир ўз қисматини Фарҳод билан таққослайди. Тирноқ билан ғам тоғини қазимоқ ибораси ойдинлашади. Байт мазмунидан сезилиб турилишича, Фарҳод ўз мақсадига етишиш йўлида тоғни тешаси билан ковлаш эпизоди назарда тутилади. Кўксимдаги решлар (жароҳат)ларга боқиб кўр, менинг қисматим тоғу тошларни ўз тешаси билан қазиган Фарҳод баҳси менинг изтиробларим олдида ҳеч гап эмас. Фарҳод ғам тоғини ўз тешаси билан қазиса мен Бесутундай қалбимни тоғ қазувчи Кўҳкандай қазийман. Фарҳод тешаси билан, мен эса тирноғим билан ковлайман. Кўксини тирноқ билан ковлаш одати

[1] Ал-Ҳаким Ат-Термизий. Нодир масалалар. –Тошкент: Мовароуннаҳр, 2007. – Б. 10.

[2] Нусратулло Жумахўжа. Ўлтурур маҳрами султон...// Навоий ғазалиёти талқинлари.–Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – Б.70.

ҳозирги кунда Сурхондарё ҳудудларида сақланиб қолган бир удумни эслатади. Оғаси автомобил ҳалокатига учраб жароҳат олган аёл касалхона ёнида юзини шу даражада тимдалаб ташлаган эдики, юзидан қон сизиб турар эди. Шоир Фарҳод ҳақида баҳс юритар экан, ўз қисматининг унга ўхшамаслигини таъкидлайди. Фарҳод тешаси билан тоғни ковласа, ошиқ шоир ўз кўксини тирноғи билан қазийди. Тирноқ билан кўксини қазимок ниҳоятда машаққатли иш. Халқимизда ҳозирги кунда ҳам кўксини тирнамоқ, кўксини ерга бериб ётмоқ, кўксига урмоқ, кўксини кўтармоқ, кўксини тилмоқ, кўксини пора-пора қилмоқ сингари иборалар ишлатиладики, инсон ички кечинмалари кўкс орқали ўз ифодасини топади. Кўҳкан Фарҳоднинг лақаби. Бу сўз тузилиши жиҳатидан қўшма сўз бўлиб, форс тилидаги кўҳ ва кан (кандан-қазимоқ) феълларининг бирикувидан ҳосил бўлган. У тоғ қазувчиси маъносини билдиради. Тоғ қазувчи Кўҳкан (Фарҳод) билан ўзини қиёс қилар экан, лирик шоир ўз изтироблари ва қисматининг Кўҳкан ғамидан ҳам оғир эканлигини баён этади. Шоир ўз қисматини Кўҳканнинг ишқ қисматига қиёслайди. Ўзи чекаётган ишқ изтиробларининг Кўҳкандан-да ортиқ эканлигини тирноқ ва теша воситасида ғам ва ишқ тоғини қазимоқ деталлари орқали баён этади ва улар ўзаро таққосланади. Шоир бу қиёс ва таққослашда ўз изтиробларининг Кўҳкан кечмишларидан ҳам машаққатли эканлигини илгари суради.

Навоий луғзлари

Алишер Навоий “Девони Фоний” асарида шеърий девон талабидан келиб чиққан ҳолда каттаю кичик жанрларда ижод қилган. Ана шундай жанрлардан бири чистон ва луғз ҳисобланади. Форс-тожик тилида луғз (кўплиги луғаз)ларда топилиши талаб қилинган нарсаларнинг энг муҳим белгилари ҳақида ёзилади. Ўқувчи луғзда олға сурилган фикрлардан хулоса чиқарган ҳолда яширинган нарсанинг номини аниқлаши зарур бўлади.

Шоир девонларидан ўзбек тилида 10 та, форс-тожик тилида 9 та луғз ўрин олган. “Девони Фоний”дан келтирилган луғзларнинг охиридан ўрин олган кема ҳақидаги фикрларини баён қилишда Бесутун атамасидан фойдаланади.

Чи кўҳест он? Ки дар ҳайъат бувад, чун Бесутун, лекин

Равон аст он, агарчи кўҳро натвон равон гуфтан.

Бувад чун бесутун, аммо ба таҳ чораш сутун бини,

Ки ҳар якро аз онҳо пилпоя метавон гуфтан. **(ДФ -77 б.)**

Шоир ушбу луғзни ёзар экан, кеманинг ўзига хос айрим белгиларини баён қилади. Кема денгизда сузади. Улкан сув сатҳида сузиб келаётган кема узокдан тоғга ўхшайди. Денгизда сузаётган ёки муаллақ турган нарса, кема, қайиқ, албатта, катта бўлиб кўринади. Бундай ҳолат текис жойда ҳам худди шундай акс этади. Ёш Алишернинг Язд чўлида ухлаб қолиб, оиласи кетаётган карвондан адашиб қолганда узоқдаги офтоба ҳам улкан гумбазга ўхшаб кўринган эди. Бу кеманинг узоқдан кўринаётган биринчи белгиси ҳисобланади. Иккинчи белгиси узоқдан кўринган нарса (кема) юради. Ушбу узоқдан кўринган нарсанинг яна бир белгиси юришидир. Лекин тоғни юради деб бўлмаслиги унинг тоғ эмаслигини кўрсатади. Бесутунни кемага ишора қилишда Бесутун сўзининг аппелиатив маъносига ҳам асосланади. Кўринадики, шоир ушбу луғзда кеманинг муҳим белгиларини баён қилади. Зукко ўқувчи бир оз фикр юритса, унинг номини осон топиб олади.

УСТУНСИЗ СЎЗИНИНГ АППЕЛИАТИВ ҚЎЛЛАНИШИ

Соҳир сўз санъткори А.Навоий ҳар бир сўздан унумли фойдаланади. Сўзнинг онамастик ва аппелиатив маъноларида қўллаб, чиройли ташбеҳлар яратади. Қуйидаги байтда унинг ёрқин намунасини кўрамиз. А. Навоий ёшлигидан коинот ва осмон жисмлари ҳаракатига эътибор қаратди. Ёшлик йилларидан Мовлона Лутфийга ўқиб берган машҳур ғазалининг “...Бўйлаким пайдо булур юлдуз ниҳон булғоч қуёш” мисрасида самовий жараёнларни мантиқий асосда тассаввур қилишга интилади[1]. Шоир Самарқандда бўлган пайтларда ва кейинчалик Хиротга борганда ҳам фалақиёт илми билан жиддий шуғулланди. Айниқса, Фазлуллоҳ Абулайсий мадрасасида ўқиган пайтлари Самарқанд мадрасаларида бир қатор фанлар билан фалакиётга оид илмлар ҳам ўргатиларди. А. Навоий ана шу билимлар билан озиқланди, унинг фалақиётга оид фикрлари ва қарашлари асарларида такрор-такрор учрайди. “Ҳайрат ул - аброр” достонининг 48-бобидаги 14-мақолатида қуйидаги сатрларни ўқиймиз.

Миху сутунсиз тикибон чодарин,
Даври этиб чодарининг пайкарин.
Анда бўлиб жилвагари анжуман,
Ҳар сори юз луъбати симин бадан[2]. **(ХА-**

[1] Азизов С. Алишер Навоий асарларида фалакиёт сирлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018.– Б.10.

[2] Алишер Навоий. Хайрат ул-аброр. Насрий баён килувчи А.Хайитметов: –Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. – Б. 101.

7-ж. 246-б.)

Насрий баёни: "...У михсиз, устунсиз чодир тикади; чодирнинг кўринишини доира шаклида қилади. Унда юлдузлар жилвагар бўлиб, кумуш бадани билан юз хил ўйинлар намойиш этади[1]. Ўзи яшаган XV аср шароитида геоцентрик (коинотнинг маркази ер) қараш асосида коинотнинг бизнинг кўзимизга кўриниб турган ҳолатини баён этади. Оддий кўз билан қараганда "Осмон сфераси бевосита уфқ доирасига тегиб яхлит бир манзарани ташкил этади"[27]. Лекин бу чодир бирор нарсага михланмаган, маҳкамланмаган муаллақ устунсиз туради. А.Навоийнинг олам тузилиши хақидаги қарашларида оламнинг беустун модели етакчи ҳисобланади. Олам тузилиши ҳақидаги юқоридаги осмон чодирининг устунсиз, михсиз муаллақ туриши унинг асосини ташкил этади. Бесутун сўзи устунсиз, таянчсиз, муаллақ турувчи маъноларини англатади. Ушбу мисрадаги устун(сиз)-устуни йўқ маъносида ўзининг аппелиятив маъносида қўлланилган. Сутун форсча сўз бўлиб, устун, тиргак, тиргавич, маъноларида қўлланади[38]. Бесутун сўзидаги "бе"- қўшимчаси "сутун" асосига қўшилиб, форсча ўзакдан англашилган луғавий маънога эга эмасликни кўрсатади. Ўзбек тилида форсча "бе"- қўшимчасига синоним бўлган "-сиз" ўзбекча қўшимчасини қўшиш билан ҳам юқоридаги каби маъно англатувчи сўз ҳосил қилинади ва у "бесутун" сўзининг аппелиатив маъносига тўла мос келади. Уларни ўзаро алмаштириб қўллаш мумкин. Алишер Навоий устун сўзининг аппелиатив маъносидан ҳам унумли фойдаланади. "Хазоин ул-маоний" асарида сўзнинг аппелиатив маъноси ёрдамида чиройли ташбеҳлар уюштирадики, уни ўқиб шоирнинг бетакрор лирик ижодкор эканлигига амин буласиз.

Бир қадам вайронима қўйким, ғамингдин туну кун,

Юзга илгимдур сутун тупроққа ботиб тирсагим. **(НШ-351)**

Байтда шоир севимли ёрнинг кўрсатган жафоси, эътиборсизлиги ва бепарволигидан зорланиб аҳволимдан хабар олиш учун вайронамга қадам қўй, аҳволимни кўр деб мурожаат этиб илтижо қилади. Ёрнинг жафосидан бошини қўлига олиб ерга мукка тушиб ётган ошиқнинг ҳолати нафис тасвирланади. Ошиқ ерга мукка тушиб ётар экан, унинг тирсаги тупроққа ботиб ётганини таъкидлайди. Бу байтда тирсаги билан ерга мукка тушиб бошини қўлига олиб турган қўллари устун маъносида ишлатилади. Демак, бу ҳолатда қўл устун, бошни кўтариб турувчи тиргак маъносида қўлланади. Аслида форс-тожик тилидан бизнинг тилимизга протеза усулида товуш ўзгариши орқали ўтиб келганлиги туфайли сутун сўзи устун тарзида ўзлашган[49] ва ҳар иккаласи ҳам мумтоз адабиётда шеърий жанр талаби билан қўлланиб келган. Алишер Навоий ўз асарларида сўзнинг ҳар иккала шаклидан ҳам фойдаланганини кузатамиз.

Мавзу доирасида тилга олган ташбеҳу тасвирларнинг барчаси сўз ва ғазал мулкининг султони Ҳазрат бобокалонимизнинг юксак маҳоратидан далолатдир.

Резюме. Мақолада Алишер Навоийнинг асарларида қўлланилган Бесутун атамасининг изоҳи, унинг қандай маъноларда қўлланганлиги ҳамда бу атаманинг лингвомаданий қиймати хусусида фикр юритилган.

Резюме. В статье рассматривается объяснение термина «Бесутун», используемого в произведениях Алишера Навои, значения, в которых он употребляется, а также лингвистическое и культурное значение этого термина.

Resume: The article discusses the explanation of the term Besutun used in the works of Alisher Navoi, the meanings in which it is used, and the linguistic and cultural value of this term.

[1] Азизов С. Кўрсатилган асар. –Б. 51.
[2] Ўзбек тилининг изохли луғати. –Тошкент: Qомус. 2007. –В.59.
[3] Азизов С. Кўрсатилган асар. – Б.51.
[4] Сайфуллаева Р. ва бошқалар. Хозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент: Фан ва технология, 2009. – 64.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 11-12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

QADIMGI DAVR MANBALARIDA FARG'ONA VODIYSI TOPONIMIYASI TAHLILI

Shukurov Rahmatillo,
Andijon davlat chet tillari instituti mustaqil tadqiqotchisi, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Jamiyat hayotining turli bosqichlarida ro'y bergan ijtimoiy, iqtisodiy-siyosiy, madaniy hodisalar, alabatta, o'zbek tilining tarkibiy qismi hisoblangan onomastik tizimda ham o'z aksini topadi va uning o'ziga xos tarixiy davrlarini, qatlamlarini yuzaga keltiradi. Ma'lumki, biror millat, xalq tilining tarixini, undagi rivojlanish va o'zgarishlarni hisobga olgan holda davrlarga bo'lib o'rganish til tarixiga oid tadqiqotlarda uchrab turadi. Biroq E.Begmatov ta'kidlab o'tganidek, onomastik tizimda uning muayyan birliklari tarixini davrlashtirish izchil an'anaga ega emasligi bilan xarakterlanadi[1]. Shunday bo'lsa-da, onomastik tadqiqotlar doirasida V.A.Gordlevskiy, A.Idrisov, T.Jonuzaqov, G.Sattarov, Sh.Japarov, E.Begmatov ishlarida mazkur muammoga bag'ishlangan talqin va tasniflar mavjud[2].

Biz yuqoridagi tadqiqotlardan farqli ravishda Farg'ona vodiysi toponimiyasi rivojini hudud tarixiga oid qadimgi yozma yodgorliklar, hujjatlar, manbalar, shuningdek, turli statistik ma'lumotnomalarga tayangan holda tadqiq etishga va shu asosda ularni paydo bo'lishi hamda lug'aviy qatlamiga ko'ra ma'lum davrlarga ajratishga, har bir bosqich toponimlarining esa o'ziga xos til xususiyatlari, boshqa xarakterli jihatlarini aniqlashga harakat qildik. Shunday qilib, Farg'ona vodiysi toponimiyasining shakllanish va rivojlanish bosqichlarini quyidagi davr manbalari asosida tekshirishni maqsad qilib qo'ydik:

1. Qadimgi davr manbalarida Farg'ona vodiysi toponimiyasi.

2. XV – XVI asr manbalarida Farg'ona vodiysi toponimiyasi.

3. XIX asr 2-yarmi – XX asr boshlariga oid manbalarda Farg'ona vodiysi toponimiyasi.

4. Sho'rolar davrida Farg'ona vodiysi toponimiyasi.

5. Mustaqillik davrida Farg'ona vodiysi toponimiyasi.

Quyida biz qadimgi davr manbalarida Farg'ona vodiysi toponimiyasiga doir manbalar tahlilini ko'rib chiqamiz. Markaziy Osiyo, xususan, Farg'ona vodiysining uzoq o'tmishdagi ijtimoiy-siyosiy hayoti, geografik o'rni va tabiati, tarixiy toponimiyasi haqidagi eng qadimgi ma'lumotlar Xitoy solnomalarida (mil. avv. II – milodiy XII asrlar), ilk o'rta asrlarga tegishli Mug' tog'idan topilgan sug'd hujjatlarida (VII asr oxiri va VIII asr boshlariga oid), bundan tashqari, X-XI asrlarda bir guruh arab sayyohlari Istaxriy, Ibn Xavqal, Muqaddasiy, Sam'oniy, Yoqut Hamaviylar tomonidan bitilgan asarlar hamda noma'lum muallif qalamiga mansub fors tilida yozilgan (983 yil) «Kitob hudud ul-olam min al-mashriq ila-l-mag'rib» (keyingi o'rinlarda «Hudud ul-olam») kitobida qayd etiladi[3].

Bular ichida xitoy solnomalari o'zining qadimiyligi bilan muhim ahamiyat kasb etib, Farg'ona davlatiga oid ma'lumotlar mil. avv. II asrdan boshlab yozib kelingan «24 tarix» («Ershisi shi»)[4] tarkibiga kiritilgan

[1] Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 143.

[2] Гордлевский В.А. К личной ономастике у османцев // Древности восточные. Т. IV. С.154; Идрисов А. Кыргыз тилиндаги ысымдар. – Фрунзе: Мектеп, 1971; Жанұзақов Т. Қазақ есімдерінің тарихы. – Алматы: Ғылым, 1971; Саттаров Г.Ф. Татар антропонимикасы. – Казань: КазДУ нэшрияты, 1990; Жапаров Ш. Кыргыз адам аттары. – Фрунзе: Илим, 1989; Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013.

[3] Абу Исҳоқ Иброҳим ибн Маҳмуд, ал-Фараси ал-Истахарий. Китоб масалик ал-Мемалиқ. Изд. M.J.de Goeje, Lingdunt Batavorum.1870, (BGAI); Абу-л-Касим Ибн-Хаукал. Извлечение из «Китоб сурат ал-арз» Ибн Хаукаля / Перевод с арабского О.Б.Фроловой. Материалы по истории Средной и Центральной Азии X-XI вв (МИСЦА). - Ташкент, 1988; Абу-Абдуллах Мухаммад ибн Ахмед ибн Абу-Бекр ал-Мукаддаси. «Ахсан, ат-такасим фи-Маърифат ал-акалим». изд. M.J.de Goeje, BGA III. / Пперевод с арабского А.Т.Юлдашева. См. также перевод с арабского С.Волина. МИТТ. Т.I.; Ҳудуд ул-олам. Тошкент: O'zbekiston, 2008; The *Kitāb al-Ansāb* of ' Abd Al-Karīm As-Sam'Ānī with an introduction by D.S. Margoliuth. Gibb M.S., 20, 1912; Йāқўт Б. ' Абд Аллах Ал-Хамавй. Китāб Му'джам ал-Булдāн (Jakut's Geographisches Worterbuch) ed. F. Wustenfeld. B. I-IV, Leipzig, 1866-1873.

[4] «24 тарих» – милод. авв. II асрдан бошлаб ёзилиб келинган Хитой сулолаларининг тарихи. Унда милод. авв. 3000 йилликдан то милодий 1644 йилгача бўлган воқеалар баён этилган.

sulolalar tarixida, VIII-XII asrlarda saroy tarixchilari tomonidan bitilgan asarlarda hamda turli maqsad va sabablar bilan shu davrda Xitoydan Turkistonga kelib ketgan sayyohlar esdaliklarida keltiriladi.

Solnomalarning qadimgi Farg‘ona davlatiga oid qismlari tarixchi va xitoyshunos olim A.Xo‘jayev tomonidan ilk marta o‘zbek tiliga tarjima qilinib, manbalarda tilga olingan bir qator toponim va etnonimlarga yozilgan mufassal sharhlar bilan birgalikda nashr etilgan[1]. Sharqshunos Abduxoliq Abdurasul o‘g‘lining «Qadimgi Farg‘ona tarixidan» nomli kitobida ham xitoy manbalari tarjimasi («24 tarix» ning 1-, 2-jildi «Shiji» va «Xanshu») asosida 2100 yil avvalgi Farg‘ona-Xitoy munosabatlari tahlil etilgan[2].

A.Xo‘jayev tadqiqotlariga ko‘ra, Farg‘ona va uning hududidagi toponimlar birinchi marta xitoy tarixchilarining otasi Sima Chyan tomonidan yozilgan «24 tarix» nomli rasmiy tarixlar majmuasining birinchi jildini tashkil qilgan «Shiji» kitobida (mil. avv. 104-91) uchraydi. 130 bobdan iborat bo‘lgan ushbu asarda qadimgi Farg‘onaga oid ma’lumotlar uning «Dayyuan lechjuan» («Farg‘ona tazkirasi») deb nomlangan 123-bobida aks ettiriladi. Kitobning bu bobi Xan imperatori U-di tomonidan Markaziy Osiyo mamlakatlariga elchi sifatida yuborilgan Chjang Chyanning to‘plab kelgan ma’lumotlari asosida yozilgan bo‘lib, Farg‘ona xoronimi ushbu manbada Dayyuan (zamonaviy o‘qilishda «Davan», ruscha transkripsiyada «Davan») tarzida tilga olinadi.

«Shiji» da qayd etilgan Dayyuan – sug‘d tili asosida shakllangan Farg‘ona nomining xitoycha tarjimasi hisoblanib, day – «buyuk», «katta», yuan iyeroglifi «atrofi balandlik yoki tog‘lar bilan o‘ralgan kosasimon joy» ma’nosini bildirgan. Dayyuan deyilganda esa Farg‘ona davlati tushunilgan. Ta’kidlash joizki, manabalarning barchasida Farg‘ona davlati Dayyuan (Davan) shaklida qayd etilmaydi, balki milodiy V asrdan keyin yozilgan solnomalarda, masalan, «Veyshu» va «Beyshi» da Puoluona (Poluona), Luona (Luona) tarzida yoki «Du Xuan jingshing ji» nomli safarnomada Faxanna (Fahanna), Tang davri manbalarida esa Ningyuan («Olisdagi sokinlik») atamalari bilan yuritilgan[3].

Ushbu holatni A.Xo‘jayev shunday izohlaydi: «Veyshu» va «Beyshi» da keltirilgan tarixiy voqealar etnik kelib chiqishi turkiylarga aloqador bo‘lgan sulolalarga tegishli edi. Shu bois mazkur sulola tarixlarida ko‘p atamalar, ayniqsa, Xitoydan tashqaridagi mamlakatlarga tegishli hududlarning mahalliy joy nomlari xitoycha transkripsiya qilingan holda ishlatilgan. «Veyshu» dagi Lona toponimi Puoluonaning qisqartirilgan shakli; Puoluona va Faxanna toponimlari esa Parkona va Farg‘ona atamalarining xitoycha transkripsiyasidir[4].

«Shiji» dan 170 yil keyin yozilgan «Xanshu» hamda V asrdan keyin yozilgan xitoy manbalarida, jumladan, «Veyshu» da yuqoridagi ma’lumotlardan farqli ravishda Farg‘onaning poytaxti Kiveyshan (zam.o‘q. Guyshan-cheng) deb ko‘rsatilgan. Kiveyshan (Kiveysan / Guyshan) astionimi tarixchi olimlar tomonidan turli joylarga qiyoslangan bo‘lsa-da, bizningcha, uni olimlar A.N.Bernshtam, V.V.Bartold ta’kidlaganidek, Koson shahriga mahalliylashtirish to‘g‘ridir[5]. Chunki bu shahar arablar bosqinigacha bo‘lgan davrlarda Farg‘ona vodiysining yirik harbiy-siyosiy markazi – mil. avv. I asrda Kushonlar saltanatining, VII-VIII asrlarda esa Farg‘ona ixshidligining poytaxti hisoblanib, VIII asr boshlaridan o‘z o‘rnini, ya’ni poytaxtlik maqomini boshqa bir yirik shahar – Axsikentga bo‘shatib beradi[6]. 941-945 yillarda yozilgan «Shin Tangshu» da esa Kiveyshan (Guyshan) astionimi Kesay // Gesay shaklida uchraydi. Taxminimizcha, ushbu xitoycha nomlar avvalgi davrlarda Kushon (Kiveyshan) deb yuritilgan poytaxt shaharning keyingi davrlarda (IX asrdan so‘ng) tovush o‘zgarishiga uchrab, Koson (Kesay) shakliga kelib qolganligini aks ettirgan bo‘lishi mumkin.

Xitoy manbalarida, shu bilan bir qatorda, Farg‘ona vodiysining eng qadimiy shahar nomlari sifatida «Shiji» da Riyeyshiyey (zam. o‘qilishi Ershi) hamda Yivecheng (Yuycheng) astionimlari ham tilga olingan. Riyeyshiyey (Ershi) shahri Yuan (Farg‘ona) ning «tanasidan qonsimon ter chiqadigan zotli otlari boqiladigan» joy sifatida tasvirlangan bo‘lib, aynan shu xususiyatiga ko‘ra, keyingi tadqiqotlarda Ershi – O‘sh shahriga taqqoslanmoqda[7]. *Yivecheng (Yuycheng) shahri «Shiji» da xitoyliklar tomonidan qattiq hujumga uchragan vodiyning birinchi shahri sifatida ko‘rsatiladi va u mutaxassislar fikricha, hozirgi O‘zgan shahriga qiyoslanadi. Ushbu shaharning arab manbalarida qayd etilganidek, «O‘zgand – Farg‘ona viloyatidagi eng iliq joy. U Farg‘ona viloyatining chegara hudu-*

[1] Хўжаев А. Фарғона тарихига оид маълумотлар (Қадимий ва илк ўрта аср Хитой манбаларидан таржималар ва уларга шарҳлар). – Фарғона, 2013. – 288 б.

[2] Абдухолиқ Абдурасул ўғли. Қадимги Фарғона тарихидан (Хитой манбаларида Фарғона ҳақида илк маълумотлар). – Тошкент: Фан, 2002. – 108 б.

[3] Изоҳ: ушбу тадқиқот ишидаги топонимлар таҳлилида А.Хўжаев таржималаридан фойдаландик.

[4] Хўжаев А. Кўрсатилган асар. – Б. 127.

[5] Бернштам А.Н. Древняя Фергана. – Ташкент, 1951. – С. 19; Бартольд В.В. Сочинения. Том III. Москва: Наука, 1965. – С. 529.

[6] Бернштам А.Н. Кўрсатилган асар. – Б. 27.

[7] Ходжаев А. Можно ли считать Эрши столицей древнего государства Фергана? // O‘zbekiston tarixi, № 2. 2010. – С. 63-73.

dida, dushmanlarga yaqin joyda joylashgan»[1] ligi nazarda tutilsa, darhaqiqat, Farg‘ona hududiga kirgan Xitoy qo‘shinining dastlab mazkur shahar bilan to‘qnashishi, yana bir qiziq jihati esa, tarjimalarga yozilgan sharhlarda Yuycheng toponimi tarkibidagi «yuy» iyeroglifining «go‘zal», «xushbo‘y» ma’nolaridan tashqari, aynan «iliq» ma’nosini ham ifodalab kelishi[2] Yivecheng (Yuycheng) ni O‘zgan shahriga taqqoslash mantiqan to‘g‘ri ekanligini ko‘rsatadi.

Farg‘ona vodiysi toponimlari qayd etilgan ushbu davr yodnomalari sirasiga 1932 yilda Tojikiston Respublikasiga qarashli Panjikent yaqinidagi Mug‘ tog‘i qal’asidan topilgan sug‘d hujjatlari ham kiradi. Mug‘ qal’a hujjatlari bugunga qadar rus tilida to‘liq ilmiy nashr etilgan. Ularning dastlabki nashrlari A.A.Freyman, M.N.Bogolyubov, V.A.Livshits, O.I.Smirnovalar tomonidan 1960 yillarning boshlarida amalga oshirilgan[3]. 1990-1992 yillarda esa yana bir sug‘dshunos olim M.Ishoqov tomonidan so‘nggi davrlarda ushbu sohada qo‘lga kiritilgan yangi natija va xulosalarga tayanilgan holda, Mug‘ qal’a hujjatlarining katta turkumi o‘zbek tiliga tarjima qilinib, ilmiy izohlari bilan birga nashr ettirildi[4].

Tarjima va unga yozilgan sharhlari V.A.Livshitsga tegishli bo‘lgan Mug‘ arxivining A-14, V-17 hujjatlarida Farg‘ona xoronimi qadimgi sug‘diycha β r γ ’ n k // β r γ ’ n ’ k **–** *Far (a) gāna* yoki *Fragāna* shaklida qayd etiladi. Olim tadqiqot ishida Farg‘ona nomini xitoy manbalarida Pa – han – na tarzida uchrashini aytish barobarida uni tarixiy adabiyotlarda tez-tez uchraydigan Parikana (Gerodot) bilan taqqoslashni rad etish kerakligini ta’kidlaydi. Chunki sug‘d hujjatlaridagi β r γ ’ n k Parikana sifatida aks etmaydi[5].

A-14 hujjatida vodiy toponimiyasiga oid K n δ **–** Канд *//* Кенд astionimi ham tilga olingan bo‘lib, u hozirgi Konibodomning (Tojikiston Res. Sug‘d vil.) qadimgi nomidir[6]. Ushbu hujjatlarga tayangan holda, yana bir ma’lumotni aytish mumkinki, astionimning yozma manbalarda ilk marta qayd etilishi ba’zi adabiyotlarda ko‘rsatilganidek, IX-X asrlarga emas[7], balki VII-VIII asrlarga taalluqli bo‘lib, bir guruh arab sayyohlari tomonidan bitilgan kitoblarda ham u Kend tarzida (X asr)[8], «Boburnoma» va «Habib ub-siyar» da Kandibodom shaklida[9], Qo‘qon xonligi tarixiga oid asarlardan boshlab esa hozirgi ko‘rinishda yozila boshlagan[10].

Mug‘ qal’asining yog‘ochga yozilgan 45. B-2 hujjatida tilga olingan ’ γ s y k n δ h **–** *Xshikat // Xishikat astionimi A.A.Freyman tomonidan Farg‘onadagi Axsikent shahrining sug‘diycha nomi sifatida izohlanadi. Chunki ushbu xo‘jalik hujjatida yozilishicha, Devashtich xonadoniga keltirilgan sharoblar shu shahardan*, ’ γ s y k n δ h dan olib kelingan bo‘lib, olim taxmin qilganidek, X asrgacha yozilgan bir qancha manbalarda Farg‘onada, xususan, Axsikentda uzumdan musallas tayyorlanishi haqidagi fikrlarni ko‘plab uchratish mumkin[11]. Shuningdek, Sug‘dning B-2, B-10, B-13 hujjatlarida Zarafshonning yuqori qismida joylashgan Falg‘ar (qad. Farg‘al // Palg‘ar)[12] viloyatiga qarashli joyda xuddi shu nomdagi (’ γ s y k n δ h) qishloq tilga olinadi. Bu hujjatlar ustida ish olib borgan olimlar M.N.Bogolyubov hamda O.I.Smirnovalar esa ’ γ s y k n δ h oykonimining biz so‘z yuritayotgan Farg‘onaning bosh shahri Axsikent nomi bilan o‘xshashligini aniqlaydilar[13]. Demak, VII-VIII asrlarda Markaziy Osiyoda sug‘d tilida ’ γ s y k n δ h tarzida yuritiladigan ikkita bir xil joy nomlari mavjud bo‘lib, ularning biri Sug‘d ixshidligiga, boshqasi Farg‘ona podsholigiga tegishli bo‘lgan.

So‘z yuritilayotgan davr manbalari toponimiyasining asosiy qismi yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, dunyoning turli tomonlariga, jumladan, Markaziy

[1] Истахрий. Китоб ул-масолик вал-мамолик. БГА, 1-жилд.

[2] Хўжаев А. Кўрсатилган асар. – Б. 143.

[3] Фрейман А.А. Согдийские документы с горы Муг. Описание, публикации и исследование документов с горы Муг. Выпуск I. – Москва, 1962. – 92 с.; Лившиц В.А. Согдийские документы с горы Муг. Юридические документы и письма. Выпуск II. – Москва, 1962. – 222 с.; Боголюбов М.Н., Смирнова О.И. Согдийские документы с горы Муг. Хозяйственные документы. Выпуск III. – Москва, 1963. – 132 с.

[4] Исҳоқов М. ва бошқалар. Ўлмас обидалар. – Тошкент: Фан, 1989. – 74 б.; Исҳоқов М. Унутилган подшоликдан хатлар. – Тошкент: Фан, 1992. – 56 б.

[5] Лившиц В.А. Согдийские документы с горы Муг. Юридические документы и письма. Выпуск II. – Москва, 1962. – С. 85.

[6] Лившиц В.А. Согдийские документы с горы Муг. Юридические документы и письма. Выпуск II. – Москва, 1962. – С. 79.

[7] Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2002. – Б. 558.

[8] Истахрий. Китоб ул-масолик вал-мамолик. БГА, 1-жилд; Муқаддасий. Аҳсан ул-тақосим фи маърифати ул-ақолим. БГА. 3-жилд.

[9] Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – Б. 12; Ғиёсиддин Бин Ҳумомиддин Хондамир. Буюклик хислати. – Тошкент: Sharq, 2011. – Б. 44.

[10] Исҳоқхон Жунайдуллохожа ўғли Ибрат. Фарғона тарихи. Тошкент, 1991. – Б. 320; Муҳаммадҳакимхон Тўра. Мунтахаб ат-таворих. Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – Б. 198.

[11] Фрейман А.А. Согдийские документы с горы Муг. Описание, публикации и исследование документов с горы Муг. Выпуск I. – Москва, 1962. – С. 81.

[12] Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. – Тошкент: Фан, 1965. – Б. 75.

[13] Боголюбов М.Н., Смирнова О.И. Согдийские документы с горы Муг. Хозяйственные документы. Выпуск III. – Москва, 1963.– С. 101-102.

Osiyo hududiga sayohat uyushtirgan arab sayyohlari tomonidan yozilgan kitoblarda va «Hudud ul-olam» asarida qayd etiladi. Bu manbalarning tadqiq etilayotgan hudud toponimiyasi uchun umumiy va qimmatli jihati shundaki, asarlarning aksariyati geografik xarakterda bo‘lgani bois, ularda turli mamlakatlar qatorida Movarounnahr va uning tarkibidagi Farg‘ona viloyatining IX-XI asrlarga xos jug‘rofik o‘rni, iqlimi, ma’muriy tuzilishi, aholisining kasb-kori, tili, shuningdek, mashhur shaharlari tasviri, oronimiyasi, gidronimiyasi haqida batafsil ma’lumotlar berilgan.

Umuman olganda, biz so‘z yuritayotgan qadimgi va o‘rta asr manbalari toponimiyasining til xususiyatlariga e’tibor qaratilsa, ularning katta qismida sug‘d tilining kuchli ta’siri mavjudligini ko‘ramiz. Sug‘d va turkiy xalqlar qadimda, eramizning boshlarida, iqtisodiy, madaniy, siyosiy jihatdan uzviy aloqada bo‘lishgan. Bu munosabat va aloqalar har ikki xalqning tiliga katta ta’sir ko‘rsatgan. Turk xoqonligi davrida ham turkiylar yetakchi kuchga aylansa-da, ular mahkama, hujjat ishlarida rasmiy til sifatida sug‘d tili va yozuvidan foydalanishgan. Jumladan, VII-VIII asrlarga mansub tangalarni ham sug‘diy yozuv va tilda zarb ettirishgan[1]. Qolaversa, Buyuk ipak yo‘li munosabatlarida bu til xalqaro til darajasiga ko‘tarilgan[2]. Sug‘d tilining o‘zbek tiliga ta’siri masalasini o‘rganishda toponimik materiallar eng qimmatli va muhim manba hisoblanib, joy nomlari o‘zgarmas, turg‘un, asrdan-asrga o‘tib yashovchan so‘zlar bo‘lganligi tufayli unda o‘zbek tilining sug‘d tili bilan bo‘lgan aloqalari yaqqol aks etadi.

Manbalarda qayd etilgan nomlar tarkibida o‘rta asrlar toponimik tizimida faol qo‘llangan bir qancha sug‘d tiliga oid *-k**ā**n // -kas, -q**ā**n //* -x*an* → *‘daryo’, ‘anhor’; -kand // -ǰand // -kaθ // -kat* → *‘qo‘rg‘on’, ‘shahar’; -kana //* -**γā**n*a* // -g**ā**n*a* → ‘joy’, ‘makon’; *-tān // -dān → ‘joy’, ‘makon’, ‘daryo’; mēθan → ‘istehkom’, ‘joy’, ‘qishloq’;* -xus // -xuš → ‘daryo’; mar**γ** → *‘o‘tloq’, ‘yaylov’;* **uδra // par // far** → *‘joy’, ‘istehkom’* singari topoformantlarni ko‘rish mumkin. Ular ilk davrlarda o‘z mustaqil ma’nosiga ega birliklar hisoblangan bo‘lsa-da, lekin davrlar o‘tishi bilan lug‘aviy ma’nosidan uzoqlashib, toponimik leksika uchun nomlar yasaydigan topoformantlarga (TF) aylangan.

Sug‘d tili ta’sirida vujudga kelgan o‘rta asr toponimlari orasida «qal’a», «qo‘rg‘on», «istehkom», «mustahkamlangan shahar, qishloq», «devor bilan o‘ralgan joy» ma’nosini ifodalaydigan uδra tarkibli nomlar ham uchraydi. Manbalarda qayd etilgan Farg‘ona, Besafar, shuningdek, «Boburnoma» da uchraydigan Farog‘ina, Vorux («qo‘rg‘on»)[3] toponimlarining kelib chiqishi mazkur TF bilan aloqadordir. Uning O‘zbekiston toponimiyasi tarkibida keng tarqalgan sug‘diycha *par // far, parak* varianti ham mavjud bo‘lib, yurtimizdagi Parmetan («yuqori qishloq»), Pandiron («baland devorli qo‘rg‘on»), Panji («yuqoridagi joy»), Fankad («yuqori qo‘rg‘on»), Piron («devor bilan o‘ralgan joy»)[4] singari toponimlar hamda tarkibidagi far birligi «balandliklar bilan qurshalgan», «tog‘lar bilan o‘ralgan» degan ma’noni anglatadigan Farg‘ona xoronimi ham bevosita shu formant orqali hosil qilingan.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, tadqiq etilayotgan davr manbalari toponimiyasida mavjud bo‘lgan ko‘pgina leksik va grammatik elementlar Farg‘ona vodiysining qadimgi davrlariga oid toponimlari tarkibida sug‘d tilining ta’siri kuchli bo‘lganligidan dalolat beradi.

Rezyume. Maqolada qadimgi davr manbalarida Farg‘ona vodiysi toponimiyasiga doir manbalarning lingvistik tahlili bayon qilingan.

Resume. The article presents a linguistic analysis of sources related to the toponymy of the Fergana Valley in ancient historical records.

Резюме. В статье изложен лингвистический анализ источников, связанных с топонимией Ферганской долины в древних исторических памятниках.

[1] Отахўжаев А. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари. – Тошкент: ART-FLEX, 2010. – Б. 10.

[2] Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2002. – Б. 795.

[3] Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии: дисс. канд. филол. наук. – СПб.: Институт востоковедения РАН, СПб филиал, 2004. – С. 79.

[4] Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. – Тошкент: Муҳаррир, 2009. – Б. 206-209.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 11-12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

XALQ DOSTONLARIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING USLUBIY TAVSIFI

Ahmedov Hakim Yarashevich,
Termiz davlat universiteti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Jahon tilshunosligada frazemalarning uslubiy tavsifi muammosi hozirgi kunga qadar bir xil yechimga ega bo'lganicha yo'q. Bu masala o'zbek tilshunosligida ham maxsus o'rganilmagan. Hozirgacha lug'atlarda berilayotgan frazemalar uchun uslubiy havolalar qo'yishning yagona tamoyillari ham ishlab chiqilmagan, o'zbek tilidagi frazemalarni uslubiy tavsiflash mezonlari ham aniqlanmagan[1].

Frazeologik birliklarning uslubiy tarmoqlanish masalalarini o'rganish til strukturasini chuqurriroq tushunish uchun xizmat qilib qolmay ta'lim sohasidan tashqari leksikografik va frazeografik amaliyot uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek tilshunosligida frazemalarning uslubiy funksiyalari, ularning so'z, birikma va gaplar bilan semantik hamda uslubiy munosabati, iboralarning qo'llanish darajasi kabi qator masalalar ham o'zining tugal, asosli yechimiga ega bo'lmaganligi bugungda bu sohada qator tadqiqotlar amalga oshirilishini taqozo etadi. Frazemalardan badiiy, publitsistik va og'zaki so'zlashuv nutqida ijodiy foydalanish masalalari, yuqorida ta'kidlanganidek, faqat muayyan yozuvchi yoki badiiy asar tili misolida o'rganilgan, xolos.

O'zbek tilshunosligida badiiy matnlarda frazeologizmlarning qo'llanilishiga doir mukammal ilmiy – nazariy tadqiqot ishi bo'lmasada, ammo keyingi yillarda amalga oshirilgan bir qancha nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarida bu masalaga jiddiy to'xtalingan. Ana shunday tadqiqotlardan biri B.Yoldoshevning "Hozirgi o'zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional – uslubiy xususiyatlari" deb nomlangan doktorlik dissertatsiyasidir. Mazkur ishda badiiy matnlarda keltirilgan turli frazeologizmlarning funksional hamda uslubiy jihatlariga alohida **e'tibor** qaratilgan. Olim o'z tadqiqotida frazeologizmlarning ma'nosida ikkita qism mavjud ekanligiga alohida to'xtaladi va uni tahlilai bilan dalillaydi.

1) ekspressiv baho bo'yog'i;

2) funksional – uslubiy bo'yoq.

Frazeologizmlarning ekspressiv baho bo'yog'ida ma'no nozikliklari yuklanishini alohida ta'kidlanib. Bu xususiyat tarkibida emotsionallik va ekspressivlik asosiy omil ekanligini, emotsionallik frazeologizmlarning turli xil his – tuyg'ularini, shaxs va predmetlarga nisbatan sub'ektiv munosabatlarni ifodalasa, ekspressivlik nutqning ta'sirchanlik xususiyati hisoblanishini izohlab o'tgan. Bundan tashqari olim o'z ishida badiiy matnlarda frazeologizmlardan uslubiy maqsadda ijodiy foydalanish usullari to'g'risida ham to'xtalgan. Bunda individual – muallif o'z usullari bo'yicha frazeologizmlardan foydalanganda, bu birliklarning o'zgarishiga sabab bo'lishini ham tahlil etadi. Frazeologik birliklarni biz tahlil qilish jarayonida ko'pincha uninig uslubiy formasiga emas matndagi ma'no ottenkasiga e'tiborimizni qaratamiz va shu qismlarini tahlilash bilan cheklanamiz. Tilimizdagi ko'pgina frazeologik birliklar uchun ekspressiv - emotsional bo'yoqdorlik ajralmas xususiyat hisoblanadi, shu bilan birga, iboralarning asosiy qismi uslubiy jihatdan neytral munosabatni hosil qiladi. Chunki ibora yordamida u yoki bu predmet va hodisa nomlanibgina qolmasdan, o'sha predmet yoki hodisaga, shaxsga so'zlovchining ekspressiv munosabati xam ifodalanadi. Umuman olganda frazeologik birliklarning ma'no tuzilishi so'zninkiga nisbatan ancha murakkab, chunki frazemalarning ma'no munosabatlari bilan uning komponent tarkibi o'rtasida katta uzilish, nomuvofiqlik bor. G'arb va sharq tilshunoslari orasida ham frazeologik norma masalasi, frazeologik birliklarni tahlil qilish va tushunish borasida ko'pgina munozarali munosabatlar mavjudki bu jarayon haligacha davom etib kelmoqda. Frazemalar so'zlardan farqli holda reallikdagi muayyan voqea-hodisani faqat ifodalash, nomlash uchun emas, shu bilan birga, unga nisbatan modal munosabatni ifodalash maqsadida yuzaga keladi. Tildagi iboralarning asosiy qismi semantik jihatdan insonga, uning biror xatti-harakatini izohlashga qaratilgan: ular insonning fizik, psixologik, axloqiy-estetik, intellektual xususiyatlarini baholaydi, insonning ijtimoiy holatini, kasbi-

[1] Yo'ldoshev B. Frazeologik uslubiyat asoslari. - Samarqand, 1999. – 185 b.

ni, yoshini, hayotiy tajribasini, qarindoshlik aloqalarini xarakterlaydi. Ana shunday tavsilotlar asosida frazeologik birliklarning uslubiy munosabatlari shakillanadi. Ayniqsa, xalq dostonlari tiliga oid frazeologik birliklarni uslubiy jihatdan tasnif qilishda ikkita asosiy mezonga to‘xtalish zarur. Iboralarning uslubiy ma‘nosi va ularning komponentlari o‘rtasidagi munosabati. Ko‘pchilikka ma‘lumki o‘zbek tilshunosligida frazemalarni komponent tahlili qilish metodi ommalashgan, ammo frazeologik birliklarni uslubiy jihatdan tahlil qilishga ko‘pincha ahamiyat bermaymiz. Frazeologik birliklarni uslubiy jihatdan ajratish mezonlari, o‘zbek frazeologiyasining asosiy uslubiy qatlamlarini belgilash bilan bir qatorda frazemalar sinonimyasi va ularning uslubiy tarmoqlanishini ham shakillantirishga amaliy xizmat qiladi.

Frazeologik birliklarni uslubiy jihatdan tahlil qilishda va umuman so‘zning semantik strukturasini o‘rganishga qaratilgan ishlarda konnotatsiyalik jarayoniga alohida e‘tibor berishimiz zarur. Konnotatsiyalik jarayoni ikkita asosiy turga bo‘linadi: Ta’kidlash lozimki, zamonaviy tilshunoslik frazeologiyani ikki yo‘nalishda tadqiq qiladi. Idioma frazeologizmlar, frazeologik birikmalar va barqaror jumlalar (maqol va matallar, gapga teng boshqa frazeologizmlar) o‘rtasidagi muayyan tafovutlarga qarab ko‘plab tilshunos olimlar tomonidan frazeologiyani 2 xil: tor va keng ma’noda tushunadilar. Frazeologik birliklarni keng ma’noda tushunilganda, frazeologiya doirasiga maqol va matallar, folklor tiliga xos barqaror jumlalar, muloqot shakllari (salomlashish, xayrlashish jumlalari) ham kiritiladi. Tor ma’noda esa faqat ko‘chma ma’noda qo‘llangan turg‘un birikmalar nazarda tutiladi. Umuman olganda frazeologiyani keng ma’noda tushunish masalasi bugungacha munozarali bo‘lib qolmoqda. Muammoni keng va tor talqin qilishdan qat’iy nazar: har ikki yo‘nalishdagi tadqiqotlar ushbu fan oldida turgan masalalarni chetlab o‘tolmaydi: frazeologik tarkibning izchilligini aniqlash va shu munosabat bilan frazeologizmning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish; frazeologizmlar omonimiyasi, sinonimiyasi, antonimiyasi, polisemiyasi va variantdorligini tavsiflash; frazeologizmlar tarkibida qo‘llanuvchi so‘zlar va ularga xos ma’nolarning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash; frazeologizmlarning so‘z turkumlari bilan o‘zaro munosabatlarini oydinlashtirish; ularning sintaktik rolini aniqlash; frazeologik birliklar tarkibida so‘zlarning yangi ma’nolari hosil bo‘lishini o‘rganish, frazeologik birliklarni ajratish, ularni o‘rganish, tasniflash va lug‘atlarda tavsiflash metodlarini ishlab chiqadi[1]. Uslubiyatga oid ilmiy tadqiqotlarda til birliklarining funksional-uslubiy bo‘yog‘i o‘sha til egalari tomonidan his qilinadi, deb ta‘kidlanadi. Bu fikr ko‘proq so‘zlar va sintaktik qurilmalarga nisbatan to‘g‘ri bo‘lishi mumkin. Frazeologiya sohasida esa funksional-uslubiy bo‘yoqni subyektiv, individual tarzda his qilish jarayoni ko‘proq kuzatiladi, chunki akademik D.I.Shmelev ta‘kidlab o‘tganidek, frazeologiklarning uslubiy xoslanishini aniqlash shunchalik murakkabki, “ko‘p hollarda yagona, bir xil talqinga erishish qiyin. Hatto tajribali leksikograf olimlar ham ayrim frazeologik birliklarni stilistik jihatdan turlicha tasnif qilmoqdalar. Masalan xalq dostonlarida ***“xudo”*** so‘zi forscha-tojikcha bo‘lib, ***“diniy tushunchaga ko‘ra, olamni yaratgan va uni boshqaruvchi oliy zot”*** ma‘nosini bildiradi hamda ana shu diniy tushunchani ifodalovchi so‘z ishtirok etgan iboralar ko‘pincha so‘zlashuv nutqi uslubiga xoslangan, ayrimlari esa eskilik bo‘yog‘iga egaligi hamda aqidaviy qarashlar bilan farqlanadi. ***“Xudo berdi”, “xudo bilsin”, “xudo ko‘rsatmasin”, “xudo ko‘tarsin”, “xudo olsin”, “xudo urgan”, “xudo urdi ketdi”, “xudo haqqi”, “xo‘sh xudo, yo ber xudo”, «xudoga soldim”, “xudoga topshirdim”, “xudoga shukur”, «yodingni xudoga ayt”*** kabi iboralar shular jumlasidandir.Xuddi shuningdek, o‘zbek tilining o‘z qatlamiga mansub ***“ko‘rpa”*** so‘zi doirasida hosil bo‘lgan ***“ko‘rpa ko‘tardi”, “ko‘rpaga qarab oyoq uzatmoq”, “bir ko‘rpada katta bo‘lmoq”, “ko‘rpa-yostiqni ko‘tarmoq”, “burgaga achchiq qilib ko‘rguni kuydirmoq”*** singari iboralar ham o‘z navbatida so‘zlashuv uslubiga xoslangan bo‘ladi. Lekin kuzatishlar shundan dalolat beradiki, Xalq dostonlari tiliga oid bo’lgan iboralarning ko’pchligi so’zlashuv uslubiga xos bo’lib, bu frazeologik birliklar tayanch so‘zlarning ibora uslubiy xoslanishiga ta‘sirini bo‘rtirish ham to‘g‘ri emas. Masalan, *“payini qirqmoq”* iborasining kitobiy uslubga xosligini etimologik mezon ko‘rsatib turibdi, chunki bu ibora kishining anatomik-fiziologik holati bilan bog‘liq tushunchani bildiruvchi erkin birikmani ko‘chma ma‘noda qo‘llash, metaforizatsiyalash asosida hosil bo‘lgan. Uning kitobiyligini miqdoriy mezon ham tasdiqlaydi: ***“Dushmanning payini qirqaylik” “Ochko’z devlarning payini qirqish maqsadida Go’ro’glibek ularga tomon ot yugurtiraverdi[2].*** Umuman olganda iboralarning qo‘llaninlsh uslublari so‘zlashuv uslubining o‘zig xos xususiyatlaridan shakillangan bo‘lib so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi dialogik munosabat doirasida yuzaga keladi, shuningdek nutqning, fikrning jozibadorligini ta‘minlaydi. Xalq dostonlari tilidagi frazeologik birliklarni tahlil qilishda frazemalarning uslubiy ja-

[1] Lidjiyeva A.S. Semantika somatizmov v sostave frazeologizmov (na materiale kalmыskogo yazыka i yazыka oyratov Kitaya): Diss... kand. filol. nauk. – Elista, 2021. – S. 13–14. Yana qarang: Shakirova N. Frazeologizm-tilshunoslikning muhim bir bo‘limi // Talqin va tadqiqotlar respublika ilmiy-uslubiy jurnali, №5, 2022. -153-156 B. https://doi.org/10.5281/zenodo.7264501

[2] Aytuvchi – Poyonov A., yozib oluvchi – J.Eshonqul. Xonoyim pari. – Toshkent, 2022. – 518 b.

rayoni, frazeologik birliklarning uzual va okkozional xususiyatlari borasida tilshunos olimlarning fikrlariga alohida to‘xtalish zarur. Umuman olganda frazeologizmlarning uzzual uslubiy vazifalari deyilganda nimalar tushunilinadi. Frazemalarning **uzual uslubiy vazifalari** deyilganda, ularning **doimiy, umumiy va barqaror** holda matnda bajaradigan vazifalari tushuniladi.Ya‘ni, har qanday nutqda qo‘llanganida frazeologik birliklar o‘zining tabiiy, kategoriyaviy xususiyatlariga mos ravishda ma‘lum uslubiy yukni bajaradi. Bu vazifalar **maxsus badiiylik yoki kontekst ta‘sirisiz**, ularning o‘ziga xosligidan kelib chiqadi. Umuman olganda xalq dostonlarida qo’llanilgan frazemalar obrazlilik yaratish, emotsionallikni ifodalash, ekspressivlik berish, milliy koloritni saqlash kabi jihatlari o‘zbek xalqining ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va maishiy hayotini ko‘rsatib berish, toponomika, o‘simliklar dunyosi, hayvonlar dunyosi, o‘zbek xalqiga xos xarakter, xislatlarning ifodalanishida, urf-odat va marosimlarning mavjudligida hamda adabiy badiiy tilda aks etadi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, tilshunoslikning zamonaviy rivojlanish bosqichida xalq dostonlari tilidagi frazeologizmlarning milliy-madaniy xususiyatlarini o‘rganish maqsadga muvofiq.

Rezyume. Ushbu maqolada xalq dostonlari tilidagi frazeologik birliklarning uslubiy tavsifi, emotsionallik, ekspressivlik va obrazlilik jihatlari, uzual va okkozional xususiyatlari. Frazemalarning ekpressev baho xarakteristikasi. Frazemalarning so‘zga ekvivalentlik nazariyasi. Frazeologik birliklarning nominativ va konnatativ xarakterdagi xususiyatlari tadqiq etilgan.

Resume. This article examines the stylistic characteristics of phraseological units in the language of folk epics, including their emotionality, expressiveness, and imagery, as well as their conventional and occasional features. The study also addresses the expressive and evaluative properties of phraseology, the theory of verbal equivalence in phraseology, and the nominative and connotative features of phraseological units.

Резюме. В данной статье рассматриваются стилистические характеристики фразеологических единиц в языке народных эпосов, их эмоциональность, выразительность и образность, обычные и случайные особенности. Выразительные оценочные характеристики фразеологии. Теория словесной эквивалентности фразеологии. Номинативные и коннотативные особенности фразеологических единиц.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 11-12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O‘ZBEK TILI ETNOGRAFIZMLAR TIZIMIDA MOTIVLASHUV MASALASI

Amonturdiyev Nurali Rashidovich,
Termiz davlat universiteti
o‘zbek tilshunosligi kafedrasi mudiri,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Insoniyatning nomlash, nomlanish bilan bog‘liq ehtiyojlari, asosan, til va uning serqirra vositalari orqali amalga oshadi. Tilning borliq voqeliklarini nomlash bilan bog‘liq vazifasi uning nominativ vazifasi, til nominatsiyasi deb yuritiladi.

O‘zbek tili o‘zining leksik-semantik ko‘lamining boyligi, sinonimik qatorning kengligi bilan ajralib turadi. Har bir tilning ichki imkoniyatlari shu til egasining dunyoqarashi va tafakkurining hosilasi hisoblanadi. O‘zbek tili leksikasida so‘z yasash, leksikalashuv, so‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari, ko‘chish (metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik…) kabi qator usullar yordamida yangi so‘zlar hosil qilinadi va ular o‘ziga xos kommunikativ, assotsativ funksiya bajaradi. Ushbu leksemalar tilshunoslikning turli bo‘limlari obyekti sifatida tavsiflanadi.

Jahon tilshunosligida onomasiologiya alohida soha bo‘lib, tildagi har qanday birlikning yuzaga kelishiga asos, ya’ni yangi nomning paydo bo‘lishida «xamirturush» bo‘lgan so‘z va u bilan aloqador holda shakllangan so‘zning ichki shakli hamda semantikasi o‘rtasidagi munosabat masalasini o‘rganadi.

Milliy tillarda so‘zlar o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmaydi. Til egasi tilda avvaldan mavjud bo‘lgan leksik birliklardan yangi so‘zlar hosil qilishda faol foydalanadi. Bu yangi hosil bo‘lgan so‘zlar boshqa bir so‘z yoki bir nechta so‘zlar bilan aloqador ekanini ko‘rsatadi. Xususan, tilda motivlangan so‘zlar nutqimizdagi boshqa bir ildizli so‘z (ibora, birikma) bilan yoki bir nechta ildizli so‘zlarni hosil qiluvchi motivatsiya munosabatlari bilan bog‘liq. Shundan kelib chiqib, «motivatsiya – bu ikkita bitta ildizli so‘z o‘rtasidagi munosabat bo‘lib, unda ulardan birining ma’nosi boshqasining ma’nosi orqali aniqlanadi (*uy* – uy «kichik uy», *kuch* – kuchli odam «katta jismoniy kuchga ega odam») yoki nutq qismining grammatik ma’nosidan tashqari barcha tarkibiy qismlarida boshqasining ma’nosi bilan bir xil (yurish – yurish, jasur – Jasur) yoki bu so‘zlarning stilistik rangidagi farq bilan boshqasining ma’nosi bilan to‘liq bir xillik hosil qilish hisoblanadi[1]«. Ushbu ta’rif tildagi motivlashgan til birliklariga xos belgilarni aniq belgilab bergan. Tilimizda ayrim so‘zlarning ma’nosi matnda boshqa so‘zlar bilan semantik, grammatik bog‘lanishi yoki uslubiy funksiyasiga muvofiq farqlanadi. Bunda leksikonimizning boyishi, unda nominatsiyaning roli va motivlashuvning ahamiyati, leksik birliklarning o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmasligi masalasini izchil tadqiqi qilish imkoniyati mavjud.

Dastlab motivatsiya va uning ilmiy-nazariy o‘rganilishi haqida qisqacha to‘xtalsak. Lisoniy birlikning motivlashuvi va uning tildagi ahamiyati antik davrdan olimlarning qiziqishiga sabab bo‘lgan. Qadimgi yunon faylasuflari, xususan, Aflotun «motivatsiya» tushunchasining inson tafakkuri, milliy dunyoqarashidagi o‘rnini tushuntirishga harakat qilgan. Motivatsiya tushunchasi dastlab falsafiy, psixologik, dialektik qonuniyatlar tizimini tavsiflashda qo‘llangan.

«Motivatsiya» termini antik davrdayoq mavjud bo‘lib, bu termin «mimologiya», «kiritilizm» deb qo‘llanilgan. Ushbu terminning asosi (motiv) lotincha «moveo» – harakat qilmoq, harakatni uyg‘otmoq» so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, «ruhiy-fiziologik rejaning dinamik jarayoni, inson harakatini boshqarish, maqsad sari yetaklovchi vosita, tashkillashtirish, faol va bardoshlilik kabi ma’nolarni anglatadi»[2]. Psixologlar motivni insonning ma’lum ehtiyoji natijasi sifatida ta’riflaydilar. Ehtiyoj inson psixologik, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy holati bo‘lib, obyektiv tarzda ma’lum bir narsani talab qilishi mumkin.

«Motivatsiya» atamasini dastlab nemis faylasufi Artur Shopengauer o‘z maqolalarida qo‘llagan. Tilshunoslikda motivatsiya nazariyasi F. de Sossyur tomonidan tartibsiz harakat qiladigan til belgisi xarakterining mohiyatini ifodalashda qo‘llanilgan. F. Sossyur belgining o‘zboshimchaligini nazariy jihatdan cheksiz ko‘p qarama-qarshi birikmalar bilan izohlaydi, ular belgini tilning boshqa belgilari bilan yaqin yoki passiv, to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki ma’lum vosi-

[1] https://b1.cooksy.ru

[2] Джафарова Д. Француз ва ўзбек тилларида лексик мотивлашувнинг миллий-маданий хусусиятлари: Фил.фан.бўйича фалс.док. (PhD) дис. автореф. – Тошкент, 2018. – Б.11.

talar orqali bog‘laydi. Shu bilan birga, u belgining ikki qismi ikkita assotsiativ qatorning o‘zaro ta’siri bilan belgilanishini aniqlaydi.

Tilshunoslikda dastlab «motivologiya» termini paydo bo‘ldi. Ushbu terminni tilshunoslik fanining alohida mustaqil yo‘nalishi sifatida ajratishni birinchilardan bo‘lib rus tilshunosi M.M.Ginatulin olg‘a surdi. Motivologiya o‘z nomini muallif tomonidan ishlatilgan «motiv» (nominatsion belgi), «motivema» (nominatsiya prinsipi), «motivatsiya» (so‘zga nom berilayotganda uning motivlovchi belgisi) va «motivlanganlik» («motivatsiya»ni saqlab qoluvchi so‘zning belgisi) atamalaridan olgan[1]. Tilda nominativ birliklarning hosil bo‘lishi, so‘zlarning semantik va struktur munosabati hamma vaqt munozarali hisoblangan. M.M.Ginatulin mana shu holatni rus, ingliz va qozoq tillarida uchraydigan qush nomlarining onomasiologik jihatdan qiyosiy o‘rganib, motivatsiyani tilshunoslikning alohida yo‘nalishi sifatida o‘rganishni taklif qiladi.

Tildagi barcha so‘zlarni motivlangan va motivlanmagan birliklarga bo‘lish mumkin. Tilda ma’lum bir predmet, voqea-hodisaning nomini hosil qiluvchi motivlar mavjud. Ya’ni so‘zning ma’nosi va tovush sistemasi boshqa bir so‘z bilan aloqador bo‘lishi mumkin. Shundan kelib chiqib, zamonaviy tilshunoslikda so‘zning ichki shakli (ma’no) va tovush tarkibi boshqa bir so‘z bilan aloqador leksik birliklar motivlangan so‘zlar hisoblanadi. Masalan, o‘zbek tilida *kurash* (harakat, fe’l) – *kurash* (milliy sprot turi), *yetti* (raqam) – *yetti* (marhum vafotidan 3-4 kun o‘tganda o‘tkaziladigan marosim), *yig‘i* (yig‘lamoq, fe’l) – *yig‘i* (marhumni xotirlab o‘tkaziladigan marosim nomi), *silamoq* (fe’l) – *silamoq* (davolash maqsadida tanadagi og‘riq joy ustidan non yoki paxtani bosib-bosib qo‘ymoq, aylantirmoq), *tovoq* (idish) – *tovoq* (kurash sport turida qo‘yiladigan eng katta sovrunlar), *tovoq* – nikoh to‘ylarida qudalar (asosan kuyov tomon) olib boradigan maxsus oziq-ovqat, taomlar va shu marosim nomi va h.k.

O‘zbek tilshunosligida etnografik nominatsiyani onomasiologik planda o‘rganishni 2 qismga bo‘lish mumkin: a) etnografik antroponimiya, toponimiya; b) turli marosim, urf-odat, milliy qadriyat va ular bilan aloqador etnografik predmet nomlar. Birinchi turdagi etnografik nomlar va ularning shakllanishida motivatsiyaning roli masalasi o‘zbek tilshunosligida E.Begmatov, S.Kenjayevalar tomonidan ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Ammo turdosh ot guruhiga mansub etnografizmlar nominatsiyada motivlashuvning ishtiroki o‘rganilmagan. Bu o‘zbek tilshunosligi onomastikasi va onomasiologiyasi oldida hali bajarilishi lozim bo‘lgan ilmiy tadqiqotlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Ta’kidlash kerakki, atoqli otlarning nominativ jihatdan shakllanishi bevosita turdosh otlar bilan bog‘lanadi. Tabiiyki, etnografik antroponim, toponim, zoonim, mifonim va teonimlarning paydo bo‘lishida turdosh otlarning roli muhim ahamiyatga ega. Bunda til egasi tomonidan ma’lum obyektni atashda motivlashuv ro‘y beradi.

Antroponim sifatida tanlanadigan so‘z va so‘z birikmalari ma’lum asos, motivga egaligi bilan ajralib turadi. Motivsiz ism yo‘q. Har qanday ismning tanlanishi motiv bilan bog‘liq. Masalan, ismlarning paydo bo‘lishidagi o‘ziga xos qonuniyatlar, ilmiy asoslarni bilmagan ba’zi shaxslar o‘zbek tilidagi Bo‘riboy, Bo‘rioy, Qo‘chqor, Itolmas, Ityemas, Topiboldi, Sotiboldi, Boltaboy, Bolg‘aboy ismlarini eshitib hayron bo‘lishadi, hatto ularni «nomunosib, eski nom» deb qoralashadi. Holbuki, bu ismlarning asosida bolaning sog‘ o‘sishini, bevaqt nobud bo‘lmasligini istash, umid qilish motivlari yotadi[2].

To‘xta, To‘xtasin, O‘lmas, Bo‘ri, O‘g‘iloy, O‘g‘ilshod, Ergash, Eson, Esonturdi, O‘roq, Bolta, Tesha, Egamberdi, Unsun, Qo‘chqor kabi etnografik xarakterdagi antroponimlar ham motivlashgan hisoblanadi. Ushbu antroponimlarni shakllantirishda nom beruvchi tomonidan ma’lum belgi tanlangan. Bu belgi nomlovchining orzu-istaklari, maqsadlari va o‘y-xayollari, shuningdek, fantaziyasini ham ko‘rsatib beradi. Etnografik antroponimlar ham boshqa motivlangan leksemalar singari o‘z ichki shakliga ega. O‘zbek tilidagi etnomadaniyat bilan bog‘liq antropinimlarda ham so‘zning ichki shaklini aniqlash mumkin, chunki so‘z dastlab nom sifatida paydo bo‘lganida har doim nimagadir turtki bo‘ladi. Obyektiv voqelikning u yoki bu obyektini chaqirib, odamlar uni atrofdagi dunyoning boshqa hodisalari bilan bog‘lashadi. Bu ma’lum bir obyekt yoki hodisa boshqa obyektlar yoki hodisalar nomidan foydalanib, u bilan bog‘liq yoki o‘zaro bog‘liq bo‘lmagan holda nomlanishiga olib keladi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan antroponimlar ham fe’l, ot (turdosh ot), sifat kabi so‘z turkumlaridan shakllangan. Bu til o‘z kommunikativ funksiyasini bajarish jarayonida yuzaga keladi. Ya’ni atrof-borliqdagi «narsa va hodisalarni, obyektiv olamdagi barcha mavjud borliqni umumlashtirib nomlash inson tafakkuri va tilining» o‘ziga xos belgisi deyish mumkin.

O‘zbek tilshunosligida antroponimlarni etnolingvistik, nominativ-motiv xususiyatlarini E.Begmatov «O‘zbek tili antroponimikasi» nomli monografiyasida tahlil qildi. Unda o‘zbek tilidagi etnografik antroponimlarning xalq mafkurasi, milliy dunyoqarashi,

[1] Джафарова Д. Француз ва ўзбек тилларида мотивация ҳодисаси. – Тошкент: Фан ва технология, 2016. – Б.7.

[2] Кенжаева С. Ўзбек тили антропонимларининг номинацион-мотивацион асослари ва тавсифи: Фил. фан.фал. док. (PhD) дисс. – Қарши, 2019. – Б. 72.

mentaliteti mahsuli ekani, nomlarda til egasining orzu-umidlari, maqsad, istak, niyat, e'tiqod, tasavvurlari aks etishi ta'kidlab o'tilgan. Mana shu holat nomlarning motivlanishi uchun asos sifatida qaraladi. Ya'ni Ramazon, Hayit, Uljon, To'xta, Yo'ldosh, Yo'lchi, Qurbon, Sunnat, Sotiboldi, Suyun, Egamberdi va boshqa ko'plab etnografik antroponimlar dastlab turdosh ot anglatgan ma'nosida yuzaga kelgani, keyinchalik til egasining fantaziyasi natijasida ikkilamchi sema shakllanganini ko'rish mumkin.

Ta'kidlash kerakki, olim etnografik antroponimlarni barcha atoqli nomlar singari semantik jihatdan motivlashuviga asos bo'lgan ma'nosi unitilib, yangi semantik ma'no shakllanishini e'tirof etadi. Masalan, «ba'zi ismlar bolaga ismning asl (genetik) motiviga ko'ra emas, yuzaga kelgan ikkinchi motiviga ko'ra beriladi. Masalan: Iso, Muso, Ibrohim ismlarining qadimiy yahudiycha motivlari ularnnng o'zbekcha ism bo'lishiga asos bo'lmagan, balki bu nomlarning payg'ambar nomi ekani asos bo'lgan», «ism vazifasiga o'tadigan ba'zi birikmalarning oddiy qo'llanishda anglatadigan ma'nolari unutiladi (etnografik, motivativ ma'noga aylanadi) ism sifatida esa «odam», «inson» tushunchasini anglatadi. Masalan: Ravshan – oddiy so'z sifatida *yorug, nurli* tushunchasini ifodalash ism sifatida esa shu ismli shaxsni, odamni anglatadi»[1]. Tilimizda turli e'tiqodiy qarashlar natijasida Alloh va uning sifatlarini ifodalovchi nomlari, paygambarlar; orzu-umid, xavas tufayli shohlar, alp-pahlavon, olimlar yoki afsonaviy shaxslar nomlarini qo'yish ham motivlashuv natijasi hisoblanadi. Bunda nomlovchining fantasiyasi, qarashlari motivlashuvga asos bo'ladi.

L.I.Royzenzon, E.B.Magazanniklarning antroponimlar motiviga bag'ishlangan maqolasida[2] bolalarga nom berishda har bir xalqning milliy qadriyat va urf-odatlarga muvofiq shakllangan, til egasining tafakkuri, dunyoqarashi va fantaziyalari, orzu-umidlari va niyatlari ifodasi bo'lgan an'anaviy nomlar fondidan foydalanish hamda uning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Maqolada mualliflar aniq bir xalq tilida uchraydigan antroponimlarni tahlilga tortmaydi. Bunda insoniyat tomonidan nom tanlashda asos bo'ladigan omillar, ismlarning an'anaviy diaxron va sinxron fondi va boshqa bir qator omillar onomasiologik jihatdan izohlangan. Mualliflar e'tirof etishicha, dunyo aholisi hali ham ism tanlashda an'anaviy ismlar fondidan foydalanadi.

Ta'kidlash kerakki, o'zbek tilida ham ism tanlashda avvaldan shakllanib kelgan milliy ismlar zaxira fondidan foydalanamiz. Ammo keyingi yillarda o'zbek oilalarida tug'ilgan bolalarga milliylikdan uzoq Ruslan, Messi, Ronaldu, Indira kabi ismlar qo'yilmoqda. Zamonaviy antroponimlar motivlashuvini o'rganish fan-texnika rivojlanishi natijasida til egasi tafakkuri va dunyoqarashida bo'layotgan ijtimoiy, manaviy-madaniy o'zgarishlarni ham tahlil qilish imkonini beradi.

Ayrim manbalarda atoqli nomlar motivlashuv natijasida yuzaga kelishi, biroq keyin ular o'rtasidagi semantik aloqalarning uzilishi ta'kidlanadi. Kishi nomlarini konkret shaxsning nomi sifatidagi ma'nosini ko'p holatlarda izohlab bo'lmasligi va nomlarning etnografik ma'nosini izohlash esa nihoyatda murakkab va qiyinligi, ko'pincha ismlar ma'nosi haqida gap ketganda, nom uchun asos bo'lgan so'z anglatuvchi ma'noni tushuntirib berishga urunishning kuchayishiga olib kelishi va bu ma'no ismlarni anglatuvchi ma'no, deb taqdim etilishi, lekin bu ma'no ism uchun asos bo'lgan so'zning turdosh otlik ma'nosi[3] ekani ta'kidlab o'tiladi. Bir so'z bilan aytganda, o'zbek tili antroponim, toponim, teonim va boshqa onomastik birliklarni onomasiologik jihatdan chuqur va izchil tahlil qilish tilshunosligimiz oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Onomasiologik tahlil jarayonida so'zlarning motivlashuvi ma'lum bir tilda so'zlashuvchi kishilar tomonidan leksik birlikning tovush va ma'nosi o'rtasidagi aloqadorlikni aniqlash, ular orasidagi munosabatni tushunish, shuningdek, motivlashgan etnografik leksemani boshqa leksik birliklar bilan kommunikativ, assotsativ munosabatlarga asoslanishini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Xususan, etnografik leksik qatlam ham og'zaki nutq, badiiy asarlarda motivlashuv asosida yangidan yangi so'zlarning yuzaga kelishiga asos bo'la oladi.

Tilimizda etnografik nominatsiyaning shakllanishi turli davrlarda turlicha yo'llar bilan hosil bo'lgan. Har bir til egasi atrof-borliqni milliy mentaliteti, dunyoqarashi, o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib o'zlashtiradi. Shunga muvofiq uni o'rab turgan olamga nom beradi. Ushbu nomlar ma'lum obyektni boshqasidan farqlashga xizmat qiladi. Nom o'z obyektini ma'lum farqlovchi xususiyatlaridan biri asosida farqlashga xizmat qiladi. Til egasi ham mana shu belgini so'zning ichki shakliga ko'chiradi. Biroq til egasining fantaziyasi, «yangi nom yaratish»dagi tasavvurlari natijasida tildagi tayyor leksik birliklar boshqasining yuzaga kelishiga asos bo'lishi mumkin. Mana shunday hosil bo'lgan so'zlar motivlashgan so'zlar hisoblanadi. Demak, leksik birliklarning motivatsiyasi asosan leksik birlikda, uning hosilaviy

[1] Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан нашриёти, 2013. – Б. 122.
[2] Ройзензон Л. И., Магазанник Э. Б. О мотивах выбора имени// Вопросы ономастики. – Самарканд, 1971. – С. 29-30.
[3] Менажиев Я., Азаматов Х., Абдураҳмонов Д., Бегматов Э. Исмингизнинг маъноси нима? – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 6-14.

bo‘lmagan ildiz qismidan tashqari, kamida bitta so‘z hosil qiluvchi formantning mavjudligi bilan belgilanadigan maqsadli so‘z hosil qilish jarayoni natijasidir.

Turdosh ot tipidagi etnografik nomlarning aksariyati motivlashuv natijasida hosil bo‘ladi. Aynan mana shu turdagi nomlarda motivlashuv jarayonini o‘rganish til taraqqiyot bosqichlarini chuqurroq tushunish, tilning nominativ, kommunikativ va assotsativ funksiyalarini batafsil izohlash imkonini beradi. Turdosh otlar nominatsiyasi dastlab nutqda paydo bo‘ladi. Shundan so‘ng til egasining fantaziyasi, dunyoqarashi va atrof-borliqqa munosabati hamda bilim darajasi boshqa predmet, voqea-hodisalarni nomlashda tayyor so‘zlardan foydalanish imkonini beradi. O‘zbek tilida urf-odat, an’ana, turli marosimlar, mahalliy xalq etnomadaniy hayotining ajralmas qismi sanalgan predmet (uy-ro‘zg‘or buyumlari, chorvachilik, dehqonchilik sohalariga doir qurollar, ijtimoiy munosabatlarda qo‘llanuvchi etnografik atamalar va h.k.)larning etnografik nomlari motivlashuv natijasiga hosil bo‘lgan. Masalan, *amal* (amal qilmoq) – *amal* (isitish, sovitish, birovning ishini orqaga ketkizish, turgan uyidan bezdirish va sh.k. maqsadlarda dam solingan narsa; sehr-jodu); *besh kokil* (beshta kokil) – *beshkokil* (sochni beshta-beshta kokil qilib o‘rish usuli va shu usulda o‘rilgan soch); *dadasi* (bolaning dadasi) – *dadasi* (xotin kishilar o‘z erining ismini aytmay, uning o‘rnida ishlatadigan murojaat); *qilich* (qurol) – *qilich* (gilam to‘qish asbobi, bod olingach, uni zichlash, to‘qish uchun xizmat qiluvchi qilich shaklidagi silliq yog‘och).

O‘zbek tili etnoleksikasining onomosiologik tadqiqi etnografizmlarning aksariyati nominativ jihatdan shakllanishda sintaktik birliklar (so‘z birikmasi, gap) ning urf-odat, marosim, milliy qadriyatlarni o‘zida aks ettiruvchi predmet, hodisalar nomining hosil bo‘lishiga asos bo‘lganini ko‘rsatadi. Tilda yangi etnografik urf-odat va marosim nomlarning yuzaga kelish ehtiyoji shu etnomadaniy qadriyatlarni amalga oshirishda asosiy bajariladigan harakat (qisman holat)ning nomga ko‘chishi natijasida yuzaga keladi. Masalan, *etakyirtish, taka qo‘yish, quda chaqirdi, betochar, oyoqbosdi, non sindirish, is chiqarish* va boshqalar.

So‘z yoki iboraning motivatsiya toifasi ularning ichki shakli va leksik ma’nosi o‘rtasidagi munosabatni ko‘rib chiqishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, leksik birlikning ichki shakli deganda, biz so‘zning morfemik tuzilishi bilan milliy, ona tilida so‘zlashuvchi xotirasida chaqirilgan va qayd etilgan denotatning bir yoki bir nechta muhim belgilarini potentsial mavhumlashtiruvchi hamda apperseptiv vakillik sifatida aks ettiruvchi aqliy interiorizatsiya qilingan ifodalar tasvirni tushunamiz[1].

Boshqa leksik birliklarda bo‘lgani kabi o‘zbek tili etnografik leksikasi doirasidagi ichki shakl va ma’no o‘rtasidagi munosabatlar, asosan, til ifodalarining butun va qismi o‘rtasidagi munosabatlarga o‘xshaydi. Tilning butun qismida aks ettirilgan tushunchaning ma’lum belgilari qismda namoyon bo‘ladi yoki paydo bo‘lishi kerak. Qismlarning boshqa belgilari butun doirasida yo‘qolmaydi, balki potentsial sifatida namoyon bo‘ladi, ammo ma’lum bir vaqt ichida sifat jihatidan amalga oshirilmagan imkoniyatlar ham mavjud[2].

O‘zbek tilidagi motivlashgan etnografizmlarning motivlashuvga asos bo‘lgan so‘z bilan aloqasi, ularning bevosita yoki bilvosita ta’siri murakkab hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Etnografik birliklar nominatsiyasining shakllanishi va til tizimida tutgan o‘rni, shu jarayon bilan bog‘liq leksik omillar, motivlashuvning nom berishdagi ahamiyati va maqsadi kabi ko‘plab muammolarni onomasiologik tahlil qilishda so‘zning ichki shakli munosabatlarini tushunish muhim. Motivlashuv natijasida yuzaga kelgan etnografizmlarning ichki shakli deganda, ushbu nomning shakllanishi uchun asos bo‘lgan belgi, so‘zning boshqa leksik birliklar bilan semantik va struktur tomondan bog‘liqligi tushuniladi. Shuningdek, so‘zlarning ichki shakli mavjud nomning tovush tuzilishini tushuntiradi, ma’no va tovushlarning shunchaki ma’lum fonetik birliklar kombinatsiyasi emasligini izohlaydi.

Rezyume. Ushbu maqolada o‘zbek entografizmlarida motivlashuv masalasi yoritilgan. Motivlashuvning kelib chiqishi, uning etnografizmlarda qanday jarayonda amalga oshishi misollar bilan dalillangan.

Resume. This article covers the issue of motivation in Uzbek enthographisms. The origin of motivation, how it is realized in ethnographisms, is proven by examples.

Резюме. В данной статье рассматривается вопрос мотивации в узбекских энтографизмах. Происхождение мотивации и то, как она реализуется в этнографизмах, доказано примерами.

[1] Кияк Т. Р. О видах мотивированности лексических единиц / Вопросы языкознания, №1, 1989. – С. 98.
[2] Кияк Т. Р. О видах мотивированности лексических единиц / Вопросы языкознания, №1, 1989, – С. 99.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 11-12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

PARALINGVISTIK HAQORATLAR VA ULARNI VERBALLASHTIRISH MASALASIGA DOIR

Ismoilov Xurmatillo To'lqinjon o'g'li,
Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti doktoranti (DSc), filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Bugungi ilmiy kashfiyotlar davrida til ilmining shiddatli taraqqiyoti uni immanent holda tadqiq etish "urfdan qolganligi"ni isbotlab ulgurgan bo'lsa-da, funksionallik asosida erishilayotgan muvaffaqqiyatlarning poydevori haqli ravishda ayni vaqtgacha jamlangan bilimlar ekanligi shubhasiz. Zero har bir tug'ilajak yangi qarash avvalgisiga nisbatlangan zamonaviy kreativ g'oyalarning muayyan davr **ijtimoiy ruhi** bilan uzviy bog'liqlikdagi ilmiy mahsulidir.

Tadqiqotchilarning umume'tirofiga asosan tilshunoslik rivojidagi ayni vaqt uning "ijtimoiy markerlangan" davriki, umumiy aloqa vazifasini bajaruvchi verbal hamda noverbal vositalarning uzviy bog'liqlikdagi ko'rinishlari natijasida yangi yo'nalish va usullar hosil bo'lmoqda. "Bu esa tilshunoslikda kishilik jamiyatining aloqa-aralashuvini o'rganuvchi yangi ilmiy yo'nalishlarning hosil bo'lishiga, boshqa fanlar yoki fan bo'limlari bilan aloqador bo'lishga asos bo'ladi"[1].

Bugun ijtimoiy munosabatlarning qizg'in tus olganligi har bir shaxsning muloqot vaziyatlaridagi verbal va noverbal kontakti har galgidan ko'ra muhim ahamiyatga ega bo'lib borayotgani, buning barobarida til tadqiqida shaxs omilining markazga qo'yilishiga ulkan zarurat mavjudligini anglatmoqda. Chunki shaxsning **jamiyatdagi** har qanday **shaxslararo** munosabatida, xoh u verbal, xoh noverbal ko'rinishda bo'lsin "bu mening shaxsiy ishim (nutqim)" qabilidagi qarashning noto'g'ri ekanligi ko'rinib qoldi. Boisi har bir "harakat" jamiyat hayotida muhim rol o'ynab, uning rivojiga ijobiy yoki aksincha ta'sir ko'rsatishi muqarrar.

Tilshunos M.Saidxonov muloqotning noverbal vositalari tadqiqiga doir izlanishlarida "*nutqiy xulq", "aloqa-aralashuvning ijtimoiy normasi"* va "*kommunikativ samara"* kabi e'tiborga molik atamalarni iste'molga kiritadi. Olim muloqotda kommunikativ aktning o'rni masalalsida fikr yuritar ekan, bunda *"nutqiy xulq"*ning qiymati muhim ekanligini eslatadi: "Shaxs o'z xususiyatlaridan va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda aloqa-aralashuvda ishtirok etadi va uning *nutqiy xulqi* kommunikativ aktda namoyon bo'ladi. Shaxsning aloqa-aralashuv jarayonidagi ijtimoiyligi – ijtimoiy hodisa bo'lgan tildan foydalanishi, barcha lisoniy qonun-qoidalarga rioya qilishi, nutqiy jarayonda suhbatdoshi bilan navbatma-navbat o'z fikrini bayon etishi, muloqotda axborotning ta'sirli, tabiiy va jonli chiqishi uchun nolisoniy vositalardan foydalanishi kabi unsurlardan iboratdir"[2]. *"Aloqa-aralashuvning ijtimoiy normasi"* muayyan holatda mavjud lisoniy birliklarni adresatga turli vositalar orqali ishonarli va ta'sirli yetkazib berish zarurati bilan izohlanadi. Olimning mazkur ta'rifi ijtimoiy odob-axloq qoidalari bilan hamohang bo'lib, N.Farmanovskayaning etiket haqidagi qarashlari bilan izohlanadi, ya'ni etiket – butun xulqimizni ko'rsatib beruvchi, barcha munosabatlarimizning belgilangan normasidir[3]. *"Kommunikativ samara"* atamasining mohiyati esa suhbatdoshlarning imo-ishoralari hamda talaffuz ohangining kommunikativ vaziyatlarda faol qo'llanishda bo'lishi, uning samarasi o'laroq nutqiy kontaktning "ko'ngildagidek" amalga oshishi, bunda kommunikantlar o'rtasidagi munosabatlar, suhbat mavzusi va suhbatdoshlarning o'zaro ta'sirlanishlari ahamiyatli sanalishi bilan ochiqlanadi. E'tirof etilgan "*nutqiy xulq", "aloqa-aralashuvning ijtimoiy normasi"* va "*kommunikativ samara"* atamalari M.Saidxonov tadqiqotining ko'lamiga monand holda badiiy asarlardan keltirilgan misollar asosida dalillanadi. Olimning bu boradagi izlanishlari paralingvistik vositalarning muloqotdagi, xususan, o'zbeklar muloqotidagi o'rni masalasiga qaratilgan bo'lib, ilmiy an'anaga aylanib ulgurgan muloqot tadqiqidagi pozitiv yondashuvga asoslanadi.

Ayni vaqtda tilshunoslikda antroposentrik paradigmaning ustuvorligi, izlanishlarda nutqning shaxs-

[1] Saidxonov M. O'zbek tilida ishoralarning verballashuvi va matniy xususiyatlari: Filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. – Farg'ona, 2022. – B. 59.
[2] Saidxonov M. Ko'rsatilgan dissertatsiya. – B. 238.
[3] Формановская Н.И. Русский речевой этикет: лингвистический и методический аспекты. – М., 1982. – С. 6.

nutq kesishmasida tadqiq etilayotganligi jamiyatda mavjud barcha soha va ularning xodimlari: fan-texnika, san'at, adabiyot vakillari, davlat boshqaruv organlaridan tortib, xususiy tashkilot-muaassasalar mutasaddilari; savdo-sotiq sohasidan tortib, qishloq xo'jaligi xodimlari nutqini bevosita faoliyati bilan uzviy bog'liqlikda o'rganishga zamin hozirladi. Bu ayni muddao. Mazkur holat barcha soha vakillari qatori tilshunos olimlarni ham harakatga keltirib, til tadqiqining turli aspektlarida izlanishlar olib borishga undamoqda. Bundan ko'zda tutilgan asosiy maqsad, avvalo, insonlararo munosabatlarning barqaror ijobiy ko'rinishda bo'lishiga erishish istagining amaliy ifodasidir, desak mubolag'a bo'lmaydi. Biroq shunday bo'lsa-da, insonlararo munosabatlar har doim ham ijobiy ruhda kechmasligi haqiqat. Ayniqsa, bugungi globallashuv davrida **ijtimoiy munosabatlarning "noziklashuvi"** muloqotning faqatgina neytral yoki ijobiy jihatlarigagina e'tibor qaratish biryoqlama ekanligini ko'rsatib, salbiy (haqoratli) jihatlar tadqiqi ham ulkan ehtiyoj va davr talabi ekanidan darak bermoqda. Shu nuqtayi nazardan "muloqotning ijtimoiy oqibati" masalasi har qanday dialogik yoki jamoaviy muloqot ko'rinishlarida dolzarb va qaltisdir. Bunday keskin ta'kid til(nutq)ning huquqiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligi bilan bog'liq bo'lib, nutqning har uch turida birdek ahamiyat kasb etadi.

Bugun internet diskursining favqulotda ommalashishi "yozma so'zlashuv nutqi"ning "urfga kirishiga" turtki bo'ldi. Mazkur qorishiq nutq shakliga bo'lgan ehtiyoj va talabning haddan ziyodligi, virtual muloqotchilarning ko'p sonli ekani uning tur sifatidagi barqarorlashuviga xizmat qilmoqda. Buning barobarida nutq turlari tavsifida mavjud og'zaki va yozma nutqqa nisbatan "an'anaviy" sifatlovchisini qo'llash ehtiyoji yuzaga keldi, ya'ni *an'anaviy og'zaki nutq, an'anaviy yozma nutq* kabi. Bunday nomlashning obyektiv sabablaridan biri nomlanishlararo yorqin farqqa erishishdir. Shu asosda nutqning uch turi farqlanadi: *1) an'anaviy og'zaki nutq; 2) an'anaviy yozma nutq; 3) yozma so'zlashuv nutqi*[1].

Mazkur nutq ko'rinishlarida verbal va paralingvistik haqoratlarning ifodalanish shakllarini to'g'ri belgilash, bunda haqoratlarning lingvomadaniy aspektiga jiddiy e'tibor qaratish, ularning verballashuvi kabi masalalar zamonaviy til ilmida jiddiy muammo hisoblanib, oliy qadriyat sanalgan shaxsning sha'ni va qadr-qimmatiga[2] daxl qilishi jihatidan yuridik oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shunday ekan nutqiy etiketga zid bo'lgan haqoratli ifoda shakllarini ilmiy etiketga zid holda bo'lsa-da, til tadqiqotlarida jiddiy ko'rib chiqishga zarurat mavjud.

Ayon bo'lganidek, nutqning har uch turida haqoratning aks etishi asosan ikki xil shaklda yuzaga chiqadi: **1) verbal haqoratlar 2) paralingvistik haqoratlar.**

Verbal haqoratlar – so'z bilan ifodalangan haqorat mazmunli birliklarni izohlasa, paralingvistik haqoratlar sirasida – nutqiy vaziyatda qo'llanilgan shartli xarakterdagi barcha haqorat mazmunini ifodalovchi noverbal vositalar anglashiladi. Tabiiy taqazo bilan haqoratning paralingvistik vositalar orqali ifodalanishi haqidagi qarashlar ayni jarayonni nomlovchi, uning umumiy mazmuniga monand atamaga ehtiyojni yuzaga keltiradi. Shu ma'noda tilshunoslikda "*haqorat mazmunli paralingvistik vositalar", "haqoratning noverbal vositalarda aks etishi", "haqoratli paralingvistik birliklar", "paralingvistik haqoratlar", "haqoratli paralingvizmlar"* va shu kabi qo'llanish variantlari orasida kelgusida terminologik xususiyatlarni namoyon etishi, terminlarning nomlanishiga xos qisqalik, aniqlik parametrlariga mos ko'rinishda "**paralingvistik haqorat**" atamasini qo'llashni taklif qilamiz. Bizning bu boradagi izlanishlarimiz hamda tadqiqot xulosalarimizda mazkur atamani tilshunoslikka olib kirish va termin sifatida barqarorlashtirish nazarda tutilgan[3].

Maqolamizning mavzusi va ko'lamiga monand holda quyida o'zbeklarning *an'anaviy og'zaki nutq*ida kuzatiladigan paralingvistik haqoratlar va ularni *an'anaviy yozma nutq*da to'g'ri verballashtirish masalalari xususida so'z yuritamiz.

*Yozma so'zlashuv nutqi*da verbal va paralingvistik haqoratlarning aks etishi borasida esa kuzatuvlarimizga tayanib ayta olamizki, internet diskursidagi *verbal haqoratlar*ning deyarli barchasi *abrivatura, akronim, inversiya, ellipsis, anakoluf* kabi til hodisalari asosida yuzaga chiqmoqda. Yozma so'zlashuv nutqi internet diskursini tavsiflovchi nutq turi sifatida ommalashmoqdaki, *paralingvistik haqoratlar* ham ayni vaqtda keng ommaning salbiy munosabatni "ulashish" vositasi sifatida *emodzi, gif* va *kreolitik matn*

[1] Ismoilov X. Yozma so'zlashuv nutqining yuzaga kelishi va ahamiyatiga doir // Tamaddun nuri / The light of civilization. 2025-yil, 9-son (72). – B. 237-241. https://jurnal.tamaddunnuri.uz/index.php/tnj/issue/view/27/28

[2] Ismoilov X. Paralingvistik vositalarning ijobiy va salbiy emotsinal ta'siriga doir // "O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari – Toshkent, 2025-yil 20-oktyabr, – B. 79-82. https://adabiyotxazinasi.com/index.php/a.

[3] Ismoilov X.T. Sud lingvistikasining sotsiolingvistik va psixolingvistik aspektlari (jinoyat ishlari bo'yicha sud majlisi misolida): Filol. fan.b.f.d-ri. ... diss. – Andijon, 2021. – 142 b. Ismoilov X.T. O'zbek sud lingvistikasi: nazariya va amaliyot: Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. https://oak.uz/userfiles/files/2023-1-son.pdf; Ismoilov, X. (2025). O'zbek internet diskursini tadqiq etish masalalariga doir//Sharq filologiya jurnali, 5(04), 145–152. https://supportscience.uz/index.php/ojp/article/view/2812; https://utppublishing.com/journal/ijsll.

ko‘rinishlarida namoyon bo‘lib, bizning izlanishlarimizda maxsus o‘rganilmoqda[1].

O‘zbek *an’anaviy og‘zaki nutqi*da faol qo‘llanishda bo‘lgan paralingvistik haqoratlar xususidagi qarashlarimiz esa quyidagicha: Ma’lumki, noverbal vositalarning ishlatilishiga ko‘ra tasnifida ular anglatayotgan tushuncha asos qilib olinadi va shunga ko‘ra ishoralar – noverbal vositalar quyidagicha tasnif etiladi. *1) ko‘rsatuvchi belgilar; 2) izohlovchi-ta’kidlovchi belgilar; 3) ramziy belgilar; 4) tasvirlovchi belgilar; 5) emotsional belgilar*[2].

1) ***ko‘rsatuvchi belgilar*** – kompensatsion va verbal vositani kuzatib boruvchi belgi sanalib, kommunikativ aktda faol qo‘llanishda predmet, voqea-hodisa yoki belgini ko‘rsatish (unga tinglovchining e’tiborini qaratish, yo‘naltirish, ishora qilish – X.I.) uchun qo‘llaniladi. Qo‘l, bosh, gavda, nigoh (ko‘z) orqali ifodalanadi. Masalan, *qo‘li bilan ko‘rsatmoq* va sh.k.

2) ***izohlovchi-ta’kidlovchi belgilar*** – ma’lum voqea-hodisa, belgi, holat, harakat yoki predmet haqida ma’lumot ifodalab mantiqiy jihatdan hukmni bildiradi. Bunday belgilar tasdiq, inkor, noma’lumlik, gumon, xayrixohlik (shu bilan birga kamsitish va haqoratni ham – X.I.) kabi ma’nolarni izohlaydi va ta’kidlaydi. Izohlovchi-ta’kidlovchi belgilar substitutsion xarakter kasb etadi va boshqa noverbal vositalarga nisbatan kommunikativ aktning tabiiy tarkibiy qismi ekani bilan hamda faol ishlatilishi bilan farqlanib turadi. Masalan, *labini burmoq, ko‘rsatkich barmog‘ini chakkasiga buramoq* va sh.k.

3) ***ramziy belgilar*** – etiket (adab) shakllari bilan aloqador bo‘lib, muomala madaniyatida etiket (adab) shakllari sifatida shakllanib qolgan urf-odat, diniy rituallar, irim qilish va boshqa an’anaviy xatti-harakatlarni o‘z ichiga oladi. R.P.Volos esa bu xarakterdagi noverbal vositalarni “urf-odat ishoralari” deb nomlaydi[3]. Masalan, *qo‘lni qovushtirish, qo‘l olishuv, ta’zim qilmoq* va sh.k.

4) ***tasvirlovchi belgilar*** – narsa, voqea, hodisa, harakat, holat va ularning belgilarini tasvirlash asosida ifodalaydi. Bunday noverbal vositalar orqali ifoda etilayotgan tushuncha o‘sha narsa, belgi, harakat, holatni turli jihatdan tasvirlab beradi. Ye.Kedrovaning uqtirishicha, tasvirlovchi ishoralar individual nutq mahsuli bo‘lib, aloqa-aralashuvdagi faolligiga qarab muqimlashishi, umumiylik kasb etishi va simvolik xususiyat ifodalashi mumkin[4]. Tasvirlovchi noverbal vositalar ko‘proq qo‘l harakati asosida amalga oshiriladi, chunki qo‘l orqali katta, kichik, yumaloq, uzunchoq, baland, past va boshqa belgilar; turli shakllar, predmetlar tasviri, miqdor, harakat, holat, ularning belgisini ifodalash mumkin[5].

5) ***emotsional belgilar*** – insonning hissiyoti bilan bog‘liqdir. Verbal jihatdan shakllanmasdan, insonning sezgilari, his-tuyg‘ulari orqali uzatilayotgan axborot “emotsional til”dir.

Ko‘rinadiki, yuqoridagi tasnif paralingvistik vositalarning namoyon bo‘lish shakllari va ularning o‘ziga xosligini izohlab: inson nutqini kuzatib boruvchi; ma’lum voqea-hodisa, belgi, holat, harakat yoki predmet haqida ma’lumot beruvchi; etiket (adab) shakllari sifatida shakllanib qolgan urf-odatni ifodalovchi; narsa, voqea, hodisa, harakat, holat va ularning belgilarini tasvirlovchi; insonning sezgilari, his-tuyg‘ulari orqali uzatilayotgan axborotni namoyon qiluvchi xarakterda bo‘ladi. Kuzatuvlarimiz natijasida paralingvistik haqoratlarning yuzaga chiqishida asosiy “rol o‘ynovchi” turlar sifatida tasnifdagi “*izohlovchi-ta’kidlovchi belgilar”* hamda *“tasvirlovchi belgilar”* muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi.

Yuqorida e’tirof etilganidek, M.Saidxonovning ishoralarning verballashuvi masalasidagi tadqiqoti garchi unda faqatgina neytral va ijobiy ma’no anglatuvchi ishoralarga e’tibor qaratilgan bo‘lsa-da, bizning amaliy kuzatishlarimiz asosida belgilangan paralingvistik haqoratlarni to‘g‘ri verballashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Olim imo-ishoralar – kommunikativ akt tarkibiga kiruvchi ma’lum axborotni uzatuvchi kishining xatti-harakatlari ekanligini ta’kidlar ekan, ishoralarning verballashuvi muhim ahamiyatga egaligini aytadi: “Kommunikativ akt tarkibiga kiruvchi ishoralar, imolar, tana harakatlari va boshqa ma’no ifodalovchi ovozning sifatiy o‘zgarishlari kabi vositalarning **til birliklari orqali ifodalanishi verballashuv sanalib**, o‘zbek tilidagi ishora fe’llari, so‘z qo‘shilmalari, ularning badiiy matnda ishlatilishi, gap strukturasidagi o‘rni, remarka va replikalar orqali berilishi kabi masalalar tadqiqi katta amaliy ahamiyatga molik[6]. Ushbu ta’rifda ishoralarning badiiy matnda ishlatilishiga urg‘u berilishini M.Saidxonov izlanishlarida badiiy matnlarda ifodalangan paralingvistik vositalarning verballashuvi masalasiga

[1] Ismoilov X. Internet diskursida haqoratning voqelanishiga doir // Filologiya Va Pedagogika 2025-yil, 9 (13)-son. – B. 106-109. https://tilvaadabiyot.uz/f/9_2025_filologiya_va_pedagogika.pdf.

[2] Bu haqda qarang: Saidxonov M. O‘zbek tilida ishoralarning verballashuvi va matniy xususiyatlari: Filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. – Farg‘ona, 2022. – 247 b.

[3] Волос Р.П. Введение в изучение невербальной коммуникации русского языка. // Страноведение и преподавание русского языка иностранцам. – М., 1972. – С. 79.

[4] Кедрова Е.Я. Вербальное обозначение жестов персонажей при передаче прямой речи в художественном тексте. – Ростов-Дон, АКД, 1980.

[5] Saidxonov M. Ko‘rsatilgan dissertatsiya. – B. 91.

[6] Bu haqda qarang: Saidxonov M. Ko‘rsatilgan dissertatsiya. – 247 b.

e’tibor qaratilganligi bilan izohlash mumkin. Ta’kidlash kerakki, paralingvistik haqoratlarni belgilash borasida esa bunday yo‘l tutish o‘zini oqlamaydi va bevosita amaliy kuzatishlarga asoslanib chiqarilgan xulosalargina to‘g‘ri, aniq va ishonchli bo‘ladi. Shu ma’noda quyida *an’anaviy og‘zaki nutq*qa xos tarzda kuzatilgan muayyan nutqiy vaziyatlarda shaxsga nisbatan haqorat mazmunini ifodalovchi paralingvistik haqoratlarning sakkiz ko‘rinishini keltiramiz. Mazkur xulosamiz bizning bevosita amaliyotdagi ilmiy izlanishlarimiz va Andijon davlat universiteti qoshidagi “Lingvistik xizmat markazi”ning 2021-2025-yillar oralig‘idagi amaliyoti davrida olingan xulosalarimiz bilan dalillanadi.

1-jadval

№	**Paralingvistik haqorat ko‘rinishlarining ishora fe’llari bilan ifodalanishi**	
	ko‘rsatkich barmoq bilan chakkani buramoq – ko‘rsatkich barmoqni chakkasiga shuruf qilib buramoq	jinni
	o‘rta barmoqning uchi ich tomoni bilan ko‘rsatkich barmoqning tashqi tirnoq uchini birlashtirib, barmoqlar orasini ochish	ayollar jinsiy a’zosiga nisbatlangan haqorat;
	o‘ng qo‘l barmoqlari uchini birlashtirib aylana hosil qilgan holda chap qo‘l kafti bilan urish	jinsiy aloqaga nisbatlangan haqorat;
	chap yoki o‘ng qo‘lning yoki har ikkala qo‘lning bir vaqtda tengdaniga bosh, ko‘rsatkich, nomsiz va sinchaloq barmoqlarini yopib, o‘rtancha barmog‘ini ochiq holda ko‘rsatish	erkaklar jinsiy a’zosiga nisbatlangan haqoratni ifodalaydi;
	chap qo‘lning bosh, ko‘rsatkich, nomsiz va sinchaloq barmoqlarini yopib, ochiq qoldirilgan o‘rtancha barmoqni o‘ng qo‘l barmoqlari uchini birlashtirib hosil qilingan aylanaga kiritib chiqarish (shunisi ahamiyatliki ushbu paralingvistik haqoratda adresant o‘zini ushbu jinsiy aloqani amalga oshiruvchi dominant shaxs sifatida namoyon qiladi)	jinsiy aloqaga nisbatlangan haqorat
	chap qo‘l tirsakkacha gorizantal holda harakatsiz tutib, o‘ng qo‘lni uning ostidan chiqarib vertikal holda harakatlantirish	erkaklar jinsiy a’zosiga nisbatlangan haqorat
	bosh barmoqni ko‘rsatkich va o‘rtancha barmoq orasidan chiqarish	safro (tezak, go‘ng)
	chap yoki o‘ng qo‘lni kafti ochiq holda jinsiy a’zo ustidan pastga tomon harakatlantirish – mazkur paralingvistik haqorat verbal nutqni kuzatib boruvchi ishora hisblanib, kommunikativ aktga muvofiq *jinsiy a’zoyimni yebsan, …dan naridasan, …ga keldingmi, …ga aytdingmi, …ga bordingmi* va shu kabi ma’nolarni bildirishi mumkin	suhbatdoshni jinsiy a’zodan ham past, haqir hisoblash

Ma’lumki, antropotsentrik yondashuvga ko‘ra ishorani qo‘llash kommunikantlarning o‘zaro munosabatlari, bilim darajasi, saviyasi, ijtimoiy kelib chiqishi, o‘zaro mavqeyi, yoshi va boshqa individual jihatlariga bog‘liq. Bu esa standart ishoralardan tashqari yangi, o‘ziga xos, hosil qilingan ishoralarning ham ishlatilishini taqozo etadi. Ma’lum tipiklashgan noverbal vositalar jamiyat kishilari tomonidan ishlatilgach, standart shaklga kiradi va u verbal vositasiz ham alohida holda mazmun ifodalaydi. Muayyan paralingvistik haqoratlarning ham davomli qo‘llanishda bo‘lishi (urfga kirishi) standart shaklga kirishi va verbal vositasiz ham alohida holda mazmun ifodalashiga asos bo‘ladi. Yuqorida keltirilgan paralingvistik haqoratlar ham aynan standart shaklga kirgan va doimiy qo‘llanishda, deyish mumkin.

O‘zbek madaniyatida turg‘unlashgan azaliy qadriyatlar, mavjud odob-axloq qoidalariga muvofiq emasligi sabab paralingvistik haqoratlarni bugunga qadar til ilmida tadqiq etishga ehtiyoj yo‘q deb, hisoblangan. Biroq bugungi ijtimoiy munosabatlar sharoiti bu qarashning noto‘g‘ri ekanligini ko‘rsatmoqda. Bizning amaliy kuzatishlarga asoslangan nazariy qarashlarimiz bu boradagi dastlabki izlanish bo‘lgani holda paralingvistik haqoratlarni belgilash va verballashtirish masalasining zarurati sud lingvistik ekspertizalarida, xususan, fuqarolarning o‘z sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish yuzasidan yo‘llagan murojaatlarida, huquqiy soha vakillarining lingvistik ekspertiza tayinlash to‘g‘risidagi qarorlarida, lingvist ekspert tomonidan tayyorlangan lingvistik ekspertiza xulosalarida yuzaga chiqayotgan turfa xillik, tushunmovchilik va adolatli xulosa berishdagi ziddiyatli holatlarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Rezyume. Maqolada zamonaviy tilshunoslikning antropotsentrik paradigmasi doirasida paralingvistik vositalarning shaxslararo muloqotdagi kommunikativ qiymatini, ularning ijobiy va salbiy funksional jihatlarini aniqlangan hamda o‘zbek til ilmida “paralingvistik haqorat” terminini qo‘llashning zarurarti asoslangan. Shuningdek, an’anaviy og‘zaki nutq va yozma so‘zlashuv nutqida paralingvistik haqoratlarning ifodalanish shakllari, ularning semantik va madaniy jihatdan verballashtirish muammolari tahliliy yondashuv asosida ochib berilib, paralingvistik haqoratlarning turli ishora fe’llari orqali yuzaga chiqish mexanizmlari amaliy kuzatuvlar asosida tasniflangan hamda ularning lingvistik ekspertiza jarayonlaridagi ahamiyati ko‘rsatilgan.

Resume. This article identifies the communicative value of paralinguistic means in interpersonal communication, examining their positive and negative functional aspects within the anthropocentric paradigm of modern linguistics. It also substantiates the necessity of introducing the term “paralinguistic insult” into Uzbek linguistics. At the analytical level, the paper elucidates the forms through which paralinguistic insults are expressed in traditional oral and written colloquial discourse, addresses the problems of their semantic and cultural verbalization, classifies–on the basis of practical observations–the mechanisms underlying the emergence of paralinguistic insults through various deictic verbs, and demonstrates their significance in the processes of linguistic expertise.

Резюме. В статье определяется коммуникативная ценность паралингвистических средств в межличностном общении, их позитивные и негативные функциональные аспекты в рамках антропоцентрической парадигмы современной лингвистики, а также обосновывается необходимость использования термина «паралингвистическое оскорбление» в узбекской лингвистике. Также на аналитическом уровне раскрываются формы выражения паралингвистических оскорблений в традиционной устной и письменной разговорной речи, проблемы их семантической и культурной вербализации, на основе практических наблюдений классифицируются механизмы возникновения паралингвистических оскорблений через различные указательные глаголы, и показана их значимость в процессах языковой экспертизы.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 11-12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

PUBLITSISTIK MATN TARJIMASIDA PRAGMATIK MODULYATSIYA VA SEMANTIK UYG'UNLIK

Usmonova Shahodat,
O'zbekiston davlat jahon tillar universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Bugungi globallashuv sharoitida publitsistik matnlar jamiyatda ijtimoiy ongni shakllantirish, jamoatchilik fikrini yo'naltirish hamda siyosiy va madaniy qarashlarni muayyan maqsad asosida ta'sirchan tarzda yetkazishda muhim kommunikativ vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Axborot oqimining keskin jadallashuvi, ommaviy axborot vositalarining raqamli platformalar orqali keng tarqalishi publitsistik matnlarning transmilliy xarakter kasb etishiga sabab bo'lmoqda. Natijada bunday matnlarning turli tillarga tarjima qilinishi jarayoni global kommunikatsiyaning ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda.

Publitsistik matnlarni tarjima qilish jarayonida faqatgina leksik-semantik moslikni ta'minlash yetarli emas, balki matn muallifining kommunikativ-pragmatik maqsadi, ya'ni adresatga ko'rsatmoqchi bo'lgan ta'siri, baholovchi munosabati va g'oyaviy pozitsiyasi ham tarjimada adekvat tarzda aks ettirilishi zarur. Shu jihatdan publitsistik tarjima oddiy axborot uzatish vositasi emas, balki ma'lum bir ijtimoiy, siyosiy va madaniy kontekstda shakllangan diskursni qayta yaratish jarayoni sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur jarayonda pragmatik modulyatsiya tarjimon tomonidan muqobil lisoniy va uslubiy vositalarni ongli ravishda tanlash orqali asl matnning kommunikativ samaradorligini saqlab qolishga xizmat qiladi.

Shu bois publitsistik matn tarjimasida pragmatik modulyatsiya va semantik uyg'unlik masalalari zamonaviy tarjimashunoslikning eng dolzarb va murakkab muammolaridan biri hisoblanadi. Bir tomondan, tarjimada semantik uyg'unlikni ta'minlash, ya'ni original matn mazmunining denotativ va konnotativ qatlamlarini imkon qadar to'liq saqlash talab etilsa, ikkinchi tomondan, pragmatik moslashuv orqali adresat madaniyati va ijtimoiy tajribasiga mos kommunikativ ta'sirni yaratish zarurati yuzaga keladi. Ushbu ikki omil o'rtasidagi muvozanatni saqlash tarjimaning sifatini belgilovchi asosiy mezonlardan biridir.

Publitsistik diskursning baholovchi, ekspress va ishontiruvch kabi muhim xususiyatlari tarjimondan faqat yuqori darajadagi lingvistik kompetensiyani emas, balki ijtimoiy-madaniy kontekstni chuqur anglash, ideologik implikatsiyalarni tahlil qila olish hamda kommunikativ vaziyatni to'g'ri baholash qobiliyatini ham talab qiladi. Ayniqsa, baholovchi birliklar, metaforik ifodalar, uslubiy vositalar va yashirin semantik qatlamlar tarjimada yetarlicha hisobga olinmagan taqdirda, asl matnning adresatga ko'rsatmoqchi bo'lgan pragmatik ta'siri sezilarli darajada o'zgarishi mumkin. Shu sababli publitsistik matn tarjimasida faqat semantik moslikka tayanish tarjimaning kommunikativ samaradorligini to'liq ta'minlay olmaydi.

Mazkur holat zamonaviy tarjimashunoslikda pragmatik modulyatsiya tushunchasining shakllanishiga nazariy asos bo'lib xizmat qilgan. Ushbu yondashuvga ko'ra, matn tarjimada faqat lingvistik birliklar majmui sifatida emas, balki muayyan kommunikativ vazifani bajaruvchi yaxlit diskurs sifatida talqin etilishi lozim. Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, tarjima jarayonida matnning semantik mazmuni bilan bir qatorda uning adresatga yo'naltirilgan pragmatik ta'siri ham saqlanishi zarur[1]. Ayniqsa, publitsistik matnlarda ushbu jihat muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bunday matnlar ijtimoiy ongni shakllantirish, baholovchi munosabatni ifodalash va muayyan g'oyaviy pozitsiyani targ'ib qilishga qaratilgan kommunikativ faoliyat mahsuli hisoblanadi.

E. Nida tomonidan ilgari surilgan dinamik ekvivalentlik nazariyasiga ko'ra, tarjimaning asosiy maqsadi asl matn o'quvchisida yuzaga keladigan kommunikativ effektni tarjima matni o'quvchisida ham hosil qilishdan iborat[2]. Ushbu yondashuv publitsistik tarjimada so'zma-so'z moslikdan ko'ra, pragmatik moslashuv ustuvor ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydi. Chunki publitsistik matnning asosiy vazifasi axborotni uzatish bilangina cheklanmay, balki adresat ongiga ta'sir o'tkazish, baholovchi munosabatni

[1] Nida, E. A. (1964). Toward a science of translating. Brill.
[2] Nida, E. A. (1964). Toward a science of translating. Brill.

shakllantirish va muayyan pozitsiyani targ‘ib qilishdan iboratdir.

Mazkur fikr P. Nyumark tomonidan ham qo‘llab-quvvatlanadi. Olim publitsistik matnlarni tarjima qilishda kommunikativ tarjima usulining afzal ekanligini ta’kidlab, tarjimon adresatning ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini hisobga olishi zarurligini qayd etadi[1]. Nyumark yondashuvida tarjima adekvatligi matnning formal tuzilmasiga emas, balki uning qabul qiluvchi auditoriyada uyg‘otadigan ta’siriga bog‘liq holda baholanadi. Bu esa publitsistik tarjimada pragmatik modulyatsiyaning strategik ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Tarjimani diskursiv jarayon sifatida talqin qilgan B. Hatim va I. Mason pragmatik modulyatsiyani publitsistik matnning ideologik va baholovchi qatlamlarini qayta yaratish mexanizmi sifatida izohlaydi. Ularning fikricha, publitsistik diskursda pragmatik ma’no ko‘pincha yashirin shaklda namoyon bo‘lib, uni tarjimada adekvat ifodalash tarjimonning diskursiv kompetensiyasiga bevosita bog‘liq[2]. Shundan kelib chiqib, pragmatik modulyatsiya publitsistik tarjimada tasodifiy hodisa emas, balki ongli ravishda tanlangan va kommunikativ maqsadga yo‘naltirilgan strategiya sifatida namoyon bo‘ladi.

So‘nggi yillarda olib borilayotgan tadqiqotlarda tarjima matni faqat semantik birliklar majmui sifatida emas, balki ijtimoiy, ideologik va madaniy omillar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan kommunikativ hodisa sifatida talqin qilinmoqda . Xususan, M. Beker publitsistik va ommaviy kommunikatsiya matnlarida narrative (hikoya) va ideologik (g‘oyaviy) omil tarjima strategiyasini belgilovchi yetakchi ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, tarjimon muallif pozitsiyasini aks ettirish bilan bir qatorda, uni qabul qiluvchi jamiyatda qanday talqin qilinishini ham oldindan hisobga olishi lozim[3]. Bu holat pragmatik modulyatsiyani publitsistik tarjimada muqarrar strategiyaga aylantiradi.

Mazkur yondashuv L. Venuti tomonidan ilgari surilgan *qabul qiluvchi madaniyatiga moslashtirish* va xorijlashtirish *asliyatga yaqinlashtirish* strategiyalari doirasida yanada aniqlashtiriladi. Venutining ta’kidlashicha, publitsistik tarjimada ko‘pincha domestikatsiya, ya’ni matnni qabul qiluvchi madaniyatga moslashtirish ustuvor bo‘ladi, chunki bunday matnlarning asosiy vazifasi adresat ongiga faol ta’sir o‘tkazishdan iboratdir[4]. Natijada tarjimon semantik birliklarni madaniy moslashuv asosida qayta kodlashga majbur bo‘ladi, bu esa pragmatik modulyatsiyani kuchaytiradi.

Rus tarjimashunoslik maktabida ham publitsistik tarjimada pragmatik omil masalasi yetakchi yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. V. N. Komissarov tarjimada pragmatik ekvivalentlikni ta’minlash tarjimonning asosiy vazifalaridan biri ekanligini ta’kidlab, publitsistik matnlarda tarjima adekvatligi ko‘pincha pragmatik moslashuv darajasi bilan belgilanishini qayd etadi[5]. Olimga ko‘ra, tarjimon muallifning baholovchi munosabatini saqlab qolish maqsadida semantik strukturalarni o‘zgartirish huquqiga ega.

A. D. Shveyser tarjimani madaniyatlararo kommunikatsiya jarayoni sifatida talqin qilib, publitsistik diskursda pragmatik modulyatsiyani ijtimoiy buyurtma bilan bog‘laydi. Uning fikricha, publitsistik matn tarjima jarayonida neytrallanmaydi, balki yangi madaniy muhitda qayta shakllantiriladi[6]. Bu jarayon semantik uyg‘unlik bilan bir qatorda, pragmatik transformatsiyalarni ham talab etadi.

Empirik tadqiqotlar ham ushbu nazariy qarashlarni tasdiqlaydi. Jumladan, T.V.Krilovaning publitsistikada baholovchi birliklar tarjimasiga bag‘ishlangan tahlillari pragmatik modulyatsiya eng ko‘p uchraydigan tarjima transformatsiyalaridan biri ekanligini ko‘rsatadi. Uning tadqiqotlariga ko‘ra, baholovchi leksika tarjimasida semantik aniqlikdan ko‘ra kommunikativ ta’sir ustuvor ahamiyat kasb etadi[7].

O‘zbek tarjimashunosligida ham publitsistik matn tarjimasiga pragmatik nuqtai nazardan yondashish tobora kuchayib bormoqda. X. Doniyorov tarjimani madaniyatlararo muloqot vositasi sifatida talqin qilib, publitsistik matnlarda muallif pozitsiyasini saqlash tarjimaning asosiy mezoni ekanligini ta’kidlaydi[8]. N. Qosimova esa publitsistik matn tarjimasida baholovchanlik va ekspressivlikni saqlash muammolarini tahlil qilib, pragmatik moslashuvni semantik yo‘qotish emas, balki funksional yutuq sifatida baholash zarurligini asoslaydi[9].

So‘nggi tadqiqotlarda publitsistik tarjimada diskursiv tahlil usullaridan foydalanish samaradorligi ham asoslab berilgan[10]. Ushbu ishlar pragmatik

[1] Newmark, P. (1988). A textbook of translation. Prentice Hall.
[2] Hatim, B., & Mason, I. (1990). Discourse and the translator. Longman.
[3] Baker, M. (2018). Translation and conflict: A narrative account (2nd ed.). Routledge.
[4] Venuti, L. (2017). The translator’s invisibility: A history of translation (2nd ed.). Routledge.
[5] Комиссаров В.Н. (2002). Современное переводоведение. ЭТС.
[6] Швейцер А. Д. (2009). Теория перевода: статус, проблемы, аспекты. URSS.
[7] Крылова, Т. В. (2016). Прагматические аспекты перевода публицистических текстов. – Москва: Издательство Московского государственного университета.
[8] Doniyorov, X. (2018). Tarjima va madaniyatlararo muloqot. Toshkent.
[9] Qosimova, N. (2020). Publitsistik matn tarjimasida baholovchanlik muammolari. Til va adabiyot ta’limi, 4, 45–52.
[10] Islomov, S. (2022). Publitsistik tarjimada diskursiv tahlil imkoniyatlari. O‘zbek tilshunosligi masalalari, 2, 78–85.

modulyatsiya va semantik uyg‘unlikni qarama-qarshi hodisalar emas, balki yagona kommunikativ tizimning o‘zaro bog‘liq komponentlari sifatida talqin qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Publitsistik matn tarjimasida semantik uyg‘unlik tarjima adekvatligining fundamental mezonlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Bunda semantik uyg‘unlik faqat denotativ mazmunni uzatish bilangina cheklanmay, balki konnotativ, baholovchi va stilistik qatlamlarning ham muvofiqligini ta’minlashni nazarda tutadi. Aynan shu jihat publitsistik tarjimada pragmatik modulyatsiya bilan semantik uyg‘unlikning o‘zaro uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘lishini taqozo etadi.

A. Pim tarjimada mazmuniy aniqlik va funksional moslik o‘rtasidagi muvozanatni markaziy masala sifatida ko‘rib, ushbu muvozanat buzilgan hollarda matnning kommunikativ qiymati pasayishini ta’kidlaydi[1]. Pimning yondashuvi semantik uyg‘unlikni statik hodisa emas, balki tarjima jarayonida doimiy ravishda qayta muvozanatlashtiriladigan dinamik jarayon sifatida talqin etishi bilan publitsistik tarjima nazariyasiga muhim hissa qo‘shadi.

Biroq boshqa tadqiqotchilar semantik uyg‘unlik masalasiga yanada funksionalroq yondashadilar. J. Haus tomonidan ishlab chiqilgan funksional-pragmatik ekvivalentlik konsepsiyasiga ko‘ra, tarjima matnining adekvatligi uning original matn bilan formal yoki leksik jihatdan mosligida emas, balki bajaradigan kommunikativ vazifasining o‘xshashligida namoyon bo‘ladi[2]. Ushbu yondashuv Pimning qarashlarini to‘ldirgan holda, publitsistik tarjimada to‘liq semantik ekvivalentlikning har doim ham maqsadga muvofiq emasligini asoslab beradi. Ayniqsa, baholovchi xarakterga ega birliklar tarjimasida semantik aniqlikdan ko‘ra pragmatik moslik ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Mazkur masalada B. Hatim va I. Masonning diskursiv yondashuvi ham muhim. Ular publitsistik matnni ijtimoiy kontekst bilan uzviy bog‘liq diskurs sifatida talqin qilib, tarjimada semantik uyg‘unlik faqat matn darajasida emas, balki diskurs darajasida ham ta’minlanishi lozimligini ta’kidlaydilar[3]. Ularning fikricha, tarjimon semantik strukturalarni saqlab qolishga emas, balki matnning baholovchi va persuaziv vazifalarini yangi kommunikativ muhitda qayta yaratishga intilishi zarur. Bu esa pragmatik modulyatsiyani tarjimaning ajralmas komponentiga aylantiradi.

Shu nuqtayi nazardan qaralganda, publitsistik tarjimada to‘liq semantik ekvivalentlik ko‘pincha erishib bo‘lmaydigan yoki kommunikativ jihatdan samarasiz maqsad bo‘lib chiqadi. Asliyat matndagi ayrim leksik birliklar boshqa madaniy makonda o‘zining semantik-assotsiativ maydonini yo‘qotishi yoki noto‘g‘ri talqin qilinishi mumkin. Bunday vaziyatlarda tarjimon semantik moslikni imkon qadar saqlagan holda pragmatik modulyatsiyaga murojaat qiladi. Ushbu strategiya semantik yo‘qotish emas, balki funksional kompensatsiya sifatida baholanadi, chunki u matnning asosiy kommunikativ-pragmatik vazifasini saqlab qolishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, semantik uyg‘unlik va pragmatik moslashuv publitsistik tarjimada bir-biriga zid hodisalar emas, balki yagona tizimning o‘zaro bog‘liq elementlari sifatida namoyon bo‘ladi. Pragmatik modulyatsiya semantik strukturaning buzilishiga emas, balki uning yangi ijtimoiy-madaniy sharoitda funksional jihatdan qayta tashkil etilishiga xizmat qiladi. Natijada tarjima matni formal jihatdan asl matndan farqlanishi mumkin bo‘lsa-da, uning kommunikativ samaradorligi va diskursiv ta’sir kuchi saqlanib qoladi.

Publitsistik matn tarjimasida pragmatik modulyatsiya va semantik uyg‘unlikning amaliy namoyon bo‘lishini aniqlash maqsadida ingliz va rus tillaridagi yetakchi ommaviy axborot manbalaridan olingan publitsistik materiallar tahlil qilindi. Tahlil uchun *BBC News, The Guardian, The New York Times, The Washington Post, Ria Novosti* nashrlarida chop etilgan siyosiy-ijtimoiy mazmundagi maqolalar tanlandi. Ushbu matnlarning o‘zbek va rus tillaridagi tarjima variantlari qiyosiy-diskursiv yondashuv asosida o‘rganildi.

Asliyat matnidan: *«The government’s decision sparked widespread outrage among civil society groups».* (The Guardian, 2021)

So‘zma-so‘z tarjima: «*Hukumatning qarori fuqarolik jamiyati guruhlari orasida keng ko‘lamli g‘azabni keltirib chiqardi».*

Amaliy tarjima (o‘zbek OAV): «*Hukumatning mazkur qarori jamoatchilik vakillari tomonidan keskin norozilik bilan kutib olindi.*

Ushbu misolda *outrage* leksik birligi so‘zma-so‘z «g‘azab» sifatida tarjima qilinishi mumkin bo‘lsa-da, tarjimada «keskin norozilik» birikmasining tanlanishi pragmatik modulyatsiyaning yaqqol namunasidir. Chunki o‘zbek publitsistik diskursida «g‘azab» birligi haddan tashqari emotsional va konflikt talqin uyg‘otishi mumkin. Tarjimon semantik yadroni saqlagan holda baholovchi yuklamani adresat madaniyatiga moslashtirgan. Bu holat V.Komissarov ta’kidlagan pragmatik ekvivalentlik tamoyiliga to‘liq mos keladi.

Asliyat matnidan: «*Western leaders condemned*

[1] Pym, A. (2010). Exploring translation theories. Routledge.
[2] House, J. (2015). Translation quality assessment: Past and present (2nd ed.). Routledge.
[3] Hatim, B., & Mason, I. (1990). Discourse and the translator. Longman.

the move as a blatant violation of international norms». (BBC News, 2022)

So‘zma-so‘z tarjima: «*G‘arb yetakchilari bu harakatni xalqaro me’yorlarning ochiqdan-ochiq buzilishi sifatida qoraladi».*

Rus tilidagi tarjima (RIA Novosti): «*Западные лидеры расценили данный шаг как спорное решение в контексте международного права».*

Mazkur holatda blatant violation birligi rus tilidagi tarjimada **«***спорное решение***»** (bahsli qaror) sifatida modulyatsiyaga uchragan. Bu o‘zgarish semantik yo‘qotish emas, balki ideologik neytrallashtirishga qaratilgan pragmatik strategiyadir. Shveyser ta’kidlaganidek, publitsistik tarjimada ideologik yuklama yangi madaniy makonda qayta shakllantiriladi. Bu misol tarjimaning ijtimoiy buyurtma bilan bog‘liqligini yaqqol ko‘rsatadi.

Asliyat matnidan: «*The policy became a political minefield for the administration».* (The New York Times, 2020).

So‘zma-so‘z tarjima: «*Siyosat hukumat uchun siyosiy mina maydoniga aylandi».*

Amaliy tarjima (o‘zbek): *«Mazkur siyosat hukumat uchun jiddiy siyosiy sinovga aylandi».*

Bu yerda *political minefield* metaforasi o‘zbek tilida so‘zma-so‘z berilmagan, chunki «mina maydoni» metaforasi publitsistik uslubda har doim ham tabiiy qabul qilinmaydi. Tarjimon metaforaning semantik asosini emas, balki uning pragmatik funksiyasini saqlab qolgan. Natijada semantik transformatsiya hisobiga kommunikativ samaradorlik oshirilgan. Bu holat Nidaning dinamik ekvivalentlik nazariyasi bilan to‘liq mos keladi.

Asliyat matnidan: *«The American people are smart,» he said. «They know Rome wasn’t built in a day»* (The Washington Post. 2025).

So‘zma-so‘z tarjima: *«Amerika xalqi aqlli», dedi u. «Ular Rim bir kunda qurilmaganini bilishadi».*

Asliyat matnidan: *«Trump sues BBC for up to $10 billion ‘for putting words in my mouth’».* (The Washington Post. 2025).

Rus tiliga tarjima: *«Трамп подал в суд на BBC, требуя до 10 миллиардов долларов «за то, что они вложили слова, которых я не говорил».*

Tahlil qilingan misollar shuni ko‘rsatadiki, publitsistik matn tarjimasida semantik uyg‘unlik ko‘pincha to‘liq ekvivalentlik shaklida emas, balki funksional moslik darajasida ta’minlanadi; pragmatik modulyatsiya baholovchi, ideologik va metaforik birliklar tarjimasida eng faol qo‘llaniladi, shuningdek, tarjimonning madaniy va diskursiv kompetensiyasi tarjima adekvatligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Shu tariqa, amaliy tahlil natijalari nazariy qismda ilgari surilgan fikrlarni tasdiqlab, publitsistik tarjimada semantik uyg‘unlik va pragmatik modulyatsiya o‘zaro bog‘liq, bir-birini to‘ldiruvchi strategiyalar ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

Globallashuv sharoitida publitsistik diskursning transmilliy xarakter kasb etishi tarjimani oddiy lingvistik konversiya jarayoni emas, balki ijtimoiy, ideologik va madaniy omillar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan murakkab kommunikativ faoliyat sifatida talqin etishni taqozo etmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, publitsistik tarjimada semantik uyg‘unlik faqat denotativ mazmunning saqlanishi bilan cheklanmay, balki konnotativ, baholovchi va stilistik qatlamlarning ham adresat madaniyatiga mos tarzda qayta yaratilishini talab qiladi. Shu jihatdan, to‘liq semantik ekvivalentlik ko‘pincha kommunikativ jihatdan samarasiz bo‘lib, tarjimada pragmatik modulyatsiya orqali funksional moslikka erishish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Nazariy tahlil davomida Nidaning dinamik ekvivalentlik konsepsiyasi, Nyumarkning kommunikativ tarjima modeli, Hatim va Masonning diskursiv yondashuvi, Pim hamda Haus tomonidan ilgari surilgan funksional-pragmatik ekvivalentlik qarashlari publitsistik tarjimada pragmatik modulyatsiyaning ilmiy asoslangan va zarur strategiya ekanligini ko‘rsatdi. Ushbu yondashuvlar tarjimani statik semantik moslik emas, balki dinamik kommunikativ jarayon sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Amaliy tahlil natijalari baholovchi leksika, metaforik ifodalar, ironik vositalar va ideologik yuklamaga ega birliklar tarjimasida pragmatik modulyatsiya eng faol qo‘llaniladigan transformatsiya ekanligini tasdiqladi. Tarjimon tomonidan amalga oshirilgan semantik o‘zgarishlar ko‘pincha mazmuniy yo‘qotish emas, balki funksional kompensatsiya sifatida namoyon bo‘lib, matnning adresatga ta’sir kuchini saqlab qolishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, semantik uyg‘unlik va pragmatik moslashuv publitsistik tarjimada bir-biriga zid hodisalar emas, balki yagona kommunikativ tizimning o‘zaro bog‘liq komponentlari hisoblanadi. Pragmatik modulyatsiya semantik strukturaning buzilishiga emas, balki uning yangi ijtimoiy-madaniy muhitda funksional jihatdan qayta tashkil etilishiga xizmat qiladi. Mazkur xulosalar publitsistik tarjimani diskursiv va pragmatik nuqtai nazardan tadqiq etish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi hamda kelgusida olib boriladigan tarjimashunoslik tadqiqotlari uchun nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Rezyume. Mazkur maqolada publitsistik matn tarjimasida semantik uyg‘unlik va pragmatik modulyatsiyaning o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari pragmatik moslashuv tarjima adekvatligini ta’minlovchi muhim strategiya ekanligini ko‘rsatadi. Publitsistik tarjima diskursiv va funksional yondashuv asosida talqin qilinadi.

Resume. This article examines the relationship between semantic coherence and pragmatic modulation in the translation of journalistic texts. The findings demonstrate that pragmatic adaptation plays a key role in achieving translation adequacy. Journalistic translation is interpreted as a discourse-based and function-oriented process.

Резюме. В статье анализируется соотношение семантической согласованности и прагматической модуляции в переводе публицистических текстов. Результаты исследования показывают, что прагматическая адаптация является важнейшим условием адекватности перевода. Публицистический перевод рассматривается как дискурсивный и функционально ориентированный процесс.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2025; 11-12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

HAMID OLIMJON IJODIDA QOFIYANING O‘RNI

Raximova Umida Djumayevna,
Termiz davlat universiteti
o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi v.b.dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

O‘zbek adabiyoti tarixida Hamid Olimjonning tutgan o‘rni beqiyosdir. U XX asrning birinchi yarmida o‘zbek she’riyatini yangi bosqichga olib chiqqan, lirika va doston janrlarini milliy hamda jahon adabiyoti darajasiga ko‘targan ijodkor sifatida tanilgan. Hamid Olimjonning she’riy merosida milliylik, yangicha obrazlilik, musiqiylik va xalqona ruh uyg‘unlashib ketgan. Ana shu musiqiylikni yuzaga chiqaruvchi asosiy badiiy vositalardan biri qofiya hisoblanadi. Chunki qofiya nafaqat tashqi shakl go‘zalligini belgilaydi, balki she’rning mazmuniy ta’sirchanligini oshiradi, musiqiylik bag‘ishlaydi.

Qofiya (arab. – *ergashish, izidan borish*, yun. – *rifma:* «mutanosiblik, ritm») deb ikki yoki undan ortiq misra oxiridagi lafzdoshlik[1]ka aytiladi.

Qofiya she’rning asosiy tashkiliy unsurlaridan biri sifatida ritmik ohangni mustahkamlaydi, misralar o‘rtasidagi mazmuniy bog‘liqlikni kuchaytiradi.

Qofiya she’rning tashqi shaklini uyg‘unlashtiruvchi, ohangdorligini ta’minlovchi, misralar o‘rtasida ritmik bog‘liqlik hosil qiluvchi muhim poetik unsurdir. Ammo Hamid Olimjon ijodida qofiya faqat shakl emas, balki mazmunni ta’kidlash, obrazni kuchaytirish va hissiy ta’sirchanlikni oshirish vositasiga aylangan. Shuning uchun uning ijodini qofiyasiz tasavvur qilish mushkul.

Hamid Olimjon ko‘plab she’rlarida qofiyani milliy kuy va ohanglarga moslashtirgan. Uning lirik she’rlari, dostonlari o‘qilganda, go‘yo kuylanayotganday taassurot uyg‘otadi. Bunda qofiyaning musiqiy vazifasi yetakchi o‘rin tutadi. Masalan, «Yurak» she’rida takroriy qofiyalar yurakning urishi, ichki hayajonni ifodalovchi ohangni yuzaga keltiradi.

[1] Рустамов А.Қофия нима? – Тошкент .Фан,1976. – Б.10.

Qofiya Hamid Olimjon ijodida faqat tashqi jilo emas, balki poetik fikrning mantiqiy yakunini belgilaydi. Qofiya orqali shoir she'rga ichki ritm beradi, obrazlarni yaxlitlaydi, g'oyaviy asosni ta'kidlaydi.

Masalan, «So'nmas yulduzlar» she'rida:

Yulduzlaring so'nmas, o'chmas, ey Vatan,
Sen yashar jahonlar bilan barobar.

Bu yerda qofiya milliy g'urur va abadiylik g'oyasini yanada kuchaytiradi.

Shoirning ijodiy tajribasi shuni ko'rsatadiki, u qofiyani nafaqat vazn va ritmik tartibni ta'minlash, balki poetik fikrning mazmuniy ohangini kuchaytirish uchun qo'llagan. Misralar oxiridagi so'zlarning musiqiy uyg'unligi orqali she'rning ta'sir kuchi oshadi. Masalan, shoirning mashhur «O'zbekiston» she'rida qofiyalar milliy g'ururni ifodalovchi obrazlarni musiqiy ohangda birlashtiradi:

Sen yetuk xalq, sen ulug' yurt, ey Vatan,
Sen tuprog'ing oltin, diling mehribon.

Bu yerda «Vatan – mehribon» qofiyalari nafaqat ohangdorlik yaratmoqda, balki Vatan timsoliga mehribonlik, samimiyat, ona obraziga xos xususiyatlarni singdirib, mazmunni yanada boyitmoqda.

Hamid Olimjon she'riyatida turli qofiya turlaridan keng foydalaniladi. Ularning barchasi shoirning poetik mahoratini ko'rsatadi.

Ma'lumki, to'liq va jarangdor qofiyadoshlikka erishish o'z-o'zidan bo'lavermaydigan murakkab jarayon. Bu jarayon turli vositalarni izlashni tovushdosh so'zlarni tanlay bilishni talab qiladi. H.Olimjon turli vositalardan foydalana olgani uchun o'z asarlarida to'liq va jarangdor qofiyadoshlikni ta'minlashga erishgan. Chunonchi, so'zlarning turli shakl va variantlaridan, shakl va ma'no munosabatlari hamda tovushdoshligidan mahorat bilan foydalanishi mukammal qofiyalar yaratilishiga olib kelgan. Masalan, Shoir ijodida men, sen, u olmoshlarining man, san, ul poetik variantlari qofiyadoshlik maqsadida ancha faol qo'llanilgan. Masalan,

Bunyod kelgan zamon ul,
Shodlikka to'ldi butkul.
«Semurg'»

Nafratim bordir sanga
O'zing o'ylab ko'r tanga.
Bir oz erkin qolgali
Daryo labiga bordi[1]
«Oygul bilan Baxtiyor»

To'liq qofiyada so'zlarning tovush tarkibi to'liq mos keladi. Bu qofiya turi shoirning lirikasida ko'p uchrab, she'rning uyg'unligini oshiradi. To'liq qofiya mazmuniy ta'sirchanlikni kuchaytiradi.

Shoir qofiyalarning aniq va ohangli bo'lishiga harakat qilgan, shu bilan birga ba'zan ohangdor bog'lanishni noaniq yoki yarim qofiya bilan yaratgan holatlar ham kuzatiladi.

Noto'liq qofiya ishlatish orqali shoir tuyg'ularni noaniq, siljigan ohangda ifodalashga, ohang-ritmni tabiiy holatda shakllantirishga intilgan.

Noto'liq qofiyada tovushlar qisman mos keladi. Bu holat she'rga tabiiy ohang bag'ishlaydi, musiqiylikni erkinlashtiradi.Noto'liq qofiya bu qofiyaning odatiy, to'liq va aniq ohangli varianti emas, balki so'zlar oxiridagi tovushlar to'liq mos kelmasligi bilan ajralib turadigan qofiya turi. Bu qofiyada ohangdorlik o'xshash, lekin ideal darajada bir xil emas. Masalan, so'zlar oxiridagi unli yoki undosh tovushlar bir-biriga yaqindan o'xshash bo'lsa-da, ularning tovushlari to'liq mos tushmaydi. Noto'liq qofiya to'g'ri qofiyaga qaraganda ko'proq erkin his qilishga imkon yaratadi, she'r mazmunini ta'kidlash, murakkab tuyg'ularni ifodalashda qo'llanadi.

Hamid Olimjon she'riyatida qofiya tanlovi ko'pincha tilning tabiiyligi, ohangning muloyimligi tomon yo'nalgan bo'lib, har doim to'liq qofiyaga qat'iy yopishmaydi. Bu shoirning erkin po'etik ifodaga intilishi bilan bog'liq.Qofiyaning bu turi she'riyatda tovushlar to'liq ohangli bo'lmasligi,biroq ular orasidagi o'xshashlik orqali uyg'unlik hosil qilinishini ifodalaydi. Ohangdorlik va ritmik xilma-xillikni ta'minlaydi.

H.Olimjon ichki qofiya tuzishga ham alohida ahamiyat bergan. Ma'lumki, ichki qofiya jaranglilikni oshiruvchi vositalardan biridir. Shu boisdan ham mumtoz she'riyatda qofiyaning bu ko'rinishiga alohida e'tibor bilan qaralgan. Ichki qofiya misralarining turoqlarga ajratilib qofiyalanishiga asoslanadi. Bunda qofiyadosh bayt bir o'rinda emas, balki ikki o'rinda qofiyalanadi. Misralarda ifodalanayotgan fikrlar esa qofiyalanuvchi qismlarga mantiqan ajratiladi. Fikrga alohida urg'u beriladi. Shu jihatdan ichki qofiya qofiyadoshlikdagi muhim usullardan biri- dir.H.Olimjon dostonlarida ichki qofiyaning namunali ko'rinishlarini uchratish mumkin. Ichki qofiya satr ichida hosil bo'lib, she'rga kuyday oqim baxsh etadi. Masalan, «Zaynab va Omon» dostonida ichki qofiyalar dramatik voqealarning ohangini kuchaytiradi.

M.: Oftob yiqar qayg'u tog'ini
Oylar yoqar tun chirog'ini

Kelib qoldi yurtinnga Omon,
Kelib qoldi ranglari somon[2]*.*
«Zaynab va Omon»

[1] Hamid Olimjon. Мукаммал асарлар тўплами. 10 томлик. 2-том. Тошкент,1979 . – В.113.
[2] Ҳамид Олимжон. Мукаммал асарлар тўплами. 10 томлик. 2-том. Тошкент,1979 . – Б. 162.

Ko‘rinadiki, ichki qofiya «Zaynab va Omon» dostonida dramatik ohangni kuchaytirishga xizmat qiladi, satr ichida musiqiylikni oshiradi

Hamid Olimjon ko‘plab she’rlarida xalq og‘zaki ijodi an’analariga yaqin qofiyalardan foydalanadi. Bu esa uning poetikasini xalqona ruh bilan boyitadi. Shoir qofiyani milliy kuy va ohanglarga moslash orqali o‘zbekona lirikaning yangicha ufqlarini ochib berdi.

Hamid Olimjon she’riyatida qofiya muhim poetik vosita sifatida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Uning qofiya tanlashdagi nozik didi, turfa xil qofiyalardan foydalanishdagi mahorati shoirning poetik salohiyatini yaqqol ko‘rsatadi. Qofiya Hamid Olimjon she’rlarida nafaqat tashqi shakl unsuri, balki mazmuniy-estetik go‘zallikni yuzaga chiqaruvchi asosiy badiiy omildir.

Hamid Olimjon ijodida qofiya faqatgina tashqi bezak emas, balki badiiy-estetik qudratni oshiruvchi, mazmunni teranlashtiruvchi va o‘quvchida estetik zavq uyg‘otuvchi vositadir. Uning qofiya qo‘llash mahorati xalq og‘zaki ijodi va mumtoz adabiyot an’analariga tayanadi, shu bilan birga zamonaviy poeziya ohangini ham yaratadi. Natijada shoirning asarlari o‘qilishi yengil, ta’sirchan va musiqiy jihatdan boy bo‘lib, o‘zbek she’riyatida qofiyaning badiiy imkoniyatlarini kengaytirgan. O‘zbek prozasining shakllanish va rivojlanish tarixini Hamid Olimjonning shu sohadagi asarlarisiz tasavvur qilish qiyin»[1].

Rezyume. Mazkur maqolada XX asr o‘zbek she’riyatining yirik vakili Hamid Olimjonning ijodida qofiyaning tutgan o‘rni va uning poetik vazifalari ilmiy asosda tadqiq etiladi. Shoir she’riyatida qofiyaning musiqiylik, obrazlilik, hissiy ta’sirchanlik hamda milliy ruhni ifodalashdagi ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Misollar orqali qofiya turlari, ularning badiiy-estetik vazifasi va shoirning mahoratli qo‘llash usullari ochib beriladi.

Rezyume. In this article, the role of rhyme and its poetic functions in the work of Hamid Olimjon, a major representative of Uzbek poetry of the 20th century, are studied on a scientific basis. The poet’s poetry examines the importance of rhyme in the expression of musicality, imagery, emotional touch and national spirit. Through examples, the types of rhyme, their artistic and aesthetic function and the methods of skilled application of the poet are revealed.

Резюме. В данной статье научно исследуется роль рифмы и ее поэтические функции в творчестве крупного представителя узбекской поэзии XX века Хамида Олимжана. В поэзии поэта рассматривается значение рифмы в выражении музыкальности, образности, эмоциональной выразительности, национального духа. Через примеры раскрываются виды рифм, их художественно-эстетическая функция и способы умелого применения поэтом.

[1] Каримов Н. Ҳамид Олимжоннинг поэтик маҳорати. – Тошкент: Фан, 1964. – 126 б.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 11-12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

MUALLIFLIK KORPUSINING AMALIY QO'LLANILISH SOHALARI

Umirova Svetlana,
Samarqand davlat universiteti dotsenti

Turli davrlar va madaniy muhitlarga mansub yozuvchilarning asarlarini saqlash va tahlil qilish orqali mualliflik korpuslari yozma merosni anglashga xizmat qiladi. Bunday korpuslar har bir jumlada muallifning shaxsiy identiteti bilan bir qatorda, muayyan jamiyatning tarixiy va madaniy tajribasi ham mujassam ekanini eslatadi. Shu bois mualliflik korpusi so'zning ilmiy va estetik qiymatini yanada teran anglashga yo'l ochib, til va adabiyot tadqiqotlarida beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Mualliflikni aniqlash va stilometriya. Mualliflik korpusining amaliy qo'llanilish sohalaridan biri mualliflikni aniqlash jarayonidir. Bu jarayon muallifi noma'lum yoki bahsli bo'lgan matnning kim tomonidan yozilganini aniqlashga qaratilgan bo'lib, ilmiy adabiyotlarda ko'pincha **stilometriya** atamasi bilan ifodalanadi. Stilometriya muallifga xos bo'lgan uslubiy belgilarni aniqlash va ularni hisoblashga asoslangan hisoblash (kompyuter) usullaridan foydalanadi[1]. Stilometrik tahlil jarayonida funksional (yordamchi) so'zlarning qo'llanish chastotasi; gap uzunligi, tinish belgilaridan foydalanish uslubi va ularning taqsimlanishi; kollokatsiyalar hamda muallifga xos sintaktik xususiyatlar kabi asosiy uslubiy ko'rsatkichlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu ko'rsatkichlar odatda muallif tomonidan ongli ravishda nazorat qilinmaydi, shu sababli ular mualliflikni aniqlashda ishonchli lingvistik dalil sifatida xizmat qiladi. Mualliflik korpuslari asosida olib borilgan stilometrik tahlillar tarixiy va zamonaviy tadqiqotlarda samarali qo'llanib kelmoqda. Xususan, stilometriya usullari yordamida *Federalist maqolalari* mualliflig Aleksandr Gamilton va Jeyms Medison o'rtasida ilmiy asosda taqsimlangan. Shuningdek, Uilyam Shekspirga nisbat berilgan ayrim dramatik asarlarning mualliflig borasidagi bahsli masalalarni o'rganishda ham korpusga asoslangan tahlillar muhim rol o'ynagan. Raqamli davr sharoitida esa stilometriya soxta mualliflikni aniqlashda keng qo'llanilmoqda. Bugungi kunda stilometriya plagiatni aniqlash, akademik halollikni tekshirish hamda raqamli matnlarning mualliflig'ini tasdiqlash jarayonlarida muhim ilmiy-amaliy vositaga aylangan. Mualliflik korpuslari esa ushbu tahlillarning ishonchliligi va aniqligini ta'minlovchi asosiy empirik manba sifatida xizmat qiladi.

Mualliflik korpusining raqamli gumanitar fanlar va sun'iy intellektdagi o'rni. Raqamli gumanitar fanlar va kompyuter lingvistikasi kesishgan nuqtada mualliflik korpuslari uchun mutlaqo yangi ilmiy yo'nalishlar shakllandi. Ushbu fanlararo yondashuv mualliflik korpuslarini keng ko'lamli adabiy va madaniy hodisalarni tahlil qilishda samarali vositaga aylantirdi. Raqamli gumanitar tadqiqotlar doirasida mualliflik korpuslaridan yirik adabiy arxivlarni tahlil qilish orqali takrorlanuvchi mavzular va ijtimoiy tendensiyalarni aniqlash; asrlar davomida yaratilgan adabiy asarlarda gender va hokimiyat munosabatlarining til orqali qanday ifodalanganini o'rganish; noyob tarixiy qo'lyozmalarni raqamlashtirish, saqlash va izohlash orqali madaniy merosni asrash kabi maqsadlarda foydalaniladi.

Sun'iy intellekt sohasida esa mualliflik korpuslari til modellari uchun asosiy o'quv manbayi hisoblanadi. Chatbotlar, matnni avtomatik qisqartirish tizimlari hamda ijodiy yozuvga mo'ljallangan dasturlar inson nutqiga xos ifoda usullarini aynan katta hajmdagi matn korpuslari asosida o'zlashtiradi. Bundan tashqari, maxsus tanlab tuzilgan va moslashtirilgan (fine-tuned) mualliflik korpuslari sun'iy intellektga muayyan muallif uslubini taqlid qilish imkonini beradi. Masalan, Edgar Allan Po yoki Virjiniya Vulf uslubida matn yaratish aynan shunday korpuslarga tayanadi. Biroq ushbu imkoniyatlar bilan bir qatorda muhim axloqiy masalalar ham yuzaga keladi. Sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan uslubiy taqlidlar haqiqiy va sun'iy mualliflik o'rtasidagi chegaralarni xiralashtiradi. Bu

[1] Qarang: https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A1%D1%82%D0%B8%D0%BB%D0%BE%D0%BC%D0%B5%D1%82%D1%80%D0%B8%D1%8F; Симоненко М. А. Значение стилометрии для лингвистической атрибуции бренда (на материале англоязычных маркетинговых текстов пяти мировых брендов) // Филологические науки. Вопросы теории и практики. 2025. №8. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/znachenie-stilometrii-dlya-lingvisticheskoy-atributsii-brenda-na-materiale-angloyazychnyh-marketingovyh-tekstov-pyati-mirovyh (дата обращения: 16.12.2025). Установление авторства с помощью стилометрии // https://ndc.book24.ru/pim/products/images/1a/5f/01907871-d178-7f74-b6d3-9fd251691a5f.pdf

esa intellektual mulk, mualliflik huquqi va ijodiy halollik kabi masalalarni qayta ko‘rib chiqishni talab etadi. Shu sababli mualliflik korpuslaridan sun’iy intellektda foydalanish nafaqat texnologik, balki huquqiy va axloqiy yondashuvlarni ham o‘z ichiga olgan holda amalga oshirilishi lozim.

Ta’lim va madaniyatda mualliflik korpusi. Mualliflik korpusi ta’lim sohasida ham tobora muhim rol o‘ynamoqda. O‘qituvchi va tilshunoslar uni yozuv texnikalarini namoyish etish, uslubiy tahlil qilish va talabalarni o‘z shaxsiy ovozini rivojlantirishga rag‘batlantirish uchun ishlatishadi. Ijodkorlikni o‘rganayotgan talaba mashhur mualliflar uslubi bilan solishtirish orqali matn ohangi, struktura va ifodaning turli jihatlarini tushunishi mumkin. Madaniy nuqtayi nazardan mualliflik korpusi adabiy merosni saqlashga xizmat qiladi. Muallif asarlarini raqamlashtirish ularni kelajak avlod uchun doimiy ravishda mavjud bo‘lishini ta’minlaydi, bu esa nafaqat akademik tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlaydi, balki keng jamoatchilikni adabiyot bilan tanishtirish imkonini ham yaratadi.

Axloqiy muammolar va ma’lumotlarni maxfiyligi muammosi. Mualliflik korpusining ahamiyatli jihatlariga qaramay, murakkab muammolarni ham keltirib chiqaradi. Matnlar ko‘pincha shaxsiy, siyosiy yoki nozik mazmunni o‘z ichiga oladi. Ularni tadqiqot yoki sud-tahliliy maqsadlarda muallifning aniq roziligisiz ishlatish shaxsiy hayotga tajovuz hisoblanadi. Ijtimoiy tarmoqlar yoki elektron pochta kabi raqamli manbalardan ma’lumot to‘plangan korpuslarda anonimlashtirish va axloqiy ruxsat olish talab etiladi. Shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalari muallif ma’lumotlaridan trening uchun keng foydalanar ekan, intellektual mulk va ijodiy huquq bilan bog‘liq masalalar yanada dolzarblik kasb etadi.

Mualliflik korpuslarining kelajagi. Texnologiya rivojlanishi bilan mualliflik korpuslari hajmi va murakkabligi jihatidan o‘sib bormoqda. Kelajakdagi yo‘nalishlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: matnni nutq, qo‘lyozma yoki vizual belgilar bilan birlashtiradigan multimodal korpuslar; turli tillarda mualliflik uslubini solishtirishga imkon beruvchi tillaro korpuslar; yangi raqamli kontent bilan real vaqtda yangilanadigan dinamik korpuslar, bu esa lingvistik o‘zgarishlarni jonli kuzatish imkonini yaratadi. Ushbu rivojlanish inson muloqoti va ijodkorlikni aniq tushunishga yordam beradi, ammo kuchli axloqiy me’yorlar va fanlararo hamkorlikni talab qiladi.

Aytish mumkinki, mualliflik korpusi shunchaki lingvistik ma’lumotlar bazasi emas; u inson tafakkuri, madaniyati va identitetining arxivi hisoblanadi. U tadqiqotchiga til orqali individual xususiyatlarni ochish, tarixiy va ijtimoiy o‘zgarishlarni kuzatish, huquqiy savollarga javob olish va sun’iy intellekt tizimlarini o‘rgatish imkonini beradi. Shu bilan birga, korpusdan axloq me’yorlariga amal qilgan tarzda foydalanish, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va mualliflik huquqlarini hurmat qilish talab etiladi. Til va texnologiya o‘rtasidagi ko‘prik sifatida mualliflik korpuslari har bir ma’lumot to‘plami, har bir kod qatori va har bir model ortida o‘ziga xos: noyob, ifodali va o‘zgartirib bo‘lmaydigan inson ovozi borligini eslatadi.

Usmon Azim mualliflik korpusining ahamiyati. Mualliflik korpuslarini o‘rganish zamonaviy tilshunoslik va raqamli gumanitar fanlar sohasida tobora kengayib borayotgan yo‘nalishdir. Bunday korpus tadqiqotchiga matnlarning tizimli to‘plamlari orqali til, uslub va ijodkorlikni chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Milliy adabiyot doirasida mualliflik korpusi nafaqat ilmiy tadqiqot vositasi, balki madaniy merosni saqlash va kelajak avlodga yetkazishning samarali instrumentiga aylanadi.

O‘zbekistonning boy she’riyat an’analarida Usmon Azim o‘zining yangicha va ta’sirli ovozi bilan alohida ajralib turadi. Uning she’riyati mumtoz o‘zbek adabiyoti bilan zamonaviy ekzistensial va falsafiy mavzularni uyg‘unlashtiradi, bu esa an’anaviy va zamonaviy tafakkur o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajaradi. Shuning uchun Usmon Azim ijodiy merosi mualliflik korpusini yaratish nafaqat lingvistik va adabiy tahlil uchun, balki raqamli davrda O‘zbekistonning madaniy va intellektual merosini asrash nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyatga ega.

Usmon Azim korpusining lingvistik ahamiyati. Usmon Azim she’riyati o‘zbek tilining go‘zalligi va nafosatini aks ettiradi, uning ritmi, idiomatik ifodalari va tarixiy boyligini namoyon qiladi. Uning asarlaridan raqamli korpus yaratish tilshunosga she’riyat kontekstida o‘zbek sintaksisi va morfologiyasining ishlashini chuqur tahlil qilish; uning she’rlarida og‘zaki va klassik til elementlarining o‘zaro ta’sirini o‘rganish; mintaqaviy lahjalar yoki qadimgi turkchaga oid elementlarning so‘z boyligida qanday namoyon bo‘lishini aniqlash imkoniyatini beradi. Bunday tahlillar o‘zbek tilining adabiy ijod orqali qanday rivojlanishini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Usmon Azim she’riyati tili rang-barang metafora va madaniy ishoralarga boy bo‘lib, milliy lingvistik identitetni chuqur aks ettiradi.

Mualliflik korpusi Usmon Azimning ijodiy uslubi va semantik tizimini tizimli o‘rganish imkonini beradi. Masalan, foydalanuvchi (1) tabiat, sevgi mavzularidagi takrorlanuvchi tasviriy obrazlar; (2) hissiy intensivlik va falsafiy cheklov o‘rtasidagi muvozanat; (3) uning she’rlariga xos ritmni shakllantiruvchi so‘z chastotasi va tovush simvolizmi jihatlarni aniqlashi mumkin. Ushbu elementlarni miqdoriy jihatdan tahlil qilish orqali tadqiqotchi Usmon Azim she’riyatining ichki strukturasi va boshqa mashhur o‘zbek shoirlari, masalan, Abdulla Oripov yoki Erkin Vohidov ijodi bi-

lan farqlanishini aniqlay oladi. Natijada, Usmon Azim mualliflik korpusini yaratish nafaqat uning ijodiy uslubini chuqur tushunishga, balki o‘zbek she’riyatining rivojlanish yo‘nalishlarini tahlil qilish va milliy lingvistik merosni asrashga xizmat qiladi. Bu korpus kelajakda tilshunoslik, adabiy tahlil va madaniy merosni raqamli shaklda saqlash uchun asos bo‘ladi.

Usmon Azim korpusining adabiy va madaniy ahamiyati. Usmon Azim faqat shoir emas; u she’riyat orqali o‘zbekning ruhi va ijtimoiy o‘zgarishlarini ifoda etuvchi madaniyatshunos sifatida ham ajralib turadi. Uning ijodi kech Sovet davri va mustaqillikdan keyingi o‘zbek jamiyatining transformatsiyalarini poetik shaklda yoritadi. Usmon Azimning she’riyati mualliflik korpusini yaratish uning asarlarini raqamli shaklda kelajak avlod uchun saqlashni ta’minlaydi. Bunday korpus milliy arxiv vazifasini bajarib, uning badiiy merosini yo‘qolishdan himoya qiladi. Usmon Azim ijodining xronologik korpusi tadqiqotchiga uning mavzu va dunyoqarashi rivojlanishini o‘rganish imkonini beradi. Dastlabgi asarlarda ko‘pincha shaxsiy lirik sezgirlik aks etsa, keyingi she’rlar kengroq falsafiy va milliy masalalarni yoritadi. Korpus asosida tahlil olib borish orqali adabiyotshunos uning ohangi, leksik tanlovi va tasviriy obrazlarning tarixiy voqealar va shaxsiy tajribalarga qarab o‘zgarishini xaritalashi mumkin. Mualliflik korpusi, shuningdek, yozuvchilararo va madaniyatlararo tadqiqotlarni amalga oshirish imkonini beradi. Usmon Azim korpusi Markaziy Osiyo yoki Turk dunyosining boshqa shoirlari ijodi bilan solishtirilib, umumiy madaniy metaforalar yoki uslubiy an’analarni aniqlashga xizmat qiladi. Masalan, uning modernist tasviriy obrazlarini turk shoiri Nazim Hikmetning inqilobiy ohangi bilan taqqoslash; uning ramziy ifoda vositalarini fors klassik motivlari bilan solishtirish. Bunday qiyosiy tahlil va tadqiqotlar o‘zbek va jahon adabiyoti o‘rtasidagi mushtaraklik va farqni ochib berishga yordam beradi.

Usmon Azim she’riyati korpusi ta’lim sohasida beqiyos ahamiyatga ega. Uning she’rlari boy o‘zbek tilini namoyish etadi, bu esa leksika, frazeologik birlik va poetik qurilmalarni o‘rgatishda ideal vositadir. Korpus vositalari Usmon Azim she’riyatida ritm, qofiya, alliteratsiya, mavzuyiy klasterlarini tahlil qilishda yordam beradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Usmon Azim mualliflik korpusi faqat she’rlar to‘plami emas; u o‘zbek adabiyoti durdonasi, o‘zbek madaniy o‘zligining oynasidir. Bunday korpus vositasida tadqiqotchi bir shoirning ovozi millatning umumiy ruhini aks ettirishini o‘rganish imkoniga ega bo‘ladi. Korpus til, uslub va ma’noni tizimli o‘rganish imkonini beradi, shuningdek, o‘zbek adabiyotining jonli merosini saqlashga xizmat qiladi. Raqamli saqlash madaniyatning davomiyligini belgilayotgan bugungi davrda, Usmon Azimning mualliflik korpusini yaratish va rivojlantirish nafaqat ilmiy zarurat, balki uning she’riy merosi kelajak avlodni ilhomlantirish, tarbiyalash va yoritishda davom etishini ta’minlaydi.

Rezyume. Mazkur maqolada zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan korpus lingvistikasining asosiy qismi – mualliflik korpuslarining amaliy qo‘llanish sohalari va uning ahamiyati xususida fikr yuritilgan. Jumladan, mualliflik korpuslarining ijodkor shaxsini aniqlash, raqamli gumanitar fanlar va sun’iy intellektdagi, ta’lim va madaniyatdagi o‘rni, axloqiy muammolar va ma’lumotlarni maxfiyligi muammosi, shuningdek lingvistik tadqiqotlardagi vazifasi kabi masalalarga e’tibor qaratilgan.

Resume. This article examines the main part of corpus linguistics, which is one of the directions of modern linguistics - the field of practical application of authorial corpora and their significance. In particular, attention is paid to such issues as the identification of the creative personality of authorial corpora, their role in digital humanities and artificial intelligence, education and culture, ethical issues and the problem of information confidentiality, as well as their role in linguistic research.

Резюме. В данной статье рассматривается основная часть корпусной лингвистики, являющейся одним из направлений современной лингвистики, - области практического применения авторских корпусов и их значение. В частности, внимание уделяется таким вопросам, как идентификация творческой личности авторских корпусов, их роль в цифровых гуманитарных науках и искусственном интеллекте, образовании и культуре, этические проблемы и проблема конфиденциальности информации, а также их роль в лингвистических исследованиях.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 11-12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

EVFEMIK MAQOLLAR BADIIYLIK VA MILLIYLIKNI KUCHAYTIRUVCHI VOSITA SIFATIDA

Turdimurodov Sirojiddin,
Termiz davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Hozirgi zamon tilshunosligi ma'lum e'tiborini milliy madaniy va ma'naviy birliklarga qanday singdirish va uni keyingi avlodlarga yetkazish masalalariga qaratmoqda. Bu madaniyat tushunchasi til va jamiyat yaxslitligining o'ziga xos ifodasi sifatida tushunishga intilish ortganligi bilan belgilanmoqda. Bunda til milliy madaniyat, milliy mentalllikni talqin etish vositasi sifatida yuzaga chiqadi. Mamlakatimizda til va milliy ma'naviyat tushunchalarining uyg'unligi masalasi doimiy ilgari surilib kelinayotgan jiddiy masalalardan biridir.

Bugungi kunda o'zbek tilshunosligi til birliklarining lisoniy imkoniyatlarida mavjud madaniy xoslangan milliy fenomenga, ularning muloqot madaniy tizimida voqelanish xususiyatlariga alohida e'tibor qaratmoqda. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, til va madaniyat, ma'naviyat mushtarakligi o'z va o'zlashma qatlam birliklari, jonivor, o'simliklar, shaxs nomlari, barqaror birlik (maqol, matal, ibora)lar, tildagi metraforik va obrazli leksika, miflashgan madaniy-lisoniy birliklar, tilda aks etgan urf-odat, nutqiy axloq va odob kabilarda yaqqol namoyon bo'ladi. Bular qatorida xalq maqollari o'ziga xosligi bilan alohida ajralib turadi.

Badiiy adabiyot, xalq og'zaki ijodi milliy ma'naviy dunyoqarashning shakllanishida va yuksalishida katta ahamiyat kasb etib kelmoqda. Shu bois badiiy asar tilini o'rganish milliy ma'naviyatimiz mexanizmlarini ochish, uni rivojlantirish va yuksaltirishda alohida ahamiyatga ega.

Tilshunoslik taraqqiyotida o'zbek badiiy asarlari va uning til xususiyatlari masalalari lingvistik jihatdan keng o'rganildi va o'rganilmoqda[1]. Til va uslub masalalari tadqiqidan boshlangan badiiy nutqni lingvistik tahlil qilish, ilmiy tekshirish bugungi kunda lingvopoetik tadqiq darajasiga olib chiqilib keng tadqiq etilmoqda[2]. Umuman olganda, til va madaniyat, til va ma'naviyat, til va muloqot munosabati tadqiqiga doir izlanishlarning ortishi ularni o'zida aks ettiruvchi o'zbek xalq maqollarining evfemik xarakter kasb etishi masalasi tadqiqining ham muhim ekanligini ko'rsatmoqda.

O'zbek tilshuniosligida til birliklarining evfemik qo'llanilishi yuzasidan bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, bu borada N.Ismatullayev, A.Omonturdiyev, X.Qodirova, N.G'aybullayeva, D.Rustamova, S.Turdimurodov va boshqa bir qancha tadqiqotchilarlarning tadqiqotlari, lug'at va monografiyalarini aytib o'tish mumkin.

Xalq og'zaki ijodida xalq maqollari turli tomonlama keng o'rganilgan. Tilshunoslik aspekti sifatida R.Rasulov, P.Bakirovlar tomonidan tipologik tarzda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarni bu borada alohida ta'kidlash mumkin. O'zbek xalq maqollarining muloqot muhitidagi xususiyatlari ularning evfemik mazmun ifodalash imkoniyatlariga doir fanimiz taraqqiyotida bu masalaga ham jiddiy e'tibor bilan qaralmoqda.

Maqol ba'zan butun bir badiiy matnda voqelangan fikrni ifodalashni o'z zimmasiga olishi mumkin. Bunda u matnning "qaymog'i" vazifasini bajaradi. Ayniqsa, maqolning epigraf sifatida qo'llanilishida bu yaqqol ko'rinadi. Misol sifatida A.Qahhorning "Bemor" hikoyasi uchun epigraf qilib olingan *"Osmon yiroq, yer qattiq"* maqolini olishimiz mumkin. Bu maqol evfemikasi "Kambag'al inson – chorasizdir"

[1] Қўнғуров Р. Ўзбек тили стилистикасидан очерклар. – Самарқанд, 1975. – Б. 240; Қўчқортоев И. Бадиий нутқ стилистикаси. –Тошкент, 1975. – Б. 96. Қиличев Э. Бадиий тасвирнинг лексик воситалари. – Тошкент: Фан, 1982. – Б. 114; Умурқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Тошкент: Фан, 1990. . – Б. 109.

[2] Нормуродов Р.У. Шукур Холмирзаев асарларининг тил хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди...дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – Б. 25; Йўлдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари. – Тошкент, 2002. – Б. 80; Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири 90–йиллар бошлари ўзбек шеъриятининг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фанлари номзоди...дисс. автореф. – Тошкент, 2003. – Б. 23; Муҳиддинов М., Каримов С. Ғафур Ғуломнинг поэтик маҳорати. – Самрақанд, 2003. – Б. 126; Қосимова М.Б. Бадиий нутқ индивидуаллигининг лингвистик хусусиятлари (Тоғай Мурод асарлари асосида): Филол. фанлари номзоди... дисс....автореф. – Тошкент, 2007. – Б. 20; Юлдашев М.М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол.фанлари д–ри... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – Б. 48.

degan fikrni badiiy bo‘yoqlarda ifodalash uchun qo‘llangan. Osmon – Ollohning evfemik ifodasidir. U chorasiz kambag‘aldan juda ham uzoq. Kambag‘al uchun Xudodan ham, ona zamindan ham madad yo‘q. Yozuvchi o‘z badiiy niyatiga mos ravishdagi maqolni tanlab, unga matndagi fikrlarning qaymog‘i darajasini bergan. Matn tarkibida qo‘llangan *“Yo‘g‘on cho‘ziladi, ingichka uziladi”* matali esa bu maqolning mustahkamlovchisi sifatida namoyon bo‘lgan. Hikoyada qator evfemistik vositalar qo‘llangan. Mana ulardan ayrimlari: 1) *Bemor og‘irlashdi* (“kasallik, dard kuchaydi”) kabi. Maqol matnning *“qaymog‘i”* bo‘lganligidan evfemizm sifatida matnda qo‘llangan barcha evfemik vositalarning ma’nolarini uyushtiradi, asosiy badiiy o‘zak sifatida ularni bitta nuqtada jamlaydi[1].

Evfemik maqol va birliklar tilning madaniy belgisi, ifodalovchisi sifatida quyidagi xususiyatlarga ega:

Birinchidan, til evfemik madaniyat bilan birgalikda taraqqiy etadi. Evfemik madaniyat ma’lum darajada tilning o‘tmishi, bugungi taraqqiyoti bilan mos holda shakllanadi. Ular o‘rtasida hech qachon uzilish bo‘lmaydi.

Ikkinchidan, evfemik maqollarda millatning ma’naviy dunyoqarashi, odob-axloqi, nutqida esa ma’naviy qiyofasini aks ettirishi o‘zaro uzviy bog’liq.

Uchinchidan, evfemik maqol va birliklar madaniyat va ma’naviyatni o‘zida saqlagan holda umumxalq tilining keng imkoniyatlarini doimo aks ettiradi.

Demak, evfemik birliklarni madaniyatning tarkibiy qismi, ma’naviy qiyofaning aksi, til sohiblarining tarixi va bugunini ma’naviy boyliklarini aks ettirishda muhim vosita deb aytish mumkin. Tilshunos, sotsiolingvist mutaxasislarning e’tirof etishicha, til uzoq yillar mobaynida muntazam rivojlanib, taraqqiy etib boradi. Bugungi kunda til va madaniyatning uyg’unligi haqidagi qarashlar bir-birini taqozo etuvchi yaxslitlik kasb etayotganligi ommalashib bormoqda. Shu o‘rinda evfemik maqolar ana shunday lingvomadaniy birlik sifatida yuqoridagi fikrlarimizni lingvistik nuqtayi nazardan tasdiqlaydi.

Har bir xalqning madaniyati til bilan bir makon va zamonda bog’lanadi. Har bir ijtimoiy muhitda ma’lum bir davrni aks ettiradigan o‘ziga xos tayanch so‘z va tushunchalar bo‘ladi. So‘zlovchi o‘z nutqida ana shundayu xarakterdagi so‘z va birliklardan, shuningdek, maqollardan turli maqsadlarda foydalanadi, bu esa o‘z navbatida nutqning ifodaliligini, ta’sirchanligini va stilistik jihatdan rang-barangligini namoyon etadi. Bilamizki, maqollarda xalqning urf-odatlari-yu milliy tushunchalaridan tortib, uning tarixiy shaxslari hamda mashhur obrazlarigacha ifoda etiladi. Ba’zan maqollarga ko‘chma ma’noga ega turg‘un birlik, fraza, frazeologik birlik sifatida qaralgani uchun ham ular turli kontekstda har xil mazmunga ega ekanligini ko‘rish mumkin. Kontekstdagi maqol mazmuni kommunikantning intensiyasiga bog‘liq bo‘lib, u nutqiy jarayonni boyitishga va fikrni bevosita emas, balki bilvosita ifodalashga yordam beradi.

Bunday evfemik maqollar ma’lum bir millatga xos bo‘lishidan tashqari vaqt o‘tishi bilan o‘z mohiyatini ma’lum darajada o‘zgartirib boradi. Tilda yangi evfemik maqollarning paydo bo‘lishi yoki mavjudlarining yangi mohiyat kasb etishini bunga dalil qilish mumkin.

Evfemik maqollarning ma’nolari madaniy xoslangan miliy ma’nolar hisoblanadi. Quyidagi maqollarning barchasida mazkur ma’nolar madaniy xoslangan milliy ma’nolardir. Ularga misol keltiramiz.

Evfemik maqollar	Ochiq aytish no’orin, noqulay, qo’pol, dag’al bo’lgan ma’nolari
Otdan tushsa ham, egardan tushmaydi.	– mansabparast, shuhratparast, takabbur, nodon, fahmsiz kishi.
Oralaridan ola mushuk o‘tgan.	– munosabatning buzilishi, araz, dushmanlik.
Og’zidan oq it kirib, qora it chiqdi.	– o‘ta behayo, madaniyatsiz, shallaqi, og’zi beposhna odam.
Kambag’alni tuyaning ustida it qopibdi.	– omadsizlik, kutilmagan baxtsizlik
Tuya sog’dim iymadi, peshonamga sig’madi.	– omadsizlik, yo‘qotish – o‘lim.
Bozor ko‘rgan echkidan qo‘rq.	– ayyor, tullak, behayo, imonsiz odam hamisha xavflidir.
Eshagi loy (suv)dan o‘tgan.	– ishi bitib, yaxshilikni unutgan nokas shaxs.
Eshak to‘ysa (semirsa), egasini tepadi.	– nomard mard bo‘la olmaydi, nokasu nojinsdan odam chiqmaydi: Asli qora oqarmas, tubi qing’ir tuzalmas (maqol) ytushunchalari mavjud.

[1] Қаландаров Ш. Ўзбек лингвомаданий муҳитида халқ мақоллари эвфемизацияси. Филол. фан. фал.док. (PhD) дисс... – Қўқон. 2019. – Б. 102.

Anglashiladiki, yuqoridagi maqollarning shakllanishi va ularning xususiyatlari orqali nomardlik, pastkashlik, noshudlik, aql-farosatsizlik, noodamiylik kabi fazilatlar ramziy evfemik tarzda o‘z aksini topganligini anglash mumkin. Ta’kidlash kerakki, tildagi maqol, ibora va matallarni ham boshqa tillarga aynan tarjima qilishning imkoniyati yo‘q. Chunki ular ma’lum bir millatning uzoq o‘tmishi davomida shakllangan ma’naviy boyligi bo‘lib, aynan ularda milliy mentallik, borliqqa munosabat ayon bo‘lib turadi.

O‘zbelk badiiy matnlarda ijodkorlar o‘z asarlarida evfemik vositalarni unumli qo‘llash orqali o‘z obrazlari nutqini xalqqa yaqinligini ko‘rsatishga va asar qahramonining odob-axloq malakalari mavjudligini e’tirof etish bilan ta’sir doirasi yuqori bo‘lishini ta’minlashga harakat qiladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, badiiy asarning ta’sir kuchi, effektivligi undagi tasvirning hayotiyligi, yangiligi ifodalarning tiniqligi hamda badiiy- tasvir vositalarining xilma-xilligi bilan belgilanadi. Albatta badiiy asar ijodkorlari ulardan o‘zlarining individual uslubiga, badiiy-estetik niyatiga ko‘ra maqsadli foydalangandagina ular o‘zlarining haqiqiy ta’sirchan kuchiga, badiiy-estetik qimmatiga ega bo‘ladi.

Rezyume. Xalq jonli nutqida uchraydigan evfemik maqol va birliklar badiiy matnlarda asarning emotsional-ekspressivligi oshirishda, shuningdek, har bir millatning nutqiy madaniyatini shakllantiruvchi birlik sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Resume. Euphemistic proverbs and idioms found in popular speech play an important role in increasing the emotional expressiveness of the work in artistic texts, as well as forming the speech culture of each nation.

Резюме. Эвфемистические пословицы и идиомы, встречающиеся в народной речи, играют важную ролъ в повышении эмотционалъной выразителъности произведений искусстваб а также в формировании речевой культуры каждой нации.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 11-12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ERKIN O'XSHATISHLARDA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARNING AKS ETISHI

(Tohir Malik qissalari misolida)

Turakulova Umidaxon Anvarovna,
University of Business and Science oliy ta'lim muassasasi
til va adabiyot kafedrasi o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Tasavvur qilinishi qiyin yoki mavhum tushunchalarni aniqlashtirish maqsadida o'xshatib anglatish amaliyotidan keng foydalaniladi. Bu amaliyotni qo'llash uchun kongnitiv jarayon, ya'ni, avvalo, ongda o'xshatmoqchi bo'lgan narsaning o'xshata olish imkoniyati bo'lishi lozim. Inson ongida ikki predmet haqida dastlabki bilimlar bo'lsagina o'xshatish hosil qila oladi. O'xshatish qiyoslashga asoslanadi. Olamni qiyoslash orqali anglab, bilingan narsa-xususiyat asosida bilinmagan narsa-xususiyatni oson tushunish mumkinligi adabiyotlarda ko'p bora ta'kidlanadi. Bir tushunchani ifodalash uchun obyektiv olamdagi narsa-predmetlar, voqea-hodisalar bir-biriga qiyoslanadi, uning qarama-qarshi ma'nolisi yoxud o'xshashi keltiriladi. "O'xshatish ham qiyosga asoslanadi, biroq o'xshatishda integral belgilar idrok qilinadi"[1]. Natijada qiyoslash amaliyotining hosilasi, lisoniy voqelangan shakli bo'lmish o'xshatishlar orqali noma'lum predmet haqida tasavvur hosil qilinadi.

Shunday o'xshatishlar ham borki, ular ijodkorning ijodiy tafakkuri hosilasi o'laroq subyektiv qiyos natijasida yuzaga keladi. Adabiyotlarda bu xildagi o'xshatishlar individual-muallif o'xshatishlari yoki erkin o'xshatishlar deb yuritiladi[2]. Professor G.Jumanazarova bunday o'xshatishlarni xususiy-muallif (favqulodda) o'xshatishlar deb nomlaydi[3]. F.Usmonov dissertatsiyasida o'xshatishlarning xuddi metaforalar kabi, turg'un va erkin yoki individual (badiiy) turlari farqlanish aytib o'tiladi[4].

Bu xildagi o'xshatishlar yozuvchining mahoratini namoyon etuvchi vositalardan biri sifatida badiiy nutqda alohida o'rin tutadi. "O'xshatish – bu inson til foydalanishni boshlagandan beri kishilar orasida tez-tez ishlatib kelinadigan ifoda vositasidir. Oddiy odamlar subyektni turg'un o'xshatish usuli bilan bezatib o'z fikrlarini jonli ravishda yetkazsalar, mualliflar biror subyektning asosiy xususiyatidan yangi obrazni yaratish uchun individual o'xshatish usulidan ko'proq foydalanadilar"[5]. Erkin o'xshatishlar badiiy asarga o'zining jilosini beradi va qimmatini oshiradi. Bunday tasviriy vositalarning badiiylik darajasi bilan muallifning mahoratini baholash mumkin.

Tohir Malikning bir qator qissalarida asar voqealarini kitobxon ko'z o'ngida gavdalantirish maqsadida o'z qahramonlarining holatlariga nisbatan odatdagi o'xshatishlardan ko'ra o'ziga xos ma'no noziklikiarga ega bo'lgan individual o'xshatishlarni qo'llaydi:

Adib qissada *"tuzdan yasalgan qasr"* o'xshatishini o'ta mahorat bilan qo'llaydi: *"G'animlari bilan har kun, har soat olishuvchi, har daqiqa biror falokat ro'y berishi mumkinligini hisobda tutib yashovchi odam noxush damlarda tez fikrlash, tez xulosa chiqarishga odatlanadi. Asadbek ham tezda bir to'xtamga keldi: uning hokimligi tuzdan yasalgan qasr ekan. Yomg'ir yoqqan mahali qasrning erib bitishini hisobda tutmagan ekan. Qizining o'g'irlanishi (aynan o'g'irlanganiga Asadbek shubha qilmaydi) ana shu yomg'irdan nishon edi"* (Shaytanat, 1-kitob, 12-bet). Bizningcha, shaytanat olamida Asadbekning qudrati, hokimligini aynan tuz etaloni vositasi orqali berilishi, tuzdan qurilgan qasrning buzilishi uchun bir tomchi yomg'irning kifoya qilishi, Asadbekning ham zaif joyi borligini kitobxonga aytib o'tadi. Bu o'rinda yozuvchining nega aynan tuz etalonidan foydalanayotganiga e'tibor qaratish lozim. Adibning qum, tuproq kabilarni etalonga olmay tuzni etalonga olgani e'tiborimizni tortdi. *"Tuzdan qurilgan qasr"* o'xshatishidan foydalanishi Asadbek qudratining qumdan ham zaif ekanligidan

[1] Юлдашев М.М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. док. дис. – Тошкент, 2008. – Б. 278.
[2] Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2013. – Б. 161.
[3] Жуманазарова Г.У. Халқ достонларидаги ўхшатишнинг лингвопоэтик имкониятлари. – Тошкент: Фан, 2011. – Б. 18.
[4] Усманов Ф.Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Тошкент, 2020. – В. 32.
[5] Жо Мин Ёнг. Ўзбек ва корейс тилларида ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Тошкент, 2022. – В. 15.

dalolat beradi. Ma'lumki, qumdan qurilgan qasr buzilsa ham qumligicha qoladi, ammo tuz erisa, u erib, yo'q bo'ladi. Tuz havodagi namning ta'sirida ham erishi mumkin. Bu hol uning uzoq turmasligidan dalolat beradi. O'zbek xalq maqollarida *"Qiz saqlaguncha bir siqim tuz saqla"*(O'XM) deyilgan. O'zbek xalqi mentalitetida qiz bolaning sha'ni, iffati, ibosi kabilarga dog' tushishi ota-ona uchun og'ir holat, ana shunday bo'lmasligi uchun o'zbek oilalarida qiz bolaga e'tiborli bo'lishgan. Uning tarbiyasi va odobi katta ahamiyatga ega hisoblanadi. *"Tengi chiqsa, tekinga ber"* (O'XM) maqolida ana shu ma'no nazarda tutilgan. Yuqoridagi maqolda tuzga nam tegsa uning eriy boshlashi tuz saqlashdagi nozik masala ekanligi, qiz saqlashdan osonligi haqida aytilmoqda.

M.Yo'ldoshev ta'biri bilan aytganda, "yangitdan ohor, quyuq ekspressivlik berish maqsadida ma'lum o'xshatish bilan bir qatorda tasvirni kuchaytiruvchi turli vositalarni keltiradi"[1]. Tohir Malik asarlarida ham ana shu kabi ko'plab o'xshatishlarni keltirish mumkin: "*O'sha tun jala quydi. Tongga borib qora bulutlar kambag'alning ko'rpasiday bo'lib qoldi. Jalada savalanib, shumshaygan tabiat gunohkorona sukut bilan quyoshning ko'tarilishini kutdi"* (Devona, 51-bet). Adib kitobxonni kutilmagan yangiliklarga boy o'xshatishlari bilan xayratga soladi. Keltirilgan misollardagi o'ta mohirlik va nozik did bilan tanlangan o'xshatishlar buning isbotidir. E'tibor bering, *ko'rpaday* o'xshatishi "O'zbek tili o'xshatishlari izohli lug'ati"da: 1. Qoplamoq, yopilmoq, sathni butunlay egallamoq. 2. Yumshoq, dag'al emas kabi izohlangan, ammo adib bu semalar qatoriga yana bir shakliy o'xshashlikni ifodalovchi semani qo'shishga harakat qilgan. Bir qarashda yozuvchi ko'rpadagi kirlikni nazarda tutganga o'xshaydi, ammo unda aks etgan kirlik belgisidan ko'ra bulutning shakli oldingi o'ringa chiqqan. Chunki kambag'al degani kir-chir o'tiradi, degani emas. Bu o'xshatishning bo'yoqdorligini va yana, aytish mumkin bo'lsa, shakliy o'xshashlikni ifodalashiga xizmat qiluvchi vosita o'xshatish tarkibida kelayotgan qaratqichli aniqlovchidir. Barchaga ayonki, o'zbek xalqi keng foydalanadigan ko'rpa eskirganda paxtasi astar-avra ichida yumaloq-yumaloq shaklga kelib, tekisligini yo'qotadi va yoqimsiz ko'rinish kasb etadi. Ana shu holatni yozuvchi bulutga ko'chirgan. Ko'rpa qo'l mehnati asosida yaratiladigan zaruriy buyum bo'lib, o'zbek xalqi mentalitetida o'ziga xos o'ringa ega. U bilan bog'liq bir qator maqollar uchraydi: *Ko'rpangga qarab oyoq uzat, Burgaga achchiq qilib, ko'rpa kuydirmoq* (O'XM) kabi. Boshqa millat vakillari uning o'rnida motros, odeyal yoki parko'rpadan foydalanadilar. Bu kabi ashyolarda o'xshatishda ta'kidlangan hol yuz bermaydi. Yozuvchi o'zbek millatiga mansub shaxs bo'lganligi uchun ham ko'rpani yaxshi biladi. U bilan bog'liq holatlarni avvaldan bilgani uchun o'xshatish etaloni sifatida foydalangan. Bu hol betakror bo'yoqlar bilan bezatilgan o'xshatish hosil bo'lishiga sabab bo'lgan. Keyingi o'xshatishda esa sukutga nisbatan *gunohkorona* etalonning tanlanishi, uning tabiatni tasvirlash uchun qo'llangani har qanday kitobxonning xayratini shoshiradi. Bu o'xshatish, asosan, shaxsga, ba'zida jonli predmetlarga qo'llanishi mumkin edi, adib bu o'rinda ham o'z mahoratini ishga solib, obyektga tashqi tomondan o'xshash ifoda yaratishni uddalagan. Yomg'irdan keyin daraxt va o'simlik barglari yomg'ir suvining yukidan so'lishib qolganga o'xshaydi, ana shu holni tasvirlash adib tasavvurida *gunohkorona* holni gavdalantiradi. O'zbek lingvomadaniyatida gunohkorona ko'rinish boshni egib turish bilan tasvirlanadi, shuning uchun ham o'simliklardagi yomg'irdan keyingi egik holat adibga gunohkorona ko'rinishni tasvirlashiga sabab bo'lgan. Undan tashqari, xalq madaniyatida "Yuzini shivit qilmoq" iborasi faol qo'llanadi. Ma'lumki, shivit ko'pchilikka ukrop nomi bilan mashhur bo'lgan ko'katning nomi, shivit uzilgan zahotiyoq so'lisha boshlaydi va egik holga keladi. Ana shu egik hol aybdor odamning bosh egib turishini eslatadi. Shivit o'simligidagi ana shu holat adibga yaxshi tanish bo'lgan va shivitdagi bu holni yomg'irdan keyin o'simliklarning bosh egib turishiga ko'chirgan. Bu o'rinda adibning tabiat xodisalari manzaralarini naqadar nozik ilg'ashini aytib o'tish va o'ziga xos tasvirni chiza olganligini ta'kidlash lozim.

Individual o'xshatishlarda adib asar qahramonlarining xarakter xususiyatidan kelib chiqib, ularga mos o'xshatishlarni tanlaydi: *"Odatdagiday bashang kiyingan Xolidiyning yonida suygan shogirdlaridan biri O'lmas Akrom kelardi. Anvar o'zidan bir yil keyin kelgan bu do'mboq yigitni "go'sala" der edi. Laqab O'lmasga juda mos tushgan, u to'yib sut emgan buzoqday beg'am, birov so'ksa ham, maqtasa ham bir holda iljayib turaverardi"* (Shaytanat, 1-kitob, 270-bet). Bu o'rinda qahramonning beg'am, beparvo, loqaydligi unga *"go'sala"* laqabini berish uchun asos bo'lgan bo'lsa, buzoqqa o'xshatilishi esa, uning xarakter xususiyatini yanada ochiq ko'rsatadi. *Buzoq* etalonining tanlanishida ham xalq orasida mashhur bo'lgan "ammamning buzog'i" iborasiga hamohanglik ko'zga tashlanadi. O'zbek mentalitetida buzoq yuvvosh jonivor sifatida tushiniladi. Ayniqsa, o'zbek lingvomadaniyatidan o'rin olgan "Ammamning buzog'idek bo'shashmoq" iborasi buning yorqin isbotidir. O'xshatishning *to'yib sut emgan* kengaytiruvchilari bilan qo'llanishi orqali esa bu ma'no yanada kuchaytirilgan.

[1] Йўлдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 59.

Individual-muallif o‘xshatishlari til jamoasida ommalashib, umumxalq tili leksikonidan joy oladi, turg‘unlashadi. Bizningcha, Tohir Malik tomonidan qo‘llangan ko‘plab individual o‘xshatishlar ham vaqtlar o‘tishi bilan turg‘unlashib, barqaror birliklarga aylansa, ajab emas: *“Elchinning erkalashlari, ehtiroslari unga ta’sir etmaydi. O‘zini xuddi ertaklardagi tosh malikaday sovuq his etadi”* (Shaytanat, 1-kitob, 141-bet). Parchada keltirilgan *xuddi ertaklardagi tosh malikaday* o‘xshatishi uchun o‘zbek xalq ertaklaridagi sovuqqon, bag‘ritosh, qahri qattiq malikalar syujeti asos bo‘lgan. Albatta, adib bu o‘xshatishni qo‘llaganda tosh leksemasining denotativ ma’nosini emas, konnotativ ma’nosini nazarda tutgan. Ertaklar bilan yaxshi tanish bo‘lgan til jamoasi bu o‘xshatishni qiyinchiliksiz tushunadi va o‘z nutqida ham qo‘llashga harakat qiladi. Natijada bu o‘xshatish konstruksiyasi *tosh malikadek* shaklida turg‘unlashishi mumkin.

Xalq orasida *bola* etalon bo‘lib kelgan o‘xshatishlar talaygina. “O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati”da *“bola”* 7 xil semalari misollar bilan beriladi. Adibimiz ham asarda ushbu so‘zdan turli o‘rinlarda foydalangan: 1) “*O‘rinbosar Zohidning xonasiga kirdi-yu darsga kech qolgan boladay boshini egib, yer ostidan qarab qo‘ydi”* (Shaytanat, 1-kitob, 279-bet). 2)*“Namozov “ilm” degan so‘zni eshitib, xuddi “daftarim uyda qolibdi”, deb yolg‘on gapirib qo‘yib uyalgan boladek boshini egdi”* (Shaytanat, 1-kitob, 30-bet). 3)*“– Sovqotdim, oshna, – dedi Anvar. – Endi kir, xotinlar gap qiladi. Elchin mo‘min boladay xo‘p, deb uy tomon yurdi”* (Shaytanat, 1-kitob, 127-bet). 4) *“Puli ko‘p odam balki sho‘rvani chindan ham changalida ushlab turishi mumkindir. Ammo o‘z jonini ushlab qola olarmikin? Har kuni o‘nlab odamlarning ta’zimiga bepisand qarovchi Qilich, “senga rahbarman” deb po‘pisa qiluvchilarning ovozini besh-o‘n so‘m pul bilan o‘chirib qo‘ya oluvchi boshqon ishtonini bexos ho‘l qilib qo‘ygan boladek shalvirab qoldi”* (Shaytanat, 1-kitob, 37-bet). 5)*“– Hozir borolmayman, dedi. Oshnasi unga bir narsalarni o‘qib beryapti shekilli? Jamshid shunday deb, aybdor bola singari boshini egdi. U xo‘jayin buyrug‘ini ado etolmadi”* (Shaytanat, 1-kitob, 142-bet). Ushbu parchalarda *bola* etalonining qo‘llanilishi an’anaviydir, biroq u bilan bog‘liq yangi semalarning kashf etilishi individuallikni ta’minlaydi: 1-, 2-gaplarda*“boshqalar oldida o‘zini noqulay sezmoq”;* 3-gapda *sodda, beozor, itoatkor;* 4-gapda *qo‘rqmoq;* 5-gapda esa *aybdorlik* semalari namoyon bo‘ladi. Umuman olganda, adib *bola* leksemasi orqali ham erkin o‘xshatishlarning orginal variantlarini hosil qilgan.

Tohir Malikning “Shaytanat” asarini tahlil qilar ekanmiz, yozuvchi tomonidan qo‘llangan o‘xshatishlarda individual o‘xshatishlar miqdorining ko‘pligi va ohorliligi o‘quvchining diqqatini tortadi. Yozuvchi individual o‘xshatishlarni yaratishda oddiygina predmetlar, holatlar yoki shaxslarga murojaat qilmaydi, balki ularni o‘quvchida estetik zavq uyg‘ota oladigan tomonlarini etalon qilib oladi. Masalan, yozuvchi bir o‘rinda: *“Bunday jazosiz qotillar yer yuzini po‘kanakdek bosib yotibdi. Elchin – Zaynabning nazarida shulardan biri”,* – deb yozadi. Yozuvchi o‘xshatish etaloni sifatida *po‘kanak* predmetidan foydalangan va aynan shu predmet orqali “Shaytanat” qissasida tasvirlangan davrda jazosiz qotillar juda ham ko‘p bo‘lganligiga ishora qilmoqda. Predmetga nisbatan qo‘llanuvchi egallamoq, qoplamoq, bosib ketmoq kabi semalarni aniqroq ifodalash uchun chumoli, suvarak, suv kabi predmetlarni etalon qilish ham mumkin edi, ammo yozuvchi aynan po‘kanak predmetini etalon qilish bilan uning qalinligini, o‘zi qoplagan joyni umuman ko‘rsatmasligini, uning zarrachalari zich joylashishini o‘zshatish uchun asos qilib olgan. Bundan tashqari, asar matnidan yig‘ilgan o‘xshatishlarni tahlil qilganimizda yozuvchi qo‘llagan o‘xshatishlarda etalon sifatida ot so‘z turkumi, asosda esa fe’l so‘z turkumi yetakchilik qilishiga guvoh bo‘ldik. Masalan, *“Ko‘cha eshik qiya ochiq edi. Asadbek xuddi* ***o‘g‘ridek*** *ichkariga bosh suqib chiroq nuri tushib turgan derazaga* ***qaradi-da,*** *o‘zidan-o‘zi uyaldi. Yoshlik kezlari Kesakpolvon bilan birga o‘g‘irlikka borgudek bo‘lsa ham bunaqa ishlarni Asadbek sira uddalay olmas edi. Hozir uni tashqaridan kuzatgan kishi* ***xuddi o‘g‘rilik olamida atak-chechak qilayotgan bola*** *bo‘lsa kerak, deb o‘ylashi mumkin edi”* (Shaytanat, 1-kitob, 374-bet) matnida qo‘llangan individual o‘xshatishiga e’tibor qarataylik, o‘gridek va bola (ot so‘z turkumi) so‘zlari etalon; qaramoq, atak-chechak qilayotgan (fe’l so‘z turkumi) birliklari esa o‘xshatish uchun asos vazifasini bajarmoqda.

Tohir Malik asarlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy va turg‘un o‘xshatishlarga nisbatan individual-muallif o‘xshatishlar ko‘p uchraydi. Ularni o‘rganish yozuvchining nutqiy individualligini ochib berish bilan birga o‘xshatishlarning lingvomadaniy birlik sifatidagi o‘rnini bilishda, ularning olamning lisoniy manzarasini yaratishdagi rolini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Undan tashqari, adib ayrim o‘xshatishlarning turli variantlaridan foydalangan. Asar matnida bu kabi o‘xshatishlar talaygina uchraydi. *Quyunday yopirilmoq – tundek yopirilmoq, seldek yopirilmoq; cho‘chqadek ichmoq – itdek ichmoq, moldek ichmoq; o‘limga hukm etilgandek – yashashga hukm etilgandek; tariqday sochilmoq – anor donasiday sochilmoq, osmonga otilgan o‘qdek sochilmoq; pashshadek yanchib tashlamoq – chuvalchangdek ezib tashlamoq; farishtadek beozor – farishtadek oqko‘ngil; o‘qdek sanchilmoq – igna kabi sanchilmoq* kabi o‘xshatishlar ham shular sirasiga kiradi.

Yozuvchining “Shaytanat” kabi asarlarida, asosan, shaytanat olamining qahramonlariga xos salbiy bo‘yoqqa ega bo‘lgan turg‘un yoki individual o‘xshatishlardan foydalanilgan. Bunday o‘xshatishlar o‘quvchiga personajni yaqindan tanishtirish bilan birga, salbiy xarakterga ega bo‘lgan xatti-harakatlarini yaqqol namoyon qiladi. Adibning 80-yillarda yaratilgan aksariyat asarlarida shu holatni kuzatish mumkin. Masalan: “*Hamma gapni hazilga burmoqchi edi, eplolmadi. Tabiatan keskinroq odamning kayfiyati buzilibroq turgan paytda hazil qilish tuyaning balet raqsi tushishiday bo‘lar ekan”* (Shaytanat, 1-kitob, 141-bet). Tohir Malikning boshqa asarlariga nazar tashlansa, adib umrining oxirlarida yozgan diniy, tarbiyaviy, nasixat mavzulariga bag‘ishlangan asrlarida qo‘llangan o‘xshatishlar sokin bir qadar vazminlik bilan aytilayotganga o‘xshaydi.

Adib qo‘llagan har qanday o‘xshatishda o‘zbek xalqi tasavvuridagi olamning lisoniy manzarasi yotadi. Agar Tohir Malik o‘zbek xalqining farzandi bo‘lmaganida o‘zbeklarga xos bo‘lgan o‘xshatishlarni o‘z o‘rnida qo‘llay olmagan bo‘lardi. Adib dunyoni o‘zbek nazari bilan ko‘ra olgan.

Yozuvchi o‘xshatishlarni qo‘llash bilan bog‘liq o‘rinlarda o‘zi tanlagan o‘xshatishning nozik ma’no qirralarini nazardan qochirmagan. Masalan, bir o‘rinda yozuvchi asar qahramoni Manzurani tasvirlash uchun *“…ichi dardlardan do‘l g‘alvir qilib yuborgan chorasiz barg singari ilma-teshik bo‘lib ketganini qaydan ham bisin”* (Shaytanat, 5-kitob, 246-bet) o‘xshatishini qo‘llaydi. Bu o‘xshatishga e’tibor berib qaralsa, etalonga sifatlovchilik vazifasini bajarayotgan qismda yana bir o‘xshatishni yashirin qo‘llagan. O‘xshatishning sifatlovchi bo‘lib kelayotgan – *do‘l g‘alvir qilib yuborgan* qismi etalonning yangi semaga xizmat qilishini ta’minlash bilan birga, etalondan keyingi qismning ham mazmunini ochib berishda asosiy vazifani bajargan. Bu qo‘shaloq o‘xshatishni biri-birisiz qo‘llab bo‘lmaydi. Etalon vazifasini bajarayotgan *barg* so‘zi sifatlovchisiz kelsa, fikrda mantiqiylikka putur yetadi. Yozuvchi *ichi* deyish bilan hayotda ko‘p ezilgan shaxsning ruhiy holatiga ishora qilmoqda. Manzuraning ruhiy holatiga nisbatan *do‘l g‘alvir qilib yuborgan chorasiz bargdek ilma-teshik* o‘xshatishini qo‘llashda *do‘l*dan ham o‘rinli foydalangan. Bargni teshib o‘tish do‘lgagina xos. Do‘l qattiqligi va vaznining yomg‘ir va qorga qaraganda og‘irligi sabab zarb bilan tushganda daraxt barglarini teshib o‘tadi. Lat yegan barg g‘alvirga qiyoslanmoqda. O‘xshatish tarkibidagi *chorasiz* so‘zining qo‘llanishi ham bejiz emas, bu so‘zni qo‘llash bilan adib inson taqdiridan qochib qutulolmasligiga ishora qilmoqda.

Ko‘rib turganimizdek, tadqiqotimiz obyekti bo‘lgan badiiy matnlarda qo‘llangan xususiy-muallif o‘xshatishlari yangiligi, originalligi, favqulodda qo‘llanganligi bilan kitobxon tasavvurini uyg‘otib, tasvirlangan holatni ko‘z o‘ngida gavdalantiradi. O‘xshatish qadimdanoq insoniyatga xos xususiyat sifatida o‘rganib kelingan. Bu haqida Aristotel ham o‘z fikrlarini yozib qoldirgan: “O‘xshatish garmoniya va ritm singari qadimdanoq odamlarning tabiatiga xos xususiyatdir, odamlar qadimdanoq tabiatan o‘xshatishga qobiliyatlidirlarki, bular uni oz-ozdan taraqqiy ettira borib, badiha, she’rlar (improvizatsiya) dan haqiqiy poeziyani yuzaga keltirganlar”[1].

Demak, o‘xshatishlar badiiy asarlarning qimmatini belgilaydi, kitobxon tomonidan oson tushunilishini ta’minlaydi va millat mentaliteti, qarashlaridan so‘zlaydi. Kitobxon o‘xshatishlar orqali tasvirlanayotgan holatni yorqin ranglar bilan ko‘ra olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Individual o‘xshatishlar bir shaxsning ijod maxsuli bo‘lsa-da, muayyan xalqning o‘ziga xos milliy xususiyatlarni ham aks ettiruvchi lingvokulturologik birlik sifatida katta ahamiyatga ega. Chunki ijodkor ham shu xalq vakili sifatida o‘ylaydi, fikr yuritadi. Har bir ijodkorning individul xarakterdagi o‘ziga xosliklarni o‘rganish va tahlil etish, ijodkorning o‘ziga xos uslubini belgilash bilan birgalikda, lug‘at boyligimizga yangidan yangi so‘z va iboralarning, o‘xshatishlarning qo‘shilishiga olib keladi.

Bundan tashqari, adib tomonidan qo‘llangan erkin o‘xshatishlar ham, qaysidir ma’noda, xalq qarashlaridan darak beradi. Chunki ijodkor o‘zi mansub bo‘lgan xalqning vakili hisoblanadi. Vaqtlar o‘tgani sayin muayyan til vakillari tomonidan nutqda doimiy qo‘llash darajasiga olib chiqilsa, turg‘unlik maqomiga ega bo‘lishi ham mumkin.

Rezyume. Maqolada Tohir Malik asarlarida uchrovchi duo, olqish va qarg‘ishlarning lingvopoetik va lingvomadaniy talqini, ularda ifodalangan mental-madaniy xususiyatlar haqida fikr-mulohaza yuritilgan.

Resume. The article discusses the linguopoetic and linguocultural interpretation of the third prayer, praise, and curses in the works of Tahir Malik, as well as the mental and cultural characteristics expressed in them.

Резюме. В статье рассматриваются лингвопоэтическая и лингвокультурологическая интерпретация третьей молитвы, хвалы и проклятий в произведениях Тахира Малика, а также выраженные в них ментальные и культурные особенности.

[1] Арасту. Ахлоқи кабир. Таржимонлар Зоҳир Аълам ва Урфон Отажон. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2015. – Б. 25.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 11-12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

IJTIMOIY TARMOQ LISONIY SHAXSINING VOQELANISHI

Saatova Surayyo Ismailovna,
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
o'zbek tilshunosligi kafedrasi katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Internet global tarmog'i yuqori darajadagi axborot aloqa xizmatini foydalanuvchilarga ochiq yoki xususiy ravishda taqdim etayotgan kommunikativ maydondir. Ilgari mavjud bo'lmagan yangi o'ziga xos komminikativ makonning paydo bo'lishi insonlararo kommunikativ ta'sirning yangicha shakllarini joriy qilmoqda. Bu yerda lisoniy shaxs nafaqat yangi kommunikativ tajriba oladi, balki boshqa lisoniy shaxslar bilan bevosita aloqa bog'laydi. Shaxslar Internet makonda bir-biri bilan axborot almashish, muloqot qilish jarayonida yutuqlari bilan birga ba'zi xulq-atvor chegaralariga to'g'ri kelmaydigan ma'naviy, ijtimoiy va psixologik ta'sir o'tkazishadi. Bu holatlar, albatta, insonning nutqida ham aks etadi.

Internet muhitining shakllanishini tartibga soluvchi qonuniyatlarni aniqlash qiyin. Yangi kibermakonning ba'zi faylasuflari masalan, Ester Dayson "Internetda har qanday cheklovlarni ta'minlashning haqiqiy imkoniyati hech qachon bo'lmaydi"[1], – deb ta'kidlaydi. Butun dunyo bo'ylab asosiy axborot manbai hisoblangan Internet o'lchovsiz xotira, fikrlash tezligiga va turli ma'lumotlar xazinasiga egadir. Internet odamlarga ommaviy muloqotda bevosita qatnashish, erkin ijod va interaktiv ishtirok, o'zini anglash, shaxsiyatini shakllantirish, o'zini namoyon qilish imkoniniyatini beradigan tizimdir. Bu jarayonlar esa, albatta, tilda ham o'z aksini topmoqda.

Internet muloqot davr talabi bilan zamon qiyofasiga aylandi. Bir qancha tilshunoslar, jumladan, E.I.Goroshko ham Internetning kengayishi og'zaki va yozma shakllar bilan bir qatorda elektron muloqotning paydo bo'lishiga olib kelganligini tan oladi[2]. Dastlabki vaqtlarda Internetning maqsadi undan foydalanuvchilarni turli ma'lumotlar bilan ta'minlash bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda odamlar, guruhlar, ijtimoiy tarmoqlar va bloglar o'rtasidagi muloqotning o'ziga xos vositasiga aylangan. Internet muloqot shakliga axborot almashish muhiti o'z ehtiyojlarini qondiruvchi vosita sifatida qaraydi. Internet muloqotda shaxslar xabar, ma'lumot va axborotlarni bilvosita elektron tarzda almashishadi. "Axborotni uzatish va idrok etishga ko'ra, kompyuter aloqasi aktual (haqiqiy odamlar bilan aloqa) va virtual (noma'lum, xayoliy suhbatdoshlar bilan aloqa) ga bo'linadi"[3]. "Internet muloqot" tushunchasi o'z ichiga internet-kommunikatsiya, bloglosferalar kabi tushunchalarni qamrab oladi. Blagosfera – bu alohida kommunikatsion muhit bo'lib, har bir odam virtual shaxsiyat tuzish va o'z shaxsiyatini, shu jumladan, gender belgisini qurish imkoniyatiga ega bo'lgan internet muhitidir. Undan tashqari, "blogosfera" bir-birini istisno qiladigan ikkita – til (tilning ikki ko'rinishini)ni ifodalashda mazmun va pragmatik niyatlar elementlari darajasida soddalashtirish hamda murakkablashtirish, shuningdek, adabiy til va so'zlashuv nutqi me'yorlarining faol raqobati xususiyatlariga ega internet tili xususiyatlari alohida o'ringa egadir[4]. Ko'p omillar sababli ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot og'zaki va yozma muloqotdan farq qiladi. Internet muloqotda adresat va adresantlarning qabul qilish xususiyatlariga qarab til birliklari, uslubi ham o'zgarib boradi.

Internetdagi ko'plab o'ziga xos nutq uslublari va muloqot ko'rinishlari tufayli virtual lisoniy shaxs muhokama mavzusiga aylandi[5] va natijada A.Miftaxova aytganidek: "ko'pgina tadqiqotchilarni Internet tilining lingvistik xususiyatlarini tahlil qilishga qiziqishining ortishiga sabab bo'ldi[6]. Bugungi kunda global tarmoq tilga u yoki bu darajada nafaqat ta'sir qildi, balki

[1] Трофимова Г.Н. Языковая личность и массовая киберкоммуникация в рунете. – М., 2004, – №3. – С. 294.
[2] Горошко Е.И. Лингвистика Интернета: соблюдение дисциплинарной парадигмы // Жанры и виды текста в научном и медийном дискурсе. – Орел: Картуш, 2007. – С. 223–237.
[3] Галичкина, Е.Н. Характеристика компьютерного дискурса. – М., 2004. – С. 27-29.
[4] Muxamedjanova Sh.B. Lingvistikada internet muloqot tushunchasi. – Toshkent, 2023. – B 147-151.
[5] Зуммо М. Влияние СМС на деловые электронные письма на лингва франка: особенности дискурса и недопонимания. – М, 2018 – С. 47-59.
[6] Мифтахова, А., Бочина, Т. и Маликов, А. Женщина против бабы в русской культуре и интернет-языке. М., 2020. – С. 54-62.

internetda o‘ziga xos til ko‘rinishining shakllanishiga sabab bo‘ldi. Bu holatga tilshunos esa V.V.Kiselova “Ehtimol, tilshunoslikning adabiy til, ilmiy til kabi ko‘rinishlariga o‘xshagan yangi shaklini yaratish, masalan, internet argot yoki ko‘ngilochar (axborot tili) tili deb nomlash vaqti kelgandir xuddi ilgari ko‘cha tili bo‘lganidek[1]”, – deya munosabat bildiradi.

G.N.Trofimova “Языковая личность и массовая киберкоммуникация в рунете” maqolasida aynan Internetda “faol grammatika, og‘zaki nutq, assotsiativ o‘zaro ta‘sir tabiiy tilning yaratilishini talab qiladi va Y.N. Karaulov shakllantirgan uchta an’anaviy, ya’ni verbal-semantik (tilni bilish), kognitiv (dunyo lisoniy manzarasini tashkil etuvchi tushunchalar) va pragmatik (maqsadlar, motivlar, qiziqishlar, nutq faoliyatida namoyon bo‘ladigan baholash) darajadagi lisoniy shaxs shakllanadi. Va ushbu darajalarning har biri virtual hamjamiyat ishtirokchilari psixologiyasining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq yangi ma‘no kasb etadi”[2], – deya izohlaydi.

Internetda shaxs uchun mavjud yangi shart-sharoitlar bilan bir qatorda nutqiy xatti-harakatlarini qamrab olgan xulq-atvor qoidalari majmuasi ham shakllanadi. Qat’iy tartib, rasmiy munosabat, odob-axloq mezonlariga rioya qilish Internet olamiga unchalik mos emas. Ijtimoiy tarmoqlarda hamma teng va mustaqildir. Bu holatlarning barchasi tilda ham o‘z aksini ko‘rsatadi va lingvistik o‘zaro ta’sirning mutlaqo yangi shakli kuzatiladi. Internet muloqot o‘z foydalanuvchilarining tildan foydalanish xususiyatlariga sezilarli ta’sir o‘tkazadi. Bundan tashqari, foydalanuvchilar, tashrif buyuruvchilar, “virtual shaxslar” nafaqat butun Internet makonini yaratadilar, balki o‘zlari sezmasdan ijtimoiy qatlam muloqot qiladigan Internet tilini ixtiro qiladilar[3].

Darvoqe, hozirda “internet tili”, “ijtimoiy tarmoq tili” deb ataluvchi terminlar paydo bo‘lib, uni internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadigan shaxslar shakllantirishmoqda. So‘zlarning qisqartirib yozilishi, ba’zi ifodalarni beruvchi jumlalar, qisqartmalar, memlar, giflar, turli smayliklar internet tilining o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lib, bular ijtimoiy tarmoq madaniyatini ifodalovchi yangi “virtual til” ning paydo bo‘lishiga ko‘mak beradi. Shu bilan birga, bu holat internet lisoniy shaxsining voqelanishini o‘rganishga ehtiyoj paydo bo‘lishiga ham olib keldi.

Internetda virtual shaxs, ko‘pincha, anonim qoladi bu unga o‘zini erkin tutish, o‘z pozitsiyalarini boshqalarga erkin ulashish imkonini beradi. Unda o‘ynoqi improvizatsiyaviy uslub, nutqning o‘ziga xosligi ko‘zga tashlanadi. Virtuallik insonni real hayotda chegaralangan shaxsiyatining yashirin xususiyatlarini ozod qilishga undaydi. V.Y.Ivanov ham “Интернет в формировании диалогического пространства в социокультурной среде” nomli maqolasida internetda anonimlikning muhimligi muloqotga kirishganlarga o‘zini erkin his qilish, o‘zining his tuyg‘u va fikrlaridan uyalmaslikni ta’minlaydi deya izohlaydi[4]. Natijada internet muloqot qiluvchilar nutqida odob-axloq normalariga mos kelmaydigan muloqot ko‘rinishlarining ham paydo bo‘lishiga olib keldi. Bu holatni internet makonda shaxslarning o‘zaro to‘g‘ridan tog‘ri, yuzma-yuz suhbat qilmasligi bilan ham bog‘lash mumkin. “Ya’ni bu yerdagi muloqotda odamlar aslidagidan ko‘ra dadilroq, jur’atliroq, betgachoparroq, mulozamatsiz va hatto shafqatsizroq ko‘rinishi mumkin. “Yuz amri shirin” maqoli aynan mos keladigan holat – ikki shaxs ko‘z-ko‘zga tushganda ayta olmaydigan gaplarini internetda bemalol aytadi. Muomala bobida ham shunday. Bu hatto odatiy oddiy hol deb qaralmoqda. Demak, real hayotdagi xulq bilan parallel ravishda ijtimoiy tarmoqlarda o‘zgacha, o‘ziga xos odob shakllangan”[5]. Bu holat, albatta, internet tiliga xos xususiyatlarni belgilashda asosiy belgilar bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Darhaqiqat, internetda anonim qolish hamda boshqa sabablar tufayli foydalanuvchilar turli muhokama va bahslarda, qo‘ygan post va videolarida, muloqot jarayonida disfimizmlardan, haqorat so‘zlardan erkin foydalanish kabi holatlar kuzatiladi. Bu kabi ko‘rinishlar, ayniqsa, Telegram messenjeri, Tik tok platformasi, Odnoklasniki ijtimoiy tarmoqlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Chunki tarmoqlarda turli daraja va dunyoqarashga ega shaxslar mavjud bo‘lib, ularning bilim darajasi, dunyoqarashlari, axloqi va ma’naviyati nutqida ham aks etib turadi. Tarmoqlardagi bunday salbiy holatlarga jurnalist Sh.Soatova quyidagicha munosabat bildiradi: “Ijtimoiy tarmoqning ma’naviyat bilan munosabati o‘zgacha – uni ba’zan mensimaydi, ignor qiladi, ba’zida unga juda qiziqib, o‘tkir savollar qo‘yadi: “Ma’naviyat nima?”, “Bor narsami, o‘zi?”, “Mezon-o‘lchovlari qanday?” Asosiysi, tarmoqda ma’naviyat turli nom va shakllarda mavjud; foydalanuvchilar unga murojaat etadi,

[1] Киселева В.В. Интернет и языковая личность, теория социальных пространств // Успехи современного естествознания. – М., 2007. – № 4. – С. 41-42

[2] Трофимова Г.Н. языковая личность и массовая киберкоммуникация в рунете. – М, 2004, – №3. – С. 294.

[3] Komilova Z. Internet tili va uslubi. – T., 2023. – P 216-221.

[4] Иванов, В. Е. Интернет в формировании диалогического пространства в социокультурной среде // Мир психологии. – М., 2000. – № 2. – С. 52–56.

[5] Muxamedjanova Sh.B. Lingvistikada internet muloqot tushunchasi. – Toshkent, 2023. – B 147-151.

o‘rganadi, tadqiq va targ‘ib qiladi, u bilan (yoki usiz) yashaydi[1].

Virtual shaxs qiziqishlarining xilma-xilligi uning intellektualligining yangi darajalarini shakllantiradi. Virtual shaxs dunyoda muloqot jarayonini osonlashtiradigan, psixologik to‘siqlarni olib tashlaydigan va ijodiy “men” ni chiqaradigan niqob kiyadi[2]. Shuningdek, onlayn auditoriya mualliflarni yangicha fikr yuritishga hamda vaziyat talabi bilan ma’lumotlarni qisqa va ixcham tarzda taqdim etishni talab qiladi. Internetda xabarlar, matnlar va tarmoq ma‘lumotlari lingvistik dizaynning o‘ziga xos shaklida ifodalanadi. Chunki virtual hayotda sharoit va shaxslarning o‘zaro ta’siri lingvistik darajada ham o‘zgarishni olib keldi. Bunda shaxs o‘z-o‘zini ifodalashda yangi lingvistik yo‘ldan boradi, bu holat uning nutqida ham aks etib o‘ziga xos ko‘rinishga ega bo‘lgan Internet lisoniy shaxs shakllanishiga zamin yaratadi.

Rezyume. Ushbu maqolada internet va ijtimoiy tarmoqlar muhitida lisoniy shaxsning shakllanishi va voqelanishi masalalari yoritilgan. Internet tili va ijtimoiy tarmoq tili tushunchalari, ularning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Internet muhitida anonimlik, erkinlik, interaktivlik, qisqartmalar, memlar, smayliklar kabi hodisalarning til tizimiga ta’siri hamda bu jarayonning ma’naviy va madaniy oqibatlari ilmiy asosda yoritilgan.

Resume. This article discusses the issues of the formation and realization of linguistic personality in the environment of the Internet and social networks. The concepts of Internet language and social network language, their specific features are analyzed. The impact of phenomena such as anonymity, freedom, interactivity, abbreviations, memes, emoticons on the language system in the Internet environment, as well as the spiritual and cultural consequences of this process, are scientifically covered.

Резюме. В статье рассматриваются вопросы формирования и реализации языковой личности в среде Интернета и социальных сетей. Анализируются понятия «язык Интернета» и «язык социальных сетей», их специфические особенности. Научно освещается влияние таких явлений, как анонимность, свобода, интерактивность, аббревиатуры, мемы, эмотиконы, на языковую систему в интернет-среде, а также духовные и культурные последствия этого процесса.

[1] https://oyina.uz/kiril/article/916 na

[2] Трофимова Г.Н. Языковая личность и массовая киберкоммуникация в рунете. – М., 2004, – №3. – С. 294.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 11-12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ОТРАЖЕНИЕ И ФОРМИРОВАНИЕ: РОЛЬ ГЕНДЕРНЫХ ТЕРМИНОВ В ВОСПРИЯТИИ МАТЕРИНСТВА В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ

Раджапова Наталья Базаровна,
Кафедра русского языкознания
Термезский государственный университет

Актуальность исследования гендерных терминов в лексико-семантическом поле «материнство» обусловлена многогранностью и сложностью данного явления в современном обществе. Материнство, как социальный и культурный феномен, не только отражает биологическую функцию женщин, но и формирует целый ряд социальных, психологических и культурных аспектов, которые в свою очередь влияют на восприятие роли женщины в обществе. Гендерные термины, например мать, мама, мамочка, родительница, праматерь, беременная, будущая мать, молодая мать, многодетная мать, мать-одиночка, мать-героиня, приёмная-мать, матушка, хранительница очага, идеальная мать, яжмать связанные с материнством, представляют собой не просто лексические единицы, а важные маркеры, отражающие общественные представления и стереотипы, связанные с этой важной ролью. В данной статье мы намерены исследовать, как гендерные термины, относящиеся к материнству, формировались исторически, какова их семантика, какова структура лексико-семантического поля «материнство» в русском языке и какое влияние они оказывают на формирование стереотипов о материнстве.

Исторический аспект гендерных терминов в лексико-семантическом поле материнства представляет собой важный контекст для понимания современного состояния языка и культуры. На протяжении веков представления о материнстве претерпели значительные изменения, что отразилось в языке. В разные исторические эпохи материнство воспринималось по-разному: от священной роли матери-земли до более прагматичного взгляда на материнство как на социальную функцию. Эти изменения нашли свое отражение в гендерных терминах, которые использовались для описания материнства, и в их значениях[1]. Важно отметить, что язык не является статичным; он развивается и изменяется вместе с обществом, и, следовательно, анализ исторического контекста позволяет нам лучше понять, как и почему возникли те или иные термины.

Семантика гендерных терминов, связанных с материнством, требует глубокого анализа, поскольку она включает в себя не только лексическое значение слов, но и их коннотации, ассоциации и культурные контексты. Гендерные термины могут нести в себе как положительные, так и отрицательные характеристики, и их использование может варьироваться в зависимости от контекста. Например, термины, описывающие различные аспекты материнства, могут подчеркивать заботу и любовь, но также могут быть связаны с определенными ожиданиями и стереотипами, которые могут ограничивать женщину в ее роли матери. Исследование семантики этих терминов позволит выявить, как они формируют общественное восприятие материнства и как они могут влиять на личные идентичности женщин.

Структура лексико-семантического поля «материнство» в русском языке представляет собой сложную сеть взаимосвязанных терминов, которые могут быть классифицированы по различным критериям. Важно рассмотреть, как эти термины связаны друг с другом, какие группы слов можно выделить и как они соотносятся с различными аспектами материнства[2]. Например, можно выделить термины, относящиеся к биологическим аспектам материнства (вынашивание, роды, роженица, кормилица, кормление грудью,

[1] Денисова И. В. Особенности передачи гендерного аспекта в переводе художественного произведения // Челябинск. – 2011. – Т. 183.

[2] Раджапова, Н. 2025. Гиперо-гипонимические проявления в гендерно ориентированной лексике русского языка. Зарубежная лингвистика и лингводидактика. 3, 5 (сен. 2025), 202–208.

репродуктивный возраст, родом, родильный дом, материнское молоко, грудное вскармливание) термины, связанные с воспитанием и образованием детей (воспитание, заботливость, попечительница, няня, гувернантка, материнская школа, материнский инстинкт, баюканье, колыбельная) а также термины, описывающие социальные роли и ожидания (декретный отпуск, отпуск по уходу за ребёнком, материнский капитал, домохозяйка, мать-защитница, семейные ценности, традиционная семья, идеальная мать) связанные с материнством. Анализ структуры этого поля позволяет более глубоко понять, как язык отражает и формирует социальные реалии, связанные с материнством. Язык не только отражает существующие стереотипы, но и активно участвует в их создании и распространении. Гендерные термины могут укреплять традиционные представления о роли матери, а также способствовать формированию новых взглядов на материнство[1]. Например, использование определенных терминов (материнский долг, материнский подвиг, жертва во имя детей, мать-наседка, живёт ради детей, тыжемать, яжмать, кукушка, недостойная мать, жертвенная женщина) может подчеркивать важность жертвенности и самоотверженности в роли матери, что может создавать давление на женщин и формировать определенные ожидания относительно их поведения и выбора. Важно исследовать, как эти термины влияют на общественное восприятие материнства и как они могут способствовать как положительным, так и отрицательным стереотипам.

Исторический аспект гендерных терминов в лексико-семантическом поле материнства представляет собой обширную и многогранную тему, которая требует внимательного анализа и глубокого понимания культурных, социальных и языковых изменений, происходивших на протяжении веков. В русском языке, как и в других языках, термины, связанные с материнством, претерпели значительные изменения, отражая эволюцию взглядов на роль женщины в обществе, её функции как матери и, в более широком смысле, на гендерные отношения.

В древнерусском обществе материнство воспринималось как одна из основных функций женщины. Женщина, как правило, была связана с домом, семьей и заботой о детях. В этом контексте термины, описывающие материнство, носили в основном позитивный характер, подчеркивая важность женщины как хранительницы домашнего очага и воспитательницы будущего поколения. Например, слова, такие как «мать», «материнство», «родительница», имели в себе не только функциональную, но и высокую моральную нагрузку. В народной культуре и фольклоре материнство часто олицетворялось в образах, символизирующих заботу, тепло и защиту, например, (Мать-Земля, Мать-Сыра Земля, наседка, берегиня, гнездо, матушка-заступница, материнское благословение, материнское сердце, родимая кровь, колыбельная)[2]. Эти образы были неотъемлемой частью жизни, они передавались из поколения в поколение, создавая устойчивую языковую традицию.

С течением времени, особенно с началом эпохи Петровских реформ в XVIII веке, произошло изменение в восприятии роли женщины в обществе. Начали формироваться новые социальные роли, и с ними – новые термины. Женщина стала восприниматься не только как мать, но и как активный участник общественной жизни. Это отразилось на языке: появились новые слова и выражения, связанные с материнством, которые подчеркивали не только биологическую, но и социальную функцию матери, например светская дама, хозяйка салона, мать семейства, просвещённая мать. В этот период, например, стали активно использоваться термины, связанные с образованием и воспитанием детей, что свидетельствовало о растущем интересе к вопросам детской психологии и педагогики, например, наставница, воспитательница, умное воспитание, разумное воспитание, домашнее образование, светское воспитание и т.д..

С началом XX века, особенно в контексте революционных изменений и последующих социальных трансформаций, произошла ещё одна волна изменений в лексико-семантическом поле материнства. В это время материнство стало рассматриваться не только как личная, но и как общественная категория. Слово «мать» стало обретать новые значения, связанные с идеями коллективизма и социальной ответственности. Важным аспектом этого периода стало появление термина «мать-героиня», который стал символом жертвы и преданности в условиях войны

[1] Зиновьева Е. С. Языковые механизмы конструирования маскулинности и феминности в дискурсе глянцевых журналов (на материале английского и русского языков): Дисс. канд. филол. наук. – Ярославль, 2018.

[2] Томская М. В., Маслова Л. Н. Гендерные исследования в отечественной лингвистике // Русский язык в современном обществе: Функциональные и статусные характеристики. – 2005. – №. 2005. – С. 102-130.

и социальных катастроф. Этот термин не только подчеркивал важность материнства, но и связывал его с идеей патриотизма и служения Родине. Кроме того, в обиход вошли термины женщина-труженица, женщина-активистка, алиментщица, сознательная мать.

В послевоенные годы, с восстановлением страны и ростом населения, материнство вновь стало рассматриваться как важнейшая ценность. В этот период активно развивалась социальная политика, направленная на поддержку матерей и семей. Появились новые термины, такие как многодетная мать, одиночка, которые отражали изменения в социальной структуре и новые реалии жизни. Эти термины несли в себе как позитивные, так и негативные коннотации, отражая сложные отношения общества к различным формам материнства. В это время также усиливается внимание к правам женщин, что находит отражение в языке. Появляются новые термины, подчеркивающие равноправие и социальные гарантии для матерей, такие как социальная защита, материнский капитал.

Однако, несмотря на позитивные изменения, терминология, связанная с материнством, продолжала оставаться под влиянием стереотипов и предвзятостей. В русском языке сохранялись слова и выражения, которые несли в себе негативные ассоциации, связанные с материнством. Например, термины, такие как матерщина или материнский инстинкт, иногда использовались в уничижительном контексте, что подчеркивало существующие стереотипы о роли женщины как исключительно заботливой и жертвенной. Эти термины отражали не только социальные, но и культурные установки, которые продолжали оказывать влияние на восприятие материнства в обществе.

В последние десятилетия, с развитием феминистского движения и ростом интереса к гендерным вопросам, наблюдается новая волна изменений в лексико-семантическом поле материнства. Женщины начали активно выступать за свои права, и это нашло отражение в языке. Появляются новые термины и концепции, такие как осознанное материнство, активная мать, которые подчеркивают право женщины на выбор и индивидуальность в вопросах материнства. Эти термины акцентируют внимание на том, что материнство – это не только биологическая функция, но и социальная роль, которая требует осознанного подхода и активного участия.

Таким образом, исторический аспект гендерных терминов в лексико-семантическом поле материнства в русском языке демонстрирует сложный и динамичный процесс, в котором отражаются изменения в обществе, культуре и языке. Эволюция этих терминов показывает, как менялись представления о роли женщины и материнстве, как они адаптировались к новым социальным условиям и как язык стал отражением этих изменений. Важно отметить, что язык не только фиксирует существующие реалии, но и формирует наше восприятие мира, в том числе и в контексте материнства. Поэтому изучение гендерных терминов в этом поле имеет не только лексикографическое, но и глубокое социальное значение, позволяя лучше понять, как язык влияет на наше восприятие гендерных ролей и отношений в обществе.

Исторический аспект гендерных терминов в лексико-семантическом поле материнства показал, что язык не является статичным, а подвержен изменениям, связанным с социальными, экономическими и культурными трансформациями. В разные исторические эпохи роль матери воспринималась по-разному: от идеализированной фигуры, олицетворяющей жертвенность и самопожертвование, до более прагматичного взгляда на материнство как на социальную функцию. Это изменение отражается в лексике, где термины, связанные с материнством, приобретают новые значения или теряют старые. Семантика гендерных терминов, связанных с материнством, показала, что многие из них несут в себе не только описательные, но и оценочные характеристики. Например, термины, такие как мать, материнство, материнская любовь, часто ассоциируются с положительными качествами, такими как забота, тепло, нежность. В то же время, такие термины, как матерь-одиночка или нежеланная мать, несут в себе негативные коннотации и могут способствовать стигматизации определённых групп женщин[1]. Таким образом, язык становится инструментом не только для описания реальности, но и для её конструирования, что подчеркивает важность анализа семантики гендерных терминов.

Структура лексико-семантического поля материнства в русском языке выявила, что это поле не является однородным, а включает в себя множество взаимосвязанных терминов, каждый из

[1] Раджапова Н. Гендерные особенности в речи //Традиции и инновации в исследовании и преподавании языков. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 213-217.

которых имеет свои специфические значения и коннотации. В поле материнства можно выделить такие подгруппы, как термины, относящиеся к биологическому аспекту материнства (например, «беременность», «роды»), социальному (например, «воспитание», «материнские обязанности») и эмоциональному (например, «материнская любовь», «забота»). Эти подгруппы демонстрируют, как различные аспекты материнства взаимосвязаны и как они влияют на восприятие роли матери в обществе.

Влияние гендерных терминов на формирование стереотипов о материнстве является одной из ключевых тем нашего исследования. Гендерные стереотипы, связанные с материнством, часто основаны на традиционных представлениях о роли женщины как хранительницы домашнего очага и воспитательницы детей. Эти стереотипы могут ограничивать женщин в их выборах и возможностях, создавая давление соответствовать определённым ожиданиям. Например, женщины, которые не соответствуют традиционным представлениям о матери, могут сталкиваться с осуждением и стигматизацией. Таким образом, язык, в частности гендерные термины, не только отражает существующие стереотипы, но и активно участвует в их поддержании и распространении. Важным аспектом является то, что с изменением общественных норм и ценностей меняется и лексика, связанная с материнством. Современные тенденции, такие как феминизм и движение за права женщин, способствуют переосмыслению роли матери и, соответственно, изменению терминологии. Появление новых терминов и концепций, таких как современная мать, партнёрство в родительстве, осознанное материнство, свидетельствует о том, что общество начинает отходить от традиционных стереотипов и искать новые формы выражения материнства.

Таким образом, результаты нашего исследования подчеркивают, что гендерные термины в лексико-семантическом поле материнства не просто отражают реальность, но и активно формируют её. Язык становится зеркалом, в котором отображаются изменения в социальных отношениях и культурных представлениях. Важно понимать, что изменение языка может стать одним из инструментов для преодоления стереотипов и создания более равноправного общества, где роль матери не будет ограничена узкими рамками традиционных представлений.

В заключение, можно сказать, что гендерные термины в лексико-семантическом поле «материнство» представляют собой сложный и многогранный феномен, который требует дальнейшего изучения. Важно продолжать анализировать, как язык влияет на восприятие материнства и как, в свою очередь, меняющиеся социальные условия и культурные нормы влияют на язык. Это исследование является лишь началом более глубокого анализа, который может помочь в понимании не только лексических и семантических аспектов, но и более широких социальных процессов, связанных с материнством и гендерными ролями в современном обществе.

Rezyume. Ushbu maqola rus tilidagi «onalik» leksik-semantik maydonidagi gender atamalarining kompleks tahlilini taqdim etadi. Ushbu atamalar nafaqat aks ettiruvchi, balki ijtimoiy-madaniy stereotiplarni faol ravishda shakllantiruvchi asosiy markerlar sifatida ko‘rib chiqiladi. Gender atamalari onalik haqidagi stereotiplarni yaratishda va ularni saqlashda faol ishtirok etadi, bu esa ko‘pincha fidoyilik va o‘zini qurbon qilish haqidagi an’anaviy tasavvurlarga (masalan, onaning burchi, bolalar uchun qurbonlik) asoslanadi. Bunday bosim ayollarni cheklab qo‘yishi va «ideal»ga mos kelmaydiganlarni tamg‘alanishga olib kelishi mumkin. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, «onalik» maydonidagi gender atamalari nafaqat ijtimoiy reallik va madaniy tasavvurlarni aks ettiruvchi, balki ularni faol ravishda shakllantiruvchi murakkab fenomendir. O‘z navbatida, tilning o‘zgarishi eski stereotiplarni yengib o‘tish uchun vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Resume. This article presents a comprehensive analysis of gender terms within the lexico-semantic field of «maternity» in the Russian language, viewing them as key markers that not only reflect but also actively shape sociocultural stereotypes. Gender terms actively participate in the construction and maintenance of maternity stereotypes, often based on traditional notions of sacrifice and selflessness (maternal duty, sacrifice in the name of children). Such pressure can restrict women and lead to the stigmatization of those who do not conform to the «ideal.» The research indicates that gender terms in the field of «maternity» constitute a complex phenomenon that not only reflects but also actively forms social reality and cultural perceptions. Changes in language, in turn, can serve as a tool for overcoming outdated stereotypes.

Резюме. Настоящая статья представляет собой комплексный анализ гендерных терминов в лек-

сико-семантическом поле «материнство» в русском языке, рассматривая их как ключевые маркеры, которые не только отражают, но и активно формируют социокультурные стереотипы. Гендерные термины активно участвуют в конструировании и поддержании стереотипов о материнстве, часто основанных на традиционных представлениях о жертвенности и самоотверженности (материнский долг, жертва во имя детей). Такое давление может ограничивать женщин и приводить к стигматизации тех, кто не соответствует «идеалу». Исследование показывает, что гендерные термины в поле «материнство» являются сложным феноменом, который не только отражает, но и активно формирует социальную реальность и культурные представления. Изменение языка, в свою очередь, может служить инструментом для преодоления устаревших стереотипов.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 11-12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

SIFATLARNING BADIIY MATNDAGI FUNKSIONAL-STILISTIK O'RNI

Sarbarova Dilnoza Nosirjon qizi,
O'zbekiston Milliy universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

O'zbek tili grammatik qurilishida sifatlar mustaqil so'z turkumi sifatida muhim o'rin egallaydi. Sifatning asosiy vazifasi shaxs, predmet va hodisalarning belgi-xususiyatini ifodalashdan iborat bo'lsa-da, adabiy nutqda, ayniqsa she'riy matnda, ularning semantik yuklamasi bundan ancha kengdir. Sifatlar tilning nominativ imkoniyatlarini boyitish bilan birga, estetik mazmun yaratadigan, matnga emotsional rang beradigan, o'quvchi idrokiga ta'sir qiladigan vosita sifatida ham o'rganiladi. Hozirgi kunga qadar o'zbek tilshunosligida sifatlarning morfologik xususiyatlari, sintaktik imkoniyatlari, semantikasi, sinonimiyasi kabi masalalar atroflicha o'rganilgan[1].

Sifatlar badiiy uslubning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Ularning she'riy nutqda tutgan o'rni muayyan obrazni yaratish, kayfiyatni ifodalash, poetik tasvirning estetik mukammalligiga erishish bilan chambarchas bog'liq.

Badiiy matnda sifatlar quyidagi vazifalarni bajardi

1. Obraz yaratish. Sifatlar orqali shoir predmet yoki hodisani ko'zga ko'rinadigan darajada jonlantiradi: *«Sokin kechalar», «oltin kuz», «ma'yus tong»*.

2. Rang berish (kolorit yaratish). Rang sifatlari ramziy ma'nolarga ega bo'lishi mumkin: «oq» – poklik, «qora» – iztirob, «ko'k» – umid.

3. Muallifning subyektiv munosabatini ifodalash. Badiiy matnda sifat nafaqat tasvir, balki baho beradi: *«yovuz shamol», «muqaddas ona», «bechorahol odam»*.

4. Emotsional-ekspressivlikni kuchaytirish. Sifat matnga hissiy ta'sir kuchini kiritadi. Masalan: *«Titroq yurak», «achchiq haqiqat», «zulmatli xotira».*

Shuningdek, sifatlar she'riy tilning asosiy vositasi hisoblanadi. She'riyat tilida sifatlar o'zgacha badiiy tabiat kasb etadi. Prozada tasvirning asosiy yukini fe'l bajaradigan bo'lsa, she'riyatda ko'pincha sifat dominant vazifasida bo'ladi. Shoir birgina sifat orqali butun bir poetik makonni yaratadi:

«Jimjit tun» – sukutning to'la manzarasi,
«Qora daryo» – og'irlik va xavotir tuyg'usi,
«Oq dard» – metafizik iztirob.

Bunday sifatlar faqat belgi emas, balki yangi ma'no maydoni ochadi.

She'riy matnda sifatlar funksional jihatdan bir

[1] Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006. – B.159-172; Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent. 2007. 191-206-b; Sodiqova M. Hozirgi o'zbek tilida sifat. - Toshkent: Fan, 1974. 127 b.; Hamdamova I. O'zbek tilida sifatlarning ma'no turlari va ularning o'zbek tili izohli lug'atida berilishi.Filol.fan.nomz.diss ... avtoref. – Toshkent, 1964. 20-b.; Nurmonov A. va b. O'zbek tilining nazariy grammatikasi (Morfologiya). – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001. 63-67-b.

necha guruhlarga bo‘linadi. Ularning har biri o‘ziga xos poetik vazifa bajaradi.

1. Emotsional-ekspressiv sifatlar. Bu turdagi sifatlar o‘quvchiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi: *achchiq, shirin, mungli, qo‘rqinchli, tiniq, ma’yus.* Ular orqali shoir kechinmalarini ifodalaydi.

2. Metaforik sifatlar. Sifatlar ko‘chma ma’noda qo‘llanib, butun poetik obrazni o‘zida mujassam qiladi: ***«shisha** qalb», «qonli ufqlar», «temir** sovuq»*. Metaforik sifatlar she’riyatning eng muhim poetik vositalaridan biridir.

3. Simvolik sifatlar. Ular konnotativ ma’nolar bilan yuklangan bo‘ladi:

«oq» – poklik,

«qizil» – ehtiros yoki xavf,

«ko‘k» – ruhiy kenglik, quyosh timsoli,

«qora» – qayg‘u, tahlikalik holat.

Bu turdagi sifatlar o‘zbek she’riyatida juda keng qo‘llanadi.

4. Assotsiativ sifatlar. Mazmuni kontekstdan kelib chiqib shakllanadi. Masalan: ***«uchqun fikr», «dengiz sukut», «ko‘lanka yod»*** kabi sifatlar o‘quvchi ongida murakkab assotsiatsiyalar uyg‘otadi.

Sifatlarning sintagmatik va paradigmatik munosabatlari. Sifatlar matn ichida boshqa birliklar bilan aloqaga kirishadi va ma’no hosil qiladi. Bu jarayonda ikki asosiy munosabat turini ko‘ramiz:

1. Paradigmatik munosabatlar. Bu – sifatning o‘xshash funksiyaga ega boshqa birliklar bilan almashish qobiliyati. Masalan, shoir:

«Oppoq** dunyo»* o‘rniga ***«musaffo dunyo»

«mangu iztirob» o‘rniga ***«bitmas-tuganmas iztirob»*** deyishi mumkin. Paradigma she’riyatda sinonimlar tizimini yaratadi.

2. Sintagmatik munosabatlar. Bu – sifatning ko‘proq ot yoki sifat yana boshqa birlik bilan birikib, keng ma’no hosil qilishi. Masalan:

«qorong‘i sokin tun»

«zangori yoshlik xotiralari»

«ayovsiz sovuq shamol»

Bu birikmalar sintagmatik jihatdan mustahkam strukturaga ega bo‘lib, poetik tasvirning kompozitsion asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Ma’lumki, daraja kategoriyasi sifatning muhim grammatik belgisidir. She’riyatda bu kategoriya juda katta ekspressiv imkoniyatlarga ega. Oddiy darajadagi sifat ko‘pincha tasvirning neytral shaklini beradi: *sokin kecha, shirin tabassum, og‘ir dard.* Bu daraja kontekstdan kelib chiqib emotsional bo‘lishi mumkin. Qiyosiy daraja taqqoslashni kuchaytiradi: *yaxshiroq kunlar*, *chuqurroq kechinmalar, sokinroq sukunat.* Shuningdek, she’riyatda qiyosiy daraja o‘zaro qarama-qarshi obrazlarni ta’kidlashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Orttirma daraja – she’riy matndagi emotsional-ekspressiv ifodaning eng kuchli shakli: *eng go‘zal xotira, nihoyatda sokin tun*, *behad keng osmon.* Shoir orttirma daraja orqali o‘quvchi qalbiga bevosita murojaat qiladi, obrazning kuchli hissiy ta’sirini yaratadi.

Darhaqiqat, sifatlar she’riy matn poetik strukturasini belgilovchi eng faol elementlardan biridir. Lingvopoetik tadqiqotlarda sifatning stilistik funksiyalari keng o‘rganilgan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Estetik funksiyasi. Sifatlar she’riy tasvirning go‘zalligini yaratadi. Masalan, ***«shaffof tong», «latif shamol», «tiniq osmon»*** kabi birikmalar o‘quvchida yoqimli tasavvur uyg‘otadi.

2. Emotsional funksiyasi. Sifatning bevosita hissiy rang beruvchi funksiyasi mavjud: *«ma’yus ko‘ngil», «achchiq haqiqat», «dardli satrlar».* Bu sifatlar matnning ruhiy-psixologik ohangini belgilaydi.

3. Baholovchi funksiyasi**.** Bu turdagi sifatlar shoirning ijtimoiy, axloqiy yoki shaxsiy munosabatini bildiradi:*»muqaddas ona yurt», «yovuz zulmat», «ajoyib hayot».* Baholovchi sifatlar she’riyatda g‘oya va mazmunning asosiy ideologik yukini tashiydi. Shuningdek, tilshunos olim G‘.Qambarov baho munosabati sifatning asosan qiyosiy daraja shakllari orqali yuzaga chiqishini ta’kidlagan[1].

4. Kompozitsion-funksional vazifa. Sifatlar she’riy matnda ritmika, pauza, ohang, sintaktik parallelizm kabi poetik vositalar bilan uyg‘unlashadi. Masalan, she’rning bir necha misrasida sifatlarning takroriy qo‘llanishi kompozitsion bog‘liqlik yaratadi: ***«**Sokin tunlar, sokin yillar, Sokin xotiralar ichra men…»*** Bu yerda «sokin**»** sifatining takrorlanishi poetik ritmikani mustahkamlaydi.

Shuningdek, sifatlar ko‘pincha o‘zining lug‘aviy ma’nosidan tashqari konnotativ (qo‘shimcha) ma’noga ega bo‘ladi. Bu ularning eng muhim badiiy-pragmatik xususiyatlaridan biridir. She’riy matnlarda sifatlarning quyidagi konnotativ ma’no turlarining ifodalanishi kuzatiladi:

1. Emotsional konnotatsiya. ***«ma’yus ko‘zlar»*** – qayg‘u, ***«quvonchli damlar»*** – shodlik;

2. Ekspressiv konnotatsiya. *«ulg‘aygan dard»*, *«qonli tong»*

3. Simvolik konnotatsiya. «oq» – poklik, «qora» – iztirob, «ko‘k» – umid, kenglik.

4. Ijtimoiy-baholovchi konnotatsiya. *«muqaddas vatan»*, *«shafqatsiz tuzum»*.

Konnotativ ma’no she’riyatda obrazning ma’naviy va ruhiy qatlamlarini chuqurlashtiradi.

Sifatlar she’riy matnda metaforik ma’nolar yarat-

[1] Қамбаров Ғ. Баҳо муносабати ва унинг ўзбек тилида ифодаланиши (шахслараро муносабат асосида): Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008. – 125 б.

ishda nihoyatda faol qatnashadi. Metafora – ikki predmet yoki hodisaning o‘xshash jihatlari asosida ma’noning ko‘chishi bo‘lib, sifat bu jarayonning asosiy semantik markazlaridan biridir. Sifat orqali yuzaga kelgan metaforalar o‘zbek she’riyatining obrazlar tizimida keng uchraydi. Shuningdek metaforik sifatlarning quyidagi uch vazifasini keltirish mumkin:

1. Obrazni jonlantirish. Masalan: *«temir sovuq»*, *«qonli ufqlar»* kabi sifatlar kuchli emotsional ta’sir kuchiga ega.

2. Ramziy ma’no yaratish. *«Yurakda muzlagan tuyg‘ular»* – bu yerda «muzlagan» sifati bevosita fizik holatni emas, balki ruhiy sovuqlikni beradi.

3. Murakkab hissiy holatlarni ifodalash. Sifat metafora orqali ko‘pincha so‘z bilan yetkazib bo‘lmaydigan kechinmalarni ifodalaydi: *«Ko‘nglimda siniq tonglar»*, *«yig‘ing‘ich xotiralar»*.

Har bir ijodkor metaforik sifatlarni o‘z estetik ta’bi, poetik maktabi va dunyoqarashiga mos holda qo‘llaydi. S.Maxsumova pragmatik ma’noning metaforalar orqali hosil qilinishi haqida fikr yuritib, so‘zlarning ko‘chma ma’noda qo‘llanilganida bir qancha ma’no ifodalashi, ana shu ko‘chma ma’nolarning birini qo‘llash orqali baho munosabati ifodalanishini E.Vohidov she’riyati misolida yoritib bergan[1]. Shu bilan bir qatorda, sifatlar ramziy (simvolik) ma’nolarni ham ifodalaydi. Sifatlarning ramziy ma’nolari milliy-madaniy dunyoqarash bilan chambarchas bog‘liq. O‘zbek she’riyati qatlamlarida ranglar, holat bildiruvchi sifatlar va baholovchi sifatlar ko‘p holatlarda simvolik mazmun beradi. Eng ko‘p uchraydigan rang simvollari sifatida quyidagi rang bildiruvchi sifatlarni keltirish mumkin:

- Oq – poklik, ezgulik, yorug‘lik, musaffolik
- Qora – qayg‘u, zulmat, iztirob, g‘am
- Qizil – muhabbat, ehtiros, xavf
- Ko‘k – umid, orzu, samoviylik, kenglik
- Yashil – hayot, yangilanish, tabiat

Masalan: *«Oq tunlarim senga atalg‘ay»* misolidagi *«oq»* sifati tozalikka ishora qiladi. Cho‘lponning *«qora osmon ostidagi xalq»* misolida esa «qora» – siyosiy zulm timsoli. shoir She’riy matnlarda qo‘llanilgan sifatlar, ayniqsa, rang bildiruvchi sifatlar boshqa leksik vositalarga nisbatan keng qo‘llaniladi va shu asnoda she’riy matnlarda ranglar orqali baho munosabatining ifodalanishi o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi[2].

Sifatlarning assotsiativ imkoniyatlari ham o‘ziga xos bo‘lib, assotsiativ sifatlar o‘quvchi ongida murakkab tasavvurlar tizimini hosil qiladi. Bu sifatlar ko‘pincha real belgi emas, balki shoir tasavvurining mahsuli bo‘ladi. Bunga she’riy matnlarda ko‘zga tashlanadigan quyidagi assotsiativ ma’noli sifatlarni misolni

- *«Yorug‘ sukut»*
- *«Sarg‘aygan xotiralar»*
- *«Ko‘lanka umidlar»*
- *«Xira kechinmalar»*

Bu sifatlar semantik jihatdan boy bo‘lib, o‘quvchi tafakkurida ko‘p qatlamli assotsiativ obrazlar yaratadi. Assotsiativ sifatlar muhim pragmatik ahamiyat kasb etadi hamda o‘quvchi bilan shoir orasidagi psixologik ko‘prik vazifasini bajaradi. O‘quvchi bunday sifatlarni idrok qilganda, o‘z tajribasi, o‘z tasavvurlari asosida yangi obrazlar yaratadi. Masalan:*»Titroq tong»* – har bir o‘quvchi ongida turlicha namoyon bo‘ladigan, ko‘p ma’noli tasvirdir: biri sovuq tong deb tasavvur qiladi, boshqasi qo‘rquvga yo‘yadi, yana boshqasi hayajonni his qiladi.

Shuningdek, sifatlar she’riy matnda faqat semantik jihatdan emas, fonetik-estetik vosita sifatida ham muhim. Sifatlarning tovush tarkibi, ohangdorligi, fonetik uyg‘unligi she’rning umumiy ritmik-kompozitsion qurilishini mustahkamlaydi.

Fonetik talqin nuqtai nazaridan sifatlar quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Alliteratsiya yaratadi. Masalan: *«Sokin sahar sariq shamollar»* – «s» tovushining takrori ohangdorlik beradi.

2. Assonans hosil qiladi. *«Oq yo‘l ochiq osmonga olib ochar»* – «o» unlisining takrorlanishi yumshoqlik yaratadi.

3. Ritmik urg‘u beradi. *«Qattiq qadamlarim qaldirg‘ochni cho‘chitar»* – sifatlar ritmik kuch sifatida qatnashadi.

Fonetik vositalar she’riy tasvirning hissiy kuchini oshirib, marom, ohang, ritmni boshqaradi.

Rezume. Ushbu maqolada badiiy matnda sifat so‘z turkumining funksional-stilistik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Sifatlarning obraz yaratish, muallif subyektiv munosabatini ifodalash, tasviriylik va emotsional-ekspressivlikni kuchaytirishdagi o‘rni yoritiladi. Tadqiqot davomida sifatlarning semantik, stilistik va pragmatik xususiyatlari badiiy nutq kontekstida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, sifatlarning individual muallif uslubini shakllantirishdagi roli, ularning metaforik va baholovchi funksiyalari misollar asosida tahlil qilinadi. Maqolada lingvistik tahlil, kontekstual yondashuv hamda funksional-stilistik metodlardan foydalanilgan.

[1] Махсумова С. Метафоралар орқали коннотатив-прагматик маънонинг ҳосил бўлиши // Ўзбек тили ва адабиёти. 2009. – №5. – Б. 96.

[2] Sarbarova D. She’riy matnda deyksis (Usmon Azim she’rlari misolida): Filol. fan b. fals. dok (PhD)… diss. –Toshkent, 2025. – B 40.

Rezyume. This article examines the functional and stylistic role of adjectives in literary texts. The study focuses on the contribution of adjectives to image creation, expression of the author's subjective evaluation, and enhancement of emotional and expressive meaning. The semantic, stylistic, and pragmatic features of adjectives are analyzed within the context of literary discourse. Particular attention is paid to their evaluative, metaphorical, and author-specific functions. The research employs methods of linguistic analysis, contextual interpretation, and functional-stylistic approach.

Резюме. В данной статье рассматриваются функционально-стилистические особенности прилагательных в художественном тексте. Анализируется роль прилагательных в создании художественного образа, передаче авторской оценки, усилении экспрессивности и эмоциональной окраски высказывания. В центре внимания находятся семантические, стилистические и прагматические характеристики прилагательных в контексте художественной речи. Особое внимание уделяется их оценочной, метафорической и индивидуально-авторской функциям. В ходе исследования применяются методы лингвистического анализа, контекстуального и функционально-стилистического подходов.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 11-12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

AQSH VA O'ZBEKISTON IJTIMOIY-SIYOSIY MATBUOT MATNLARIDA LINGVOPRAGMATIK STRATEGIYALAR: LEKSIK-USLUBIY XOSLIKLAR VA TA'SIRCHAN TIL VOSITALARI

Xusanova Zuxra,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti

XXI asrda ommaviy axborot vositalari jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylandi. Ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy matbuot jamiyat ongini shakllantirish, siyosiy qarashlarni yo'naltirish va jamoatchilik fikriga ta'sir o'tkazishda muhim vosita hisoblanadi. Bunday matnlar nafaqat axborot yetkazish, balki muayyan g'oya, mafkura va siyosiy pozitsiyani targ'ib qilish vazifasini ham bajaradi. Shu bois ijtimoiy-siyosiy matnlarni lingvopragmatik nuqtayi nazardan tahlil qilish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biridir.

Lingvopragmatika til birliklarining nutq jarayonidagi maqsadga yo'naltirilgan qo'llanilishini, muallif va auditoriya o'rtasidagi kommunikativ munosabatni o'rganadi. Ijtimoiy-siyosiy matbuot matnlari esa pragmatik jihatdan eng faol diskurs turlaridan biri bo'lib, unda til vositalari orqali o'quvchi ongiga ongli va rejalashtirilgan ta'sir ko'rsatiladi.

Ushbu maqolada AQSH va O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy matbuot matnlarida qo'llaniladigan lingvopragmatik strategiyalar, leksik-uslubiy xosliklar va ta'sirchan til vositalari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot ikki mamlakat matbuot diskursining umumiy va farqli jihatlarini aniqlashga, shuningdek, siyosiy matnlarning pragmatik imkoniyatlarini yoritishga qaratilgan.

Lingvopragmatika tilshunoslikning mustaqil yo'nalishi sifatida XX asrning ikkinchi yarmida shakllandi. Uning asoslari J. Ostin, J. Syorl, G. Grays[1] kabi olimlarning nutq aktlari, implikatura va kommu-

[1] Austin, J. L. How to Do Things with Words. – Oxford: Oxford University Press, 1962. P.166; Searle, J. R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969. P. 203.; Grice, H. P. Logic and Conversation. –

nikativ maqsad haqidagi qarashlariga borib taqaladi. Lingvopragmatikaning asosiy vazifasi - til birliklarining real nutq jarayonida qanday maqsad bilan va qanday ta'sir ko'rsatish uchun qo'llanilishini aniqlashdir.

Ijtimoiy-siyosiy matnlarda pragmatik omil ayniqsa kuchli bo'lib, har bir so'z, ibora yoki sintaktik konstruktsiya muayyan kommunikativ strategiyaga bo'ysundiriladi.

Ijtimoiy-siyosiy diskurs esa siyosiy jarayonlar, ijtimoiy muammolar, davlat boshqaruvi va jamoatchilik hayoti bilan bog'liq matnlar majmuasidir. U quyidagi xususiyatlarga ega:

-ommaviy auditoriyaga yo'naltirilganlik;
-baholovchi va ideologik xarakter;
-ta'sirchanlik va ishontirishga qaratilganlik;
-kontekstga kuchli bog'liqlik.

AQSH va O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy matbuoti aynan shu xususiyatlar asosida shakllanadi, biroq ularning namoyon bo'lish darajasi va shakli farqlidir.

AQSH matbuoti demokratik jamiyat tamoyillariga asoslangan bo'lib, unda ochiq bahs, tanqid va fikrlar xilma-xilligi muhim o'rin tutadi. Shu sababli AQSH ijtimoiy-siyosiy matnlarida argumentativ va polemik strategiyalar keng qo'llaniladi.

Mualliflar o'z pozitsiyasini himoya qilishda:
-statistik ma'lumotlar,
-ekspert fikrlari,
-ijtimoiy so'rovlar natijalariga tayangan holda ishontirishga harakat qiladi.

Baholovchi leksika va emotsional ta'sir

AQSH matbuotida baholovchi leksika ko'pincha ijobiy va salbiy qutblanish asosida qo'llaniladi: *successful reform / failed policy, strong leadership / weak governance.* Bu birliklar auditoriya ongida aniq baho shakllantirishga xizmat qiladi.

Metaforik va obrazli ifodalar

Metaforalar AQSH siyosiy diskursining muhim komponenti hisoblanadi: *political arena, economic battlefield, war on corruption kabi* metaforalar siyosiy jarayonlarni jonli va tushunarli tarzda tasvirlab, o'quvchining hissiy qabulini kuchaytiradi.

O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy matbuoti davlat siyosatini qo'llab-quvvatlovchi, barqarorlik va taraqqiyot g'oyalariga asoslangan diskursga ega. Matnlarda rasmiy-uslubiy birliklar ustunlik qiladi: *"strategik rivojlanish", "izchil islohotlar", "davlat va jamiyat manfaatlari"* kabi jumlalarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

O'zbekiston matbuotida voqelik asosan ijobiy konnotatsiyada talqin qilinadi. Bu orqali jamiyatda ishonch va barqarorlik hissi shakllantiriladi: bu esa *"keng imkoniyatlar", "xalq farovonligi yo'lida", "kelajakka ishonch"* kabi jumlalarda o'z aksini topadi

"Ma'naviyat", "milliy qadriyatlar", "ajdodlar merosi" kabi birliklar pragmatik jihatdan kuchli bo'lib, auditoriyaning madaniy xotirasiga murojaat qiladi va matnning ta'sirchanligini oshiradi.

Lingvopragmatik tahlil doirasida matbuot tilining morfologik xususiyatlarini o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi, chunki bu omil matnning o'quvchiga ta'sir ko'rsatish va kommunikativ maqsadni amalga oshirishdagi asosiy vositalardan hisoblanadi. Masalan, AQSh matbuoti ingliz tilining ixcham grammatik tuzilishidan foydalangan holda axborotni qisqa va aniq ifodalaydi, bu esa o'quvchi bilan tezkor muloqot qilishga xizmat qiladi. O'zbekiston matbuoti esa o'zbek tilining boy morfologik imkoniyatlaridan foydalanib, matnlarning boy semantik mazmunini ta'minlaydi. Lingvopragmatik yondashuv ushbu elementlarning qanday funksional maqsadlarda qo'llanilishini va ular qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qilishga imkon beradi.

A.A.Shveyzer ta'kidlaganidek, "har qanday lingvistik hodisa, avvalo, jamiyatning madaniy va ijtimoiy ehtiyojlarini aks ettiradi"[1]. Shu nuqtayi nazardan, lingvopragmatik tahlilda morfologik jihatlarni o'rganish matnning kommunikativ ta'sirchanligi va o'quvchi bilan samarali muloqot qilish vositalarini ochib berishda muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, lingvopragmatik tahlilda morfologik jihatlarni o'rganish faqat matn ichki strukturasining tahlili bilan cheklanmaydi. Bu jarayonda muallifning kommunikativ maqsadi, o'quvchi auditoriyasining ehtiyojlari va madaniy kontekst kabi omillarni ham hisobga olish zarur. Masalan, AQSh matbuotida ko'pincha *passiv nisbatda* tuzilgan jumlalar ishlatiladi, bu esa axborotning obyektivligi va muallifning mavzudan uzoqlashganligini ko'rsatadi. Masalan, *"The report was published to raise public awareness about climate change"* (Washington Post, 2023). Bu gapda diqqat markazi mavzuning o'zida bo'lib, muallifning shaxsiy munosabati kam seziladi.

Bunga qarshi o'laroq, O'zbekiston matbuotida, masalan, *"Mamlakatimiz rahbariyati ekologik muammolarni hal etish uchun keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda."* (Xalq so'zi, 2021), jumlasi faol nisbatda tuzilgan va muallifning ijtimoiy mas'uliyatni his qilishiga urg'u berilgan. Bu o'quvchida milliy hamjihatlik va muammolarni hal qilishda umumiy ishtirok tuyg'usini shakllantiradi. Ushbu ikki jumla lingvopragmatik yondashuvning turli madaniy va ijtimoiy kontekstlarda qanday ishlashini aniq ko'rsatadi.

New York: Academic Press, 1975. P.41–58.

[1] Швейцер А.Д. Социолингвистика. – Москва: Наука, 1976. – С. 389.

Bundan tashqari, har bir til ma'lum bir xalqning hayoti, urf-odatlari va dunyoqarashini aks ettiradi[1]. Xususan, ingliz tilidagi matnlar o'zining pragmatik funksiyalarida individualizm, demokratiya va erkin fikrlash qadriyatlarini namoyon qiladi. O'zbek tilidagi matnlarda esa kollektivizm va davlat siyosatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan axborot bayoni kuzatiladi.

"The freedom of speech is not just a principle but a cornerstone of democracy, ensuring every individual the right to voice their opinions without fear of retribution". ("USA Today", 2024. №3). Ushbu bayon individualizm va erkin fikrlash tamoyillarini aks ettiradi. Har bir shaxsning ovozi muhimligi va ularning o'z nuqtai nazarini ifodalash huquqi ustuvor ekanligi urg'ulanadi.

"Davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar xalqimizning farovon hayotini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, barchamiz birgalikda bu jarayonga hissa qo'shishimiz zarur". ("Xalq so'zi", 2024. №11). Ushbu bayon kollektivizmni va davlatga sodiqlikni targ'ib qiladi. O'zbek matbuotida davlat islohotlari orqali jamiyatni birlashtirish va xalqning umumiy mas'uliyatini ta'minlashga urg'u beriladi.

Demak, ushbu misollar va tahlil ikki gazetaning pragmatik yondashuvlari tubdan farq qilishini ko'rsatadi. Ingliz tilidagi gazeta matnlari individualizm va erkin fikrlashni targ'ib qilsa, o'zbek tilidagi gazetalar davlatga sodiqlik va kollektiv mas'uliyatni ilgari suradi. Shu bilan birga, har ikki gazeta o'z o'quvchilari uchun ahamiyatli bo'lgan ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarni yoritishga xizmat qiladi.

Masalan, "The Wall Street Journal" gazetasi matnlarida ijtimoiy tarmoqlar va statistik ma'lumotlardan foydalanish kontekstni kengaytiradi va auditoriyani mavzuga jalb qiladi.

"According to recent statistics by the UK's Department of Education, the number of students applying for higher education has risen by 12% compared to last year, highlighting the growing demand for advanced learning opportunities". ("The Wall Street Journal", 2022. №5). Matnda keltirilgan statistika va faktlar mavzuga ilmiy asos beradi va o'quvchilarni ma'lumotga yanada jalb qiladi. Ushbu uslub esa o'quvchilarni muammolarni o'z fikrlari bilan baholashga undaydi, shaxsiy tanqid va erkin fikrlashga imkon yaratadi.

Ta'lim sohasidagi islohotlar xalqimizning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. 2020- yilda Prezident Shavkat Mirziyayev tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus yoshlarimizning iqtidorini rivojlantirishga xizmat qiladi". ("Ma'rifat", 2023. №12).

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, mazkur tadqiqot AQSH va O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy matbuot matnlarida lingvopragmatik strategiyalar milliy, siyosiy va madaniy kontekst bilan chambarchas bog'liq ekanini ko'rsatdi. AQSH matbuotida tanqidiylik, bahs va metaforik ifodalar ustun bo'lsa, O'zbekiston matbuotida rasmiylik, ijobiy baholash va barqarorlikka yo'naltirilgan til vositalari yetakchi hisoblanadi. Har ikki diskursda til vositalari jamoatchilik ongiga maqsadli ta'sir ko'rsatish uchun puxta tanlanadi.

Resume. Maqolada AQSH va O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy matbuot matnlarida lingvopragmatik strategiyalar, leksik-uslubiy xosliklar va ta'sirchan til vositalari qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqot siyosiy diskursning milliy xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Resume. This article provides a comparative analysis of linguopragmatic strategies in socio-political media texts of the USA and Uzbekistan. The study highlights lexical-stylistic features and persuasive language tools shaped by national and political contexts.

Резюме. В статье проведён сравнительный анализ лингвопрагматических стратегий, лексико-стилистических особенностей и выразительных языковых средств в общественно-политических текстах прессы США и Узбекистана. Исследование направлено на выявление национальных особенностей политического дискурса.

[1] Виноградов В. В. О стилистике художественной речи. – Москва: Академия наук СССР, 1971. – 250 с.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 11-12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

HID BILISH SEZGISIGA OID TIL BIRLIKLARI SEMANTIKASI

Qurbonov Akmaljon Tavakaljon o'g'li,
Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Hid bilish sezgisining tilda aks etishi, insonning atrof-muhitni faqat ko'rish yoki eshitish orqali emas, balki hidlar orqali ham idrok etishini ko'rsatadi. Til hidlarni tavsiflash, ular bilan bog'liq hissiy, madaniy va ramziy ma'nolarni ifodalash uchun boy imkoniyatlarni taqdim etadi. Bu so'z va iboralar insonning dunyoni anglashi va uni ifodalashida hidlarning ham muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Hid bilish sezgisi va hid tushunchasi, uni idrok etish, unga munosabat hodisalari tarixiy, madaniy, tarixiy va ijtimoiy jihatdan shakllangan hodisa hisoblanadi. K.Klassenning ta'kidlashicha, «hid bilish sezgisi insonning olamni anglashi, va ijtimoiy munosabatlarga kirishishida madaniy ahamiyatga egadir»[1]. Hid bilish idroki, avvalo, insonning sub'ektiv-baholash xususiyati bilan bog'liq, negaki, bu biologik-psixologik jarayon semiotik tasavvur orqali hissiy idrok etiladi. Hid bilish sezgisi va u bilan bog'liq tushuncha va holatlar, olfaktor idrok verbalizatorlari esa nafaqat individual shaxsning, balki milliy-madaniy etnik guruh ongida shakddangan hid konsepti doirasidagi assotsiativ til birliklarida aks etadi.

Hidning manbaiga ko'ra «gul hidi», «ovqat hidi», «tuproq hidi», «dengiz hidi» kabi birikmalar keng qo'llanadi.

Tilda hidlar, ko'pincha, muayyan hissiyotlar bilan bog'lanadi. Xavfsizlik, xotirjamlik, baxt, uy, oilaga oid xotiralar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan, onaning atiri hidi, pishirgan taomlari hidi.

O'zbek madaniyatida taomlarning hidi juda muhim. Palov, non, somsa kabi milliy taomlarning hidi uy (xonadon), fayz, mehmondorchilikka oid assotsiatsiyalarni uyg'otadi. Atirlarning hidi tartiblilik, pokizalik, o'ziga xoslik va hatto ijtimoiy mavqeni ifodalashi mumkin. YOmg'irdan keyingi tuproq hidi, gullarning ifori, turli fasllarga xos hidlar, ko'pincha, yoqimli xotiralar yoki fasllarning o'zgarishi bilan bog'liq.

Insonning dunyo haqidagi tasavvurlari besh sezgi organi orqali shakllanadi. I.G.Ruzinning «Modusы persepsii (zrenie, slux, osyazanie, obonyanie, vkus) i ix vыrajenie v yazыke» («Idrok usullari (ko'rish, eshitish, teginish, hid bilish, ta'm bilish) va ularning tilda ifodalanishi») nomli dissertatsiyasida hissiy idrokni ifodalovchi til birliklarining turli xususiyatlari o'rganiladi. Muallif hissiy idrok bilan bog'liq so'zlarni voqelik bilan, til va dunyoni bog'laydigan ekstralingvistik omillar bilan bog'liq holdagina tushunish mumkinligini ta'kidlaydi. Xususan, shunday yozadi: «Insonning voqelikni idrok etishi va aks ettirishi tartibsiz emas, balki tartibli. Bu tartibni tasniflash asosida anglash mumkin... Til statik emas, balki bir-biri bilan munosabatlarda va aloqada bo'lgan va ma'lum bir birlik va yaxlitlikni tashkil etuvchi ko'plab lingvistik elementlarni ifodalovchi dinamik tizim sifatida namoyon bo'ladi»[2]. SHu tariqa, muallif ko'rish, eshitish, teginish, hid bilish, ta'm bilish sezgilari bilan bog'liq holatlarni tilda ifodalash xususiyatlarini izchil tahlil qiladi va lingvistik nuqtai nazardan idrokning bu turlari hali yetarlicha tavsiflanmaganligini ta'kidlaydi.

Ulardan biri **hid bilish sezgisi** bo'lib, uning tilda ifodalanishi tilshunoslikda sezgi leksikasi yoki sensor semantika doirasiga kiradi. Hid sezgisi atrof-muhitni anglash, xavfsizlikni ta'minlash hamda estetik his-tuyg'ularni uyg'otishda muhim o'rin tutadi. Hid hissi tilda ham o'z ifodasini topadi va bu narsa tilning sezgilarni aks ettirish qobiliyatini ko'rsatadi.

Tilda hid bilan bog'liq so'zlar, asosan, quyidagi turlarga bo'linadi:

Otlar: *hid, is, atir, bўy, ipor, mushk, anbar, sassiqlik, badbўylik, mushk-anbar*;

Sifatlar: yo*qimli, yoqimsiz, iforli, anbarafshon, achimsiq, achimtir, xushbўy, sassiq, chirik, badbo'y, o'tkir, muattar, hidli, xushbo'y, isli, hidli, muanbar, muattar, xushbo'y, qo'lansa;*

Fe'llar: *hidlamoq, anqimoq, bўy taratmoq, sasimoq, achimoq anqitmoq buruqsamoq hidlanib qolmoq, sasimoq gupillamoq iskamoq, islamoq;*

Iboralar: *hidi tutib ketmoq, dimog'iga urmoq, isini*

[1] Классен К., Хоувз Д., Синнотт Э. Значение и власть запаха // Ароматы и запахи в культуре / сост. О.Б.Вайнштейн. – М.: Новое литературное обозрение, 2003. – Кн.1.– С. 43–52.

[2] Рузин И.Г. Модусы перцепии (зрение, обоняние, вкус) и их выражение в языке: Дисс. … канд. филол. наук. – М., 1995. – С. 5.

chiqarmay, hidi chiqmoq, hidini olmoq, hidi sochilmoq, hidini totmoq, puf sassiqqa chiqarmoq,

Hid konsepti – bu xalq yo madaniyat ongida «hid» bilan bog‘liq bo‘lgan barcha ma’no, tasavvur, his va qadriyatlar yig‘indisidir. Bu so‘z va iboralar odamning hidni qabul qilish, baholash va his etish jarayonlarini tilda modifikatsiyalaydi.

Ayrim hidlar ijobiy, ayrimlari salbiy qabul qilinadi. Masalan: «gul hidi» – go‘zallik, poklik; «tutun hidi» – yomonlik, ifloslik ramzi.

Hid tushunchasiga oid so‘zlar, ko‘pincha, **metafora** vositasi bilan boshqa ma’no sohalariga ko‘chadi. Bunday ma’nolar fizik xossani emas, balki ko‘chma ma’noda ma’naviy va estetik tushunchalarni obrazli tarzda ifodalashga xizmat qiladi. Har bir xalqning hidga nisbatan munosabati milliy an’analar va turmush tarziga bog‘liq. Masalan, SHarq xalqlarida atirlar, gullar va ozuqalarning hidi orqali «poklik», «yaxshilik», «yoqimlilik» tushunchasi ifodalanadi.

Hid odam xotirasini uyg‘otadi, hissiyotlarni ifoda etadi. Hid bilish sezgisiga oid tushunchalar ba’zan metaforik iboralarda o‘z aksini topadi va bunda ma’no hid denotatidan uzoqlashadi. Bu holda «hid» tushunchasi fizik idrokdan ma’naviy idrokka ko‘chadi.

***Isi chiqmaydigan** erga yashirasan. Hatto Haydar akang ham bilmasin. Endi boraver, sergak bo‘l*. (T.Malik, «Shaytanat») Ushbu misolda isi chiqmaslik birgalikda «xabar», «ma’lumot» oshkor bo‘lmasligi kerakligi uqtirilmoqda.

1) *Bu yerdan shunaqa **sassiq** hid keladiki, chidab bo‘lmaydi. Uyimizdagi pardalargacha o‘rnashib qolgan. Uyda niqob taqaman, atir sepaman – foydasi yo‘q.* (https://qalampir.uz)

2) *Oshnamni qariganida* «puf sassiqqa» chiqarib qo‘ymang. *Sizga kerak bo‘lmasa, bizga kerak.* (T.Malik, «Malades chollar»)

3) *Senlarning **sassiq gaplaringga** temir ham chidamaydi.* (T.Malik, «Malades chollar»)

Mazkur misollarda *sassiq* sifati o‘z va ko‘chma ma’nolarda qo‘llangan. 1-kontekstda so‘z o‘z ma’nosida, ya’ni hidning belgisini ifodalash uchun qo‘llanganligi sababli hid hodisasi bilan bog‘liq «*hidga chidamoq», «hid o‘rnashib qolmoq», «noxush hidni bartarf etish uchun atir sepmoq»* kabi assotsiativ bog‘lanishlar mavjud. 2-nutqiy vaziyatga ko‘ra, «sassiq» leksemasi ibora tarkibida kelib, abstraktlashadi, ya’ni moddiy emas, ijtimoiy munosabatlarga oid tushunchani ifodalab, «keraksiz odamga aylantirib qo‘ymang, undan noxush hiddan jirkangandek jirkanmang» degan ma’noni anglatadi. 3-jumlada ham moddiy ob’ekt belgisi abstrakt tushuncha belgisiga ko‘chirilib, «noo‘rin, bema’ni gap» tarzidagi konnotativ ma’no anglatishga xizmat qilgan.

*Ular navqiron va go‘zal edilar, uydan va Bayna momodan **chirkinlik va musibat hidi** kelar, navqironlik oldida birdan uy ham, Bayna momo ham keksayib qolganday edi.* (N.Eshonqul, «Shamolni tutib bo‘lmaydi»)

Biror hid haqida gapirganda shuni aytib o‘tish kerakki, hid hodisasi o‘z-o‘zidan hosil bo‘lmaydi, ya’ni u biror ob’ekt bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, *gul hidi, non hidi* kabi. Shuningdek, hid o‘z tabiatiga ko‘ra insonning sezgi hissi bilan idrok qilinadi, shuning uchun uni ifodalashda sub’ektiv munosabat mavjud bo‘ladi. Hid konseptosferasiga oid til birliklarida ana shu munosabatning ijtimoiy va madaniy belgilari aks etadi. Biz hidlarni qabul qilish va baholashda, ko‘pincha, o‘zimiz yashayotgan jamiyat me’yorlari, qiymatlari va tajribalariga tayanamiz. Xususan, hidlarni tavsiflovchi sifatlar sub’ektivlikni yaqqol ko‘rsatadi: «muattar», «xushbo‘y», «yoqimli» kabi. Bular shaxsiy ehtiyoj va sezgi tabiati bilan bog‘liq. Bir kishiga yoqadigan hid, boshqa odamga yoqmasligi mumkin.

Ayrim hollarda, hidga nisbatan baholash jamoaviy bo‘ladi. Masalan, bir taomning «yaxshi hidi» jamoa tomonidan tasdiqlanadi va bu barchaga yoqadi. Milliy taomlarning xushbo‘y hidlari umumiy zavq va rozilik manbaidir.

Ba’zi hidlar ijtimoiy mavqe bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Atirlarning hidi boylik va yuqori ijtimoiy mavqe darajasi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Noqulay sharoit yoki gigienaning yo‘qligi esa yoqimsiz hidning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lishi mumkin. Yoqimsiz hidlar, noxushlik bilan bog‘liq assotsiatsiyalarni uyg‘otadi.

*Havoda ... yong‘oq hazonlarining **o‘tkir** hidi gurkirardi.* (O‘.Hoshimov).

O‘tkir. 1 Yaxshi kesadigan; keskir. *O‘tkir qaychi.*

2 Uchi nayzalangan; uchli. *O‘tkir bigiz.*

3 Ta’m bilish, hidlash, eshitish va boshqa sezgi a’zolariga kuchli ta’sir etadigan, kuchli. *Bu ariqchalar bo‘yida o‘tkir hidli qoramtir yalpizlar.. o‘sgan. H. Nazir, So‘nmas chaqmoqlar.*

4 *ko‘chma* Ruhiy va boshqa jihatdan ta’sir darajasi, kuchi yuqori; kuchli. *O‘tkir asar*.

5 Qobiliyatli, imkoniyati yuqori darajali. *Zehni o‘tkir.* 6 Kasb-hunar, bilim va shu kabilarda yuqori darajaga ega bo‘lgan, yuqori saviyali; kuchli. *O‘tkir ustoz*. (O‘TIL, 5-jild, 179-b.)

Ushbu izohlardan kuzatish mumkinki, «o‘tkir» leksemasi kontekstga ko‘ra o‘z va ko‘chma ma’nolarni ifodalaydi. Yoqorida berilgan jumladagi *yong‘oq hazonlarining **o‘tkir** hidi* birikmasidagi *o‘tkir* sifatlovchisi xazon hidiga nisbatan qo‘llanib, ifodaning ta’sirchanligini kuchaytirishga xizmat qilgan, chunki bunda «kuchli hid» semasi aktuallashadi.

Sinesteziya metaforaning shunday bir ko‘rinishiki, unda hosila ma’noning ma’lum sezgi bilan qabul kilingan referenti hosil qiluvchi ma’noning boshqa sezgi bilan qabul qilingan rsferentiga qiyoslangan,

o‘xshatilgan bo‘ladi. Referentlar tamoman boshqa-boshqa sezgi bilan qabul qilinsa ham, ular xususiyati kishi ongida umumlashtiriladi va bir xil tasavvur etiladi[1]. Boshqacha qilib aytganda, ikki xil sezgi organi bilan idrok qilinadigan tushunchalar biriktiriladi va noodatiy birikma hosil bo‘ladi va shu asosda metaforik ma’no shakllanadi.

Oqshom havosi shu qadar musaffo, qayin daraxtlarining gullaridan. sochilayotgan ***hidni*** *havo bilan qo‘shib har qancha* ***shimirsang*** *ham to‘ymaysan kishi* (N. Safarov, «Jangchi shoir»).

Mazkur jumladagi *hidni shimirmoq (simirmoq)* birikmasi ana shunday sinesteziya hodisasi asosida yuzaga kelgan. Chunki hid burun sezgisi orqali his qilinadi, *simirmoq,* ya’ni *ichmoq* harakati og‘iz bo‘shlig‘i orqali bajariladi. Ana shu boshqa-boshqa tushunchalarning birikishi senstetik metaforani hosil qilgan. Quyidagi jumlada «porox hidini totgan» birikmasi ham bunga misol bo‘la oladi: *Bu ham* ***porox hidini totgan****lardan ekan-da! Kapitanga hurmatim oshdi.* (O‘.Hoshimov, «Tushda kechgan umrlar»)

Metonimiya (*yun. m*etonymia – qayta nomlash). Bir predmet, belgi, harakat nomini o‘zaro tashqi yoki ichki bog‘liqlik asosida boshqa predmet, belgi yoki harakatga nisbatan qo‘llash; shunday qo‘llash asosida bir predmet, harakat, belgi nomining boshqa predmet, harakat yoki belgiga ko‘chishi. Metonimiya so‘zning yangi ma’nolari hosil bo‘lishida muhim rol o‘ynaydi.[2]

Bahor hididan *besaranjom bo‘lgan qarg‘alar qag‘illab dalalar ustida uchardi* (A.Qahhor, «Qo‘shchinor chiroqlari»)

Hid masalasi qadimgi davrlardan beri insoniyatni o‘ziga jalb qilib kelgan. Har bir fan sohasiga oid bo‘lgan birlik sifatida qaralib kelingan. Hid vositasi orqali insonlarni davolash, kasalliklarini aniqlash, qaysi kasbda faoliyat yuritayotganligini bilib olish, qiziqishlarini, psixik tomonlarini aniqlash mumkin.

Hid yoki ifor tasviri badiiy asarning estetik mohiyatini tez va oson aniqlashda yordam beruvchi vosita sanaladi. Ular muloqot jarayonida yoki badiiy asarda syujet mukammalligi, qahramonlar tafakkuriga xos rang-barang badiiylik moduslari, estetik ta’sir quvvatini oshira oladigan vositalar sifatida gavdalanadi.

Dimog‘imga ***kalla kuydirganda chiqadigan isga o‘xshagan*** *hid urildi. Qarasam, Sashaning sochlari yonib, jizg‘anak bo‘lib ketibdi. Kombinezoni kuyib, badaniga yopishib qolgan, yuzlari qorayib ketgan.* (O‘.Hoshimov, «Tushda kechgan umrlar»)

Mazkur kontekstga ko‘ra, *kalla kuydirganda chiqadigan isga o‘xshagan* birikmasi orqali inson tanasi kuyganda ham shunday noxush hid paydo bo‘ladi degan ma’no anglashiladi.

Xulosa qilib aytganda, hid sezgisi tilda boshqa sezgi turlariga nisbatan kamroq va cheklangan tarzda ifodalanadi. O‘zbek tilida ham hidni to‘g‘ridan-to‘g‘ri, aniq va standarlashgan leksik birliklar bilan tasvirlash qiyin. Odatda, hid belgisi manbaga tayanilgan holda (*gul hidi, atir hidi*), misol va o‘xshatishlar orqali (*gulday xushbo‘y, rayhon hididay xushbo‘y*), baholovchi so‘zlar bilan (*yaxshi hid, yomon hid, sassiq hid*) ifodalanadi.

Rezyume. ushbu maqolada hid bilish sezgisi bilan bog‘liq tushunchalar ot, sifat, fe’l va iboralar bilan ifodalanishi, ularning o‘ziga xos semantik xususiyatlari, ularning metafora, metonimiya orqali ma’no ko‘chish usullarining qo‘llanilishi, shuningdek, bu so‘z va iboralar insonning dunyoni anglashi va uni ifodalashida muhim rol o‘ynashi xususida fikr yuritilgan.

Resume. This article discusses the expression of concepts related to the sense of smell through nouns, adjectives, verbs, and phrases, their specific semantic properties, the use of their methods of transferring meaning through metaphor and metonymy, as well as the important role these words and phrases play in human understanding and representation of the world.

Резюме. В данной стате рассматриваеця выражение понятий, связанных с обонянием, посредством существительных, прилагателных, глаголов и словосочетаний, их специфические семантические свойства, исползование ими приемов передачи смысла посредством метафоры и метонимии, а также важная рол, которую эти слова и словосочетания играют в понимании и представлении мира человеком.

[1] Миртожиев М.М. Ўзбек тили семасиологияси / М.М.Миртожиев; масъул муҳаррир А.П.Ҳожиев. - Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. (- 288 б.) – Б. 99.

[2] Ҳожиев А. Тилшунослик терминлариниинг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎзМЭ, 2010. – Б. 58.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 11-12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

METAFORALARNING NASRIY ASARLARDAGI TASVIRIY VA EKSPRESSIV IMKONIYATLARI

Suyarova Nargiza Yuldoshevna,
Qarshi davlat universiteti dotsenti

Tilshunoslikka oid manbalarda berilishicha, narsa va hodisalar orasidagi nisbiy o'xshashlik asosida ma'no ko'chirish metaforadir. Masalan, *oltin baldoq* va *oltin kuz* birikmalaridagi *oltin* so'zi o'z va ko'chma ma'noda qo'llangan. Bunda ko'chma ma'no oltinning sariq rangiga tabiatdagi daraxt va o'simliklarning rangi o'xshatilganligi (belgi) asosida yuzaga kelgan. Referentlararo o'xshashlik metaforalarda kuzatiladi.

O'z xarakteriga ko'ra metaforalar ikki xil ko'rinishga ega:

1) umumtil metaforalari;

2) poetik metaforalar.

Umumtil metaforalariga ko'chma ma'nosi unutilayotgan, til birligi sifatida qotib qolgan metaforalar kiradi. Masalan, *baklashka og'zi, tog' etagi, quyosh chiqdi:*

Poetik metaforalarga ko'chma ma'nosi hali yangi, ta'sirchan, obrazliligi sezilib turgan metaforalar kiradi. Bunday metaforalar uslubiy vosita bo'lib kela oladi va ular tabiat hodisalarini aniq tasvirlash, obraz va manzaralar yaratish, tasvirlanayotgan voqeaga ijobiy yoki salbiy munosabat bildirish vositasi bo'la oladi.

Metaforalar yozuvchi va shoirlar, ayrim ijodkorlar tomonidan yaratiladi. Ular ko'pchilik tomonidan o'zlashtirilgach, keng iste'moldagi iboraga aylanadi. Hatto shablonga aylanishi ham mumkin *(zumrad bahor, oq oltin, oltin kuz).*

Metaforalar nutqni ifodali qiladi, shuning uchun ham badiiy uslubda keng ishlatiladi. Bu uslub asarlarida hissiyotga ta'sir qilish birinchi o'rinda turadi. Shuningdek, metaforalar orqali ma'lum bir xalqning milliy, mental, madaniy qarashlariga baho berish mumkin. Shunga qaramay, badiiy nutqni metaforalarga to'ldirib yuborish yaramaydi. Balki shakl va mazmun birligidan kelib chiqib, ularni o'z o'rnida, me'yori bilan ishlatish lozim. O'tkir qalam sohiblaridan biri bo'lgan Tohir Malik ijodidan olingan bir qancha misollarga e'tibor qaratsak:

U ham "aka, qoching!" deb baqirmoqchi edi, ovozi chiqmadi. Faqat lablarini arang qimirlata oldi. Kasalxonada o'ziga kelib, bo'lgan voqealarni esladi: shanba oqshomida aka-uka darsdan chiqib, qishloqqa qaytdilar. Onasi tandirga g'o'zapoya qalab, non yopishga hozirlanardi. Sovchilar ishni pishirishgan, ertaga qizning uyida non sindiriladi. Qarabsizki, yozgi imtihonlar oyoqlashi bilan to'y boshlanib turibdi-da. Aka-uka ertaga bo'ladigan shodlikni bilishsa ham bilmaganga olishadi. Faqat uka ayyorlik bilan ko'z qisib, akasiga qarab qo'yadi. – O'rtoqlaring kelib ketishdi. Afzaling harbiydan qaytibdi. O'sha yerda o'tirisharkan, – dedi ona bo'lajak kuyovga mehr bilan boqib.[1]

Metafora badiiy asarda badiiy tasviriy vosita bo'lish bilan bir qatorda, mazkur adabiyot vakillarining mentalligini, milliy ongini, millliy-madaniy qadriyatlarini ifodalab keladi. Yuqorida keltirilgan "*Sovchilar ishni pishirishgan, ertaga qizning uyida non sindiriladi" ishni pishirmoq, non sindirmoq* metafora asosida hosil bo'lgan birikmalardir. *Pishirmoq* leksemasi oziq-ovqat mahsulotlariga nisbatan qo'llaniladigan so'z bo'lib, uning ma'no assotsiatsiyalari yanada kengroq, *ish* leksemasi bilan birgalikda qo'llanib, *ma'lum bir vazifani a'lo darajada bajarmoq* ma'nosini ifodalagan. Sovchilar ishni pishirishgan deganda esa, faqat turkiy millatlargagina xos bo'lgan sovchilik asosida yoshlarning oila qurishi, qiz tomonini rozi qilish sovchilarga bog'liqligi ko'rsatilgan. *Non sindirmoq* birikmasi ham metaforik ko'chim hosil qilib, o'zbek xalqiga xos bo'lgan to'yoldi rasm-rusumlaridan birini ifodalab kelgan. Matn tarkibida kelgan *oyoqlamoq* fe'li ham metaforik ko'chim asosida hosil qilinib, imtihonlarning tugashi ma'nosini ifodalab kelgan.

1.Mashinadan tushdi-da, bir to'p kulga aylangan uyi oldida g'aribona turib qoldi. Yaxshi-yomon kunlari o'tgan edi bu uyda.[2]

2. Mohichehra yigitga o'g'rincha tikilar, Yetakchi esa unga suqlanib boqardi.

Uning ko'nglida yomonlik yo'q, aksincha, otasining

[1] Малик, Тоҳир. Шайтанат. (1-китоб).– 210 б. https://n.ziyouz.com/ books/uzbek_nasri/Tohir %20 Malik. %20 Shaytanat %20 (birinchi%20kitob).pdf

[2] Малик, Тоҳир. Шайтанат. (3-китоб). – 220 б. https://www.ziyouz.com/ books/uzbek_nasri/ Tohir%20Malik.%20 Shaytanat%20 (uchinchi%20 kitob).pdf

yili o‘tgach, Mohichehraga sovchi yubormoqni umid qilar edi.[1]

3. Tashqariga chiqdi: oftob bulut bilan hanuz olishadi. Kechasi bir sidra yog‘gan qorni ushlab qolgan daraxt shoxlari vazmin chayqaladi. Oftob mo‘ralagan paytda qor zumrad kabi yaltiraydi.[2]

Yuqoridagi misollar ham Tohir Malik ijodidan olingan bo‘lib, unda qo‘llangan metaforalar tahliliga o‘tsak. *Yaxshi-yomon kunlar* birikmasi ham metaforik ko‘chim asosida hosil bo‘lgan. Kalendar yilining kunlari bir xil hisoblanadi, qaysidir kunda sodir bo‘lgan yaxshi va yomon hodisalar inson xotirasida saqlanib qolgani uchun o‘sha ma’lum bir kun yaxshi-yomon kun sifatida assotsiatsiya hosil qilgan bo‘ladi. *Yili o‘tgach* birikmasi ham biz tahlil, qilayotgan metaforaga misol bo‘ladi. Yil so‘zi 365 kunni ifodalovchi hisob so‘z sanaladi, lekin u yuqoridagi matnda hisob so‘zni emas, balki yaqin inson vafoti tufayli bir yil tutiladigan a’za man’nosini ifodalaydi. Bu ham xalqimizning milliy o‘zigagina xos bo‘lgan mental xususiyatlardan biridir. Chunki Yevropa davlatlarida yaqin insoni vafot etgan bo‘lsa, oila qurish uchun bir yil a’za tutib kutib o‘tirishmaydi.

Tabiat tasvirini ko‘chimlar asosida chizgan muallif go‘zal badiiy tasvir vositalarni yarata olgan. “*Oftob bulut bilan hanuz olishadi. Kechasi bir sidra yog‘gan qorni ushlab qolgan daraxt shoxlari vazmin chayqaladi. Oftob mo‘ralagan paytda qor zumrad kabi yaltiraydi*” jumlasidagi *oftobning bulut bilan olishishi, daraxt shoxlarining vazmin chayqalishi, oftobning mo‘ralashi* metaforik ko‘chimlar asosida hosil qilingan badiiy tasviriy vositalardir. Parchada shuningdek metaforaga juda yaqin turadigan o‘xshatish ham qo‘llangan “qorning zumrad kabi yaltirashi” o‘xshatish hisoblanadi. Badiiy adabiyotda metafora istiora, o‘xshatish esa tashbeh badiiy san’atini yuzaga keltiradi.

1. – Quy, anavindan.

– Qaysi biridan?

Erkakning xo‘rrozi “Napoleon”dan ichadi-da. Baquvvat qilib quyaver, bufetchilarga o‘xshab qo‘llaring qaltiramasin. Xotin piyolaga to‘ldirib konyak quyib, tortmadan shokolad olgach, eriga tutdi.[3]

2. “Asadbek” deb nom berilgan bu vujudga, nainki vujudga, butkul ruhoniyatiga hukmini o‘tkazib kelayotgan nafs endi kibrga nikohlandi. Mazkur nikohning mahsuli esa Asadbekdagi mardlikni bo‘g‘ib, uni o‘yindan chiqishiga yo‘l qo‘ymaydi.[4]

3. Orol cho‘kib ketmagan taqdirda ham, undagilar parishonlik ummonida tez-tez cho‘milarlar, bu suvdan icharlar. Balki jon berar onlarida ham lablariga ana shu parishonlik ummonining afsus suvidan tomizarlar[5]

4. Tohir Malikning “Shaytanat” kitobidan olingan mazkur jumlalarda qo‘llangan *erkakning xo‘rrozi* birikmasi mard, dangal, va’dasida turadigan haqiqiy erkak ma’nosini ifodalab kelgan. Shuningdek, ushbu birikmada badiiy tasvir vositalaridan biri bo‘lgan geminatsiya qo‘llangan. Ya’ni *r* undosh tovushini qavatlash orqali ma’no kuchaytirilgan.

Matn tarkibida qo‘llangan metaforalar ikki xil bo‘ladi:

1) muallif tomonidan qo‘llangan individual metaforalar. Bunday metaforalar okkazional bo‘lib, muallifning ijod mahsuli bo‘lgan, u tomondan kashf etilgan yangi metaforalardir, uning boshqa matnlarda uchrashi o‘ta chegaralangandir;

2) umumxalq yoki turg‘un (doimiy) metaforalar. Bunday turdagi metaforalar anglatgan ma’no shu tildan foydalanuvchilarning barchasi uchun tushunarli bo‘ladi. Tildagi metaforalarni tadqiq etgan tilshunoslaming aksariyati turg‘un metaforaning idiomaga yaqin turishini yoki idioma maqomida bo‘lishini, ular ko‘p asrlar mobaynida kishilar nutqida qo‘llanishi natijasi sifatida turg‘unlashib, so‘zlovchilar ongida muayyan modellar shaklida mustahkamlanib qolishini, metaforik etalonning belgi-predmet bibn muntazam va qat’iy bog‘liq bo‘lishini ta’kidlaydi.[4;20].

Yuqoridagi matnda qo‘llangan *kibrga nikohlanmoq, mardlikni bo‘g‘moq, parishonlik ummonining afsus suvi* kabi birliklar faqat Tohir Malikka xos individual metaforalardir.

– Unaqa emas, Bek aka, sizni hurmat qilaman.

–Hurmat qilasiz-u, lekin qo‘rqasiz. Sizga aytmagandirman, o‘zingiz odamlardan eshitgandirsiz balki, men bolaligimdan boshlab qimorning hadisini olganman. Gapning dangalini, naqdini, halolini, xullas, o‘gil bolasini yoqtiraman. Ilgari ham bolalaringizni bering, deganimda mijg‘ovlik qiluvdingiz. Men pul topishni bilaman. Agar xohlasangiz o‘g‘lingizga kooperativ

[1] Малик, Тоҳир. Шайтанат. (3-китоб). – 220 б. https://www.ziyouz.com/ books/uzbek_nasri/ Tohir%20Malik.%20 Shaytanat%20 (uchinchi%20 kitob).pdf

[2] Малик, Тоҳир. Шайтанат. (3-кит6об). – 220 б. https://www.ziyouz.com/ books/uzbek_nasri/ Tohir%20Malik.%20 Shaytanat%20 (uchinchi%20 kitob).pdf

[3] Малик, Тоҳир. Шайтанат. (5-китоб). – 220 б. https://www.ziyouz.com/ books/uzbek_nasri/Tohir %20 Malik. %20 Shaytanat%20 (uchinchi%20kitob).pdf

[4] Jo‘rayeva B.M. O‘zbek xalq maqollari shakllanishining lingvistik asoslari va pragmatik xususiyatlari: Filol.fan.dok. ...dis, - Samarqand. 2019. - 20 b. [4; 108.]

[5] Малик, Тоҳир. Шайтанат. (3-китоб). – 220 б. https://www.ziyouz.com/ books/uzbek_nasri/Tohir %20 Malik. %20 Shaytanat%20 (uchinchi%20kitob).pdf

taksilardan bittasini berib qo‘yay, istasangiz uzoqqa qatnaydigan Kamazlar bor.[1]

– Ha…chiroyli gapirding. Ammo sen “Biz hammamiz jinoyat olamining odamlarimiz”, deb nazarda tutding, shunday emasmi? Axir hamma bizni jinoyatchi deb hisoblaydi-ku?

– Umuman olganda shunga yaqinroq, – deb tan oldi Chuvrindi.[2]

“Jinoyat olamining odami” hisoblangan Asadbek nutqida qo‘llangan *gapning dangali, gapning naqdi, gapning haloli, gapning o‘g‘il bolasi* metaforik birliklari aytilmoqchi bo‘lgan fikrning tinglovchiga ekspressiv ta’sirini kuchaytirish maqsadida ketmaket qo‘llangan.

Xulosa qilib aytganda, ko‘chimning bir turi hisoblangan metafora badiiy adabiyotda badiiy tasvir vositasi bo‘lib xizmat qilish bilan bir qatorda, shu til vakillarining tafakkur tarzini, folklori, milliy madaniy qadriyatlarini, mentalligini o‘zida namoyon qiladi.

Resume. Metaphors make speech expressive, so they are widely used in artistic style. In works of this style, the impact on emotions comes first. Also, through metaphors, one can evaluate the national, mental and cultural views of a particular people.

Резюме. Метафоры делают речь выразительной, поэтому они широко используются в художественном стиле. В произведениях этого стиля на первом месте стоит воздействие на эмоции. Также посредством метафор можно оценить национальные, ментальные и культурные воззрения конкретного народа.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2025; 11-12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O‘ZBEK TILIDA HAQORATLI LEKSIKA: KORPUS LINGVISTIKASI ASOSIDA TAHLIL VA BAZAVIY RESURS YARATISH

Sobirova Gulshana Faxriddinovna,
Termiz davlat universiteti magistranti

Til jamiyatning eng muhim ijtimoiy hodisalaridan biri bo‘lib, unda insonlarning o‘zaro muloqoti, fikr almashuvi va madaniy qadriyatlari aks etadi. Har bir tilning leksik boyligi turli qatlamlardan iborat bo‘lib, ulardan biri – haqoratli leksikadir. Haqoratli so‘zlar jamiyatda ko‘pincha salbiy baho berish, kamsitish yoki hissiy reaktsiyani ifodalash vositasi sifatida qo‘llanadi. Shu bois, ularni lingvistik jihatdan o‘rganish nafaqat tilshunoslik nazariyasi, balki ijtimoiy hayot uchun ham muhimdir.

Tilshunoslikda haqoratli leksika alohida tadqiqot obyekti sifatida ko‘riladi. Bu qatlam nutqning emotsional, pragmatik va sotsiollingvistik jihatlarini yoritib beradi. Haqoratli so‘zlar ko‘pincha jamiyatda salbiy baho berish, kamsitish yoki ijtimoiy chegaralarni belgilash vositasi sifatida ishlatiladi. Shu sababli, ularni o‘rganish tilning ijtimoiy funksiyalarini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Haqoratli leksika – bu nutqda kamsitish, past baholash, g‘azab yoki nafrat ifodalash uchun qo‘llanadigan so‘z va iboralar majmuasi. Ular semantik jihatdan salbiy konnotatsiyaga ega bo‘lib, ko‘pincha ijtimoiy me’yorlarga zid bo‘ladi. Lingvistik nuqtai nazardan, haqoratli so‘zlar:

[1] Малик, Тоҳир. Шайтанат. (2-китоб). –216 б. https://n.ziyouz.com/ books/uzbek_nasri/Tohir%20Malik.%20Shaytanat%20(ikkinchi%20kitob).pdf

[2] Малик, Тоҳир. Шайтанат. (3-китоб). – 220 б. https://www.ziyouz.com/ books/uzbek_nasri/Tohir%20Malik.%20Shaytanat%20(uchinchi%20kitob).pdf

- semantik jihatdan – salbiy baho bildiruvchi birliklar (ahmoq, tentak);

- morfologik jihatdan – ko‘pincha qo‘pol shakllar, affikslar yoki fonetik o‘zgarishlar bilan hosil bo‘ladi (itvachcha, yetimvachcha);

- pragmatik jihatdan – nutq vaziyatiga qarab kamsitish, masxara qilish yoki agressiyani ifodalaydi (dangasa, megajin).

Haqoratli leksika faqat tilning ichki tizimi bilan cheklanmaydi, balki ijtimoiy kontekstda ham o‘rganiladi. Pragmatika nuqtai nazaridan, haqoratli so‘zlar nutq aktining maxsus turi bo‘lib, ular kommunikativ maqsadga xizmat qiladi. Masalan, ular:

- konfliktli vaziyatlarda – raqibni kamsitish (kaltafahm, nobakor,la’nati);

- ijtimoiy guruhlar ichida – hazil yoki do‘stona masxara sifatida (sassiq, jinni);

- madaniy kontekstda – stereotiplarni mustahkamlash vositasi sifatida qo‘llanadi (cho‘pon, qishloqi).

Sotsiolingvistika esa haqoratli leksikaning jamiyatdagi tarqalishini, yosh, jins, ijtimoiy tabaqa va hududiy dialektlarga bog‘liq farqlarini o‘rganadi. Ayrim so‘zlar bir guruhda hazil sifatida qabul qilinsa, boshqa guruhda og‘ir haqorat sifatida baholanishi mumkin. Xorazm shevasida «g‘or» so’zi haqorat sifatida baholanadi, ammo boshqa hududlarda tog‘ bag‘ridagi katta hajmli bo‘shliq ma’nosini ifodalaydi.

O‘zbek tilida haqoratli leksika masalasi hozirgacha ko‘proq folklor, badiiy adabiyot yoki kundalik nutq misollarida o‘rganilgan. [1]Ammo zamonaviy korpus lingvistikasining metodlari bu sohani yanada chuqurroq va tizimli tahlil qilish imkonini beradi.[2] Korpus lingvistikasida katta hajmdagi matnlar yig‘ilib, ular lingvistik jihatdan belgilab chiqiladi va statistik hamda semantik tahlil qilinadi. Bu yondashuv orqali haqoratli so‘zlarning qo‘llanish chastotasi, kontekstlari, morfologik shakllari va semantik guruhlari aniqlanishi mumkin.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlarda haqoratli nutqning ko‘payishi jamiyatda muayyan muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shu sababli, o‘zbek tilida haqoratli leksika korpusini yaratish nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham zarurdir. Masalan, bu korpus asosida kontent filtrlash algoritmlari, nutq madaniyatini oshirish dasturlari va ta’limiy resurslar ishlab chiqilishi mumkin.

Shuningdek, haqoratli leksikaning o‘zbek tilidagi xususiyatlarini o‘rganish orqali uni boshqa tillar bilan qiyoslash, tarjima jarayonida ekvivalentlarni aniqlash va sotsiollingvistik tadqiqotlarni kengaytirish mumkin. Bu esa o‘zbek tilining global miqyosda elektron resurslar orasida o‘z o‘rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Demak, ushbu maqolaning asosiy maqsadi – o‘zbek tilida haqoratli leksika korpusini yaratish, uni lingvistik jihatdan tasniflash va amaliy qo‘llanmalarga yo‘naltirishdir. Tadqiqotda korpus lingvistikasining metodlari, annotatsiya tizimlari va avtomatik tahlil vositalari qo‘llanadi. Natijada, o‘zbek tilining bu maxsus leksik qatlamiga oid elektron resurs yaratiladi va uning ilmiy hamda amaliy ahamiyati yoritiladi.

O‘zbek tilidagi haqoratli leksika ko‘p hollarda xalq og‘zaki ijodi, maqol va matallarda uchraydi. [3] Ularning bir qismi qadimiy turkiy tillardan meros bo‘lsa, boshqalari arab, fors va rus tillaridan kirib kelgan. [4]Tarixiy manbalarda ko‘plab qo‘pol so‘zlar ijtimoiy tabaqalarni ajratish, hukmronlikni ifodalash yoki dushmanni kamsitish vositasi sifatida ishlatilgan. Bu esa haqoratli leksikaning ijtimoiy vazifasi qadimdan mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi.

Korpus lingvistikasida haqoratli leksika tizimli ravishda o‘rganiladi. Bu yondashuv quyidagi afzalliklarga ega:

- chastota tahlili: haqoratli so‘zlarning qo‘llanish darajasi aniqlanadi.

- kontekstual tahlil: so‘zlarning qaysi vaziyatlarda ishlatilishi o‘rganiladi.

- morfologik tahlil: so‘zlarning shakllanish usullari va variantlari ko‘riladi.

- semantik guruhlash: haqoratli leksika ma’no guruhlariga ajratiladi (masalan, tashqi ko‘rinishga oid, aqliy qobiliyatga oid, ijtimoiy maqomga oid).

Korpus lingvistikasining metodlari yordamida o‘zbek tilida haqoratli leksikaning to‘liq elektron bazasini yaratish mumkin. Bu baza keyinchalik avtomatik filtrlash, tarjima tizimlari va sotsiolingvistik tadqiqotlarda qo‘llanadi.

Haqoratli leksika bo‘yicha tadqiqotlar tilshunoslikning bir nechta sohalariga hissa qo‘shadi:

-semantika – salbiy konnotatsiyali birliklarni o‘rganish;

-pragmatika – nutq aktlari va kommunikativ maqsadlarni tahlil qilish;

-sotsiollingvistika – jamiyatdagi til va ijtimoiy munosabatlarni o‘rganish;

[1] Najmidinova N. Linguistic Expertological Interpretation of Insulting Units in The Explanatory Dictionary of The Uzbek Language. Web of Scientist: International scientific research journal. ISSN: 2776-0979, Volume 5, Issue 8, August 2024. pp. 9-14.

[2] Khurramova G. Similarities of lexical-semantic relations in Uzbek and English languages. EI Journal of Multidisciplinary Research. June 2023

[3] Najmidinova N. Linguistic Expertological Interpretation of Insulting Units in The Explanatory Dictionary of The Uzbek Language. Web of Scientist: International scientific research journal. ISSN: 2776-0979, Volume 5, Issue 8, August 2024. pp. 9-14.

[4] Kuriyozov E. Uzbek Corpus Sample.Git Hub repository. August 2022

-kompyuter lingvistikasi – avtomatik aniqlash va filtrlash algoritmlarini ishlab chiqish.

O‘zbek tilida haqoratli leksika korpusini yaratish jarayoni bir necha bosqichlardan iborat bo‘lib, u nazariy asosda belgilangan mezonlarga tayangan holda amalga oshiriladi. Bu jarayonning muvaffaqiyati to‘plangan ma’lumotlarning sifatiga, ularni qayta ishlash vositalariga va tahlil metodlariga bog‘liq. Korpus yaratishda turli manbalardan foydalanish zarur:

1. Ijtimoiy tarmoqlar – zamonaviy nutqdagi haqoratli leksikaning eng faol manbai (troll, qovun).

2. Badiiy adabiyot va dramaturgiya – tarixiy va stilistik jihatdan boy misollarni beradi (padarla’nat, badgir,hezalak).

3. Og‘zaki nutq yozuvlari – dialektal variantlar va kundalik muloqotdagi qo‘pol so‘zlarni aniqlash imkonini beradi (tulpa, g‘or)

Bu manbalardan olingan matnlar elektron shaklda yig‘ilib, dastlabki tozalash (tokenizatsiya, normalizatsiya) jarayonidan o‘tkaziladi.

Haqoratli so‘zlarni belgilash uchun maxsus annotatsiya sxemasi ishlab chiqiladi. Unda:

1. Semantik teglar – haqoratning yo‘nalishi (masalan, tashqi ko‘rinish, aqliy qobiliyat, ijtimoiy maqom).

2. Pragmatik teglar – nutq vaziyatidagi funksiyasi (masxara, kamsitish, agressiya).

3. Intensivlik darajasi – so‘zning kuchli yoki yumshoq haqorat ekanini ko‘rsatadi.


Bu jarayon tilshunoslar tomonidan qo‘lda amalga oshiriladi, keyinchalik avtomatik tizimlar yordamida kengaytiriladi.

Korpus lingvistikasida maxsus dasturlar qo‘llanadi. O‘zbek tilida haqoratli leksika korpusini yaratishda quyidagi vositalar muhim rol o‘ynaydi.

AntConc matnlardagi so‘zlar chastotasini, ularning yonma-yon kelishini va kontekstini aniqlash uchun ishlatiladi. Dastur oddiy va tez ishlaydi. Haqoratli leksika tahlilida u ma’lum bir so‘z qanchalik ko‘p ishlatilishini va turli vaziyatlarda qanday ma’noda qo‘llanayotganini ko‘rsatadi. Masalan, «ahmoq» so‘zini konkordans oynasida turli gaplar ichida ko‘rish mumkin.[1]

Voyant Tools matnlarni grafik va diagrammalar orqali tahlil qilishga xizmat qiladi. Interfeysi qulay va interaktiv. Haqoratli leksika tahlilida bu vosita haqoratli so‘zlarning semantik maydonini, ya’ni qaysi so‘zlar bilan bog‘lanib kelishini vizual tarzda ko‘rsatadi. Masalan, «tentak» so‘zi bilan birga ishlatiladigan boshqa salbiy so‘zlar grafik ko‘rinishda aks etadi[2]

Lucid platformalari diagramma va konseptual xaritalar yaratish uchun ishlatiladi. U murakkab lingvistik jarayonlarni ko‘rgazmali tarzda tushuntirishga yordam beradi. Haqoratli leksika tahlilida Lucid orqali haqoratli so‘zlar guruhlarga ajratilib, ularning ma’noviy bog‘lanishlari diagramma ko‘rinishida beriladi. Masalan, jismoniy ko‘rinishga oid haqoratlar va aqliy qobiliyatga oid haqoratlar alohida bloklarda aniq tasvirlanadi.[3]



1-rasm. Lucid platformalarida haqoratli so‘zlar tasnifini berish

Yuqoridagi 1-rasmda keltirilgan konseptual diagramma o‘zbek tilidagi haqoratli so‘zlarni lingvistik tamoyillar asosida tasniflashga xizmat qiladi. Diagramma beshta asosiy tamoyilni ajratadi:

1. Ekspressivlik darajasi tamoyili – haqoratli so‘zlarning emotsional kuchini aniqlashda muhim mezon bo‘lib, ular past, o‘rta va yuqori darajadagi ifoda vositalariga ajratiladi. Bu tasnif nutqdagi agres-

[1] Anthony L. AntConc: A freeware corpus analysis toolkit for concordancing and text analysis. Official website. 2022
[2] Desagulier G. A whale of a tool: navigating texts with Voyant Tools. Corpling Hypotheses.2024
[3] Jarkas N. Computer-assisted textual analysis with CLiC, Voyant Tools & AntConc. AMICAL Consortium.2022

siya darajasini baholashda qo‘l keladi.

2. Pragmatik tamoyil – haqoratli birliklarning nutq vazifasini belgilaydi: hazil, mazax yoki kamsitish. Bu tamoyil pragmatik kontekstda so‘zning haqorat darajasini aniqlashga yordam beradi.

3. Gender tamoyili – ayollar va erkaklar nutqida haqoratli leksikaning qo‘llanish farqlarini ko‘rsatadi. Bu sotsiollingvistik jihatdan muhim bo‘lib, ijtimoiy guruhlar orasidagi til tafovutlarini yoritadi.

4. Semantik tamoyil – haqoratli so‘zlarning konnotativ (emotsional) va denotativ (asosiy) ma’nolarini ajratadi. Bu tamoyil semantik tahlil uchun asos bo‘lib xizmat qiladi, ayniqsa tarjima va avtomatik filtrlash tizimlarida.

Diagramma orqali haqoratli leksika ko‘p qatlamli, kontekstga bog‘liq va ijtimoiy jihatdan murakkab hodisa ekanligi tasdiqlanadi. Bu tasnif korpus lingvistikasi asosida yaratilgan elektron bazani semantik va pragmatik jihatdan boyitishga xizmat qiladi. Shuningdek, bu tamoyillar asosida yaratilgan teglash tizimi haqoratli birliklarni avtomatik aniqlashda yuqori aniqlikni ta’minlaydi.

Korpusdan olingan ma’lumotlar statistik jihatdan qayta ishlanadi:

- chastota tahlili – eng ko‘p ishlatiladigan haqoratli so‘zlar ro‘yxati tuziladi;

- kollokatsiya tahlili – haqoratli so‘zlar bilan birga ishlatiladigan boshqa birliklar aniqlanadi;

- kontekstual tahlil – haqoratli so‘zlarning nutq vaziyatiga bog‘liq o‘zgarishlari ko‘riladi.

O‘zbek tilida turli hududlarda ishlatiladigan haqoratli so‘zlar farqlanadi. Masalan, Surxondaryo dialektida ishlatiladigan ayrim qo‘pol so‘zlar Toshkent nutqida uchramasligi mumkin. [1]Shuningdek, bir so‘zning kontekstdagi ma’nosi ham o‘zgaradi: do‘stona hazil sifatida qabul qilinadigan so‘z boshqa vaziyatda og‘ir haqorat bo‘lishi mumkin.

Tadqiqotda haqoratli kontentni to‘liq keltirish emas, balki uni ilmiy tahlil qilish maqsad qilib olinadi. Shuningdek, korpusdan foydalanishda jamiyatda salbiy oqibatlarga olib kelmaslik uchun maxsus filtrlash mexanizmlari ishlab chiqilishi lozim.

O‘zbek tilida haqoratli leksika korpusini yaratish va uni korpus lingvistikasining metodlari asosida tahlil qilish natijasida bir qator muhim ilmiy va amaliy xulosalarga erishiladi. Ushbu bo‘limda tadqiqot davomida olingan asosiy natijalar, statistik ko‘rsatkichlar va lingvistik tasniflar yoritiladi.

Korpus tahlili natijasida o‘zbek tilidagi haqoratli so‘zlar bir necha semantik guruhlarga ajratiladi:

- tashqi ko‘rinishga oid haqoratlar: insonning jismoniy qiyofasi, bo‘yi, vazni yoki yuz tuzilishiga qaratilgan so‘zlar (kalta, baqaloq, naynov);

- aqliy qobiliyatga oid haqoratlar («ahmoq», «tentak» kabi so‘zlar orqali kamsitish);

- ijtimoiy maqomga oid haqoratlar: kasb, tabaqa yoki ijtimoiy rolga qaratilgan salbiy baholar (tagipast, nochor,savodsiz);

- axloqiy va xulq-atvor haqoratlari: odob-axloq me’yorlariga zid bo‘lgan xatti-harakatlarni ta’riflovchi qo‘pol so‘zlar (shallaqi, yengiltak).

Bu tasnif haqoratli leksikaning jamiyatdagi funksiyalarini yanada aniqroq ko‘rsatib beradi.

AntConc dasturi yordamida so‘z chastotasi tahlil qilindi. Eng ko‘p ishlatiladigan 50 ta haqoratli so‘z ro‘yxati tuzildi. [2]Ularning qo‘llanish chastotasi ijtimoiy tarmoqlarda badiiy adabiyotga nisbatan ancha yuqori ekani aniqlandi. Kollokatsiya tahlili orqali haqoratli so‘zlar ko‘pincha salbiy fe’llar («urmoq», «masxara qilmoq») bilan birga ishlatilishi kuzatildi.

Voyant Tools yordamida vizual tahlil natijalari ko‘rsatdiki, haqoratli so‘zlar ko‘pincha bir-biriga yaqin semantik maydonlarda to‘planadi. Masalan, «ahmoq» va «tentak» so‘zlari bir xil kontekstlarda tez-tez uchraydi.

Korpus tahlili o‘zbek tilining turli hududiy variantlarida haqoratli leksikaning sezilarli farqlarini ko‘rsatadi. Surxondaryo va Qashqadaryo dialektlarida ayrim qo‘pol so‘zlar Toshkent nutqida uchramaydi. Masalan, do‘rri, qorayag‘ir, tulpa. Farg‘ona vodiysida ishlatiladigan ayrim haqoratli iboralar boshqa hududlarda yumshoqroq shaklda qo‘llanadi. Masalan, qovun qilibsan. Bu farqlar sotsiolingvistik tadqiqotlar uchun muhim material bo‘lib xizmat qiladi.

Haqoratli so‘zlarning ma’nosi ko‘pincha kontekstga bog‘liq ravishda o‘zgaradi. Do‘stona hazil sifatida ishlatilganda yumshoqroq qabul qilinadi. Konfliktli vaziyatlarda esa og‘ir haqorat sifatida baholanadi.

Korpus asosida yaratilgan resurslar avtomatik filtrlash algoritmlarini ishlab chiqishda qo‘llanilishi mumkin. [3] Mashina o‘rganishi yordamida haqoratli so‘zlarni aniqlashda yuqori aniqlik darajasi kuzatiladi. Bu natija internetdagi salbiy kontentni kamaytirish va ta’limiy platformalarda nutq madaniyatini oshirish uchun muhimdir.

Natijalar quyidagi jihatlarda ahamiyatli bo‘ladi:

1.Ilmiy jihatdan: o‘zbek tilida haqoratli leksikaning tizimli tasnifi yaratildi, korpus lingvistikasining metodlari sinovdan o‘tkaziladi.

2.Amaliy jihatdan: elektron korpus resursi yaratilishi orqali kontent filtrlash, tarjima tizimlari va ta’limiy dasturlar uchun asos bo‘ladi.

[1] Kuriyozov E Uzbek Corpus Sample. Git Hub repository. August 2022

[2] Najmidinova N. Linguistic Expertological Interpretation of Insulting Units in The Explanatory Dictionary of The Uzbek Language. Web of Scientist: International scientific research journal. ISSN: 2776-0979, Volume 5, Issue 8, August 2024. pp. 9-14.

[3] Kuriyozov E Uzbek Corpus Sample. Git Hub repository. August 2022.

3.Sotsiolingvistik jihatdan: haqoratli leksikaning jamiyatdagi tarqalishi, dialektal farqlari va kontekstual o‘zgarishlari yoritiladi.

O‘zbek tilida haqoratli leksika korpusini yaratish nafaqat nazariy tilshunoslik uchun, balki amaliy sohalar uchun ham katta ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari turli yo‘nalishlarda qo‘llanilishi mumkin.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda haqoratli nutqning ko‘payishi jamiyatda salbiy muhitni shakllantirmoqda. Yaratiladigan korpus asosida avtomatik filtrlash algoritmlari ishlab chiqilishi mumkin. Bu algoritmlar foydalanuvchilarning yozgan matnlarini tahlil qilinib, haqoratli so‘zlarni aniqlaydi va ularni bloklaydi yoki ogohlantirish beradi. Natijada, internet muhitida sog‘lom muloqot madaniyati shakllanadi.

Korpusdan ta’limiy dasturlar va o‘quv qo‘llanmalar yaratishda foydalanish mumkin. Masalan, o‘quvchilarga haqoratli leksikaning salbiy oqibatlarini tushuntirish, nutqda ijobiy alternativalarni taklif qilish va madaniy muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishda bu resurs muhim rol o‘ynaydi.

Haqoratli leksikaning boshqa tillardagi ekvivalentlarini aniqlash tarjima tizimlari uchun zarur. [1]Korpus asosida o‘zbek tilidagi haqoratli so‘zlarning ingliz, rus yoki boshqa tillardagi mos variantlari aniqlanib, avtomatik tarjima sifatio‘z o‘rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Korpusdan olingan ma’lumotlar jamiyatdagi til va ijtimoiy munosabatlarni o‘rganishda qo‘llanadi. Masalan, haqoratli leksikaning yoshlar nutqida ko‘proq uchrashi, dialektal farqlar yoki genderga oid qo‘llanish xususiyatlari sotsiollingvistika uchun muhim materialdir.

O‘zbek tilining elektron korpusini kengaytirish orqali tilshunoslik tadqiqotlari uchun yangi imkoniyatlar yaratiladi. Haqoratli leksika bazasi boshqa leksik qatlamlar bilan birga umumiy til resurslarini boyitadi va kelajakdagi tadqiqotlar uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbek tilida haqoratli leksika korpusini yaratish va uni korpus lingvistikasining metodlari asosida tahlil qilish tadqiqoti bir qator muhim ilmiy va amaliy natijalarni beradi. Avvalo, haqoratli so‘zlarning semantik, pragmatik va sotsiolingvistik jihatlari tizimli ravishda tasniflanadi. Bu tasnif orqali haqoratli leksikaning jamiyatdagi funksiyalari, qo‘llanish chastotasi va kontekstual o‘zgarishlari aniqlanadi.

Metodologik jihatdan, AntConc, Voyant Tools va Lucid kabi dasturlar yordamida matnlarni avtomatik tahlil qilish, vizualizatsiya qilish va semantik guruhlash imkoniyatlari sinovdan o‘tkaziladi. Natijada, haqoratli leksikaning qo‘llanish chastotasi, kollokatsiyalari va semantik maydonlari aniqlanadi. Bu esa o‘zbek tilida haqoratli nutq birliklarini chuqurroq o‘rganish va elektron resurs yaratish uchun mustahkam poydevor bo‘ladi.

Amaliy jihatdan, yaratilgan korpus internetdagi salbiy kontentni filtrlash, ta’limiy platformalarda nutq madaniyatini oshirish va tarjima tizimlarida sifatni yaxshilash uchun qo‘llanilishi mumkin. Shuningdek, sotsiolingvistik tadqiqotlar uchun haqoratli leksikaning dialektal farqlari va ijtimoiy guruhlardagi qo‘llanish xususiyatlari yoritiladi.

Umuman olganda, ushbu tadqiqot o‘zbek tilining elektron resurslarini boyitish, lingvistik nazariyani kengaytirish va amaliy qo‘llanmalarda samarali foydalanish imkonini beradi. Kelajakda bu yo‘nalishda yanada kengroq korpus yaratish, mashina o‘rganishi algoritmlarini takomillashtirish va xalqaro qiyosiy tadqiqotlarni amalga oshirish zarur.

Rezyume. Mazkur ilmiy ish o‘zbek tilida haqoratli leksikaning korpus lingvistikasi asosida tahlilini o‘z ichiga oladi.Tadqiqot natijasida o‘zbek tilida haqoratli leksikaga oid elektron korpus yaratiladi va uning internet kontentini filtrlash, ta’limiy platformalarda nutq madaniyatini oshirish hamda tarjima tizimlarida qo‘llanilishi mumkinligi isbotlanadi.

Resume. This scientific work analyzes offensive vocabulary in the Uzbek language based on corpus linguistics. As a result of the research, an electronic corpus of offensive words in Uzbek is created. It is proven that this corpus can be used to filter internet content, improve speech culture on educational platforms, and support translation systems.

Резюме. Данная научная работа анализирует оскорбительную лексику узбекского языка на основе корпусной лингвистики. В результате исследования создаётся электронный корпус оскорбительных слов узбекского языка. Доказано, что данный корпус может использоваться для фильтрации интернет-контента, повышения культуры речи на образовательных платформах и в системах перевода.

[1] Khurramova G. Similarities of lexical-semantic relations in Uzbek and English languages. EI Journal of Multidisciplinary Research. 2023. pp 18-27

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 11-12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

«KUNTUG'MISH» DOSTONI FRAZEOLOGIZMLARINING SEMANTIK-STATISTIK TAHLILI

Jumayeva Dilafro'z Orifjon qizi,
Termiz davlat universiteti magistranti

Olamning lisoniy manzarasida yoki insonning til shuurida so'zlar bilan bir qatorda tarkibi jihatidan barqaror bo'lgan va nutqda tayyor holda aks ettiriladigan frazeologik birliklar yoki frazeologizmlar mavjud[1]. Turli xususiyatlarga ega bo'lgan frazeologizmlar majmui esa tilning frazeologik qatlamini tashkil etadi. Tilning ushbu qatlami muntazam ravishda yangi frazeologik birliklar bilan boyib boradi va xalqning madaniy-tarixiy tajribasini, shuningdek, muayyan tilning tarixiy taraqqiyot qonunlarini aks ettiradi. Shu boisdan ham tillarning leksik-semantik xususiyatlarini o'rganishda frazeologik birliklarning ham alohida o'rni bor. Frazeologik birliklarni tadqiq etish tilshunos olimlarni qadimdan qiziqtirib kelgan. XIX asrgacha iboralar lug'atshunoslik tarkibida o'rganilib, bunda frazeologizmlarning faqat ma'nolari va etimologiyasi bayon etilgan. Bugungi kun tilshunosligida esa frazeologik birliklar va ularning ifodalanishi masalasidagi tadqiqotlar mavzu ko'lami jihatidan ancha kengaydi.

«Frazeologizmlar tilda madaniy axborotni, xalq milliy tafakkur tarzini o'zida aks ettirgan inson komunikativ-situativ jarayonining eng muhim birliklaridan biri hisoblanib»[2], ular xalq, millat og'zaki ijodi namunalarida, badiiy asarlarda va xalq tili hamda urf-odatlarida o'zgarmay saqlanib kelinmoqda. B.A.Larin «Tongda yorug'lik shudring tomchilarida qanday aks etsa, iboralar xalq dunyoqarashi, ijtimoiy tuzum, o'z davri mafkurasini shunday aks ettiradi»[3], – degan edi. Shuning uchun dunyo tilshunos olimlarini frazeologik birliklar doimo qiziqishlar markazida bo'lgan. Rus tilshunosligida V.N.Teliya va uning maktabi vakillari iboralarni o'rganganligi bilan mashhurdirlar. Aslida rus tilshunosligida frazeologik birliklar bo'yicha tadqiqotlar XVIII asrdan boshlab shug'ullanib kelishmoqda. Xususan, M.V.Lomonosov rus adabiy tili lug'atini tuzar ekan ushbu jarayonda so'zlar bilan bir qatorda «xalq maqollari», «frazeslar» hamda «ideomatizmlar» o'z aksini topishini alohida ta'kidlab o'tadi. Ma'lumotlarga ko'ra, frazeologiya sohasining ilk tadqiqotchisi sifatida shvetsar-fransuz tilshunosi Sharl Balli hisoblanar ekan. U o'zining «Stilistika ocherki» va «Fransuz stilistikasi» nomli asarlariga so'z birlashmalari, ya'ni frazeologizmlarni tadqiq etuvchi maxsus boblar ham kiritgan. Frazeologizmlarni o'rganishdan maqsad, avvalambor, ularning miliy – madaniy ko'chma ma'nolarini tahlil etish hamda mentalitetning xarakterlovchi qirralarini ochib berishdir. «Frazeologik birliklar aynan madaniyat haqidagi axborotni, milliy mentallikni ifodalaydigan til birligidir[4]. Xususan, o'zbek tilshunosligida Sh.Raxmatullayev, B.Yo'ldoshev, Sh.Usmonova kabi olimlar qarashlarida frazeologik birliklarning o'ziga xos belgilari, tarqqiyoti, uslubiy jihatlari, etimologik xususiyatlari, ayrim tillar frazeologizmlari bilan qiyoslanishi, iboralarni modellashtirish muammolari, strukturaviy va semantik xususiyatlari kabi muhim masalalar o'rganilgan. Keyingi yillarda e'lon qilinayotgan ishlarda frazeologizmlarning lingvokulturologik tomonlariga alohida e'tibor beryotganligini yaqqol misollarda ko'rishimiz mumkin.


Quyida «Kuntug'mish» dostonidagi lingvomadaniy birliklardan metafora 22ta, o'xshatish 35ta, maqol 7ta, frazeogologizm 60ta aniqlandi va bulardan faqatgina frazeologizmlar tadqiqqa tortildi.

Demak, ushbu dostonda frazeologizmlar maqol, metafora, o'xshatishlarga nisbatan yirik hajmni egallaydi va bu jihatdan «Kuntug'mish» dostonidan frazeologik birliklar bir necha jihatdan tahlil qilindi.

Biz dostonlarda uchraydigan frazeologizmlarni bir nechta mavzuviy-tematik guruhlarga bo'lib o'rganishimiz mumkin. Avvalo, somatik komponentli frazeologizmlar. Tildagi aksariyat frazeologik birliklarning tarkib topishida inson tana a'zolari muhim rol o'ynaydi. Jumladan, o'zbek xalq dostonlarida ham bosh (kalla), ko'z, qosh, ko'krak, og'iz, bel, o'pka,

[1] Mamatov A.B. Zamonaviy lingvistika: o'quv qo'llanma / A.E. Mamatov. – Tashkent: Noshir, 2019. - B. 135.
[2] Исмоилов Ф. Оламнинг фразеологи манзарасида "инсон" концепти // Узбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2015. –№. – Б. 22.
[3] Маслова В.А. Лингвокуътурология. Учебное пособи. 4- е изд – Москва: Академия, 2010. – 208 с.
[4] Маматов А., Болтаева Б. Фразеологик бирликларнинг лингвомаданий ва семантик - прагматик тадкики. - Тошкент, 2018. – Б. 5.

1-rasm



suyak, quloq, yuz, til, oyoq, qo‘l, yurak kabi insonning a’zolari bilan bog‘liq frazeologik birliklar talaygina mavjuddir. Xususan, «Kuntug‘mish»[1] dostonidan somatik tarkibli frazeologizmlar doirasidagi **bosh bilan bog‘liq frazeologik iboralar:** *Kampir joyidan turib, shahzodaning* ***boshidan parvona bo‘lib****, aylanib, … paxta ipini yigirdi-da o‘tirdi*. (42-bet);

Savdo tushgan *shahzodaning* ***boshiga,***
Qul qoyil qudratli haqning ishiga,
Zulm bilan qonga bo‘yab zolimlar,
Haydab bordi podshosining qoshiga. (50-bet)
Yig‘lamay, naylayin, qismatim qatti(q),
Kuysin o‘lim, barcha qulni yig‘latdi,
Ko‘p takabburligim ***boshima yetdi****,*
Menga xudo lutfi bilan ko‘rsatdi.(55-bet)
Arkoni davlat, Xolmo‘min ***bosh bo‘lib*** *kelib, Mohiboyni suyab ko‘tarib, arkka olib chiqib ketdilar.(160-bet)*

Ko‘z birikmali somatik komponentlar: *Shu yoringni ko‘rasan****, ko‘zi tushsa*** *o‘lasan, u yog‘ini o‘zing bilasan, -deb ketiga qaytdi (17-bet); Zamonqulning* ***ko‘zi tushdi****, tura solib qochdi (43-bet);*

Ayo to‘ram, aytmaguncha bilmading,
Yo bilmayman, bizni ***ko‘zga ilmading****(23-bet)*
Yig‘laydi Xolbeka, yoshin tiymaydi,
Ko‘p mahosil biror fasl qo‘ymaydi,
O‘zin jabri ko‘rinmaydi ko‘ziga,
To‘rasin also ***ko‘zi qiymaydi****. (50-bet)*

Ko‘ngil bilan bog‘liq frazeologik birliklar: *Alqissa, Qoraxon podsho o‘g‘lining dardini ishqdan bilib,* ***ko‘ngli buzilib****,* ***yurak-bag‘ri ezilib****, qaddi bukilib, ko‘zidan yoshi to‘kilib, o‘g‘liga qarab bir so‘z aytib turibdi(10-bet); ….kampirni vahm bosib, lol bo‘lib, o‘tirib edi,* ***ko‘ngliga bir gap kela qoldi:*** *…(21-bet); Shunda to‘rasi Xolbekaning boshiga soya solib, yorini suyab,* ***ko‘nglini ovlab****: -Bir g‘ayrat qil, yo‘limiz yaqin qoldi,-deb* ***ko‘nglini ko‘tarib*** *bir so‘z dedi:… (56-bet) Shahzodaning* ***ko‘ngliga qattiq tegib****: -E attang, sendan bu so‘z lozim emas edi (60-bet); «Lekin to‘ram mening* ***ko‘nglimga qarab aytdi,*** *endi kelmaydi»,-deb xo‘rak mevalaridan olib, ikki bolasini ko‘tarib, qorama-qora to‘raga bildirmay kela berdi(62-bet)*

Toza gulsan, oftob tegib so‘lmagin,
Yorim qoldi debon ***ko‘ngling bo‘lmagin,*** *(56-bet)*
Mabodo ***ko‘nglingga og‘ir olmasang****, Ek qanoti mayib bo‘lgan qush ko‘rdim (75-bet).*
Sargordansan, haydaganing lo‘kmidi,
Ko‘nglingga olganing *sening kekmidi,*
Qanday ko‘ngling toshdan edi, zolimlar,
Uyingda shuningday bolang yoqmidi?(82-bet)
Qodir mavlon, meni solding savdoga,
Qayta boshdan men yorimdan ayrildim,
Yorim ketib, o‘zim qoldim baloga,
Ko‘nglim olgan *dildorimdan ayrildim.(87-bet)*
Yana ***ko‘nglim ravshan bo‘ldi****.(95-bet); Podsho ham* ***ko‘ngli ko‘p parishon bo‘lib****, arkoni davlatdan savol qildi:…(102-bet); -E, siyohbaxt, men* ***sening ko‘ngling ochilsin****, deb olib kelsam, sen qayta dardi-alamingni ziyoda qilding-ku. (116-bet)*

Yaxshilik ko‘r, yomonlikni ko‘rmagin,
Bevafo dunyoga ***ko‘ngil bermagin.*** *(117-bet).*

…Xolbeka oyimning ham ***ko‘nglini qaytarib****, Gurkiboy bir so‘z dedi:…(120-bet); -Sizlardan* ***ko‘nglim joy bo‘ldi,*** *ilohi Zangari qursin, otalaringga vafo qilmadi, sizlarga ham vafo qilmaydi.(132-bet).*

Quloq birikmali frazeologizmlar*: Kampir bu so‘zlarni aytdi, Zamongulning* ***qulog‘iga yoqib ket-***

[1] Kuntug‘mish. Ravshan. – Toshkent: Sharq, 2011. – 368 b.

di*(22-bet)*

Quloqqa olmasman *yig‘laganingni,*
Xazon qilib qizil gulday taningni,
Xolbekadan gapirmagin, juvonmarg,
Qilichman to‘karman yerga qoningni.(24-bet)

Shuningdek, ***jon, qo‘l, og‘iz*** *bilan ifodalanuvchi frazeologik birliklarni ham uchratishimiz mumkin: … Buvraxon Xolbekaning jamolini ko‘rib, yuz shaydoyi dil bilan oshiqi beqaror bo‘lib,* ***ixtiyorini qo‘lidan oldirib****, dilida sabr-u qarori qolmay, arkiga borib tushib, bostirib, sovchini qo‘ya berdi(5-bet); Bu o‘zbak mug‘ambir ekan,* ***jon yerimdan ushladi****(13-bet); Qo‘rboshi ham* ***chala jonsarak bo‘lib yotib*** *edi... (17-bet)….*

Enasidan ne o‘tganin bilmaydi,
Norastalar zulm etganga ko‘nmaydi.
O‘pkasini bosolmaydi *entikib,*
Ikki go‘dak Xolbekani emmaydi.(84-bet)

Gurkiboy shahardagi odamlarni ko‘rib, ***og‘zi ochildi****-qoldi.(111-bet); -O‘, yangga, akam sira yetimni yetim demas edi, ikki yetim bor, deb* ***og‘zidan tushirmaydi.*** *(116-bet); Shunda Mohiboy qor-yomg‘irday qamchi yog‘ib turganini o‘zi nazar-guzar qilmay, akasi Gurkiboyning qamchi yeganiga* ***ichi achib****:…..bir so‘z dedi:.. (147-bet);*

Bandi bo‘ldim armon bilan dushmanga,
Ichim to‘ldi qayg‘u bilan armonga*,*
Mard bo‘lib kirmadim, qaytay, maydonga,
Kasofatim tegdi, Gurkiboy, senga. (148-bet)

Ba’zi frazemalar dostonlarda takroran qo‘llangan holatlari ham uchraydi «Alpomish» dostonida*: o‘zbakbekning* ***yurak-bovri ezildi*** (52-bet), «Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi»da: *shunda Gajdumbekning* ***yurak-bag‘ri ezilib****,... bir so‘z dedi* (40-bet), «Kuntug‘mish»da: *hasratingdan* ***yurak-bag‘rim ezilib****, Vallamat, taningda quvvat bormidi* (52-bet) misollari qo‘llangan. Sh.Rahmatullayevning «O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati»da ushbu birikma **yurag(i) ni ezmoq.** Ruhan azoblanmoq. **Varianti: yurak-bag‘r(i) ezildi;** (272-b) deya izohlangan[1].

Quyidagi jadvalda somatik komponentli frazeologizmlardan ayrimlarining tahlilga tortilgan jadvalini ko‘rishimiz mumkin.

1-jadval

Somatik komponentli frazeologizmlar

T/r	Komponentlarning nomlari	Dostondan olingan misollar	Izohi
1	Bosh	Kampir joyidan turib, shahzodaning boshidan parvona bo‘lib, aylanib, … paxta ipini yigirdi-da o‘tirdi. (42-bet);	Juda xavotirlanib, sarosimaga tushib, nima qilayotganini bilmay qolgan holda shoshilib-pishib yurmoq; o‘zini yo‘qotib qo‘ygandek harakat qilmoq
2.	bosh	Yig‘lamay, naylayin, qismatim qatti(q), Kuysin o‘lim, barcha qulni yig‘latdi, Ko‘p takabburligim boshima yetdi, Menga xudo lutfi bilan ko‘rsatdi. (55-bet)	Boshini yeb sinonimi boshiga yetmoq. Yoq qilmoq, halok qilmoq tarzida (SH. Rahmatullayev. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati 50-bet) Bu yerda afsuslanish, oziga achinish ma’nosida kelgan.
3.	Ko‘z	Shu yoringni ko‘rasan, ko‘zi tushsa o‘lasan, u yog‘ini o‘zing bilasan, -deb ketiga qaytdi (17-bet);	ko‘zi tushdi kimning kimga yoki nimaga. Behosdan, kutilmaganda ko‘rmoq. Varianti: nazar(i) tushdi. (SH.Rahmatullayev. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati 142-bet).
4.	Ko‘z	Yig‘laydi Xolbeka, yoshin tiymaydi, Ko‘p mahosil biror fasl qo‘ymaydi, O‘zin jabri ko‘rinmaydi ko‘ziga, To‘rasin also ko‘zi qiymaydi. (50-bet)	ko‘ngilchanlik tufayli botinolmaslik. Sinonimi: ko‘ngl(i) bo‘lmadi. Ushbu vaziyatda Xolbekaning qamchilar zarbi oqibatida Kuntug‘mishga achinish holati aks etgan.
5.	Quloq	Kampir bu so‘zlarni aytdi, Zamongulning qulog‘iga yoqib ketdi(22-bet)	Biror gap, so‘z yoki ma’lumot odamga juda yoqdi, qulay eshitildi, yoqimli taassurot qoldirdi degan mazmunda keladi.

[1] Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. Universitetlar va pedagogika institutlarining studentlari uchun qo‘llanma. – Toshkent. “O‘qituvchi” nashriyoti, 1978.

6.	qo‘l	Buvraxon Xolbekaning jamolini ko‘rib, yuz shaydoyi dil bilan oshiqi beqaror bo‘lib, ixtiyorini qo‘lidan oldirib, dilida sabr-u qarori qolmay, arkiga borib tushib, bostirib, sovchini qo‘ya berdi(5-bet);	«Ixtiyorini qo‘lidan bermoq» – bu biror kishi o‘zini boshqara olmay qolishi, o‘z xohish-irodasini boshqalarga bo‘ysundirishi, o‘zini qo‘lga ololmay qolishi ma’nolarini bildiradi. Odatda hissiyotga berilib ketish, boshqa birovning gapiga yoki ta’siriga tushib qolish, o‘zini nazorat qila olmaslik holatida qo‘llanadi
7.	og‘iz	-O‘, yangga, akam sira yetimni yetim demas edi, ikki yetim bor, deb og‘zidan tushirmaydi. (116-bet);	Biror kishini yoki narsani juda ko‘p tilga oladi, tez-tez eslaydi, doim gapiradi deganidir. Bu ibora odatda maqtov, mehr, yoqtirish yoki ko‘p eslash ma’nosida ishlatiladi.

Frazeologizmlar tilda so‘zlovchining tinglovchiga bo‘lgan ekspressiv munosabatini ifoda etuvchi vositalardir. Frazeologizmlar nominativ va qo‘shimcha (kesatish, jirkanish, nafrat, so‘kish, qarg‘ish singari salbiy; erkalash, hazil, rag‘batlantirish kabi ijobiy) ma’no munosabatlarni aks ettiruvchi nutqiy birliklardir[1]. Frazeologizmlarning ayni shu xususiyatidan kelib chiqqan holda ularni ijobiy va salbiy guruhlarga bo‘lib o‘rganishimiz mumkin bo‘ladi.

Salbiy semali frazeologizmlar. *Lekin Xolmo‘minning enasi qora bosib o‘ldi, o‘g‘li **etak ostida qoldi**(4-bet); …Buvraxon Xolbekaning jamolini ko‘rib, yuz shaydoyi dil bilan oshiqi beqaror bo‘lib, **ixtiyorini qo‘lidan oldirib**, dilida sabr-u qarori qolmay , arkiga borib tushib, bostirib, sovchini qo‘ya berdi(5-bet); Qirq yigiti shoshib, **dami ichiga tushib**, **aqlidan adashib**, barisi chuvlashib, to‘rani o‘rtaga olib, hay-hayni solib: -Ko‘zingni och!-dedi(8-bet); Alqissa, Qoraxon podsho o‘g‘lining dardini ishqdan bilib, **ko‘ngli buzilib**, **yurak-bag‘ri ezilib**, qaddi bukilib, ko‘zidan yoshi to‘kilib, o‘g‘liga qarab bir so‘z aytib turibdi.(10-bet); O‘zbak, ko‘p baqirma, **hammaning kayfini uchirib yuborma**, bemahalda senga kim darvozani ochib ochadi, barvaqt kel…. (12-bet); Bu o‘zbak mug‘ambir ekan, **jon yerimdan ushladi**(13-bet); …boboning **aqli shoshib**, damidan adashib, hisobi ketib, qulog‘i bitib…bir so‘z aytdi.(14-bet); Xanjar chekib, **qora bag‘ring tildirar** (16-bet); Qo‘rboshi ham **chala jonsarak bo‘lib yotib** edi... (17-bet). **…** Shu yoringni ko‘rasan**, ko‘zi tushsa** o‘lasan, u yog‘ini o‘zing bilasan, -deb ketiga qaytdi (17-bet*). *Ko‘zi tushdi-behosdan kutilmaganda ko‘rmoq* (142-bet O‘zb.til.izoh.lug‘.); *Qo‘rboshi ham **chala jonsarak bo‘lib** yotib edi, do‘stining tovushini esh-itib, irg‘ib turib:-…bir ko‘chaga ravona bo‘ldi(17-bet); Xotin degan o‘zini pishiq bilib, bir pul uchun talashib, odamning **ko‘nglini qora qiladi** (34-bet).*

Shahzodaga iqbol bergin, xudoyim,
*Ko‘p **savdo solmagil yolg‘iz boshiga**. (38-bet)*
*Hasratingdan **yurak-bag‘rim ezilib**,*
Vallamat, taningda quvvat bormidi (52-bet).
Yig‘lamay, naylayin, qismatim qatti(q),
Kuysin o‘lim, barcha qulni yig‘latdi,
*Ko‘p takabburligim **boshima yetdi**,*
Menga xudo lutfi bilan ko‘rsatdi.(55-bet)
Enasidan ne o‘tganin bilmaydi,
Norastalar zulm etganga ko‘nmaydi.
***O‘pkasini bosolmaydi** entikib,*
Ikki go‘dak Xolbekani emmaydi.(84-bet)
*Xolbeka yo‘q, hasrat bilan **qon yutib**,*
Armon bilan bandi bo‘lgan ekandi(89-bet)

*Kim erding guli so‘lgan, **shum paymonasi to‘lgan** (93-bet); Podsho ham **ko‘ngli ko‘p parishon bo‘lib**, arkoni davlatdan savol qildi:…(102-bet)*

Bandi bo‘ldim armon bilan dushmanga,
***Ichim to‘ldi qayg‘u bilan armonga**,*
Mard bo‘lib kirmadim, qaytay, maydonga,
Kasofatim tegdi, Gurkiboy, senga. (148-bet)

Ijobiy semali frazeologizmlar: *To‘ra Xolbekaning jamolini ko‘rib, yuz shavqi-zavqi bilan **ko‘ngil berib**, Xolbekaning bu vahshatiga hayron qolib, … Xolbekaga qarab bir so‘z deb turibdi(36-bet)*

Ikki tolib bir-biriga duch bo‘ldi,
*Jamoliga shahzod **vaqti xush bo‘ldi** (38-bet)*

*Kampir joyidan turib, shahzodaning **boshidan parvona bo‘lib**, aylanib, … paxta ipini yigirdi-da o‘tirdi. (42-bet); Zamonqulning **ko‘zi tushdi**, tura solib qochdi (43-bet)*

Ayo, nozim, bir gapim bor anglab ol,
*Men so‘zlayin, **zehningni qo‘y**, quloq sol. (47-bet)*

Yig‘laydi Xolbeka, yoshin tiymaydi,
Ko‘p mahosil biror fasl qo‘ymaydi,
O‘zin jabri ko‘rinmaydi ko‘ziga,
*To‘rasin also **ko‘zi qiymaydi**. (50-bet)*
Toza gulsan, oftob tegib so‘lmagin,
*Yorim qoldi debon **ko‘ngling bo‘lmagin,** (56-bet)*

*Shunda to‘rasi Xolbekaning boshiga soya solib, yorini suyab, **ko‘nglini ovlab**: -Bir g‘ayrat qil, yo‘limiz yaqin qoldi,-deb **ko‘nglini ko‘tarib** bir so‘z dedi:…*

[1] Normamatova G. O‘zbek xalq dostonlarida paremiologik birliklarning ifodalanishi.; magistr...diss. – Termiz, 2023.

*(56-bet)Shahzoda yorining **ko‘nglini ovlab**, go‘daklarini qo‘liga olib, **ko‘nglini ko‘tarib**:..bir so‘z dedi(59-bet); «Lekin to‘ram mening **ko‘nglimga qarab aytdi,** endi kelmaydi»,-deb xo‘rak mevalaridan olib, ikki bolasini ko‘tarib, qorama-qora to‘raga bildirmay kela berdi(62-bet)*

Qodir mavlon, meni solding savdoga,
Qayta boshdan men yorimdan ayrildim,
Yorim ketib, o‘zim qoldim baloga,
***Ko‘nglim olgan** dildorimdan ayrildim.(87-bet)*
Chiqdim teridan salomat,
*Yana **ko‘nglim ravshan bo‘ldi**.(95-bet)*

*-O‘, yangga, akam sira yetimni yetim demas edi, ikki yetim bor, deb **og‘zidan tushirmaydi.** (116-bet); -E, siyohbaxt, men **sening ko‘ngling ochilsin**, deb olib kelsam, sen qayta dardi-alamingni ziyoda qilding-ku. (116-bet); Bolalar tog‘ora bilan piyolani ko‘rdi, **dimog‘i chog‘ bo‘lib**, kayflari to‘g‘ri bo‘ldi. (123-bet). -Sizlardan **ko‘nglim joy bo‘ldi,** ilohi Zangari qursin, otalaringga vafo qilmadi, sizlarga ham vafo qilmaydi. (132-bet).*

Umuman olganda, frazeologik birliklar tadqiqi borasida yaratilgan ishlarni sharhlash, tahlil qilish hamda fikr bildirish ushbu sohada yangi izlanishlarni olib borayotgan tilshunos va filologlar uchun yo‘riqnoma sifatida xizmat qiladi. Shu sababli qaysi jihatdan ilmiy tadqiqqa tortilishidan qat’iy nazar, frazeologizmlar to‘g‘risidagi yaratilgan har qanday ish, olib borilgan tadqiqotlar tilshunoslik uchun muhimdir.

Rezyume. Ushbu maqolada «Kuntug‘mish» dostonidagi frazeologizmlar semantik-uslubiy va statistik jihatdan tahlilga tortilgan. Shuningdek, dostondagi frazeologik birliklar emotsional jihatdan ijobiy, salbiy, qanday turdagi komponentlardan tashkil topganligiga ko‘ra somatik va antropomorf turlarga bo‘lib o‘rganilgan.

Resume. In this article, phraseologisms in the epic poem «Kuntug’mish» are analyzed semantically, stylistically and statistically. Also, phraseological units in the epic are divided into emotionally positive, negative, somatic and anthropomorphic types according to the type of components they consist of.

Резюме. В данной статье фразеологизмы в эпической поэме «Кунтугмиш» анализируются семантически, стилистически и статистически. Также фразеологические единицы в эпосе подразделяются на эмоционально позитивные, негативные, соматические и антропоморфные типы в зависимости от типа составляющих их компонентов.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2025; 11-12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O‘ZBEK TILINING ONOMASTIK SATHI HAQIDA

Islomov Sardor Sanjarovich,
Termiz davlat universiteti tadqiqotchisi

Bugungi kunda zamonaviy tadqiqotlarga asos bo‘layotgan barcha tushunchalar olam va odamning yaratilishidan boshlangan farazlarga borib taqaladi. Muhokama qilinayotgan va tahlilga olinayotgan mavzular, qaysi yo‘nalishga oid bo‘lmasin, inson va u bilan bog‘liq holatlar atrofida birlashadi. Bu jihat predmet va nom o‘rtasidagi munosabaatlarda, ayniqsa, yaqqol seziladi.

Nom har bir xalqning o‘z tafakkur tarzi va dunyoqarashi ifodasi bo‘lib, milliy madaniyat, tarixiy qadriyatlar timsoli sanaladi. Tabiatdagi insoonga ma’lum barcha jismlar, jonli mavjudotlar va jonsiz predmetlar o‘z nomiga ega. Shu nom ularning o‘ziga xos jihatlarini ifodalaydi va boshqalardan ajratib turadi. Bu jihatlarning barchasi tilning onomastik sathida o‘z ifodasini topadi.

Onomastik sath tushunchasi adabiyotlarda va tadqiqot ishlarida turlicha nomlanadi. Xususan, *onomastik sath, onomastik maydon, onomastik ko‘lam, onomastik guruh* kabi terminlar bir xil ma’noni ifoda-

laydi deb ko‘rsatiladi. Bu borada quyidagi fikrlarni keltirib o‘tishimiz mumkin:

Onomastik ko‘lam terminiini *onomastik sath, onomastik maydon* deb ham olish mumkin. Ammo onomastika sohasida biz ko‘zda tutayotgan tushuncha esa mohiyatan uchta xususiyatni ifodalaydi: 1) biror-bir tilda atoqli otlarning qanday tiplari mavjudligi; 2)ularning tilda tarqalish chegarasi; 3)tildagi onomastik leksikaning hajmi. Shu sababli biz ruscha *prostranstvo* so‘zini *ko‘lam* so‘zi bilan berish maqbul deb hisoblaymiz. “Ko‘lam” – biror ish, faoliyatning yoyilish, qamrash doirasi, hajmi, miqyosi, rivojlanish, avj olish darajasi” bo‘lib, bu termin onomastika ko‘zda tutayotgan ma’noni to‘liq ifodalaydi[1]. Chunki ***onomastik ko‘lam*** termini biror konkret tildagi atoqli otlarning umumiy majmui, yig‘indisi ma’nosida ham ishlatiladi. Keltirilgan fikrlardan kelib chiqiladigan bo‘lsa, o‘zbek tilining onomastik ko‘lamini bu tildagi barcha atoqli ot tiplari (ko‘rinishlari)ning majmui tashkil qiladi. Bu jihatdan onomastik ko‘lam *onomastik leksika, til onomastik fondi, til atoqli otlari tizimi, tilning onomastik birliklari* terminlariga yaqin turadi[2]. Demak, onomastik sath tushunchasi yuqorida keltirilgan boshqa terminlar kabi barcha nomlarning birlashmasi, jami ma’nosini ifodalaydi.

O‘zbek tili onomastik sathi quyidagi ichki guruhlarga bo‘lib o‘rganiladi:

1. *Antroponimika* – nomshunoslikning kishi ismlarini o‘rganuvchi sohasi bo‘lib, shaxs nomlarining etimologiyasi, semantikasi va qurilishini o‘rganadi;

2. *Toponimika* – joy nomlarini o‘rganuvchi soha. Onomastikaning mazkur sohasi keng qamrovli bo‘lib o‘z ichida *oronim* (tog‘, cho‘qqi, dovon, tepalik nomlari), *gidronim* (okeanlar, daryolar, ko‘llar, kanallar nomlari), *xoronim* (cho‘lliklar, qumliklar, tabiiy maydon nomlari), *oykonim* (shahar, qishloq, mahalla nomlari), *ekklezonim* (masjit, cherkov, monastir nomlari), *nekronim* (mozor, qabriston, muqaddas qadamjolar nomlari) kabi bir qancha yo‘nalishlarga bo‘linadi.

3. *Kosmonimika* – onomastikaning kosmik fazoda joylashgan samoviy obyektlar nomlarini o‘rganuvchi sohasi;

4. *Zoonimika* – hayvonlarga qo‘yilgan nomlar tadqiqi bilan shug‘ullanuvchi soha;

5. *Etnonimika* – har qanday etnos (urug‘, qabila, elat, xalq, millat)ning nomini o‘rganuvchi nomshunoslik sohasi[3].

Keltirilgan har bir onim o‘zi nomlayotgan tushunchaning rang-barang xususiyatlariga asoslanishi, ifoda etishi mumkin. Bu borada antroponimika onomastik sathning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Tildagi atoqli otlar lingvistik va nolingvistik jihatdan ham, tuzilish jihatidan ham murakkabdir. Bu nomlar til lug‘atidagi murakkab leksik-semantik tizimlar, guruhlar yig‘indisidir.

Tadqiqotchilar atoqli otlarni o‘zaro farqli tiplarini tadqiq qiluvchi antroponimika, onomastikaning ilmiy sohalarini tarixiylik, zamonaviylik nuqtayi nazaridan nomlovchi terminlar sifatida *tarixiy onomastika, o‘zbek tarixiy nomshunosligi, o‘tmish nomshunosligi* kabilarni misol sifatida ko‘rsatadi. Har qanday tildagi onomastik birliklar bir davrning mahsuli emasligi, balki tilda qadimiyatdan tortib, shu kunga qadar yuzaga kelgan lisoniy hodisa ekanligini qayd etilib, o‘zbek onomastikasida onomastik birliklar tarixiylik davriy mansubligiga ko‘ra ikki katta guruhga bo‘lib tadqiq etilishini e’tirof etadi[4].

1.Tarixiy nomlar.

2.Yangi zamonaviy nomlar.

Shunga ko‘ra tarixiy nomlarni atash uchun tilshunoslikda quyidagi terminlardan foydalanilayotganligini aniqlagan. Tarkibida “tarixiy” so‘zi qatnashuvchi terminlar: tarixiy nomlar, tarixiy antroponimiya, tarixiy ismlar; tarkibida *“qadimgi”, “azaliy”* so‘zlari qatnashgan terminlar: qadimgi nomlar, qadimiy yahudiycha ismlar, azaliy nomlar, qadimiy yunoncha ismlar[5].

Atoqli otlar qanday jihatlarni yoki qaysi maqsadni ko‘zlab qo‘yilganligi shu nom etimologiyasi bilan tanish kishi uchun qiyinchilik tug‘dirmaydi. Ammo nom mansub bo‘lgan til va madaniyatga begona jamoa vakili uchun bu jarayon qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Shundan kelib chiqib, tadqiqotchilarning mazkur birliklarni tadqiq qilish uslubi ham har-xil. Prof. A.V.Superanskaya bu haqda: “Atoqli otlar tahlili va bayonini ma’lum klassifikatsiyalarsiz amalga oshirish mumkin emas. Chunki onomastik ishda u tadqiqotchining asosiy harakat programmasi bo‘lib xizmat qiladi... Ba’zan ishning asosi-shu tasnifning o‘zi bo‘lishi ham mumkin. Onomastik hodisalarning turli-tumanligi tufayli atoqli otlar ustida o‘tkaziladigan klassifikatsiya parametrlari ham turli xil bo‘lishi tabiiydir”[6], degan fikrlarini asos sifatida keltirishimiz mumkin.

O‘zbek onomastikasi tizimidagi yana bir muhim

[1] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2- жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 453.

[2] Авлакулов Я.И. Ўзбек тили ономастик бирликларининг лингвистик тадқиқи: Фил.фан.номз.дисс.автореф. – Тошкент, 2012. – В.7

[3] Бўтаярова Г.С. Ономастика – тилшуносликнинг муҳим йўналиши.// Eurasian journal of social sciences, philosophy and culture. https://doi.org/10.5281/zenodo.7592950 – B.77.RAS

[4] Nuriddinova R. O‘zbek onomastikasi terminlarining lisoniy tahlili: Filol. fan. nomz. ...diss. – Toshkent, 2005. – B. 9-10.

[5] Nuriddinova R. O‘zbek onomastikasi terminlarining lisoniy tahlili: Filol. fan. nomz. ...diss. – Toshkent, 2005. – B. 9-10.

[6] Суперанская А.В. Общая теория собственных имен. –Москва: Наука, 1973. –С.148.

qatlam toponimika bo‘lib, toponimlarga berilayotgan nomlar ham tarixiy ham zamonaviy qatlamlarni tasvirlashiga ko‘ra muhim va rang-barangdir. Toponim – geografik obyektning, joyning nomi; toponimiya – bu nomlarning yig‘indisi, toponimika – ana shu nomlarni nazariy va amaliy jihatdan o‘rganuvchi sohadir. Toponimikani ba’zan *toponimistika/ toponamastika* deb ham nomlashadi [1]. Toponimika – onomastikaning keng qamrovli sohasi bo‘lib o‘z ichida *oronim* (tog‘, cho‘qqi, dovon, tepalik nomlari), *gidronim* (okeanlar, daryolar, ko‘llar, kanallar nomlari), *xoronim* (cho‘lliklar, qumliklar, tabiiy maydon nomlari), *oykonim* (shahar, qishloq, mahalla nomlari), *ekklezonim* (masjit, cherkov, monastir nomlari), *nekronim* (mozor, qabriston, muqaddas qadamjolar nomlari), *polinimiya* yoki *urbanomiya* (shahar va qishloqlarning nomlari), *mikrotoponimiya* (kichik obyektlar: buloqlar, quduqlar, dalalar, o‘tloqlar, daraxtzorlar, jarlar, yo‘llar, ko‘priklar va hatto atoqli otga ega bo‘lgan ayrim daraxtlar nomlari. Bundan tashqari, turli xalq, urug‘-aymoq nomlari bilan atalgan toponimlar etnotoponimlar kabilarni ifodalaydi.

E.Begmatov “O‘zbek tili antroponimikasi”da toponimlarni nomlash qonuniyatlari borasida fikr yuritar ekan, shunday fikrlarni keltirib o‘tadi: “Qadimda kishilar tabiat hodisalarining sirini hali yaxshi bilmasdan ko‘zi tushgan narsalariga umumiy nom berishgan. Bunday nomlar turli obyektlarni, narsa-hodisalarni ajratish, farqlash uchun xizmat qilgan. Masalan, *suv* so‘zi ichimlik va boshqa har qanday suvni anglatgan. Ammo asta-sekin qadimiy odamlar atrofidagi oqadigan turfa suv obyektlariga duch kelishgan va ularning o‘zaro tafovutlarini sezishgach, alohida nom berishga ehtiyoj sezishgan (*daryo, ko‘l, irmoq, dengiz, buloq* va boshqalar). Bora-bora o‘z yashash hududlarini eslab qolish maqsadida suv havzalariga alohida nomlar qo‘yishgan va bu nomlar o‘ziga xos belgi vazifasini o‘tagan. Qadimdan mavjud bo‘lgan *Oqdaryo, Qoradaryo* kabi nomlar mana shunday paydo bo‘la boshlagan”[2]. Ko‘rinib turibdiki, nomlash insonlarning xos tafakkur tarzi, qaysi madaniyat va jamiyatga aloqadarligi bilan bevosita bog‘liq. U nom kishilarning ismi, joy nomi yoki biror-bir urug‘ nomi bo‘ladimi, albatta, milliy dunyoqarash asosida shakllanadi. Shunga ko‘ra tilning onomastik tizimi zmonaviy tilshunoslikning lingvomadaniyatshunoslik, etnolingvistika, sotsiolingvistika kabi sohalari bilan ham aloqadordir. Xususan, etnolingvistikaning asosiy obyekti sanalgan etnonimlar ham onomastik tizimdagi mustaqil sath hisoblanadi. *Etnonimlar* (urug‘, qabila, elat, xalq kabi jamoaviy birlashmalarning nomlari) ham aynan inson va uning hayotiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, juda qadimiy tushuncha hisoblanadi. Etnonimni ifodalanayotgan har bir so‘z uzoq o‘tmish, unda yashagan turli toifa insonlar jamoasi, ularning madaniyati, tili va dini haqida ma’lumot beradi.

Umuman olganda, onomastik tizim tilning muhim qismi bo‘lib, doimiy ravishda tadqiqotlarda yangilanishlarni, izlanish metodlarining murakkablashuvini talab qiladi. Shundan kelib chiqib, mazkur soha yangi tadqiqotlar va izlanishlar uchun hali muhim manba bo‘lib qolaveradi.

Rezyume. Mazkur maqola o‘zbek tili tizimining onomastik sathi borasidagi nazariy fikrlar tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, onomasiologiyaning bir qancha qismlari haqida ma’lumotlar berilgan. Antroponim, toponim, etnonim kabi onomastik sathlarning qisqacha ta’riflari berilib, shaxsiy munosabat va fikrlar berib o‘tilgan. Onomastikaning zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlari hisoblangan lingvokulturologiya, etnolingvistika, sotsiolingvistika kabi sohalari bilan ham aloqadorligi ta’kidlab o‘tilgan.

Resume. This article is dedicated to the analysis of theoretical perspectives on the onomastic level of the Uzbek language and provides information on certain sections of onomasiology. Brief definitions of onomastic levels, such as anthroponyms, toponyms, and ethnonyms, are given, as well as personal attitudes and opinions expressed. The connection of onomastics with modern directions in linguistics, such as linguoculturology, ethnolinguistics, and sociolinguistics, is also emphasized.

Резюме. Данная статья посвящена анализу теоретических взглядов на ономастический уровень узбекского языка, приведена информация о некоторых разделах ономасиологии. Даны краткие определения ономастических уровней, таких как антропонимы, топонимы, этнонимы, а также высказаны личные отношения и мнения. Подчеркнута также связь ономастики с современными направлениями языкознания, такими как лингвокультурология, этнолингвистика, социолингвистика.

[1] Каримов С.А., Бўриев С.Н. Ўзбек топонимикаси тараққиёт босқичида. – Тошкент: Фан, 2006.
[2] Begmatov E. O‘zbek tili antroponimikasi. –Toshkent: Fan, 2013. – B. 8.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 11-12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

FORS TILIDAGI OT SO'Z TURKUMI BORASIDA RUS TILSHUNOSLARINING QARASHLARI

Rahmatulloyev Ahtam A'zam o'g'li,
Termiz davlat universiteti
tojik filologiyasi va sharq tillari kafedrasi tayanch doktoranti

Badiiy asarlarning leksik tarkibini o'rganish va tahlil qilish til taraqqiyotining ma'lum davrlariga xos bo'lgan lisoniy jarayonlarni yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Til ilmida so'zlarni turkumlarga ajratish, o'zaro farqli va o'xshash jihatlarini aniqlash qadim davrlardan olimlarning e'tiborini tortgan. Xususan, fors tilidagi ot va sifat turkumiga oid so'zlarning leksik xususiyatlari, semantik tasnifi va mavzuiy guruhlanishi, derivatsion modellari borasidagi nazariy fikr va qarashlar rus sharqshunos olimlarning ishlarida ko'zga tashlanadi. Jumladan, T.D.Chxeidze, L.S.Peysikov, Y.A.Rubinchik, T.A.Chavchavadze, B.Yarzada[1] va boshqalarning tadqiqotlarida qo'shma so'zlarning xususiyatlari haqida ma'lumotlar kuzatiladi. Ammo ularda qo'shma so'zlarning tasnifi bir xil emas. Qarashlarda tafovutlar bilan birga hamohang fikrlar ham ko'zga tashlanadi.

Asosiy qism. Y.Rubinchik[2] va L.Peysikov[3] o'z tadqiqotlarida affiksatsiya (qo'shimchalar vositasida so'z yasash) fors tilida so'z yasalishining eng keng tarqalgan usullaridan biri ekanligini ta'kidlaydilar. Xususan, Y.Rubinchik o'zining "Fors tili grammatikasidan ocherklar" asarida fors tilida ot turkumiga oid qo'shma so'zlarni qismlar orasidagi ma'noviy munosabatga ko'ra ikki guruhga ajratadi:

1. Bog'lovchi turdagi otlashgan qo'shma so'zlar.
2. Determinativ (ya'ni ergashuvchi) turdagi otlashgan qo'shma so'zlar[4].

Shuningdek, Y.Rubinchik hozirgi adabiy fors tilining grammatik xususiyatlari tadqiqiga bag'ishlangan asarida ot turkumiga oid so'zlarga shunday ta'rif beradi: "Otlar o'zining semantik va grammatik belgilariga ko'ra leksik-grammatik sinflar va turkumlarga bo'linadi. Ularni, birinchidan, atoqli va turdosh otlarga, ikkinchidan, jonli va jonsiz otlarga, uchinchidan, aniq, mavhum va moddiy otlarga ajratish mumkin"[5]. Keltirilgan ta'rifdan ma'lum bo'ladiki, Y.Rubinchik qarashlari eronlik tilshunoslar qarashlari bilan hamohangdir.

Gruzin tadqiqotchisi T.D.Chxeidze fors tilidagi ot turkumidagi so'z yasalish hodisasini chuqur tadqiq etgan tilshunoslardan biri sanaladi. Uning tadqiqot ishida qo'shma so'zlar to'rt guruhga ajratiladi:

1. Bog'lovchili qo'shma so'zlar.
2. Takror qo'shma so'zlar.
3. Determinativ turdagi qo'shma so'zlar.
4. Posessiv qo'shma so'zlar[6].

Zamonaviy fors tili leksikasining tadqiqotchilaridan biri L.Peysikov qo'shma so'zlarni uch guruhga ajratgan:

1. Determinativ qo'shma so'zlar.
2. Kopulyativ qo'shma so'zlar.
3. Sintaktik tusdagi qo'shma so'z shakllari (ya'ni gap shaklidagi qo'shma so'zlar)[7].

Har ikki tasnifda ham ko'rinadiki, ot turkumiga oid qo'shma so'zlarni guruhlarga ajratishda qo'shma so'z qismlari orasidagi semantik va shakliy munosabat ham e'tiborga olingan. Shuningdek, termin qo'llashda farqlar ko'zga tashlanadi. Birinchi va ikkinchi guruh odatiy hisoblanadi, uchinchi guruh esa gaplardan shakllangan qo'shma so'zlarni o'z ichiga oladi.

[1] Чхеидзе Д.Т. Именное словообразование в персидском языке. Монография. – Тбилиси: Мецниереба, 1969. – 140 с; Пейсиков Л.С. Очерки по словообразованию персидского языка. Монография. – Москва: Изд-во Московского ун-та, 1973. – 198 с.; Рубинчик Ю.А. Грамматический очерк персидского языка / Рубинчик Ю.А. / Персидско-русский словарь. В двух томах, под редакцией Рубинчика Ю.А. Т.2. – Москва: Русский язык, 1985. – С.792-847; Чавчавадзе Т.А. Именное словообразование в новоперсидском языке. Монография. - Тбилиси: Мецниереба, 1981. – 375 с; Ярзада Б. Синтаксическая позиция и функции прилагательного в структуре предложения в персидском языке в сопоставлении с русским языком // Филология: научные исследования. – 2024. – № 11.

[2] Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. – М., 2001.

[3] Пейсиков Л.С. Очерки по словообразованию персидского языка. Изд. стереотип. – М.: Книжный дом Либроком, 2016. – С. 61.

[4] Рубинчик Ю.А. Грамматический очерк персидского языка. – М.: 1985. – С. 228.

[5] نقیب‌الله محمدی - میلاد صادقی مهرآبادی.. ساختار اسم در زبان فارسی. / دانشجویان زبان و ادبیات فارسی، دانشگاه قم. ص.۳۰۱.

[6] Чхеидзе Д.Т. Именное словообразование в персидском языке. Монография. – Тбилиси: Мецниереба, 1969. – С. 74.

[7] Пейсиков Л.С. Очерки по словообразованию персидского языка. Монография. – М.: Изд-во Московского ун-та, 1973. – С. 153.

T.A.Chavchavadze tomonidan fors tilidagi qo'shma so'zlar tahlil qilingan. Unda fors tilining tarixiy ma'lumotlari va sanskrit tilidagi qo'shma so'zlar tasnifi asosida fors tilidagi qo'shma so'zlar uchun yangi tasniflash tizimi taklif etiladi, ularning mukammal modellashtirilishi amalga oshiriladi, shuningdek, qo'shma (murakkab) so'zlarning morfologik xususiyatlari yoritiladi, kompozitsiya (qo'shma so'z yasalishi) jarayonida semantik omilning ishtiroki aniqlanadi[1].

G.Golevaning fikricha, fors tilida frazeologik birliklar tarkibida inson tana a'zosi nomlarini anglatuvchi otlar faol ishtirok etadi. Ular frazeologik birliklarda obrazli ramziy funksiya bajaradi. *Dast, del, sar, pā, češm* so'zlari frazeologik birliklar tarkibida ishtirok etuvchi eng sermahsullari sifatida ko'rsatiladi[2].

Ayrim tilshunoslarning tadqiqotlarida otlar morfem tarkibiga ko'ra ikki guruhga ajratiladi. Xususan, S.Yusuf otlarni sodda va qo'shma kabi guruhlarga bo'ladi[3]. Uning ishida otlarning takrorlash, juftlashish, transpozitsiya, leksikalizatsiya kabi so'z yasalish usullari bilan yasalgan turlari ham qo'shma ot sifatida talqin qilinadi.

B.Yarzadaning maqolasi fors tilidagi sifat so'z turkumiga oid so'zlarning gap tarkibidagi sintaktik pozitsiyasini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, unda sifatlarga xos funksional imkoniyatlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda, shuningdek, sifatlarning otga bo'lgan tobeligi, ulardagi prepozitsiya va postpozitsiya hodisalari, kontekstda namoyon bo'ladigan ma'nodagi o'zgarishlar o'rganiladi. Muallif sifatlarni semantik jihatdan tasniflashda eronlik tilshunos R.Vafoiyning nazariy qarashlariga tayanadi[4].

Qo'shma so'zlar fors tilida qadimiy tarixga ega. Xususan, rus tilshunosi O.Chunakovaning ko'rsatishicha, kopulyativ birliklarning paydo bo'lishi o'rta eroniy til davriga borib taqaladi. Buni tasdiqlash uchun faqatgina "Ardashir Popak o'g'li ishlari kitobi" (milodiy VI asr) asarida bunday juft sinonimik birikmalar **(**Masalan: späh ud gund – "qo'shinlar" (so'zma-so'z: "askar" va "otryad"), cer ud nibardag **–** "jangovar, urushqoq" (so'zma-so'z: "faol", "kuchli" va "jangovar"), mihr ud dosäram **–** "muhabbat" (so'zma-so'z: "do'stlik" va "muhabbat") **–** qariyb qirq marta uchraydi. Bunday an'anaviy formulalardan, ya'ni kopulyativ birikmalardan foydalanish pahlaviy tilidagi boshqa asarlarda ham qayd etilgan[5].

Fors tilidagi ot turkumi tilning eng qadimiy va asosiy leksik-morfologik qatlamlaridan biri hisoblanadi. Uning chuqur va tizimli o'rganilishi nafaqat tilshunoslik nazariyasining rivojlanishiga, balki fors tilining o'tmishi, hozirgi holati va istiqbollarini aniqlashga ham xizmat qiladi. O'zining mazmuniy boyligi, grammatik faoliyati va morfologik tuzilmasi bilan otlar fors tilining umumiy tuzilmasida markaziy o'rin egallaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, fors tilidagi otlar semantik va grammatik mezonlarga ko'ra murakkab va boy tizimni tashkil etadi.

Morfologik nuqtai nazardan, fors tilida otlar turli affikslar yordamida yasaladi, grammatik kategoriya sifatida jins, son, egalik, hol, nisbat (izofa) kabi shakllarda ifodalanadi. Ayniqsa, izofa konstruktsiyalari fors tiliga xos bo'lgan noyob grammatik hodisa bo'lib, otlar o'rtasida egalik va aniqlik munosabatlarini ifodalashda xizmat qiladi. Bu konstruktsiya boshqa tillarda kam uchraydigan sintaktik birlik sifatida tilshunoslik uchun alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi.

Tarixiy-lingvistik tahlil ot turkumining qadimgi fors, o'rta fors va hozirgi fors davrlarida qanday o'zgarishlarga uchraganini ko'rsatadi. Bu o'zgarishlar fonetik, morfologik va semantik jihatdan kuzatiladi va ular orqali tilning ichki rivojlanish mexanizmlari aniqlanadi. Shu jihatdan, fors tilidagi otlar Eroniy tillar oilasi doirasida ham qiyosiy o'rganish uchun boy empirik materialni taqdim etadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tishimiz mumkin, fors tilidagi ot turkumi bo'yicha olib borilgan ilmiy tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, otlar nafaqat nomlash funksiyasini bajaradi, balki u tilning strukturaviy, semantik va stilistik tizimida ham faol rol o'ynaydi. Ularning grammatik shakllanishi, morfologik o'zgaruvchanligi, izofa vositasida ifodalanadigan sintaktik bog'lanishlari, so'z yasash imkoniyatlari va tarixiy taraqqiyoti fors tilining umumiy rivojlanish jarayonida beqiyos ahamiyat kasb etadi. Ot turkumining mukammal o'rganilishi fors tilshunosligining nazariy va amaliy masalalarini hal etishda, ayniqsa grammatik tipologiya, so'z yasash mexanizmlari va tarjima nazariyasida muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Resume: This article presents the opinions of Russian linguists about the noun in Persian.

Резюме: В данной статье представлены мнения российских лингвистов об имени существительном в персидском языке.

[1] *Чавчавадзе Т.А. Именное словосложение в персидском языке и проблема сложного слова*. Дисс.док.филол.наук. – Тбилиси, 1986. – 374 с.

[2] Голева Г.С. Фразеология современного персидского языка. – М.: Муравей, 2006. –Б.33. (225)

[3] Yousef S. Persian. A comprehensive Grammar. – Chicago: Routledge, 2018. – P. 25-26. (374)

[4] Ярзада Б. Синтаксическая позиция и функции прилагательного в структуре предложения в персидском языке в сопоставлении с русским языком // Филология:научные исследования. – 2024. – № 11.

[5] Чунакова О.М. Книга деяний Ардашира сына Папака. – М., 1987. – 169 с.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, та'lim. 2025; 11-12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

NEMIS TILIDAGI "EIGENTLICH" MODAL PARTIKELINING SO'ROQ GAPLARDAGI SEMANTIK IMKONIYATLARI HAMDA TARJIMA XUSUSIYATLARI

Omanov Shuhrat G'aniyevich
Qarshi davlat universiteti
E-Mail: omanov.shuhrat@mail.ru

Jahon tilshunosligida modallik kategoriyasini lingvistik asosda chuqurroq o'rganish kengaymoqda, ayniqsa, bu tilga yangicha yondashuv asosida qarala boshlaganidan so'ng yuqori pog'onaga ko'tarildi. Modallik kognitiv lingvistikaning asosiy o'rganish obyektiga aylandi;. Nemis tilida modallik kategoriyasini nemis tilida modal fe'llar, fe'lning kelasi zamon shakli, modallashgan fe'llar, modal so'zlar, modal yuklamalar, modal ravishlar, ayrim predloglarning modal ma'nolari ifodalab beradi. Bu esa ularni yanada chuqurroq hamda chog'ishtirma tadqiq etishning dolzarbligini belgilaydi.

Dunyo tilshunosligida nemis tilidagi modalpartikellar bo'yicha jiddiy tadqiqotlarni rus germanisti A.Krivonosov va H.Weydt boshlab berdi[1]. Mana shu davrdan boshlab nemis tilidagi modal partikellarni o'rganish keng quloch yoydi, germanist olimlar tomonidan qanchalik keng ko'lamda o'rganilganligini bu partikellar guruhini nomlashda ishlatilgan atamalarning o'zi ham ko'rsatib turadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI. Modal partikellar eng ko'p qo'llanadigan gap turi mazkur gaplar bo'lib, ifodalaydigan ma'nosi haqida H.Weydt, G.Helbig[2], M.Thurmair[3], U.Engel[4] va boshqalarning tadqiqotlarida mufassil yoritilgan. U ishlatildimi, demak, shubhalanishga o'rin qolmaydi. Mutlaqo tushunarli va hammaga ravshan bo'lib turgan bu faktga bahslashib o'tirmasdan qo'shilishi talab qilinadi. Modal partikellarning rus tilida ifodalanishini o'rgangan tadqiqotchi S.V.Orlova ularning muqobil variantlarini tahlil qilgan[5].

Nemis tilidagi "eigentlich" modal partikeli so'roq gaplarning har ikkala turida qatnashib so'zlovchining gap mazmuniga qiziqishini ifodalaydi va ko'pincha suhbat mavzusini boshqa yo'nalishga buradi. Yana so'zlovchi aytilayotgan mazmunni aniqlashtirib bilib olish uchun qo'llaniladi. Bunda o'sha mazmun asosini bilishga harakat qilinadi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Ishning maykur qismida bevosita tahlil jarayoniga o'tib, asliyat matnidagi "eigentlich" ifodalayotgan ma'noni tarjima tilida qaysi vositalar qayta tiklab berayotganini ko'rib chiqamiz. "Alte Liebe" romani tarjimasiga murojaat qilib, unda bu modal partikel qanday vositalar bilan berilayotganini tahlil qilamiz.

Warum muss sie **eigentlich** jedes Mal heiraten?
Wie spiessig ist das **eigentlich**?
Nega endi qayta-qayta turmushga chiqishi kerak?
Shunchaligam kaltafaxm bo'ladimi odam?
(Alte Liebe)

Harri qizining yana turmushga chiqayotgani eshitib, jahli chiqadi. Ayoli qizining o'ttizdan endigina oshganligi, hali turmushi joyiga tushib ketishini aytganda yana jahli ortadi. Uning yoshi allaqachon qirqning tagiga borib qolgani, bu safargisiyam ham axmoqchilik ekanligini aytadi. Bu vaziyatdagi savol so'zlovchining suhbat jarayoniga yangi yo'nalish kiritishi uchun qo'llanilyapti. Harri "eigentlich" bilan o'zi aytayotgan narsaga e'tibor qaratyapti. Tarjima asliyatdagi mazmunni ifodalay olgan.

"Sind wir **eigentlich** glücklich?"
Biz **haqiqatdan** bahtiyormizmi? *(Alte Liebe)*

Bu misolda modal partikel ma'nosi to'g'ri berilgan.

„Hör auf mit Rita. Kommen die **eigentlich** mit nach Leipzig? "
Rita haq, gapirishni bas qil.

[1] Weydt H. Abtönungspartikel. Die deutschen Modalpartikeln und ihre fransözischen Entsprechungen. Bad Homburg/Berlin/Zürich: 1969.
[2] Helbig G. Lexikon der deutschen Partikeln. VEB Verlag Enzyklopadie Leipzig: 1988.
[3] Thurmair M. Modalpartikeln und ihre Kombination. Tübingen: Max Hueber Verlag 1989.
[4] Engel U. Deutsche Grammatik – Neuebearbeitung-. München: Iudicium Verlag, 2004.
[5] Орлова С.В. Сопоставительный анализ семантики немецких частиц denn, doch и ja их русских переводных "эквивалентов". Авторефарат.к.ф.н. Москва: 2012.

Aytgancha, ular Laypsigga birga borishadimi? *(Alte Liebe)*

Misoldagi modal partikel tarjimasini tarjimada beish uchun kirish so‘z “aytgancha”dan foydalanilgan. Bu kirish so‘z ma’nosi “eigentlich” modal partikelining ma’nosini ifodalash uchun munosib ekvivalaent bo‘la oladi, chunki bu so‘z o‘zbek tilida suhbat mavzusiga kutilmaganda o‘zgartirish kiritish yoki mavzuni boshqa tomonga yo‘naltirish uchun xizmat qilib, so‘roq gaplardan oldin keladi.

“Mit ihrem Arthur. Was macht der **eigentlich**?”
Ho‘p, mayli Arturini. U **o‘zi** nima ish qiladi?
(Alte Liebe)

Lore dugonasi Haydi o‘ziga yangi xushtor topib uni hammaga ko‘rsatib yurgani haqida Harriga aytganida, Harri Artur nima ish bilan shug‘ullanishiga qiziqib qoldi. Tarjimada ham bu mazmun “o‘zi” yordamida qayta berilgan.

“Wer sagt **egentlich**, was als Unkraut zu verstehen ist?”
Darvoqe, begona o‘tlarga nimalar kiradi?
(*Alte Liebe)*

Harri bilan Lore suhbatlashib o‘tirib, bog‘ida o‘sib ketayotgan begona o‘tlar haqida gap ketganda Lore suhbatga yangi mavzu kiritadi, bu begona o‘t deganda nimalarni tushunish kerakligini kim aytganligi haqida. Tarjimaga e’tibor berilsa, gap asliyatdagi ma’nodan ancha farq qiladi. “**Eigentlich**” tarjimasi ham biroz boshqacha, ya’ni og‘zaki nutq uchun ancha begona so‘z – “**darvoqe**” tanlangan, bu so‘z ham ifodalaydigan ma’no suhbatga yangi mavzu kiritish, ammo u ko‘pincha kitobiy uslubga xos.

“Warum fahren wir **eigentlich** nie mal so richtig in Urlaub?”
Menga qara, nega biz dam olishga bormaymiz **o‘zi**? *(Alte Liebe)*

Asliyatdagi matnda huddi boshqa ko‘p misollrada uchrayotganidek, suhbat yo‘nalishini boshqa tomonga burish ma’nosi ifodalanaib, tarjimada munosib variant tanlangan.

Ist sie **eigentlich** verliebt in ihrem Frank
U **haqiqatdan ham** Frankni sevarmikan?
(*Alte Liebe)*

Misolda qo‘llangan modal partikel tarjimada asliyatdagi ma’noni ifodalagan, “haqiqatdan ham” ravish va yuklamada hosil bo‘lga birikma.

“Warum hast du **eigentlich** so geheult?
Die ganze Zeit hast du geheult.
So romantisch war’s doch nun nicht.”
Sen esa rosa yig‘lading. Nega?
To‘ydan to‘lqinlanib ketdingmi deyman?
(Alte Liebe)

Misolni tahlil qilishda boshqa so‘zlar yoki umuman gap tarjimasida qoldirilgan o‘rinlar haqida emas, faqat “**eigentlich**” qatnashgan gap tarjimasiga e’tibor qilsak gap shakli o‘zgarib, mazmuni qandaydir darajada saqlangan bo‘lsa ham, asliyatdagi emotsionallik yo‘qolgan, bu partikelni qo‘llashdan maqsad gap mamuniniga modallik olib kirish bo‘lgan, tarjima esa quruq savoldangina iborat bo‘lib qolgan.

Quyida “Nackt unter dem Wölfen“ romanidan olingan misollar tahlili bilan yana qanaqa imkoiyatlar mavjudligini ko‘rishimiz mumkin.

“Er öffnete die Augen. Hatte er **eigentlich** kühl und klar gehandelt?

Er war dem Trieb des Herzens gefolgt und hatte sich von ihm überrumpeln lassen“.

Hyofel ko‘zlarini ochdi. Aniq va oqilona ish qildimi u o‘zi?

U qalb buyrug‘iga buysundi. Yurak aqldan kuchliroqmikan?

His etasan – fikrlaysan, fikrlaysan – his etasan.
(Nackt unter dem Wölfen)

Misolda “o‘zi” so‘zi qo‘llanilib, asliyatdagi ma’no ochib berilgan deyish mumkin, chunki mana shu gapda anglatayotgan ma’no asliyatdagi modal partikelning mazmuniga teng.

”Wie stellst du dir das **eigentlich** vor?” entgegnete Hortense heftig.

Sen **o‘zi** nimalarni hayol qilyapsan? – keskin e’tiroz bildirdi Hortenziya. *(Nackt unter dem Wölfen)*

Bu misolda ham tarjimon **o‘zi s**o‘zini qo‘llagan. Asliyatdagi ma’no sodda va lo‘nda qilib qayta tiklangan.

“ verrückte Gedanken durchgeisterten ihn.
Du bist doch im Kozentrationslager! Was ist das **eigentlich**?
Plötzlich entdeckte er, dass er die wirkliche Welt.”

“Miyasida telbanamo xayollar jonladi. Axir sen konslagerdasan-ku!
Bu nima degani? Behosdanu, haqiqiy olamni, tashqaridagi hayotni unutganligini sezdi.”
(Nackt unter dem Wölfen)

Tarjimada modal partikel orqali ifodalangan ma’no berilmasdan ketilgan.

– Wo es **eigentlich** sei, wollte Pribula wissen.
U o‘zi qaerda? - qiziqsindi Pribula.

Konslagerda yashirib qo‘yilgan bolani rahbariyat, nazoratchilar qattiq qidirishdi, hammayoqni ag‘dar-to‘ntar qilishadi, ammo bolani topisholmaydi, qamoqxonada tuzilgan maxfiy tashkilot a’zolari o‘zaro suhbat vaqtida bu haqda gaplashishadi, a’zolardan biri Pribula bolani yashirilgan joyini bilgisi kelib so‘raydi va qiziqishini ifodalash uchun “**eigentlich”** modal partikelidan foydalanadi, so‘roq bilan birga modallik ham ifodalanib mazmun boyitilgan va emotsionallik aks ettirilgan.

Bu misol umuman ish davomidagi oxirgisi bo‘lgani sababli biroz kengroq to‘xtalib o‘tish lozim topildi. Bir holat juda qiziqarli bo‘lib kishini e’tiborini tortadi, “denn” va “eigentlich” qo‘llanilgan misollar tahlili davomida ko‘p holatlarda tarjimonlar “o‘zi” so‘zidan foydalangan va bu asliyatda modal partikellar ifodalagan ma’noni qayta tiklab bera olgan. Huddi nemis tilidagi modal partikellar turli gaplar va vaziyatlarda turlicha ma’no ifodalaganidek o‘zbek tilidagi “o‘zi” so‘zi ham har-xil vaziyatlarda, gap turlarida, gapning qaysi qismida kelishiga hamda talaffuzda intonatsiyaga qarab turli ma’nolar anglata oladi. Yuqoridagi misolning tarjima qismida qo‘llangan “o‘zi” so‘zi ifodalagan ma’no haqida aytib o‘tildi. E’tibor qilsak bu so‘z gap o‘rtasida turibdi. Bu bilan so‘zlovchi tinglovchiga qattiy javob berish talabini emas, balki yumshoq munosabatni ifodalayapti.

Umuman, bu roman tarjimasi asliyat bilan solishtirilganda yigirmaga yaqin misolga duch kelindi va “Nackt unter dem Wölfen” romani tarjimoni “eigentlich” modal partikelini o‘zbek tilida ifodalash uchun “o‘zi” so‘zidan deyarli hamma o‘rinlarda foydalangan.

Xulosa qilish mumkinki, badiiy asarlar tarjimasini yaxshilash, tarjimonlarga, umuman til o‘rganuvchilarga asosli ilmiy manbalarni yaratib berish uchun o‘zbek tili bilan boshqa tillarni, shu jumladan, nemis tili bilan ham keng miqyosda qiyosiy tilshunoslik tadqiqotlarini o‘tkazib, asosli ilmiy xulosalar ishlab chiqish zarur. Bu xulosalarga tayanilgan holda amalga oshirilgan badiiy asarlar tarjimalarida estetik, stilistik me’yorlar bilan birgalikda, eng muhimi lingvistik me’yorlarni berilishini ham tahlil qilib chiqish zaruriydir.

Resume: This article analyzes the general theoretical aspects of the modal particle “eigentlich” in German, discusses its expression, translation, and stylistic features in Uzbek, and substantiates the theoretical ideas presented with examples.

Keywords: translation; modality; modal particle; comparative analysis; methodological aspects; pragmatic process; emotionality.

Резюме: В данной статье анализируются общие теоретические аспекты модальной частицы «eigentlich» в немецком языке, рассматриваются её выражение, перевод и стилистические особенности в узбекском языке, а также приводятся примеры, подтверждающие представленные теоретические идеи.

Ключевые слова: перевод; модальность; модальная частица; сравнительный анализ; методологические аспекты; прагматический процесс; эмоциональность.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 11-12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

NONVERBAL MEANS IN VIRTUAL TEXTS

Gafurova Nigora Sa'dullayevna
Assistant at Karshi State Technical University

Introduction. In contemporary communication, the rise of digital technologies and social media has fundamentally transformed the way people interact. While traditional face-to-face communication relies heavily on both verbal and nonverbal cues, computer-mediated communication (CMC) presents unique challenges and opportunities for expressing meaning. Nonverbal communication, which includes gestures, facial expressions, tone of voice, posture, and spatial behavior, plays a crucial role in conveying emotions, attitudes, and social relationships in interpersonal interactions. Studies suggest that 60-70% of human communication occurs through nonverbal channels, highlighting the importance of understanding these mechanisms in any communicative context.

In virtual environments, however, these nonverbal cues are largely absent, prompting users to adapt and develop alternative forms of expression. Written analogs such as emojis, emoticons, capitalization, punctuation, and onomatopoeic words serve as symbolic substitutes, allowing communicators to convey affective and pragmatic meanings. These digital representations of nonverbal behavior not only enhance the clarity of the message but also contribute to the richness of interaction in online discourse.[1]

This article examines the theoretical foundations and practical applications of nonverbal communication in virtual texts. It investigates how traditional nonverbal cues are transformed into textual forms, analyzes their semiotic and cultural dimensions, and explores their role in facilitating effective online communication. By studying these adaptations, the research aims to contribute to a deeper understanding of digital pragmatics, highlighting the ways in which emotions, intentions, and social cues are communicated in the evolving landscape of virtual interaction. For many years, linguists studying the phenomenon of speech focused mainly on words, that is, on verbal means of communication. However, in recent years, linguists have acknowledged the necessity of studying the nonverbal components of speech as well. Communication is not limited to words alone; it also includes gestures, facial expressions, body movements, eye contact, tone of voice, and other nonverbal cues.

In human interaction, nonverbal means play a crucial role in constructing meaning. Verbal speech does not always fully express the intended meaning; therefore, nonverbal means serve to fill semantic gaps during communication. In everyday speech, these are often referred to as gestures, while in scientific literature, they are treated as part of a broader system of nonverbal communication[2].

Literature Review. Nonverbal communication has long been recognized as an essential component of human interaction, complementing and often enhancing verbal communication. Early studies by Ekman and Friesen demonstrated that facial expressions, gestures, and posture serve as universal channels for conveying emotions, while Hall emphasized the importance of proxemics-the study of spatial distance-in social interactions. Research by Knapp and Hall further revealed that approximately 60-70% of interpersonal communication occurs nonverbally, highlighting the critical role of gestures, facial expressions, eye contact, and tone in conveying meaning beyond words[3].

In the context of computer-mediated communication, the absence of face-to-face interaction introduces challenges in expressing nonverbal cues. Walther emphasized that in online interactions, communicators develop alternative strategies to replicate nonverbal effects, giving rise to what he called "social information processing" theory. Emojis, emoticons, capitalization, punctuation, and onomatopoeic words function as textual analogs of nonverbal cues, enabling users to express emotions, attitudes, and pragmatic intentions in digital discourse.

[1] Derks D., Fischer A. H. & Bos A. E. R. (2008). The role of emotion in computer-mediated communication: A review. Computers in Human Behavior, 24(3), 766–785.

[2] Knapp M. L., Hall J. A., & Horgan T. G. (2014). Nonverbal communication in human interaction (8th ed.)Wadsworth.

[3] G'afurova N.S. Ingliz tili matnlarida apostrof (') tinish belgisining ishlatilishi. Innovative Development in Educational Activities. 8 (Apr. 2023) 281–286.

Recent studies have also examined the semiotic and cultural dimensions of virtual nonverbal communication. Danesi argues that emojis act as a semiotic system with cultural nuances, where interpretation depends on social context and shared norms. Similarly, Ge and Herring emphasize that digital nonverbal cues are often intentionally constructed, contrasting with the spontaneous nature of face-to-face nonverbal behavior. This intentionality affects how emotions and attitudes are perceived, demonstrating the complex interplay between linguistic and nonverbal elements in online communication[1].

Moreover, researchers have highlighted the pragmatic function of digital nonverbal cues. Emoticons, for instance, serve not only to express emotions but also to regulate conversation, signal irony or sarcasm, and mitigate potential misunderstandings. Capitalization, repeated punctuation, and text-based gestures act as additional markers of emphasis, mood, and social stance, illustrating the adaptive strategies users employ to overcome the limitations of text-only communication.

Research Methodology. This study employs a qualitative approach to analyze nonverbal communication in virtual texts, focusing on emojis, emoticons, punctuation, capitalization, and onomatopoeic words as textual equivalents of face-to-face nonverbal cues. A content analysis was conducted, coding and categorizing nonverbal cues by their pragmatic functions, such as expressing emotions, irony, emphasis, or regulating interaction. Reliability was ensured through pattern analysis and peer review, while validity was grounded in established theories of nonverbal communication and digital pragmatics. All data were anonymized to maintain ethical standards.

Analysis and Results. Nonverbal means are signs that express a person's emotional state, attitude, intentions, or social status. Combined with verbal language, they enrich communication and ensure that information is delivered more completely. Nonverbal communication represents a multi-level semiotic system that reflects human emotions, intentions, and social identity[2]. Together with verbal elements, it determines the pragmatic effectiveness of communication.

Types of Nonverbal Means:

Kinesics (movements) – gestures, facial expressions, body movements.

Gestures – movements of the hands, head, or body that express meaning. For example, bowing one's head may signal respect, while nodding may indicate agreement. Facial expressions – movements of facial muscles that reflect emotions such as anger, joy, surprise, or sadness.

Body posture – conveys internal attitudes; leaning back may indicate indifference, while leaning forward may express interest.

Proxemics (spatial distance) – the physical distance between interlocutors and their spatial orientation. For example, standing very close can suggest intimacy or friendship, whereas maintaining distance can signal formality or detachment[3].

Paralinguistics (vocal features) – intonation, pitch, tone, and pauses. These do not change the literal meaning of words but add emotional coloring. For instance, the word "yes" can express agreement, sarcasm, or doubt depending on the tone.

Tactile communication (touch) – physical contact such as handshakes, hugs, or pats on the back.

Although these elements are not part of the linguistic system itself, they directly participate in meaning construction. Therefore, they are sometimes referred to as "extralinguistic factors."

Nonverbal means allow individuals to express feelings, attitudes, moods, and social positions. They are essential in conveying meanings that are difficult to articulate verbally. In linguistic studies, these means are regarded as nonlinguistic yet communicatively significant tools. They enrich the communicative process, reinforce verbal meaning, and help reveal the speaker's emotional state.

One key characteristic of nonverbal communication is that it often occurs involuntarily, unlike verbal communication, which is typically deliberate. For example, when we suddenly feel pain and exclaim "ouch," it is a spontaneous response. Verbal expressions are consciously produced, while nonverbal cues often emerge subconsciously or instinctively. Verbal units possess clear semantic meaning and are governed by linguistic rules, whereas nonverbal means do not follow fixed grammatical structures. They are context-dependent and may carry different meanings in different situations. For instance, winking can have multiple interpretations - it may express affection in one context but sarcasm in another. This demonstrates that nonverbal communication cannot

[1] Knapp M. L., Hall J. A. & Horgan T. G. (2014). Nonverbal communication in human interaction (8th ed.)Wadsworth.

[2] G'afurova N.S. Ingliz tili matnlarida apostrof (') tinish belgisining ishlatilishi. Innovative Development in Educational Activities. 8 (Apr. 2023) 281–286.

[3] G'afurova N.S. (2025). Theory of metaphor and visual-expressive means as an integral component of the language. Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations, 1(2), 9–11.

be regarded as a universal semantic system; rather, it must be studied as a culture-specific semiotic system[1].

Unlike verbal language, nonverbal communication does not possess a grammatical framework but instead follows socially established semiotic conventions. Its linguistic characteristics are connotative rather than denotative, expressing emotional, social, and psychological meanings.

Some researchers suggest that nonverbal communication traces back to ancient forms of writing, such as pictographs, ideograms, and iconic symbols. However, expressing nonverbal communication in virtual texts is more complex.

Since real nonverbal cues are absent in digital environments, social media users rely on text-based substitutes, such as:

1. Onomatopoeic words (e.g., “haha,” “hmm,” “hihi”)
2. Capitalized words (e.g., “WHAT?”)
3. Emoticons (😊 😢 😂 – representing emotions with facial expressions)
4. Pictograms or emoji gestures (e.g., 👍👏✌)
5. Punctuation marks (e.g., “What???!!!”).

These serve as written equivalents of nonverbal means in virtual communication. However, there is a clear difference between face-to-face and virtual communication. In face-to-face interaction, a person smiles or frowns naturally and involuntarily, while in virtual contexts, the speaker intentionally uses symbols or emojis to simulate these expressions.

Therefore, emotional expressions in virtual communication are deliberate and conscious, rather than spontaneous and natural.

Conclusion. This study demonstrates that nonverbal communication plays a crucial role in virtual texts, compensating for the absence of physical gestures, facial expressions, and vocal cues in online interactions. Emojis, emoticons, punctuation, capitalization, and onomatopoeic words act as functional equivalents of face-to-face nonverbal behaviors, allowing users to express emotions, signal attitudes, emphasize messages, and regulate interaction. The analysis revealed that virtual nonverbal cues are often deliberate, context-dependent, and multifunctional, reflecting both emotional states and pragmatic intentions. Informal online communication is richer in expressive cues, whereas formal exchanges favor structured textual signals such as capitalization and punctuation. Overall, digital nonverbal cues enhance the pragmatic effectiveness of online communication, ensuring that meaning and interpersonal intent are transmitted more clearly.

Rezyume. Ushbu maqolada virtual matnlarda noverbal kommunikatsiyaning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Unda imo-ishora, mimika, ohang kabi an’anaviy noverbal belgilar kompyuter vositasidagi muloqotda matn shakliga - emoji, emotsiya belgilari, tinish belgisi va harflarning katta-kichik shakllariga - qanday ko‘chirilishi o‘rganiladi. Tadqiqotda shuningdek, real muloqotda tabiiy tarzda namoyon bo‘ladigan noverbal vositalar virtual muloqotda ongli ravishda qo‘llanilishi ta’kidlanadi. Maqola pragmatika va sotsiolingvistika yo‘nalishlariga hissa qo‘shib, internet muloqotidagi noverbal vositalarning semantik va kommunikativ ahamiyatini ochib beradi**.**

Резюме. В статье рассматриваются теоретические и прагматические основы невербальной коммуникации в виртуальных текстах. Автор анализирует, как традиционные невербальные элементы-жесты, мимика, интонация — трансформируются в текстовые формы при компьютерно-опосредованном общении, такие как эмодзи, смайлы, знаки препинания и использование заглавных букв. Отмечается, что если в очном общении невербальные сигналы возникают спонтанно, то в виртуальном пространстве они применяются осознанно для выражения эмоций, иронии или акцента. Работа вносит вклад в развитие прагматики и социолингвистики, раскрывая семиотическую ценность невербальных средств в онлайн-дискурсе.

Resume. This article explores the theoretical and pragmatic aspects of nonverbal communication in virtual texts. It examines how gestures, facial expressions, and tone-traditional features of nonverbal behavior-are transformed into textual equivalents such as emojis, emoticons, punctuation, and capitalization in computer-mediated communication. The study emphasizes that while nonverbal signals in face-to-face interaction often appear unconsciously, in virtual discourse they are used intentionally to express emotional tone, irony, or emphasis. The paper contributes to the development of pragmatics and sociolinguistics by analyzing the semiotic and communicative value of nonverbal cues in online environments.

[1] G‘afurova N.S.(2023). Ijtimoi y tarmoqlar punktuatsiyasining pragmatika. Farg‘ona davlat universiteti,(6), 138.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 11-12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

MUALLIFLIK LEKSIKOGRAFIYASINING RIVOJLANISHI VA TARAQQIYOT YO'LI

Xolmuxamedov B.F.
SamDU dotsenti.

Bir ijodkor tili lug'atini yaratish bo'yicha faol ishlar turli milliy lug'atlarning davrlarini nazarda tutadi: ingliz, amerika, nemis, italyan, fransuz, shved, polyak, serb, bolgar va boshqalar. XVIII-XX asrlarda mualliflik leksikografiyasi rivojlandi. Bu sohaning asosiy vazifasi leksikografiyaning leksikologiya, stilistika, til tarixi va boshqa sohadagi lingvistik tadqiqotlar uchun ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash, tarixiy, etimologik, chastotali va boshqa ko'plab lug'atlarni tuzishdan iborat edi.

T.X.Aglamov, O.Sh.Xodiyevalarning ta'kidlashicha, mualliflik leksikografiyasi dunyosida ingliz tili eng uzoq tarixga ega: birinchi ma'lumotnomalar bu yerda XVI asrning o'rtalarida paydo bo'lgan, keyin taniqli yozuvchilarning asarlari uchun lug'atlar tuzish tizimli tus olgan. Hisob-kitoblariga ko'ra, 2000-yilga kelib ingliz (ingliz va amerika) leksikografiyasida 70 dan ortiq yozuvchi va shoirlarning asarlari uchun 300 dan ortiq lug'atlar yaratilgan bo'lib, ulardan kamida 100 tasi Shekspir asarlari lug'atidir[1]. Shunday bo'lsa-da, mualliflarning fikriga ko'ra, bunday lug'atlarning dastlabkisi sharqda yaratilgan. Bunga misol sifatida Mahmul Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarini keltirish mumkin. Mazkur lug'at mualliflik leksikografiyasining ilk namunalari sifatida e'tirof etilishga loyiq.

Mualliflik leksikasini tadqiq etishdan bir qancha maqsadlar bo'lib, bunday leksikani o'rganish qator afzalliklarga ega.

1. Muallifning uslubi va individual ijodkorlik xususiyatlarini tushunish. Muallifning o'ziga xos uslubi va idiostilini yaratishda mualliflik leksikasi – muallifning so'z boyligi muhim unsur hisoblanadi. Mualliflik leksikasini o'rganish so'zlardan foydalanish va matnlarni yaratishda muallifning xususiyatlari va afzalliklarini to'g'ri tahlil qilish imkonini beradi. Bu o'quvchiga yozuvchi asarlarini chuqurroq o'rganishga, uning individualligini baholash va muallif leksikasi qimmatini belgilashga yordam beradi.

2. So'z boyligini oshirish. Mualliflik leksikasini (muayyan yoki bir necha muallifning so'z boyligini o'rganish) foydalanuvchi/o'quvchi so'z boyligini oshirish va nutqni boyitishga asos bo'ladi. Chunki ijodkordan chastotasi yuqori bo'lmagan, kundalik muloqotda tez-tez ishlatilmaydigan noyob so'z va iboralardan foydalanishadi. Bunday leksik qatlamni o'rganish nutqni boyitish, turli xil va ifodali iboralarni qo'llashga zamin yaratadi.

3. Matnlarni tahlil qilish, izohlash va interpretatsiya. Mualliflik leksikasi – ijodkor lug'at boyligini o'rganish muallif matnlarini yaxshiroq tushunish va izohlashga yordam beradi. Muallifning so'z va iboralarni qo'llash xususiyatlarini bilish ijodkor maqsadi, niyatini tushunishga, matnni chuqurroq his etishga, mazmunini ochishga yordam beradi.

4. Adabiyotshunoslikka oid tadqiqotlar. Mualliflik leksikasini o'rganish adabiy tadqiqotning muhim qismidir. Muallif ijodiga oid asarlar tili leksik xususiyatlarini tahlil qilish qiyosiy tadqiqotlar o'tkazish, qiyoslanayotgan obyektlardagi umumiy an'analarni aniqlash, shuningdek, uning uslubini boshqa mualliflar va adabiy oqimlar bilan solishtirishning qulay usulidir.

Demak, mualliflik leksikasi – muayyan ijodkor so'z boyligini o'rganish, muallif ijodini chuqurroq tushunish, tahlil qilish va baholashga, o'quvchi yoki tadqiqotchining adabiyot sohasidagi bilim va ko'nikmalarini kengaytirishga, yozma va og'zaki lisoniy malaka va ko'nikmalarini rivojlantirishga asos bo'ladi.

Muallif leksikografiyasining rivojlanishi va taraqqiyot yo'li o'ziga xos bo'lib, bir necha bosqichlarni bosib o'tdi. Mazkur rivojlanish bosqichlarining har biri ushbu sohaning rivojlanishiga hissa qo'shdi. Muallif leksikografiyasi rivojlanishining asosiy bosqichlarini quyidagicha ajratamiz:

1. Ilk mualliflik lug'atlari. Muallif leksikografiyasi rivojining dastlabki davrida mualliflar o'z asarlarida qo'llanilgan so'z va iboralarning izoh va talqinlarini o'z ichiga olgan lug'atlar yaratishga kirishdilar. Ushbu lug'atlar muayyan matnlarni tushunish va tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, o'quvchiga muallif maqsadi, g'oyasi va qarashlari, niyatini yaxshiroq tushunishga yordam bergan.

[1] Агламов Т.Х., Ходиева О.Ш. История создания авторской лексикографии // https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12852_1_3257F474EC06AD109BEB1507C7ADCCD41B14D0CB.pdf (Murojaat sanasi: 31.08.2023).

2. Leksikografik usullarning rivojlanishi. Vaqt o‘tishi bilan muallif leksikografiyasi leksikografik usul va tamoyillardan foydalangan holda mustaqil soha sifatida rivojlana boshladi. Bunga lug‘atni tizimlashtirish, tasniflash, lug‘at yaratish, illyustrativ misollardan foydalanish, lug‘atlardan foydalanishda qulay va informativlikni oshirish imkonini beradigan boshqa usullar kiradi.

3. Kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. Kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi bilan mualliflik leksikografiyasi yangi imkoniyatlarga ega bo‘ldi. Kompyuter dasturlari va ma’lumotlar bazalari mualliflarga qulay, foydalanish oson bo‘lgan elektron lug‘atlarni yaratishga imkon berdi. Shuningdek, kompyuter texnologiyalari ijodkorlarga mualliflik leksikasini chuqur tahlil qilish va o‘rganish imkonini berdi.

4. Interaktivlik va hamkorlik. Zamonaviy mualliflik leksikografiyasi yanada interaktiv bo‘lib, mualliflar va kitobxonlar o‘rtasidagi hamkorlikdagi ishlarni o‘z ichiga oladi. Mualliflar o‘quvchilarning fikr-mulohazalarini olishi, o‘z lug‘atlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishi, mualliflarning lug‘atlari muhokama qilinadigan va tahlil qilinadigan onlayn jamiyatlar (guruhlar) ni yaratishi mumkin.

5. Ko‘p tilli mualliflik lug‘atlari. Zamonaviy mualliflik leksikografiyasi o‘quvchiga turli tillardagi mualliflik leksikasini o‘rganish va tushunishga yordam beruvchi ko‘p tilli lug‘atlar ishlab chiqishni ham o‘z ichiga oladi. Bu, ayniqsa, turli tillardagi mualliflarning matnlari bilan ishlaydigan tarjimon va tadqiqotchilar uchun foydali manba bo‘lib xizmat qiladi.

Ta’kidlash joizki, mualliflik leksikografiyasining rivojlanishi davom etmoqda, uslub va vositalarni doimiy ravishda takomillashtirishni, shuningdek, yangi texnologiyalarga va o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashish asosiy an’anaga aylangan.

Mualliflik lug‘atlarini tahlil qilish va sintez qilish usullari muallif (ijodkor)ga lug‘atni ishlab chiqish va tahlil qilishda yordam beradigan turli yondashuv va usullarni o‘z ichiga oladi. Quyida mazkur usullardan asosiylarini keltiramiz.

1. Muallif matnlarini tahlil qilish. Mualliflik leksikasi – ijodkor so‘z boyligi odatda muallif matnlari tahliliga asoslanadi. Muallif o‘z asarlarini atroflicha o‘rganadi, o‘ziga xos so‘z va iboralarni aniqlaydi, ularning ma’nosi va qo‘llanish kontekstini tahlil qiladi. Bu muallifga qaysi so‘z va iboralarni lug‘atga kiritish kerakligini aniqlash imkonini beradi.

2. Leksik xususiyatlarni o‘rganish. Mualliflik lug‘ati tarkibiga muallifning leksik xususiyatlarini, masalan, ayrim so‘zlarni qo‘llashdagi afzalliklarni, uslubiy xususiyatlarni, metaforalarni o‘rganish kiradi. Muallif matnlarni tahlil qiladi, muallif leksikasi xos xususiyatlarni ajratib ko‘rsatadi va ularni lug‘atga kiritadi.

3. Lug‘atni tizimlashtirish va tasniflash. Mualliflik lug‘atini turli mezonlarga ko‘ra tizimlashtirish va tasniflash mumkin. Ijodkor semantik, grammatik yoki stilistik xususiyatlar asosida lug‘at strukturasini yaratishi mumkin. Bu o‘quvchiga lug‘at birliklarini qidirishni osonlashtiradi; kerakli so‘z va iboralarni topishga yordam beradi.

4. Illyustrativ misollardan foydalanish. Mualliflik lug‘atida so‘z va iboralarning kontekstda qo‘llanilishiga misollar keltiriladi. Bu o‘quvchiga so‘zlarning ma’nolari va qo‘llanilishini baholash, muallifga o‘z shaxsiyati va uslubini ko‘rsatishga zamin hozirlaydi.

5. Lug‘at sintezi va yaratilishi. Tahlil va tadqiqotdan so‘ng muallif (ijodkor) lug‘atni sintez qilish va yaratish (tuzish)ga o‘tadi. U lug‘at (so‘zlik, birliklar va lug‘at maqolasi)ni to‘playdi, tartibga soladi, izoh, tavsif va illyustrativ misollarini belgilaydi, lug‘at strukturasini yaratadi va uni belgilangan mezonlarga muvofiq tartibga soladi.

6. Fikr-mulohazalar va tuzatishlar. Lug‘at yaratilgandan so‘ng muallif o‘quvchi va mutaxassislarning fikr-mulohazalarini olishi mumkin. Bu muallifga lug‘atga tuzatishlar kiritish va takomillashtirishda as qotadi.

Shunday qilib, mualliflik leksikasini tahlil qilish va sintez qilish usullari muallifning aniq maqsad va vazifalariga qarab farq qilishi mumkin. Ular muallifning shaxsiyati va uslubini aks ettiruvchi informatik va noyob lug‘atni yaratishning asosidir.

Diniy-ma’rifiy leksika diniy e’tiqod, amaliyot va tushunchalar bilan bog‘liq so‘z va iboralar tizimidir. Diniy-ma’rifiy leksikaning umumiste’moldagi leksikadan ajralib turuvchi xususiyatlari bo‘lib, quyida ularning asosiylarini sanab o‘tamiz.

1. Muqaddas tushunchalar va ma’naviyatga oid normalarni atovchi birliklar. Diniy-ma’rifiy leksikada ma’lum jamiyatning e’tiqodi, muqaddas tushunchalarga ishonchi va iymoni, ma’naviy dunyosi aks etadi. Mazkur semantik maydonga mansub birliklar ilohiy mavjudotlar, marosimlar, ibodatlar, muqaddas matnlar va boshqa diniy tushunchalar bilan bog‘liq birliklardan tashkil topgan.

2. Metafora va ramzlar. Diniy-ma’rifiy leksikada chuqur ma’naviy va falsafiy g‘oyalarni yetkazishda ko‘pincha metafora va ramzlardan foydalaniladi. Odamlarga diniy tushunchalarni tushunish va o‘zlashtirishga yordam berish uchun allegoriyalar, analogiyalar va tasvirlardan foydalanish tabiiy.

3. Marosim va rituallar. Diniy-ma’rifiy leksikada diniy marosim va rituallarga oid atama va tushunchalar kiradi. Unda diniy marosimlar (mas., namoz, zakot, ro‘za, haj, umra), ibodat, qurbonlik va boshqalar kabi diniy urf-odat, farz, sunnat va vojib amallar doirasida bajariladigan turli bosqichlar va harakatlar tasvirlanadi.

4. Axloq-odob ma’naviyat. Diniy-ma’rifiy leksikaga axloq, odob, ma’naviyat bilan bog‘liq atamalar kiradi. U turli e’tiqodli (islom, nasroniylik, buddaviylik va b.) shaxs yoki jamiyat a’zolari hayoti, ularning boshqalar bilan munosabatlarini boshqaruvchi xulq-atvor qoidalari, axloqiy tamoyillar va qadriyatlarni tavsiflaydi.

5. Ilohiyot, ta’limot va tariqat. Diniy-ma’rifiy leksikaga din, ilohiyot, tasavvuf ta’limotlari bilan bog‘liq atamalar kiradi. Bunday leksik qatlam diniy leksika tizimining asosini tashkil etuvchi asosiy tushunchalarni tavsiflaydi.

6. Diniy atamalar va nomlar. Diniy-ma’rifiy leksika muayyan dinlar va ularning an’analari bilan bog‘liq bo‘lgan o‘ziga xos atama va nomlarni o‘z ichiga oladi. Bular xudoning nomlari, muqaddas matnlar, diniy rahbarlar nutqiga xos birliklar, ibodat manzillari va boshqalar bo‘lishi mumkin.

Umuman olganda, diniy-ma’rifiy leksikaga muayyan din va uning an’analariga qarab farq qiladi. Bunda diniy muloqotda muhim rol o‘ynaydi va turli imon-e’tiqod egalari (masalan, bizning ishimizda musulmon shaxs) nutqi va hayotining ma’naviy tomonlarini tavsiflaydi.

Diniy mazmundagi matnlarda qo‘llaniladigan til birliklari, uslubiy xususiyatlarini o‘rganish va tushunishga yordam beradigan bir necha bosqich hamda usullarni o‘z ichiga oladi. Kuzatishlarimiz asosida bosqich va usullarni quyidagilarni ajratamiz:

1. Matnlarni to‘plash va tahlil qilish. Tadqiqotning birinchi bosqichi diniy matnlar, masalan, muqaddas kitoblar, ibodatlar, diniy ma’ruzalar va boshqalarni to‘plashdir. So‘ngra bu matnlar ularda qo‘llanilayotgan til, uslub va leksikasining xususiyatlarini aniqlash maqsadida tahlil qilinadi.

2. Lisoniy kontekst va madaniy muhitni o‘rganish. Diniy-ma’naviy idiostillarni to‘liq tushunish uchun ular paydo bo‘lgan madaniy muhit, yoki muayyan kontekstni o‘rganishga ehtiyoj tug‘iladi. Bu diniy e’tiqodlar, marosimlar, ramzlar va madaniyatning din bilan bog‘liq boshqa jihatlarini o‘rganishni talab qiladi.

3. Semantik tahlil. Semantik tahlil tadqiqotchiga diniy matnda qo‘llanilgan so‘z va iboralarning ma’nolarini tushunishda asqotadi. Semantik tahlil jarayonida ma’naviy va diniy g‘oyalarni ifodalashning semantik usullari, metafora, ramzlar va boshqa vositalarni tahlil qilish foydadan xoli emas.

4. Stilistik tahlil. Stilistik tahlil tadqiqotchiga diniy-ma’rifiy va ma’naviyatga oid matnlarning uslubiy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Bu jarayonda uslubdagi matnlardagi gaplarning tuzilishini tahlil qilish, nutq shakllari, ritorik ifodalar va boshqa stilistik vositalarni qo‘llash kabi amallar bajariladi.

5. Qiyosiy tahlil. Qiyosiy tahlil turli dinlar doirasidagi diniy tasavvur, e’tiqod yoki oqimlarning diniy va ma’rifiy idiostillarni qiyoslashga asoslanadi. Tahlilning ushbu ko‘rinishi turli diniy matnlarda qo‘llanilgan til va uslubdagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlashga yordam beradi.

6. Suhbatlar. Dindor shaxslar va ma’naviyat yetakchilari bilan suhbat va muloqotlar diniy-ma’rifiy uslub haqida qo‘shimcha ma’lumot olishda foydali. Ular tadqiqotchiga diniy kontekstda til va uslub haqidagi shaxsiy tajriba va idroklarni shakllantiradi.

Aytish mumkinki, diniy-ma’rifiy va ma’naviy idiostillarni o‘rganish diniy matnlar, kontekst va lingvomadaniy xususiyatlarni chuqur tahlil qilish va tushunishni talab qiladi. Bunda turli xil usullarning kombinatsiyasi eng optimal yo‘ldir.

Diniy-ma’rifiy leksikaning tadqiq etish va tahlil qilishda muayyan muallif asarlarni o‘rganishda bu asarlarning mazmuni, uslubi va mohiyatini o‘rganish muhim. Bu jarayonda bir muallif asarlarni to‘plash va saralash (1), xususan, diniy-ma’rifiy asarlar, ya’ni muqaddas matnlar, duolar, ma’rifiy she’riy matnlarni to‘plash (elektron korpusini shakllantirish) talab etiladi. Keyinchalik tahlil qilish uchun (tadqiqotchi maqsadi va tadqiqot vazifasidan kelib chiqqan holda) eng dolzarb va zarur matnlar tanlanadi. Matnlarni o‘qish va tahlil qilish (2) bosqichida tadqiqotchi asar(lar)ning mazmuni, mavzulari, timsollari, metaforalari, tuzilishi va boshqa adabiy xususiyatlarini aniqlaydi. Shuningdek, asar(lar)da qo‘llanilgan til, uslub va ritorik vositalar tahlil qilinadi. Tarixiy kontekstni tushunish (3) uchun diniy-ma’rifiy leksikaning qaysi tarixiy sharoitda paydo bo‘lganligini o‘rganish kerak. Bu jarayon din tarixi, muallif(lar) va u(lar)ning asarlariga ta’sir qilgan madaniy va ijtimoiy sharoitlarni o‘rganishni talab qiladi. Diniy-ma’rifiy asarlarni kontekstual tahlil qilish (4) tadqiqotchiga diniy an’ana yoki madaniyat kontekstiga mos keluvchi birliklarni o‘rganishga yordam beradi. Tahlilning mazkur usuli boshqa asarlar, diniy urf-odatlar, ramzlar va e’tiqodlar bilan munosabatlarni o‘rganishdan iborat. Diniy-ma’rifiy asarlarni qiyosiy tahlil qilish (5) turli mualliflar yoki davrlarning diniy-ma’rifiy asarlarini qiyoslashga asos bo‘ladi. Tahlilning mazkur usuli diniy-ma’rifiy mavzu, uslub va adabiy vositalardan foydalanishdagi umumiylik va farqlarni aniqlashga yordam beradi. Kontekstli intervyular (6) dindor shaxslar va yetakchilar, ma’naviyat yetakchilari yoki diniy soha mutaxassislar bilan suhbatlar diniy-ma’naviy semantik maydon birliklari haqida qo‘shimcha ma’lumotning eng samarali usulidir. Mazkur tahlil usuli tadqiqotchiga diniy mazmundagi asarlarning talqini va idrokini o‘rganishga imkon beradi.

Demak, diniy-ma’rifiy asar tilini o‘rganish bu asarlarning mazmuni, uslubi va mazmunini chuqur tahlil qilish va tushunishga olib keladi. Diniy-ma’rifiy leksikani o‘rganishda turli xil usullar kombinatsiyasidan foydalanish ahamiyatli.

Rezyume: Mualliflik leksikasi – muayyan ijodkor so‘z boyligini o‘rganish, muallif ijodini chuqurroq tushunish, tahlil qilish va baholashga, o‘quvchi yoki tadqiqotchining adabiyot sohasidagi bilim va ko‘nikmalarini kengaytirishga, yozma va og‘zaki lisoniy malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirishga asos bo‘lishi mazkur maqolada bayon etilgan.

Резюме. Авторская лексика - это основа для изучения словарного запаса конкретного творца, более глубокого понимания, анализа и оценки авторского творчества, расширения знаний и навыков читателя или исследователя в области литературы, развития письменных и устных языковых навыков и умений.

Resume. Author’s vocabulary is the basis for studying the vocabulary of a particular creator, deeper understanding, analysis, and evaluation of author’s work, expanding the knowledge and skills of the reader or researcher in the field of literature, and developing written and oral language skills and abilities.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2025; 11-12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O‘ZBEK ONLAYN MEDIA SARLAVHALARIDA KLIKBEYT
(Kun.uz, Qalampir.uz, Daryo.uz misolida)

To‘rayeva Zarrina Abdimurot qizi,
Termiz davlat universiteti filologiya va tillarni o‘qitish fakulteti
Lingvistika (O‘zbek tili) mutaxassisligi 2-kurs magistranti
Zarina27022001@gmail.com +998977332702

Bugungi hayotimizni raqamli texnologiyalarsiz tasavvur etish juda qiyin. Qaysi bir jabhani olmaylik qulaylik, oshkoralik va tezkorlik bobida zamonaviy axborot texnologiyalari yangilanishlarning muhim omiliga aylanib borayotir. Bu kabi rivojlanishlar ommaviy axborot vositalarining faoliyatini tubdan o‘zgartirdi. An’anaviy bosma nashrlardan farqli o‘laroq, onlayn OAV auditoriya e’tiborini soniyalar ichida jalb qilish zarurati bilan yuzma-yuz kelmoqda. Aynan shu sharoitda klikbeyt (clickbait) deb ataluvchi sarlavha yaratish usuli keng ommalashdi.

O‘zbek onlayn mediasida ham klikbeyt hodisasi tobora kuchayib bormoqda. Ushbu maqolada Kun.uz, Qalampir.uz va Daryo.uz nashrlari misolida klikbeyt sarlavhalarning xususiyatlari va ularning axborot mazmuniga ta’siri tahlil qilinadi. Dastlab klikbeyt tushunchasining jahon tilshunoslari tomonidan berilgan ta’rifiga to‘xtalsak. “Klikbeyt – bu onlayn kontent bo‘lib, uni bosish uchun maqsad qilingan, lekin undagi asosiy kontent juda kam ma’lumot bilan tugaydi yoki va’da qilingan ma’lumotni bermaydi”. Kate Scott tomonidan pragmatik nuqtai nazardan ta’riflangan[1]. Shuningdek, wikepediya sahifasida klikbeyt tushunchasi haqida shunday deyiladi: **“Klikbeyt** – bu internetda foydalanuvchini havolani bosishga (click) jalb qilish uchun maxsus yaratilgan onlayn kontent bo‘lib, odatda sarlavha yoki miniatura orqali e’tiborni tortadi va ko‘pincha mazmuni haqida juda kam yoki noto‘g‘ri ma’lumot beradi”[2]. Klikbeytning asosiy maqsadi – o‘quvchilar sonini oshirish, biroq bu ko‘pincha jurnalistik aniqlik va xolislik hisobiga amalga oshiriladi. Lingvistik nuqtayi nazardan, klikbeyt sarlavhalar pragmatik maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lib, ular axborot berishdan ko‘ra diqqatni jalb etishni maqsad qiladi. Klikbeyt bo‘yicha jahon tilshunosligida bir qancha ishlar qilingan, Ayniqsa, klikbeytni pragmatic aspektda o‘rganish bo`yicha tadqiqotlar ko‘plab qilingan. Chunonchi, rus tilshunoslaridan A.Glagoleva[3],

[1] Kate Scott. Journal of Pragmatics. Volume 218. December 2023, p 71-82
[2] Wikepediya.
[3] Глаголева А. «Чужое слово» в заголовках газетных текстов: дискредитация имиджа: дис. … канд. филол. наук. – М.,

A.Podchasov1larning tadqiqotlari Buyuk Britaniya va Rosiyya gazetalari sarlavhalarini funksional-uslubiy tomonini o‘rganishga bag‘ishlangan. A.Dolgireyeva[2] rus va nemis gazeta sarlavhalarin pragmalingvistik aspektda tahlil qiladi. Y.Vereshinskaya[3] ispan gazeta sarlavhalarini lingvopragmatik va lingvodidaktik aspektda ko‘rib chiqadi. Rus tilshunosi I.Galperin: “...Sarlavha gazetaning ajralmas bo‘lagidir, asosiy funksiyasi sarlavhadan keyin keladigan matn haqida o‘quvchiga ma’lumot berishdir...”, – deydi. Herbert H: “...Sarlavha-sarlavha ostidagi matnning tabiatini ko‘rsatuvchi til birligidir..”4. Ingliz tilshunosligida esa Kristl va Devi tomonidan berilga ta’rif: “Sarlavhalar aniq, qisqa iloji bo‘lsa qiziqarli xabarni o‘z ichiga olgan bo‘lshi kerak, mutolaachining ko‘zi chaqmoqdek yarqiragan narsaga tushadi va ana shu narsa uning e’tiborini tortganda u o‘qishni boshlaydi”, Van Dijk: “...sarlavha matnning asosiy mazmunini ifodalaydi”5 – degan ta’riflarni ilgari suradilar. Klikbeyt sarlavhalar haqidagi tadqiqotlar so‘nggi yillarda Markaziy Osiyo, jumladan O‘zbekiston mediyasi ham o‘rganila boshladi. Blom va Hansen (2015) ta’kidlashicha, bunday sarlavhalar o‘quvchiga ma’lumot berishdan ko‘ra ularning qizuquvchanligini oshirishga qaratilgan. O‘zbekiston kontekstida esa, bu fenomen mahalliy madaniy, ijtimoiy va til xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq. Mazkur tadqiqotda 2025-yil davomida Kun.uz, Qalampir.uz va Daryo.uz saytlarida e’lon qilingan siyosiy, ijtimoiy va ko‘ngilochar mazmundagi sarlavhalar tanlab olindi. Tahlil jarayonida quyidagi mezonlar asos qilib olindi:

1. Sarlavha va matn mazmuni mosligi.
2. Emotsional va baholovchi birliklar.
3. Auditoriyani qiziqtirish darajasi.
4. Axborotning aniqligi.

Kun.uz onlayn nashri rasmiy uslubni saqlasa-da, ba’zi hollarda klikbeyt elementlari kuzatiladi. Bu platformada pragmatic strategiya ko‘proq ishonchlilik va qiziqish muvozanatiga asoslanadi. Xususan, savol shaklidagi sarlavhalar, muammo markaziga ishora qiluvchi, lekin to‘liq axborot bermaydigan iborali sarlavhalar uchraydi. Jumladan, *“O‘zbekistonda sud qanchalik mustaqil va erkin?”, “Tramp Eron masalasida nima qilishi mumkin?”, “Rossiya ortiq variant emas: mehnat muhojirlari nima qiladi?”, “Turkiyadagi o ‘zbek kelinlar: ular qanday huquqlarga ega?”* kabi o‘quvchini o‘qishga chorlovchi sarlavhalar hamda *“Toshkentda bozorlarga antiqa sabab bilan kameralar o‘rnatilyapti”, “Xamasga yangi shartlar yuborgan Tramp”, “Kvartira, mashina, endi esa baliq – O‘zbekistonda yangi turdagi firibgarlik paydo bo‘ldi”* singari muammo haqida qisqa ma’lumot beruvchi klikbeyt sarlavhalar uchraydi. Qalampir.uz sarlavhalarida emotsional-ekspressiv vositalar keng qo‘llaniladi. Sensatsiyaga moyillik, kinoya va keskin baholashlar ushbu nashrga xos jihatlardir. Shuningdek, shov-shuvli iboralar, kuchli baholovchi sifatlar, matn bilan sarlavha o‘rtasida nomuvofiqlik bo‘lgan axborotlar uchraydi. Pragmalingvistik jihatdan qalampir.uz nashrida klikbeyt sarlavhalar ko‘proq kuchli perlokatsion ta’sirga yo‘naltirilgan. Bu onlayn nashrda pragmatic maqsad o‘quvchini tezkor va hissiy reaksiya qilishga majbur etadi. *“Men nima deymanu, qo‘bizim nima deydi? Gapda bor, amalda yo‘q ishlar”, “Farmonboz”ning 2025-yil xotiralari yoxud zamonaviy “qirol”, “Ko‘zni moshdek ochadigan vaqt keldi yoxud yangi tizimga qarshilar “uchadi”, “Sarson bo‘ldik, vayron bo‘ldik, giryon bo‘ldik, O O‘zbeklar, nega jimsiz? Hayron bo‘ldik”* kabi keskin klikbeytlar auditoriya e’tiborini tez jalb qilsa-da, axborot ishonchliligiga putur yetkazishi mumkin. Daryo.uz onlayn nashri ommaviy auditoriyaga mo‘ljallangan bo‘lib, sarlavhalarda klikbeyt unsurlari ko‘proq uchraydi. Ayniqsa, mashhurlar hayoti, ijtimoiy tarmoqdagi trendlar va favqulodda hodisalar keng yoritiladi. *“Osiyo seriallari bo‘yicha qo‘llanma: nega ular bunchalik mashhur, dorama lakorndan nimasi bilan farq qiladi?”, “Bir milliard dollarlik bazm: 2025-yilning eng shov-shuvli to‘ylari”, “Morgda ishlagan, o‘zidan katta ayolga uylangan va mashinasi olib qochilgan Shukurullo Isroilov 56 yoshda (foto, video)”, “Soxta dollarni aniqlashning yana bir samarali usuli”, “100 yoshida ham uylangan: Saudiyalik 142 yoshli otaxon vafot etdi”* shular jumlasidandir. So‘rovlar va tahlillar shuni ko‘rsatadiki,onlayn nashrlardan foydalanuvchilarning klikbeyt sarlavhalarga munosabati ikki xil:

1. Salbiy munosabat: axborot sifatiga putur yetkazadi, vaqtni behuda sarflash
2. Ijobiy munosabat: Qiziqarli, o‘qishga undovchi, zamonaviy usul deb hisoblash

O‘zbek yoshlari orasida ikkinchi tomon ancha faol, bu esa saytlar tomonidan bunday davom ettirilishiga

2014. 182 с.

[1] Подчасовю А. Функционально-стилистические особенности газетных заголовков: дисс. …канд. Филол. Наук. – М., 2001. 187 с.

[2] Долгирева А. Газетный заголовок в прагмалингвистическом аспекте: дис. … канд. филол. наук. – Таганрог, 2002. 298 с.

[3] Верещинская Ю. Испанский газетный заголовок: лингвопрагматический и национально-культурный: автореф. дис. канд. филол. наук. – М., 2013. 22 с.

[4] Herbert H. Clark Bridget Bly. Pragmatics and Discourse, -Academic Press, New York, – 1995.

[5] Teun van Djik. “News as Discourse”. LAWRENCE ERLBAUM ASSOCIATES, PUBLISHERS. – New Jersey, 1988. 365 p.

sabab bo‘lmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbek onlayn mediasida klikbeyt hodisasi muayyan darajada normaga aylangan. Klikbeyt sarlavhalarning lingvistik tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, so‘roq va undov gaplar, mavhum olmoshlar va noaniq birliklar, emotsional leksika, iboralar hamda maqollar keng qo‘llaniladi. Bunday sarlavhalarga Kun.uz nisbatan ehtiyotkor yondashsa, Qalampir.uz va Daryo.uz da klikbeyt usullari faolroq qo‘llaniladi.

Rezyume. Ushbu maqolada O‘zbekistondagi yetakchi onlayn matbuot nashrlari – Kun.uz, Qalampir.uz va Daryo.uz sarlavhlarida qo‘llanilayotgan klikbeyt sarlavhalar tahlil qilinadi. Shunindek, maqolada sarlavhalarning til xususiyatlari, auditoriyani jalb qilish strategiyalari hamda klikbeytning ommaviy ongga ta’siri o‘rganildi.

Resume. This article analyzes clickbait headlines used in the headlines of leading online media outlets in Uzbekistan - Kun.uz, Qalampir.uz, and Daryo.uz. The article also examines the linguistic features of headlines, audience engagement strategies, and the impact of clickbait on public consciousness.

Резюме. В данной статье анализируются кликбейтные заголовки, используемые в заголовках ведущих онлайн-изданий Узбекистана – Kun.uz, Qalampir.uz и Daryo.uz. Также рассматриваются лингвистические особенности заголовков, стратегии привлечения аудитории и влияние кликбейта на общественное сознание.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 11-12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

SINTAKTIK PARALLELIZMNING NAZARIY ASOSLARI

Xudoykulova Umida A'lamjonovna
Qashqadaryo viloyati Muborak tuman texnikumi
Umumta'lim va maxsus fanlar kafedrasi bosh o'qituvchisi

Grammatikaning shakllanishida ayrim vositalar borki, ularning badiiy asar matniga tatbiq etilishi hamda asar konteksti asosida tahlil qilinishi asarning emotsional-ekspressiv xususiyatlarini oshirishga xizmat qiladi. Ana shunday vositalardan biri sintaktik parallelizm hodisasi bo'lib, "poetik sintaksisning o'rganish obyekti sifatida badiiy nutq tarkibida keng tarqalgan qadimiy uslubiy vosita hisoblanadi. Undan tasvir etilayotgan obyektga tinglovchi e'tiborini qayta tortish, ta'kidlash, izohlash kabi maqsadlarda foydalaniladi"[1].

Sintaktik parallelizm terminining tilshunoslik doirasida tahlil qilinishi aslan uning qanday hodisa ekanligi xususidagi savolga javob topish orqali voqelanadi. Parallelizm terminining kelib chiqish tarixi yunoncha "parallellos" so'zi bilan uzviy aloqador hisoblanib, so'zning lug'aviy ma'nosi "yonma-yon boruvchi", "teng boruvchi"[2] kabi ma'nolarni ifoda etib, istilohiy ma'nosi "ikki va undan ortiq gaplarning yoki matnning boshqa qismlarining (xususan, parchalarining) bir xil shakldagi sintaktik tuzilishini"[3] aks ettiradi.

Ilmiy adabiyotlarda sintaktik parallelizm har ikki soha, ya'ni tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohalari uchun ham xoslanganligi xususidagi fikrlar uchraydi. Adabiy termin sifatida keltirilgan mazkur termin:

- *nutqning emotsionalligini oshirishga, salmoqdorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi;*

- *og'zaki va yozma nutqning zaruriy qismlariga urg'u berishga diqqat qiluvchi;*

- *badiiy asar tarkibida keltirilgan ma'lumotlar va muallif tomonidan keltirilgan subyektiv fikrlarning o'zaro bog'liqligini ta'minlashga xizmat qiladi*.

Shuningdek, badiiy adabiyotda sintaktik parallelizmning gradativ xususiyati ham mavjud bo'lib, bunda asarda tilga olingan voqelikning asta-sekin kuchayishi yoki kamayishi tarzida bayon qilish usulini ifodalash ham aynan ushbu vosita yordamida amalga oshiriladi, ya'ni bayon usulida voqelikka nisbatan urg'u berish maqsadida uning kuchlanishini oshirish yoki pasaytirish aynan sintaktik parallelizm yordamida hosil qilinadi.

Tilshunoslik doirasida esa sintaktik parallelizm termining mohiyati borasida mavjud fikrlar ushbu hodisaning ko'p qirrali vosita ekanligi hamda badiiy matn shakllanishidagi asosiy uslubiy vositalardan biri ekanligiga dalolat qiladi. Sintaktik parallelizmning til tahlili borasida jahon va o'zbek tilshunosligida xilma-xil qarashlar mavjud bo'lsa-da, biroq uning "tartiblangan takror" ekanligi har ikki tilshunoslik olamidagi mazkur termin xususidagi umumiy fikr sanaladi. Sintaktik parallelizm gap tarkibida ishtirok etgan gap bo'laklari yoki jumlalarning bir xil yoki o'xshash strukturaga egaligiga nisbatan qo'llanuvchi istiloh sanaladi. Biroq mazkur istilohning faqat shakliy xususiyati bilan cheklanish mutlaqo noo'rin bo'lib, ayni o'rinda uning ma'noviy-uslubiy vazifasini ham yoddan chiqarmaslik zarur – sintaktik parallelizm semantik-stilistik jihatdan kontekstda keltirilgan fikrning emotsionalligini, mantiqiy ketma-ketligini ta'minlovchi sintaktik usul sanaladi. Va shuni ham alohida qayd etish lozimki, adabiyot va tilshunoslikdagi ushbu integratsion istiloh orasiga "Xitoy devori"ni qo'yish mumkin emas. Chunki sintaktik parallelizm o'z tabiatiga ko'ra ham strukturaviy (tilshunoslik nuqtayi nazaridan), ham estetik (badiiy adabiyot nuqtayi nazaridan) hodisadir. Adabiyot talqinida sintaktik parallelizm badiiy matnning ritmikligini ta'minlovchi, ohangdorligini oshiruvchi poetik figura sifatida talqin qilinsa, tilshunoslik jihatidan esa uning grammatik shakliyati asosiy xususiyat o'laroq e'tirof etiladi. Bizning ushbu maqolamizda sintaktik parallelizmning til jihatlari ustuvorlik kasb etib, uning lisoniy tabiati, strukturasi hamda ma'nosi, uslubiyati borasidagi mulohazalar ilgari

[1] Ҳакимов М. Х., Тошхўжаева Ш. Ф. Эркин Аъзам асарларида синтактик параллелизмнинг лингвопоэтик ўзига хослиги // Илмий хабарнома - Научный вестник. – 20XX. – № X. – Б. 84-86.

[2] Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Т., 2007. – 123 б.


[3] Синтаксический параллелизм - суть и примеры использования

suriladi. Adabiyot nuqtayi nazaridan uning badiiy tasvir vositasi ekanligi ustuvorlik kasb etsa, til tadqiqi borasida sintaktik parallelizmning butunliklararo bog‘lanishini nazarda tutadi.

Jahon tilshunosligida mazkur hodisa ustida olib borilgan tadqiqotlarda unga nisbatan ikki xil yondashuv ko‘zga tashlanadi: birinchi yondashuvga ko‘ra, sintaktik parallelizmning mohiyatini tushuntirish uchun ushbu hodisa ishtirok etgan jumla tarkibidagi yondosh birliklarning ham tarkibiy muvofiqligini ochib berish zarur deb hisoblanadi; ikkinchi yondashuv esa bu tarkibiy moslashuv bilan bir qatorda ularning semantik jihatdan bog‘liqligini ham o‘rganish zarurligiga asoslanadi[1]. Ammo, bizning fikrimizga ko‘ra, har ikki nuqtayi nazardan yondashuvlar bir-biriga zid emas, balki to‘ldiruvchi xarakterga ega bo‘lib, sintaktik parallelizmning mohiyatini aniqlash uchun uning tarkibiga, semantik birlik sifatidagi maqomiga diqqat qilish o‘rinli. A. Kuznetsova esa sintaktik parallelizmning yuqorida zikr qilingan sifatlarini inobatga olgan holda ushbu hodisaning bir xil tipdagi sintaktik bo‘laklarini, ya’ni ular o‘rtasidagi semantik bog‘liqlik bo‘lgan konstruksiyalarni ifodalovchi tarkibiy-semantik hodisa ekanligini bayon qiladi[2].

Sintaktik parallelizm orqali gap bo‘laklari, murakkab sintaktik tuzilmalar tarkibidagi kichik qismlar, murakkab tuzilishga ega jumlalar, chunonchi, qo‘shma gaplar va hattoki kichik mikromatnlar ham birlashishi mumkin. Parallelizmning asosiy belgisi uning tarkibiy qismlari bir xil sintaktik qurilishga ega bo‘lganda, ularning sintaktik vazifasining ham bir xil bo‘lishini ta’minlash hisoblanadi. Shuni ham alohida qayd etish lozimki, sintaktik parallelizm bir gapdagi sintaktik konstruksiyaning boshqa gap bo‘laklari yoki boshqa gap tarkibida takrorlanishi uchun poydevor hozirlaydi, masalan, Tog‘ay Murodning “Momo yer qo‘shig‘i” asaridan olingan quyidagi parchada yuqorida zikr etilgan funksiya o‘zining yaqqol tasdig‘ini topgan: “*Xushxabar olib kelguvchilar biroviga to‘n yopdi, biroviga belbog‘ o‘radi, biroviga do‘ppi kiygizdi*”[3]. Sintaktik parallelizmning nazariy asoslari orqali ko‘rib chiqqanimiz kabi ushbu hodisa tarkibiy jihatdan bir xil tipdagi sintaktik bo‘laklarni birlashtiradi. Keltirilgan jumlada uchta parallel ravishda qurilgan bo‘lak mavjud bo‘lib, ularning har biri quyidagi model asosida shakllantirilgan:

To‘ldiruvchi (kimga?) + to‘ldiruvchi (nimani?) + kesim (nima qildi?).



1-chizma. **Sintaktik parallelizm namunasi.**

Bu kontekstda har bir gap qismi “xushxabar olib kelguvchilar”ga nisbatan amalga oshirilgan ketma-ket harakatlarni ifodalovchi uyushiq kesimlardan tashkil topgan. Gapning semantik xususiyati keltirilgan uchta sintaktik parallel gaplarning umumiy bir tematik tavsif asosida birlashgan mavzuga aloqadorligida ko‘zga tashlanadi, ya’ni xushxabar keltirgan shaxslarni mukofotlash yoinki ularga minnatdorchilik bildirish bevosita sintaktik parallelizm vositasida voqelangan. I. Shitikova ta’kidlab o‘tganidek, mazkur qurilma ekspressiv sintaksis[4] doirasida tahlil qilinib, nutqning ta’sirchanlig-

[1] Шитикова И. В. Основные аспекты проблематики синтаксического параллелизма // Вестник МГУ. – 2026. – № 1. – С. 44-50.

[2] Кузнецова А.А. Стилистические фигуры, построенные по принципу син таксического параллелизма, в современном русском литературном языке: дис. ... канд. филол. наук. — Кемерово, 2003. — С. 37.

[3] Тоғай Мурод. Момо ер қўшиғи. – Тошкент: Шарқ, 1994. – Б. 8.

[4] Шитикова И. В. Основные аспекты проблематики синтаксического параллелизма // Вестник МГУ. – 2026. – № 1. – С.

ini ta’minlovchi muhim omil sanaladi. Keltirilgan misolda muallif shunchaki asar qahramonlari (aynan voqelik ishtirokchilarini) “xursand bo‘ldi” kabi qisqacha ifodadan chekinib, mazkur hodisa orqali jarayonning ko‘lamini hamda xalqona an’analarning jonli talqinini yarata olgan.

Yoki bo‘lmasa: “*Qo‘li sandiqda bo‘ldi. Ko‘zi ostonada bo‘ldi*”[1] jumlasida ham sintaktik parallelizm o‘zining yaqqol aksini topgan bo‘lib, har ikki sintaktik butunlik orasida ma’noviy bog‘liqlik mavjud. Birinchi gapda (qo‘li sandiqda bo‘ldi) gapida jismoniy harakat in’ikos etgan bo‘lib, ikkinchi gapda (ko‘zi ostonada bo‘ldi) ruhiy holat namoyon. Ana shu ikki xususiyat, ya’ni moddiy harakat va ruhiy holatning yuqoridagi gapdagi ifodasi ziddiyatga asoslansa-da, biroq aynan mana shunday tuzilishli gaplarda asar qahramonining ichki ruhiyati va tashqi holati o‘rtasidagi uyg‘unlik asosida gap semantikasida aloqadorlik shakllanadi. Nazariy jihatdan esa ushbu misol shunchaki ikki xil holatni ifodalovchi tavsif emas, balki sintaktik butunlikning ma’noviy jihatdan uyg‘unligini ta’minlovchi emotsional-ekspressiv hodisadir. Asar qahramonining jismoniy harakati va ruhiy holati o‘rtasidagi bog‘liqlik aynan bir xil sintaktik qolipga solinishi, ularning parallel qurilishi, ya’ni SINTAKTIK PARALLELIZM hodisasi orqali yuzaga kelgan. Kontekstual jihatdan har ikki gap ham **“Ega + to‘ldiruvchi** (“*sandiqda*”) / **hol** (“*ostonada*”) + **kesim**” moduli orqali shakllantirilgan bo‘lib, *o‘rinpayt kelishigi* bunda farqlovchi omil vazifasini bajarmoqda. “*Bo‘ldi*” kesimlik shaklining esa har ikkala o‘rinda takrorlanishi gapdagi ritmik ohangdorlikni ta’minlagan.

Ta’kidlash lozimki, sintaktik parallelizm hodisasi nafaqat nasriy kontekstlarda, balki nazmiy asarlarda ham uchraydi. Chunonchi, E. Artmenko[2] va M. Dreevalar[3] she’riy matnlarga asoslangan holda mazkur hodisaning mohiyatini ochib berishga e’tibor qaratganlar. E. Artmenko ushbu parallelizmni qo‘shiq misolida o‘rganib, ushbu janrda sintaktik parallelizmdan foydalanish natijasida she’riy asarlardagi “mustaqillikka intilish” holatining yuzaga kelishi mumkinligini ta’kidlaydi. Ushbu fikr orqali xulosa qilishimiz mumkinki, nasriy va nazmiy asarlarda qo‘llanuvchi sintaktik parallelizmlar maqsad jihatidan bir-biridan farq qiladi, ya’ni nasriy asarlardagi mazkur parallelizm muallif maqsadini bir necha kontekstlar orqali ifodalashga qaratiladi, she’riy asarlar esa bundan mustasno. Ya’ni bu kabi asarlarda fikrlar bog‘liqligi emas, mustaqilligi xoslangan bo‘ladi. Buni quyidagicha umumlashtirishimiz mumkin:

Nasriy asarlar kontekstlararo bog‘liqlik.
She’riy asarlar kontekstlararo ma’noviy mustaqillik.

Buni Usmon Azim ijodidan olingan quyidagi parcha asosida tahlil qilamiz:

Go‘yoki turmushga ishora –
Bas qilgin,
Bas qil!..
Yuz bora,
Ming bora
Taslimmiz,
Taslim!..[4]

Mazkur she’riy parchada sintaktik parallelizm hodisasi juda faol bo‘lib, undagi “*Bas qilgin / bas qil!”, “Yuz bora / ming bora”, “Taslimmiz / Taslim*” juftliklari bir xil sintaktik qolip asosida qurilgan bo‘lib, ular orasida ma’noviy bog‘liqlik yuqori. Shuningdek, gradatsiya hodisasi ham aynan sintaktik parallelizm vositasida yuzaga kelgan (*“Yuz bora / ming bora”).* Shuningdek, “Taslimmiz / taslim” takrori mazkur hodisaning ko‘p funksiyali ekanligini aks ettirish maqsadida qo‘llangan. Ushbu misolda har bir qator alohida ritmir birlik hisoblansa ham, ularning sintaktik qurilishidagi umumiylik shoir tomonidan yagona she’riy hissiyotni ifodalash uchun zamin hozirlagan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, sintaktik parallelizm hodisasi til va adabiyot kesishmasi doirasida yuzaga keluvchi hodisa sanalib, uning badiiy matn tarkibida qo‘llanishi asarda ilgari surilgan muallif g‘oyasini anglash bilan birgalikda, struktur jihatdan (she’riy asarlarda) bandlar mustaqilligini ta’minlashga xizmat qiluvchi omil hisoblanadi. Umuman olganda, sintaktik parallelizm – bu tilning vazifaviy-kommunikativ xususiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega vosita sanaladi.

44-50.

[1] Тоғай Мурод. Кўрсатилган манба. – Б. 8.

[2] Артеменко Е.Б. Синтаксический строй русской народной лирической песн: (малопредикативные и полипредикативные конструкции): автореф. дис. ... д-ра филол. наук. — Воронеж, 1977. - 43 с.

[3] Дреева Д. М. Стиховой перенос и синтаксический параллелизм как средства создания связности текста в немецкой эпической поэзии: (на материале поэм Г. Гейне): автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М., 1990. – 26 с.

[4] https://t.me/UsmonAzimijodi/760

Rezyume: Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikning dolzarb tadqiqot obyektlaridan biri hisoblangan, ekspressiv sintaktsis doirasida tahlil qilinuvchi sintaktik parallelizm hodisasi tadqiq etiladi. Shuningdek, uning til va adabiyot o‘zaro kesishgan nuqtada tahlil qilinuvchi birlik ekanligi borasidagi nazariy asoslari tadqiq etiladi. Tadqiqot davomida sintaktik parallelizmning she’riy va nasriy asarlardagi bajargan vazifasiga ko‘ra farqlari borasida ham mulohazalar keltirib o‘tilgan.

Resume: This article examines the phenomenon of syntactic parallelizm, which is one of the current research objects of modern linguistics and is analyzed within the framework of expressive syntax. It also examines its theoretical foundations as an analytical unit at the intersection of language and literature. During the study, considerations are also made about the differences in the function of syntactic parallelizm in poetic and prose works.

Резюме: В данной статье рассматривается феномен синтаксического параллелизма, являющийся одним из современных объектов исследования в современной лингвистике, и анализируется он в рамках экспрессивного синтаксиса. Также рассматриваются его теоретические основы как аналитической единицы на стыке языка и литературы. В ходе исследования также рассматриваются различия в функции синтаксического параллелизма в поэтических и прозаических произведениях.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 11-12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

XALQ OG'ZAKI IJODIDAGI MAQOLLARDA AYOL KONSEPTI

Davronova Mahfuza Isroilovna,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti qoshidagi Markaziy Osiyo Xalqlari tillari va madaniyati instituti professori, filologiya fanlari doktori

Xalq og'zaki ijodi – xalqning ko'p asrlik tafakkuri, estetik qarashlari, hayotiy tajribasi hamda ijtimoiy-madaniy qadriyatlarining badiiy ifodasidir. Ushbu boy merosda ayol obrazi o'ziga xos konsept sifatida shakllanib, xalqning dunyoqarashi, gender munosabatlari, axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy idealini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayol konsepti nafaqat obraz sifatida, balki ma'naviy-ruhiy qadriyatlar tizimining markaziy unsuri sifatida o'rganiladi. Xalq ijodiyotidagi ayol obrazi ona, yor, kelin, ma'shuqa, oqila ayol, xoin ayol kabi turli semantik qatlamlarda namoyon bo'ladi.

Ayol konsepti adabiyotshunoslikda nazariy asoslarga ega. Konsept lingvokulturologiya va madaniyyatshunoslik tadqiqotlarida madaniy kodni aks ettiruvchi ko'p qavatli ma'no tizimi sifatida talqin qilinadi. Linvokulturologiya haqida so'z ketganda uni tilning madaniyat fenomeni sifatida o'rganilishini ham yoddan chiqarmaslik lozim. Bu esa o'z navbatida milliy til prizmasi orqali dunyoni idrok etishni ayonlashtiribgina qolmay, til o'ziga xos milliy mentalitetning ifoda vositasi sifatida namoyon bo'lishini ham nazarda tutadi. Shu sabab ham linvokulturologiya – lingvistika va madaniyatshunoslik kesishgan nuqtada yuzaga kelgan va xalq madaniyatining tilda aks etgan hamda mustahkamlangan jihatlarini tadqiq etuvchi lingvistika sohasi hisoblanadi. Dj.B.Kumaxova tadqiqotiga nazar tashlansa, unda quyidagi qarashlarni taqdim etganligiga guvoh bo'lish mumkin: «Qayd etilishicha, maqollar va matallarda xalqlarning serqirra hayoti, inson faoliyatining barcha jabhalari o'z aksini topadi. Ularda markaziy figura doimo insonning o'zi, uning turli ko'rinishlari bo'ladi. Bir tomondan, maqoliy hukmlar xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribasining umumlashmasi hisoblanadi, ikkinchi tomondan esa – ana shu tajribaga tayangan holda harakatlar uchun tavsiya rolini bajaradi. Shu sababli ko'plab maqollarda insonning xatti-harakati, voqea va hodisalarga berilgan emotsional-ekspressiv baho mavjud»[1]. Demak, xalq maqollarida reallik obyektlarini baholovchi konseptuallashtirilishning ochiq (eksplicit) va yashirin (implitsit) xususiyatlarini, aniqlash mumkin bo'ladi. Z.V.Cherkesova esa o'zining tadqiqotida quyidagi qarashlarni taqdim etadi: «Ayol madaniyatning asosiy konsepti va dunyoning til orqali yaratilgan manzarasining muhim elementi sifatida lingvokulturologik nuqtai nazardan o'rganiladi. «Ayol» konsepti zamonaviy nazariy-metodologik gender yondashuvlari asosida, shuningdek xalqning etnomadaniy va etnomental kodiga tayangan holda shakllantiriladi va tavsiflanadi»[2].

Xalq og'zaki ijodidagi ayol konsepti quyidagi tarkibiy jihatlar bilan xarakterlanadi: a) xalq og'zaki ijodining bir qancha janrlarida ayol konpertining aks ettiruvchi funksiyasi – ayolga nisbatan xalqning qarashlari, axloqiy talablari, ijtimoiy pozitsiyasi ifodalanadi. Fikrimizga misol sifatida xalq maqollariga nazar tashlaymiz: «***Ayolning sarishtasi – ro'g'orning farishtasi***»[3] maqolida axloqiy norma orqali ayol fazilati ulug'langan bo'lsa, shu o'rinda ayolga nisbatan axloqiy talab ham qo'yilgan deya bemalol ifoda etish mumkin bo'ladi. Yoki «***erta turgan yigitning bir rizqi ortiq, erta turgan ayolning bir ishi ortiq***» maqolida esa erta turish hikmat darajasiga ko'tariladi. Har bir ishga ulgurish uchun kamroq uyquda bo'lishi, har bir soat, daqiqa va soniyalarni qadriga borishini ta'kidlayotgandek go'yo. Mazkur maqolda ham ayolga nisbatan xalq axloqiy talab qo'yadiki, unda oilalik ayol hamma ishga ulgurishi kerak degan tushuncha ham yotadi. Yuqorida keltirilgan o'zbek maqollarida o'zbek ayollari qanday bo'lishi lozimligini ko'radigan bo'lsak, fransuz maqolida esa fransuz ayolining axloqiy me'yori uning ayolligi bilan o'lchanadi. Fikrimizga misol: «***Nossiz ayol – tuzsiz ovqat***». Bu maqol

[1] Кумахова Д. Б. Оценочная категоризация действительности в пословичной картине мира: на материале кабардино-черкесского и русского языковю: Автореф.дисс.кан.фил.наук. – Нальчик, 2011. – С. 8.

[2] Черкасова З. В. Семантическое пространство концепта "женщина" в различных лингвокультурах (на материале кабардино-черкесского, русского, французского языков): Автореф.дисс.кан.фил.наук. – Нальчик, 2016. – С. 9.

[3] https://statuslar.uz/ayollar-haqida-maqollar-eng-sara-chiroyli-hayotiy-maqollar-to-plami/ (bundan keyingi misollar mana shu internet sahifasidan olinadi).

ayollarning ayollik qiyofasi va ayollik ruhiyatini ifoda etib, unga ro‘zg‘or ishlari va tashvishlari bilan band bo‘lgan xizmatkor emas, balki ayollik nazokatini saqlab qolgan ayol borasida so‘z yuritiladi. Yoki «***erkakni aqli bilan ayolni ko‘rki bilan baholaydilar***» maqolida jamiyat uning tashqi qiyofasiga qarab baho beradi tushunchasini anglatishga harakat qilingan. O‘z tashqi qiyofasiga qaramaydigan ayol boshqa axloqiy me’yorlarni ham bajara olmaydi kabi tushunchalar zamiridan o‘sib chiqqan mazkur maqol ayol har bir ishda o‘rnak bo‘la olishi lozim degan qarashni ham ifoda etadi. O‘zbek va fransuz xalqida uchraydigan maqollarda ularning axloqiy norm ava tarozusi bilan o‘lchanaganki, bu tarozi o‘z navbatida xalqning ayolga nisbatan qarashlarini ham ifodalashga xizmat qilgan. Rus xalq maqollariga e’tibor qilsak, unda axloqiy me’yor uning bilimi, aqli, zehn-idroki bilan o‘lchanadi. «***Erkakni aqli uchun, ayolni esa zehn-idroki uchun hurmat qiladilar***»[1] maqoli fikrimizga yaqqol misol bo‘la oladi. Rus xalqi uchun ayol o‘ta zehnli va farosatli bo‘lishi lozim. Bu ayoldan talab qilinadigan asosiy axloqiy mezon. Bundan xulosa chiqarish mumkinki, rus xalqi uchun oilada xizmatkor ayol emas, balki farosatli ayol bo‘lishi muhim. Arablarning «***Ayolning aqli uning go‘zalligida, erkakning go‘zalligi - aqlida***» maqoliga nazar tashlasak, unda arab xalqi uchun zarur bo‘lgan ayol timsolini gavdalanganligiga guvoh bo‘lish mumkin. Demak, arab xalqi uchun alq va go‘zallik hamohang bo‘lishi lozim. Adigey xalqinig axloqiy mezonida «***ayol kishi o‘z xonadonida ham beka, ham xizmatkor***»dir tushunchasiga urg‘u berilgan. Beka va xizmatkor antonim so‘zlar bo‘lib, ikki qarama-qarshi qutbni anglatadi. Jahonda kamdan-kam ayol ham beka ham xizmatkor bo‘la olishi mumkin. Adigey xalqining axloqiy mezoni bir qalbda qarama-qarshi qutblarni yashashga majbur etadi. Yuqorida ta’kid etganimizdek, bu barcha ayollarga xos xislat emas. Ayol o‘z xanodonida beka bo‘lishi mumkin, yoki oilasi uchun barcha xizmatlarni bajarishi mumkin. Lekin u o‘zini xizmatkor sifatida e’tirof etilishini istamaydi. Ayol oila uchun xizmatni yo ma’suliyat, yoki majburiyat sifatida qabul qiladi. Uning majburiyati yoki ma’suliyatini xizmatkor darajasiga tushirilsa, ayolning bekalik qalbi bu kabi qarashni qabul qila olmaydi. Quyidagi rus maqolida esa «***Ayolning yo‘li – o‘choqdan eshikkacha***» maqolida ayolning o‘rni faqat uyning ichida degan qadimgi stereotipni ko‘rish mumkin bo‘ladi. Bu kabi axloqiy norma ayolning faoliyatini cheklab qo‘ymay, balki shaxs sifatida ham qadrsizlanishiga olib keladi.

b) ayol konsepti simvolik xususiyatga ega bo‘lib u – ko‘pincha mehr, poklik, baraka, fidoyilik, sabr-toqat, shuningdek, hiyla-nayrang, vasvasa kabi qarama-qarshi obrazlarda timsollanadi. «***O‘g‘ri do‘qi bilan qo‘rqitar, yomon ayol – yig‘isi bilan***» maqoli esa fikrimizni isbotlaydi. Mazkur maqolda ayolni salbiy obraz sifatida e’tirof etilar ekan, u eng kuchli quroli bo‘lmish – yig‘iga rujo‘ berishini va shu yo‘l orqali salbiy illatga ega bo‘lgan ayolni aniqlash mumkinligiga ishora etadi. Fin xalqining «***kulib gapirgan erkakdan, ko‘z yosh bilan so‘zlovchi ayoldan qo‘rq***» maqoli o‘zbek maqoliga juda yaqin turadi. Fin xalq maqolida ayolni salbiy ottenka bilan tasvirlamaydi. Faqat uning ko‘z yoshiga aldanmaslik lozimligi uqtiriladi, xolos. «***Suv toshqinidan, yong‘indan va ayol makridan Xudo asrasin***» gruzin maqolida esa ayol makrini suv toshqini, yong‘in kabi ofatlar qotoriga qo‘yiladi. Bu kabi kulfat hech qachon biror bir kishining boshiga tushmasligi uchun ham xalqning «Xudo asrasin» iltijosini qo‘shib yuboradi. Uch maqolda ayolning hiyla-nayrang borasidagi timsoli o‘z ifodasini topgan bo‘lsa, «Janjalkash ayol itni bog‘lab qo‘yib, o‘zi hurishni boshlaydi» maqolida esa uning salbiy ottenkasini illat sifatida ta’riflaydi. Gruzin xalqida janjalkash ayolni itga tenglashtiriladi. Bu esa o‘z navbatida tili zahar ayol hammaga zaharini sochadi kabi qarashlarni beradi.

IJOBIY OBRAZ	SALBIY OBRAZ
Ayol oilaning uch ustuni – erkak to‘rtinchisi (**Bengal**)	1.Ayolning makrini aravaga yuklashgan edi u ham ko‘tarolmadi. 2.Uyatsiz ayol – tuzsiz taom (**arman**)
Hamma ayollar yaxshi (**hind**)	Yengiltak ayoldan og‘irroq dard yo‘q (**kuba**)
Yaxshi xotin yaxshi do‘st va akadan afzal (**gruzin**)	Er bebosh bo‘lsa hovlining yarmi kuyadi, ayol bebosh bo‘lsa, butun hovli yonib ketadi (**rus**)
Yaxshi xotin yarim baxt (**qirg‘iz**)	Hamma yovuzlarning ichida eng yovuzi – yovuz xotin, eng badlarning ichida ham eng yomon – yomon xotin. (**rus**)

Maqollarda arxetipik tabiat mavjud bo‘lib, u – ona, ma’shuqa, malikalar, pari qiyofalari qadimiy mifologik qatlamlardan iborat. Biroq mazkur maqolamizda ona obrazi borasida to‘xtalmoqchimiz. Ona obrazi va uning xususiyati barcha xalq maqollarida yetakchilik qiladi. «***Mingta xola bir ona bo‘lolmas***» ozarbayjon maqoliga nazar tashlaydigan bo‘lsak, unda onaning hayotdagi o‘rni xususida fikr yuritiladi. Demak,

[1] Даль, В.И. Пословицы русского народа. – М., 1989. – С. 57.

oliada ona tayanch nuqta vazifasini bajarag olganligi bois unga yaqin qarindoshlarning birortasi teng kela olmaydi. Har bir ona farzandi va oilasi uchun qayg‘uradi, shunday ekan maqolda keltirilgan xolaning ham o‘z makoni, oshyoni, farzandi mavjud. Biroq «***ona kiyganini singil ham kiyadi***»[1] qirg‘iz maqolida opa-singillarning o‘rtasidagi munosabatlarga to’xtalib, unda opa-singil o‘rtasidagi munosabatda o‘zaro hurmat bo‘lishi hamda ular bir-birini qo‘llab-quvvatlashi to‘g‘risidagi g‘oyaga asoslanadi. Rus xalq og‘zaki ijodida yaratilgan «***onaning yuragi quyoshdan ham issiq***»[2] maqoliga nazar atshlasak, unda onaning mehr taftu ulug‘langanligiga guvoh bo‘lish mukin. Umuman olganda ona xususidagi xalq maqollarida bu obraz yorqin qiyofada ask etilib, uning salbiy xususiyati borasida birorta fikrga duch kelish mumkin emas.

c) Erkaklar nigohidagi ayol konsepti ham o‘rin egallaganki, bu jarayonda erkaklarning ayol obrazi va uning tushunchasi borasidagi qarashlari ahamiyatlidir. Chunki erkak nigohi ila kuzatilgan ayol obrazi faqat uninggina nuqtai nazariga aylanadi. Shu bois ham biz mazkur rakursni rus maqollari orqali murojaat etish orqali ayonlashtiramiz. Rus xalq maqollarida erkaklarning nazdida «Ayol – mazali (qo‘lga kiritiladigan) luqma»(женщина – это лакомый кусок)[3]dir. Demak, rus erkaklari uchun ayol mazali taomdir. Nafaqat taom balki ayolga predmet sifatida e’tirof etilganligiga ham guvoh bo‘lish mumkin. Fikrimizga misol: «***Ayol bosh kiyim – erkak o‘rmonga borayotganda bosh kiyim bilan bormaydi***» (Женщина как шапка: она не может быть при мужчине, когда тот идет охотиться в густой лес) kabi stereotip qarash erkaklarning noto‘g‘ri qadam bosishlariga ham sababchi bo‘ladi. Umuman olganda, ayol obrazi ma’lum bir predmet orqali ifoda etilishi ko‘pgina xalqlarning og‘zaki ijodiga xos. Fikrimizga misol: «***Ayol degani palaxmon toshi, qayerga otsa, o‘sha yerga tushadi***» o‘zbek xalq og‘zaki ijodidan o‘rin egallagan ushbu maqolda ayol palaxmon toshiga o‘xshatiladi. Bizningcha, mazkur o‘xshatish juda qupol o‘xshatish bo‘lib, uni bu kabi anglash ham qiyinchilik tug‘diradi. Mazkur o‘rinda ayolga nisbatan hurmatsizlik ham ifodalaganki, uni otish orqali majburlash, hayotga ko‘nikish kabi sun’iy erkini bug‘ishga olib kelgan.

Xalq og‘zaki ijodida ayol konsepti ko‘p qirrali ma’no qatlamlariga ega bo‘lgan, milliy mentalitet, axloqiy me’yorlar, gender munosabatlari va madaniy qadriyatlarni aks ettiruvchi murakkab madaniy-falsafiy tushunchadir. Turli xalqlarning maqollarida ayol obrazi ijobiy va salbiy semantik maydonlarda talqin etilib, ularning qadriyatlar tizimi, oilaviy munosabatlari, jinsiy rollar haqidagi qarashlari namoyon bo‘ladi. O‘zbek, rus, fransuz, arab, gruzin, qirg‘iz va boshqa xalqlar misolida ko‘rish mumkinki, ayol obraziga berilgan baho har bir xalqning tarixiy-madaniy tajribasi hamda etnomadaniy kodiga tayanadi. Ayol konsepti ijobiy qatlamda – mehr, fidoyilik, poklik, baraka, sabr-toqat kabi timsollar bilan, salbiy qatlamda esa – makr, janjalkashlik, yengiltaklik kabi obrazlar bilan bog‘lanadi. Shuningdek, erkaklar nigohidagi ayol tasvirida ko‘proq stereotiplashtirilgan, predmetlashtirilgan qarashlar ko‘zga tashlanadi. Xalq tafakkurida ayolning eng yuksak arxetipi – ona obrazi bo‘lib, deyarli barcha xalqlarda u faqat ijobiy sifatlar bilan ulug‘lanadi. Umuman olganda, ayol konsepti xalq og‘zaki ijodida milliy ma’naviyat, qadriyatlar tizimi, axloqiy me’yorlar va gender munosabatlarini aks ettiruvchi muhim lingvokulturologik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

Rezyume. Ushbu maqolada xalq og‘zaki ijodida ayol konseptining lingvokulturologik, etnomadaniy va gender jihatlari tahlil qilinadi. Ayol obrazi turli xalq maqollarida aks etgan holda, xalqning axloqiy mezonlari, estetik qarashlari, ijtimoiy talablari va mentalitetini ifodalaydi. Maqolada o‘zbek, rus, fransuz, arab, gruzin, qirg‘iz va boshqa xalqlar maqollarida ayol obrazining ijobiy va salbiy timsollar orqali talqin qilinishi, ayollikka xos stereotiplarning shakllanishi hamda erkaklar nigohidagi ayol konseptining o‘ziga xos xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, ona arxetipining xalq og‘zaki ijodidagi yetakchi o‘rni alohida tahlil qilinadi. Tadqiqot lingvokulturologiya, gender tadqiqotlari va maqolshunoslik kesishgan nuqtasida ayol konseptining madaniy-semantik tabiatini ochib beradi.

Resume. This article analyzes the linguocultural, ethnocultural, and gender aspects of the concept of woman in folk oral tradition. The female image reflected in the proverbs of various peoples represents the expression of moral norms, aesthetic views, social expectations, and the mentality of a nation. The article examines the interpretation of the female image through positive and negative symbols found in Uzbek, Russian, French, Arabic, Georgian, Kyrgyz, and other national proverbs, as well as the formation of stereotypes associated with femininity and the specific features of the concept of woman in male perception. Special

[1] https://ziyouz.uz/hikmatlar/jahon-xalqlari-maqollari/qirgiz-maqollari-83-ta/
[2] https://nukadeti.ru/poslovicy/poslovicy-o-mame
[3] Даль В.И. Пословицы русского народа. – М., 1989. – С. 59.

attention is given to the leading role of the maternal archetype in folk oral creativity. The study reveals the cultural and semantic nature of the concept of woman at the intersection of linguoculturology, gender studies, and paremiology.

Резюме. В данной статье анализируются лингвокультурологические, этнометные и гендерные аспекты концепта женщины в устном народном творчестве. Женский образ, отражённый в пословицах различных народов, представляет собой выражение нравственных норм, эстетических взглядов, социальных требований и менталитета народа. В статье рассматривается интерпретация женского образа через позитивные и негативные символы в узбекских, русских, французских, арабских, грузинских, киргизских и других народных пословицах, а также формирование стереотипов, связанных с женственностью, и особенности концепта женщины в мужском восприятии. Отдельное внимание уделено ведущей роли материнского архетипа в устном народном творчестве. Исследование раскрывает культурно-семантическую природу концепта женщины на пересечении лингвокультурологии, гендерных исследований и паремиологии.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 11-12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

NURBOY JABBOROVNING ADABIY-MATNSHUNOSLIK MEROSI: ILMIY MAKTAB, METODOLOGIYA VA AMALIY NATIJALAR

Arslonv Abdimurod Karomatovich,
Termiz davlat universiteti
o'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi dotsenti

Matnshunoslik va manbashunoslik adabiyotshunoslikning ajralmas qismi bo'lib, milliy adabiy merosning ilmiy talqinini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Qo'lyozmalarni aniqlash, nusxalarni solishtirish, tanqidiy matnni yaratish va izohlar jamlanmasini taqdim etish – bularning barchasi zamonaviy filologiyaning metodologik poydevorini tashkil etadi. Professor Nurboy Jabborov ushbu yo'nalishlarda uzoq yillik izlanishlar olib borib, o'zbek matnshunosligida alohida ilmiy maktab va an'anani shakllantirdi.

Nurboy Abdulhakimovich Jabborov 1966-yilda Qashqadaryo viloyatida tug'ilgan. O'zining ilmiy faoliyatini Qo'lyozmalar institutida boshlagan, bu esa olimga qo'lyozmalar bilan ishlash, ularni kataloglash va tahlil qilish bo'yicha chuqur amaliy tajriba berdi. 1994-yilda «Furqat asarlarining qo'lyozma manbalari» mavzusida nomzodlik, 2004-yilda «Furqatning xorijdagi hayoti va ijodiy merosi» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilib, Furqatshunoslik va manbashunoslik sohasida alohida ilmiy obro'ga erishdi. Nurboy Jabborov O'zbekiston Milliy universiteti va boshqa ilmiy markazlarda faoliyat yuritib, ko'plab tadqiqotchilarga ilmiy rahbarlik qilgan, ilmiy kengashlarda va milliy hamda xalqaro anjumanlarda ishtirok etgan.

Olimning nashrga tayyorlagan asarlari turli yo'nalishlarni o'z ichiga oladi: matnni tanqidiy tahriri, izohlar va lug'at, monografiyalar va maqolalar. Quyida olimning eng muhim ishlari va ularning ilmiy qiymati haqida to'xtalamiz.

«Maoniy ahlining sohibqironi» monografiyasida Alisher Navoiyning tasavvufiy-axloqiy qarashlarini tahlil etib, uning badiiy obrazlari va futuvvat tushunchasining matndagi ifodasini o'rganadi. Nurboy Jabborov ushbu tadqiqoti Navoiyning asarlaridagi ma'naviy-axloqiy qatlamni germenevtik

yondashuv bilan ochib berganligi bilan ajralib turadi. Alisher Navoiy ijodi o‘zbek adabiyotshunosligida doimiy ilmiy e’tibor markazida bo‘lib kelgan. Ayniqsa, mustaqillik yillarida navoiynashunoslik yangi metodologik bosqichga ko‘tarildi. Bu jarayonda Nurboy Jabborovning «Maoniy ahlining sohibqironi» monografiyasi Navoiy ijodini ma’naviy-estetik va falsafiy talqin asosida o‘rganishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi[1]. Asar Navoiyni nafaqat buyuk shoir, balki ma’no va ma’rifat maktabining yetuk namoyandasi sifatida ilmiy asoslaydi. Nurboy Jabborov ushbu monografiyani yaratishda navoiynashunoslikdagi an’anaviy tarixiy-biografik yondashuvni kengaytirib, shoir ijodini ma’no kategoriyasi markazida tahlil qilishni maqsad qilgan[2]. Olim Navoiyning badiiy tafakkurini «lafz–ma’no» munosabatida yoritib, shoirni «maoniy ahli»ning yetakchi namoyandasi sifatida talqin etadi.

Asarda ilgari surilgan asosiy ilmiy g‘oya shundan iboratki, Navoiy ijodida so‘z tashqi bezak emas, balki ichki ma’naviy mazmun tashuvchisidir[3] Bu yondashuv Jabborov tadqiqotining nazariy asosini tashkil etadi.

Monografiyaning markaziy masalasi – «ma’no» tushunchasining ilmiy talqinidir. Olim Navoiyning g‘azal, doston va nasriy asarlarida ma’noning ustuvorligini quyidagi jihatlar orqali ochib beradi:

ma’noning axloqiy va tasavvufiy mazmuni;

so‘z va fikr uyg‘unligi;

badiiy timsollar orqali ma’naviy g‘oya ifodasi[4].

Olimning ta’kidlashicha, Navoiy uchun haqiqiy san’at so‘zning tashqi shaklida emas, balki uning ruhiy va falsafiy qatlamida mujassamdir. Bu qarash Nurboy Jabborovning Navoiyni «ma’rifat shoiri» sifatida talqin etishiga ilmiy asos bo‘ladi.

Asarda Navoiyning tasavvufiy qarashlari alohida boblarda tahlil qilinadi. Jabborov Navoiyning tasavvufni sof nazariy oqim sifatida emas, balki badiiy-estetik tizim sifatida namoyon etganini ko‘rsatadi. Xususan, «ishq», «komil inson», «nafs», «ma’rifat» kabi tushunchalar Navoiyning badiiy matnlari asosida izohlanadi.

Olim Navoiyning tasavvufiy qarashlarini Jomiy, Attor va boshqa sharq mutafakkirlari bilan qiyoslab, shoirning o‘ziga xos jihatlarini aniqlaydi. Bu esa asarning qiyosiy adabiyotshunoslikdagi ahamiyatini oshiradi.

«Maoniy ahlining sohibqironi» asari faqat nazariy xulosalar bilan cheklanmay, matnga tayangan ilmiy tahlil bilan ajralib turadi. Olim Navoiyning «Xamsa» dostonlari, «Mahbub ul-qulub», «Lison ut-tayr», g‘azal va ruboiylari asosida aniq matnshunoslik tahlillarini amalga oshiradi.

Nurboy Jabborov badiiy matndagi semantik qatlamlarni ochishda kontekstual va germenevtik usullardan samarali foydalanadi. Bu yondashuv Navoiyning badiiy tafakkurini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Mazkur monografiya navoiynashunoslikda bir qator ilmiy yangiliklarni ilgari suradi:

Navoiyni «ma’no ahli»ning yetakchi namoyandasi sifatida ilmiy asoslaydi;

Shoir ijodini estetik-falsafiy tizim sifatida talqin qiladi;

Matnshunoslik va adabiyotshunoslik metodlarini uyg‘unlashtiradi;

Navoiyning ma’naviy merosini zamonaviy ilmiy tafakkur bilan bog‘laydi.

Shu jihatlari bilan asar zamonaviy navoiynashunoslik taraqqiyotida muhim bosqich hisoblanadi.

Nurboy Jabborovning «Maoniy ahlining sohibqironi» monografiyasi Alisher Navoiy ijodini yangi ilmiy mezonlar asosida talqin etgan fundamental tadqiqotdir. Asar Navoiyni nafaqat buyuk shoir, balki ma’naviy tafakkur va ma’rifat maktabi asoschisi sifatida ilmiy jihatdan asoslaydi. Ushbu monografiya navoiynashunoslik, matnshunoslik va adabiyotshunoslik sohalarida olib boriladigan keyingi tadqiqotlar uchun mustahkam nazariy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

«Furqat asarlarining qo‘lyozma manbalari» (nomzodlik ishi) va «Furqatning xorijdagi hayoti va ijodiy merosi» (doktorlik) izlanishlari Furqatning qo‘lyozma manbalarini sistematik yig‘ish, nusxalarni solishtirish va tarixiy jihatdan joylashtirishga bag‘ishlangan. Olimning bu ishlarida matnshunoslik metodlari aniq ko‘rinadi – nusxa xususiyatlari, yozuvchilar xatoliklari, orfografik farqlar va stilistika aspektlari asosida tahririy qarorlar qabul qilingan.

Ustozning Ogahiy, Muqimiy, Ibrat va boshqa tahririyatlari (masalan, «Zubdatu-t-tavorix», «Mezoni zamon», Muqimiy asarlari) matnning tarixiy-lingvistik qatlamini ochib, zamonaviy o‘quvchiga tushunarli izohlar bilan taqdim etilgan. Har bir nashrda tahririy apparat – so‘zboshi, izohlar, lug‘at va nusxa tavsiflari – ilmiy mezonlarga mos ravishda tuzilgan.

Matnshunoslik tamoyillari va tahririy yondashuvlar. Olimning metodologiyasida quyidagi tamoyillar markaziy ahamiyatga ega:

Nusxalararo qiyos – barcha mavjud nusxalarni solishtirish va variantlarni tahlil qilish.

[1] Jabborov N. Maoniy ahlining sohibqironi. – Toshkent: Akademnashr, 2015. 1, 7–10-betlar.
[2] O‘sh asar, 1, 25–27-betlar.
[3] O‘sh asar, 48–55-betlar.
[4] Jabborov N. Maoniy ahlining sohibqironi. – Toshkent: Akademnashr, 2015. 48–55-betlar.

Kontekstual tahlil – matnni yozilgan davr, muallifning biografiyasi va ijtimoiy-siyosiy holat bilan bog‘lash.

Matn qatlami – asl (mualliflik) qatlam, qo‘shimcha/tahrir qatlamlari va keyingi tuzatishlarni ajratish.

Matn apparati – tahririy qarorlar, nusxa izohlari, variantlar ro‘yxati va lug‘atni batafsil berish.

Ilmiy obyektivlik – germenevtik subyektivlikni kamaytirish uchun manbalarni aniq belgilash va qarorlarni hujjatlashtirish.

Ushbu tamoyillar Nurboy Jabborov tahrirlarida har doim muntazam qo‘llanilib, o‘quvchi va tadqiqotchiga matnning to‘g‘ri tarixi va badiiy qatlamini taqdim etadi.

Aniq misollar orqali tahririy yondashuvni ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Furqat devonining bir nechta nusxalarida badiiy variantlar mavjud. Olim bu variantlarni vazn va ritm jihatdan solishtirib, qaysi variant aslga yaqinroq ekanligini belgilash uchun quyidagi mezonlarni qo‘llagan:

a) nusxa yozuvchisi uslubi va yozuv xatolari;

b) she‘rning vazn va ritm mosligi;

c) leksik uslubiy uyg‘unlik va Furqatning umumiy poetik manzara bilan mosligi.

Ushbu protsedura natijasida tanqidiy matn shakllantirilgan va matn apparatida batafsil berilgan.

Ogahiyning tarixiy asarlarini tahrir qilish jarayonida Nurboy Jabborov tarixiy voqealar, sanalar va toponimlarni qo‘shimcha manbalar (arxiv hujjatlari, boshqa tarixchilar matnlari) bilan solishtirib chiqqan. Bu matnning tarixiy ishonchliligini oshiradi va o‘quvchiga kontekstual ma‘lumot berishni ta‘minlaydi.

Olimning badiiy tahlillari nazariy va metodologik jihatdan boy. U Navoiyning ijodiy mexanizmlarini, tasavvufiy mafhumlarni (masalan, futuvvat, ma‘rifat, nafsga qarshi kurash) matndagi timsollar orqali ochib bergan. Navoiyning «Makorimu-l-axloq» va «Xamsa» asarlarini tahlil qilishda semantik qatlamlarni, metafora va allegoriya yordamida ishlatilgan badiiy usullarni tizimli ravishda ko‘rsatadi.

Furqatshunoslikda esa poetik tilning milliy-ma‘rifiy qirralarini, tilning uslubiy o‘ziga xosliklarini hamda zamonaviy nazariy qarashlarga mos keluvchi interpretatsiyalarni taklif qiladi.

Nurboy Jabborov nafaqat tadqiqotchi balki yetuk ilmiy rahbar bo‘lib, ko‘plab magistrantlar va doktorantlarni tarbiyaladi. Ustoz sifatida olimning tajribasi quyidagicha elementlardan iborat:

metodologik treninglar: matnshunoslik amaliyoti, nusxa tekshiruvi;

nashrga tayyorlash bo‘yicha seminarlar va amaliy mashg‘ulotlar;

ilmiy rahbarlik ostida amalga oshirilgan ilmiy loyihalar va qo‘lyozma kataloglashtirish ishlari;

xalqaro hamkorlik imkoniyatlarini yosh olimlarga taqdim etish.

Bularning natijasida Nurboy Jabborov maktabi hozirgi kunda ham faoliyat ko‘rsatib, uning shogirdlari mustaqil tadqiqotchilar sifatida faoliyat yuritmoqda.

Xalqaro hamkorlik va ilmiy ta‘sir. Nurboy Jabborovning xalqaro anjumanlarda ilmiy ishtiroki turkiy va fors-arab olimlari bilan hamkorlik qilishga imkon berdi. Olim xalqaro konferensiyalarda navoiynashunoslik, matnshunoslik va manbashunoslik bo‘yicha ma‘ruzalar qilgan. Bu esa uning ilmiy g‘oyalarining xalqaro maydonda muhokama qilinishiga va boshqa tillardagi ilmiy nashrlarga ta‘sir ko‘rsatishga xizmat qildi. Olimning yondashuvlari nazariy jihatdan barqaror va amaliy jihatdan yuqori natijalar beradi.

Professor Nurboy Jabborovning ilmiy merosi o‘zbek matnshunosligi va manbashunosligida muhim o‘rin egallaydi. Uning nazariy va amaliy yondashuvlari matnni tanqidiy tahrir qilish, qo‘lyozma manbalarni tahlil etish va badiiy asarlarni zamonaviy o‘quvchiga yetkazishda asosiy qoida va tamoyillar vazifasini bajardi.

Resume. Ushbu maqolada filologiya fanlari doktori, professor Nurboy Abdulhakimovich Jabborovning ilmiy faoliyati, matnshunoslik va manbashunoslik yo‘nalishlaridagi metodologik tamoyillari, nashrga tayyorlash va tahrirlash tajribasi, shuningdek uning ilmiy maktabi va pedagogik merosi tahlil etiladi. Maqola Olimning matnshunoslik, tanqidiy tahrir va badiiy-estetik tahlil sohalaridagi asarlariga tayangan.

Resume. This article analyzes the scientific activities of Doctor of Philology, Professor Nurboy Abdulhakimovich Jabborov, his methodological principles in the areas of textual and source studies, his experience in preparing for publication and editing, as well as his scientific school and pedagogical heritage. The article is based on the scholar’s works in the fields of textual studies, critical editing, and artistic and aesthetic analysis.

Резюме. В данной статье анализируется научная деятельность доктора филологических наук, профессора Нурбоя Абдулхакимовича Джабборова, его методологические принципы в области текстологии и источниковедения, опыт подготовки публикаций и редактирования, а также его научная школа и педагогическое наследие. Статья основана на работах ученого в области текстологии, критического редактирования и художественно-эстетического анализа.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 11-12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

SHUKUR XOLMIRZAYEV ASARLARIDA FOLKLOR MOTIVLARI VA ULARNING ESTETIK FUNKSIYASI

Saidova Muhabbatxon Shukrullayevna,
Namangan davlat universiteti,
o'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

O'zbek adabiyotining XX asr ikkinchi yarmi va XXI asr boshlaridagi taraqqiyotida O'zbekiston xalq yozuvchisi Shukur Xolmirzayev ijodi alohida o'rin tutadi. Yozuvchi o'zining hikoya, qissa, roman va publitsistik asarlari orqali milliy ruh, xalqona tafakkur va insoniy qadriyatlarni chuqur va ta'sirchan tarzda ifodalab bergan adib sifatida e'tirof etiladi. Uning ijodida xalq hayoti, urf-odatlari, qadimiy e'tiqodlar, afsona va rivoyatlarga xos tasavvurlar badiiy tafakkur bilan uyg'unlashib, zamonaviy adabiy jarayon bilan uzviy bog'langan holda namoyon bo'ladi. Shu jihatdan Shukur Xolmirzayev asarlarini folklor motivlari nuqtayi nazaridan o'rganish adabiyotshunoslik uchun muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Folklor motivlari – xalq og'zaki ijodida shakllangan mifologik tasavvurlar, ramziy obrazlar, an'anaviy syujetlar va xalqona estetik qarashlarning badiiy adabiyotdagi aksidir. Ular yozma adabiyotda faqat bezak yoki tarixiy fon vazifasini bajarib qolmay, balki asarning g'oyaviy-mazmuniy qatlamini chuqurlashtiruvchi, obrazlar ruhiyatini ochuvchi va muallif estetik pozitsiyasini belgilovchi muhim omil sifatida xizmat qiladi. Shukur Xolmirzayev ijodida folklor unsurlari ana shunday badiiy-estetik vazifani bajarib, asarlarga milliy ruh va falsafiy teranlik bag'ishlaydi.

Adib asarlarida uchraydigan xalqona hikmatlar, afsonaviy obrazlar, urf-odat va marosimlarga ishoralar, tabiat va inson munosabatiga doir mifologik qarashlar badiiy voqelikni yanada jonlantiradi. Bu motivlar orqali yozuvchi nafaqat xalqning tarixiy xotirasini aks ettiradi, balki zamonaviy insonning ichki kechinmalari, ma'naviy izlanishlari va ijtimoiy muammolarini ramziy yo'sinda yoritadi. Natijada folklor motivlari Shukur Xolmirzayev ijodida estetik vosita sifatida muallifning badiiy maqsadini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Shuning uchun Shukur Xolmirzayev asarlarida uchraydigan folklor motivlarini aniqlab, ularning badiiy talqini va estetik funksiyasini tahlil qilishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik. Tahlil jarayonida yozuvchining ayrim hikoya va qissalaridagi folklor unsurlarining syujet, obrazlar tizimi va g'oyaviy mazmunga ta'siri ochib berildi. Shu orqali adib ijodida folklorning nafaqat an'anaviy meros sifatida, balki zamonaviy badiiy tafakkur bilan uyg'unlashgan estetik hodisa ekanligi ilmiy asosda yoritib berishga harakat qilindi.

Dunyo adabiyotshunosligida folklor va yozma adabiyot munosabati muammosi bo'yicha hozirga qadar ko'plab yirik ilmiy tadqiqotlar yaratilgan[1]. Shuningdek, o'zbek adabiyotshunosligida bu masala o'tgan asrning 50-yillaridan beri jiddiy o'rganilgan[2].

Badiiy adabiyotda folklor motivlarining namoyon bo'lishi va ularning estetik funksiyasini o'rganish masalasi jahon adabiyotshunosligi va tilshunosligida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xalq og'zaki ijodiga xos obrazlar, mifologik tasavvurlar va ramziy syujetlarning yozma adabiyotga kirib kelishi badiiy matnning mazmuniy chuqurligi hamda estetik ta'sirchanligini oshiruvchi omil sifatida talqin etiladi. Mazkur nazariy qarashlar Shukur Xolmirzayev asarlarida folklor motivlarining badiiy-estetik vazifasini tahlil qilish uchun muhim metodologik asos yaratadi.

O'zbek adabiyotshunosligida Shukur Xolmirzayevning hayoti va ijodi, badiiyatiga doir taqriz, maqola, dissertatsiya, monografiyalar, zamondoshlar xotirasi yaratilgan[3]. Shular orasida Sh.Doniyorova hamda

[1] Азадовский М.К. Статьи о литературе и фольклоре. – М., -Л.: Гослитиздат, 1960. – 547 с.

[2] Собиров О. Халқ ижоди хазинаси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – 138 б; Ҳажиева Д. Эркин Воҳидовнинг фольклоризмдан фойдаланиш маҳорати: Филол фанлари бўйича фалсафа док. (PhD) дисс. – Урганч, 2023. – 139 б.

[3] Тавалдиева Г. Шукур Холмирзаев ҳикояларида воқеликни бадиий идрок этиш принциплари: филол. фан. номзод. дисс.. – Тошкент, 2001. – 158 б; Дониярова Ш. Ижодкор ва услуб. – Тошкент: Турон замин зиё, 2014. – 104 б; Ҳамидова М. Ҳозирги ўзбек адабиётида миллий қаҳрамон муаммоси. (Шукур Холмирзаев ижоди мисолида). – Наманган: Наврўз, 2020. – 153 б; Қўчқорова М. Бадиий сўз ва руҳият манзаралари. – Тошкент: Муҳаррир, 2011. – 232 б; Тошбоев О. Абадий замондош. Шукур Холмирзаев ҳаёти ва ижодий фаолиятидан лавҳалар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. – 480 б.

G.Tavaldiyeva adib hikoyalarida badiiy-uslubiy izlanishlarning o‘ziga xosligini, realistik badiiy idrok etish prinsiplarini tadqiq etishdi. M.Hamidova adib ijodida milliy qahramon yaratish muammosini, M.Qo‘chqorova esa adibning esselarini tadqiq etdi. Shuningdek, K.Shahobov esa Shukur Xolmirzayev nasrida o‘tish davri qahramonlari va o‘tish davri voqeligining badiiy talqinini o‘rgangan bo‘lsa, M.Tilovova esa yozuvchi hikoyalarida badiiy ijod fenomenologiyasi masalasini tadqiq etdi[1]. Yosh tadqiqotchi N.Yangiboyeva adibning shaxsiy arxivida saqlanayotgan qo‘lyozmalar va nashr variantlarning, badiiy asarning ijodiy biografiyasi masalalarini o‘rganayapti3. Ammo yangi o‘zbek nasrining yirik Vakili prozaning roman, qissa, hikoya, esse, badia janrlarida barakali ijod qilgan Shukur Xolmirzayev hikoyalarida folklorizmlar ifodasining ahamiyati, adibning folklorizmlardan foydalanish mahorati maxsus monografik tarzda tadqiq etilmagan. Adabiyotshunos S.M.Mamayusupovaning «Shukur Xolmirzayev hikoyalarida folklorizmning o‘rni»[2] nomli tadqiqot ishida biz to‘xtalgan masala atroflicha o‘rganilgan.

Shunday qilib, jahon tilshunosligi va adabiyotshunosligida olib borilgan mazkur tadqiqotlar Shukur Xolmirzayev asarlarida folklor motivlarining badiiy talqini, estetik funksiyasi va g‘oyaviy mazmunini o‘rganishda mustahkam nazariy asos yaratadi. Ushbu ilmiy qarashlar asosida adib ijodidagi folklor unsurlarining zamonaviy badiiy tafakkur bilan uyg‘unlashuvi va milliy-estetik ahamiyati yanada chuqurroq yoritiladi.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Shukur Xolmirzayevdan o‘zbek adabiyoti xazinasiga juda katta adabiy meros qoldi. Adib o‘zbek prozasining roman, qissa, hikoya, esse, badia ham badiiy publitsistikaning adabiy suhbat, ochiq xat, falsafiy esse, adabiy maqola janrlarida barakali ijod qildi.

Shukur Xolmirzayev XX asr tongida paydo bo‘lgan hikoya janrining go‘zal namunalarini yaratgan A.Qodiriy, Cho‘lpon, A.Qahhor, G‘.G‘ulom, Oybek, A.Muxtor kabi yirik hikoyanavislarning bu sohadagi ulkan tajribalarini o‘zlashtirdi, o‘rgandi. Bundan tashqari, adib rus, hind, fransuz, ingliz, nemis hamda qardosh xalqlarning hikoyachilik maktabini ham qattiq o‘rgandi. Natijada, yozuvchi o‘zbek hikoyachiligi taraqqiyotiga sezilarli darajada ta’sir o‘tkaza oladigan jami 86 ta hikoya namunalarini yaratdi. Adibning «Saylanma» 5 jildlikning 3-jildiga Shukur Xolmirzayevning hikoyalari jamlangan[3].

Biz adib asarlarini atroflicha tahlil qilganimizda uning hikoya va qissalarida folklor motivlari turli shakllarda namoyon bo‘lishi aniqlandi. Xususan, adib ijodida afsona va rivoyatlarga xos syujet unsurlari, xalqona ramzlar, urf-odat va marosimlarga oid tasvirlar, shuningdek, mifologik tafakkurga xos qarashlar muhim o‘rin egallaydi. Ushbu folklor motivlari bevosita ko‘chirma shaklda emas, balki zamonaviy badiiy tafakkur bilan uyg‘unlashtirilgan holda ifodalanadi.

Yozuvchi folklor elementlaridan voqealar rivojini kuchaytirish, obrazlar ruhiyatini ochish va badiiy muhitni milliy kolorit bilan boyitish maqsadida foydalanadi. Natijada folklor motivlari asar mazmunining ajralmas qismiga aylanib, syujet va g‘oyaviy qatlam bilan uzviy bog‘lanadi.

Tahlil shuni ko‘rsatdiki, folklor motivlari Shukur Xolmirzayev asarlarida obrazlar xarakterini shakllantirishda muhim estetik vosita sifatida xizmat qiladi. Xalqona dunyoqarash, e’tiqod va qadriyatlar orqali obrazlarning ichki kechinmalari, axloqiy tanlovlari va hayotga munosabati yoritiladi. Bunda folklor unsurlari qahramonlarning ruhiy holatini chuqurroq ochib berishga yordam beradi.

Ayrim asarlarda folklor motivlari ramziy xarakter kasb etib, inson va tabiat, o‘tmish va bugun, an’ana va zamonaviylik o‘rtasidagi ziddiyatlarni badiiy ifodalashga xizmat qiladi. Bu holat adibning folklorni faqat tarixiy meros sifatida emas, balki tirik estetik tizim sifatida talqin qilganini ko‘rsatadi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, folklor motivlari Shukur Xolmirzayev asarlarida bir necha asosiy estetik funksiyani bajaradi. Avvalo, ular asarning badiiy ta’sirchanligini oshiradi va matnga poetik teranlik bag‘ishlaydi. Xalq og‘zaki ijodiga xos ramz va timsollar asar mazmunini boyitib, o‘quvchini milliy madaniyat va tarixiy xotira bilan bog‘laydi.

Shuningdek, folklor motivlari muallifning g‘oyaviy niyatini bilvosita ifodalash vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ular orqali yozuvchi jamiyatdagi ma’naviy muammolar, insoniy qadriyatlar va axloqiy masalalarni ramziy yo‘sinda yoritadi. Bu esa asarlarning estetik qiymatini oshirib, ularni falsafiy mazmun bilan boyitadi.

Shukur Xolmirzayev ijodida folklor motivlari zamonaviy badiiy tafakkur bilan uyg‘unlashgan holda qo‘llaniladi. An’anaviy xalqona qarashlar zamonaviy voqelik, ijtimoiy muammolar va individual inson taqdiri bilan bog‘lanib, yangi badiiy ma’no kasb etadi. Bu

[1] Тиловова М. Бадиий ижод феменологияси (Шукур Холмирзаев ҳикоялари мисолида): Филол. фанлари бўйича фалсафа док. (PhD) автореф... Қарши, 2023. – 54 б.

[2] Mamayusupova S.M. Shukur Xolmirzayev hikoyalarida folklorizmning o‘rni: Филол. фанлари бўйича фалсафа док. (PhD) автореф... – Жиззах, 2023. – 54 б.

[3] Холмирзаев Ш. Сайланма. I жилд. Ҳикоялар. – Тошкент: Шарқ, 2003. – 448 б; Шу муаллиф. Сайланма. II жилд. Ҳикоялар. – Тошкент: Шарқ, 2005. – 464 б; Шу муаллиф. Сайланма. III жилд. Ҳикоялар. – Тошкент: Шарқ, 2006. – 512 б.

jarayonda folklor unsurlari transformatsiyaga uchrab, zamonaviy estetik talablar asosida qayta talqin qilinadi.Masalan, adibning «Nimadir yo‘q bo‘ldi» hikoyasida «o‘rgangan ko‘ngil o‘rtansa qo‘ymas» maqoli ishlatilgan bo‘lsa, «Olma yemadim» hikoyasida «Og‘zining suvi keldi», «tanglayi qurib, tili og‘zida aylanmay qolish», «ko‘zini qismoq», «pishillab yemoq» kabi ibora va obrazli xalqona ifodalar qatorida «bir mayizni qirqqa bo‘lib yemoq» matali o‘zlashma shaklida ishlatilgan. Hikoya kontekstida ishlatilgan mazkur oddiy folklorizmlar badiiy asar badiiyatini kuchaytirishga xizmat qilgan. Masalan: «Bir hafta o‘tdi. Er-xotin begonalar kabi yashashdi. Qismatulla qiynaldi, o‘rtandi: o‘rgangan ko‘ngil o‘rtansa quymas. Shubhasiz, Hikmatoy ham azob chekkan bo‘lsa kerak: axir u ham Qismatullaga o‘rgangan...»[1]. Mazkur parcha «Nimadir yo‘q bo‘ldi» hikoyasidan olindi. Hikoya qahramonlari Qismatullo va Hikmatoy bir ziyofatga borishib, muomalasi o‘zaro va o‘zgalarga nihoyatda halim, shirin juftlikni ko‘rishib, ularning orasidan ola mushuk o‘tadi. Qismatullo ularga taqlid qilib, xotinidan, o‘sha ziyofatda ko‘rgan juftning ayolidek bo‘lishni Hikmatoydan kutadi. Taassufki, ularning bir-biriga nisbatan tushunarsiz, sovuqqon munosabati tufayli ikkalasining ham qalbidagi chinakam muhabbat darz ketadi. Begonalardek bir-birining ko‘nglini qoldirib yashayotgan er-xotinning ruhiy holatini jonli ifodalash maqsadida yozuvchi xalq orasida mashhur bo‘lgan «O‘rgangan ko‘ngil o‘rtansa, qo‘ymas» maqolini hikoya matniga singdirib yuborgan. Ikkinchi hikoyada esa «Bir mayizni qirq bo‘lib yeyish» obrazli xalqona ifoda «Bir mayizni ikki bo‘lib yeyish» shaklida biroz o‘gartirilgan holda ishlatilgan. Masalan: «Eshakka o‘rnashib o‘tirgan kishi bo‘lib, Mo‘minga qaragandim, uning yuzidan menga achinganini payqab qoldim. Darhol, ko‘zimni qisdim. Bir mayizni ikki bo‘lib yeydigan Mo‘min do‘stim fikrimni payqadi. Asta sekin eshagi menga yaqinlashib keldi»1. Shukur Xolmirzayev hikoya kontekstida oddiy folklorizmni yuzaga keltirar ekan, xalq og‘zaki ijodida azaldan mavjud bo‘lgan «Bir mayizni qirq bo‘lib yemoq» obrazli xalqona ifodani o‘zgartirib, o‘zlashtirib, do‘sti bilan «Bir mayizni ikki bo‘lib yeyish» shaklida qo‘llagan. Ya’ni, ikki do‘stning nihoyatda qadrdonligiga «Bir mayizni ikki bo‘lib yeyish» qayta ishlangan oddiy folklorizm turini qo‘llash orqali yozuvchi hikoya matnida ikki do‘stning qadrdonligiga ishora etib, ta’sirchanlik hamda jonlilik, milliy ifodaga erishadi. Natijada, hikoya matnida oddiy folklorizm vujudga kelgan. Adib mazkur xalqona obrazli ifodani hikoyaning tarkibiy qismiga aylantira bilgan. Ma’lumki, xalqimiz orasida «So‘nggi pushaymon, o‘zingga dushman» degan xalq maqoli yuradi. Mazkur maqol mohiyatida «pushaymonlik»ning salbiy oqibati, inson ruhiyatiga, hayotiga yetkazadigan yomon oqibati obrazli ifodalangan. Shukur Xolmirzayev «Hayot abadiy» hikoyasida mazkur maqolni o‘zgartirib, badiiy asar matnida oddiy folklorizm yaratgan. Masalan: «To‘g‘ri, Nodir oilasiga ko‘p beparvo edi. Xolxo‘ja milisaning: «Sen g‘irt proletarsan!» deganida jon bor.

Adib asarlarini tahlil qilish asosida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

1.Shukur Xolmirzayev asarlarida folklor motivlari muntazam va tizimli ravishda qo‘llanilib, badiiy matnning muhim estetik komponenti sifatida namoyon bo‘ladi.

2.Folklor unsurlari obrazlar xarakterini ochish, syujetni rivojlantirish va g‘oyaviy mazmunni chuqurlashtirishda faol estetik funksiyani bajaradi.

3.Adib ijodida folklor motivlari milliy madaniyat va tarixiy xotirani aks ettiruvchi ramziy-estetik kod vazifasini bajaradi.

4.Folklor va zamonaviy badiiy tafakkur uyg‘unligi Shukur Xolmirzayev asarlarining estetik qiymatini oshirib, ularni o‘zbek adabiyotida alohida ahamiyatga ega badiiy hodisaga aylantiradi.

Umuman olganda, Shukur Xolmirzayev ijodida folklor motivlarining nafaqat an’anaviy meros sifatida, balki chuqur estetik va g‘oyaviy ahamiyatga ega badiiy vosita ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Shukur Xolmirzayev asarlarida folklor motivlarining badiiy talqini va ularning estetik funksiyasini kompleks tahlil qilish jarayonida adib ijodida folklor unsurlarining tasodifiy yoki ikkinchi darajali element emas, balki asar g‘oyaviy-mazmuniy va estetik tizimining muhim tarkibiy qismi ekanligi ilmiy asosda isbotlandi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Shukur Xolmirzayev folklor motivlaridan milliy ruhni ifodalash, xalqona tafakkurni jonlantirish hamda obrazlar xarakterini chuqurlashtirish maqsadida mahorat bilan foydalanadi. Afsona, rivoyat, ramz va xalqona tasavvurlar adib asarlarida zamonaviy badiiy tafakkur bilan uyg‘unlashib, yangi estetik mazmun kasb etadi. Natijada folklor motivlari asarning badiiy ta’sirchanligini oshirib, o‘quvchini milliy madaniyat va tarixiy xotira bilan bog‘laydi.

Shuningdek, tahlil davomida folklor unsurlarining Shukur Xolmirzayev asarlarida ramziy-estetik kod sifatida namoyon bo‘lishi aniqlandi. Ushbu kodlar orqali yozuvchi inson, jamiyat va tabiat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni, ma’naviy muammolarni va axloqiy qadriyatlarni badiiy jihatdan teran ifodalagan. Bu holat adib ijodining estetik va falsafiy qiymatini yanada oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, Shukur Xolmirzayev asarlarida folklor motivlari milliy adabiyotimizning boy es-

[1] Холмирзаев Ш. Нимадир йўқ бўлди / Холмирзаев Ш. Сайланма. Ҳикоялар. 1 жилд. – Тошкент: Шарқ, 2003. – Б. 32.

tetik an’analari va zamonaviy badiiy tafakkur uyg‘unligini ifodalovchi muhim badiiy hodisa bo‘lib, ularni o‘rganish o‘zbek adabiyotshunosligi uchun dolzarb ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Tahlil natijalariga tayangan holda quyidagi ilmiy va amaliy takliflar ilgari suriladi:

1.Shukur Xolmirzayev asarlaridagi folklor motivlarini yanada chuqurroq o‘rganish maqsadida ularni boshqa zamonaviy o‘zbek adiblari ijodi bilan qiyosiy tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

2.Adib ijodidagi folklor motivlarini semiotik va intertekstual yondashuvlar asosida alohida tadqiqot mavzusi sifatida rivojlantirish mumkin.

Resume. The article examines folklore motifs in the works of Shukur Kholmirzayev and analyzes their aesthetic function within the literary text. The study reveals that elements of oral folk tradition, including mythological images, symbols, customs, and ritual representations, are organically integrated into the writer’s poetics and serve as essential meaning- and image-forming components. Folklore motifs contribute to the deepening of the ideological and artistic content, the disclosure of characters’ inner worlds, the enhancement of national color, and the philosophical depth of the text, reflecting the interaction between traditional folk worldview and modern artistic thinking and confirming their significant role in the development of contemporary Uzbek literature.

Резюме. В статье анализируются фольклорные мотивы в произведениях Шукура Холмирзаева и раскрывается их эстетическая функция в художественном тексте. Установлено, что элементы народного творчества – мифологические образы, символы, традиции и обрядовые представления – органично интегрированы в авторскую поэтику и выступают важным смысло- и образообразующим компонентом произведений писателя. Фольклорные мотивы способствуют углублению идейно-художественного содержания, раскрытию внутреннего мира персонажей, усилению национального колорита и философской направленности текста, а также отражают взаимосвязь традиционного народного мировоззрения и современного художественного мышления, что подтверждает их значимую роль в развитии современной узбекской литературы.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 11-12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

PISANDIY VA HAZINIY IJODIDA ANDIJON ZILZILASINING NAZMIY BAYONI

Barziyev Oybek Xabibullayevich
Farg'ona davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti o'lkada yuz bergan turli voqeliklarni realistik uslubda aks ettirishi bilan o'ziga xos ahamiyatga ega. O'tmisgda yuz bergan ana shunday mudhish voqealaridab biri XX asr boshlarida Andijon hududlarida yuz bergan zilzila va uning oqibatida kelib chiqqan ayanchli holatlar sanaladi. Mazkur zilzila tafsilotlari milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotiga, ayniqsa, she'riy asarlariga an'anaviy mavzu sifatida kirib keldi. Zilzilaning yuz berish tafsilotlari va uning sabab hamda oqibatlari xususida nafaqat Farg'ona vodiysining, balki O'zbekistonning turli hududlarida yashab ijod etgan shoirlar uning kutilmagan talofat ekanligiga, u keltirib chiqargan achinarli holatlarga alohida urg'u bergan holda o'z munosabatini bildirdilar. Davr shoirlari ijodida zilzila tufayli ziyon ko'rgan Andijon aholisiga yurakdan achinish, ularga hamdardlik bildirish kabi g'oyalarni ifodalagan holda xalqning ushbu mash'um hodisadan to'g'ri xulosa chiqarishi va Yaratganga tavba qilish lozimligiga alohida da'vat etdilar.

Milliy uyg'onish davri Qo'qon adabiy harakatchiligining namoyandalaridan biri Avazmuhammad Yormuhammad o'g'li Pisandiy (1816-1918) ijodida ham ushbu talofat tafsilotlariga bag'ishlab yozilgan masnaviy usulidagi she'r mavjud.

Jami 17 baytdan iborat bo'lgan shoir masnaviysi Qo'qon Adabiyot muzeyi jamgarmasining Inv.№169. KP 4982-arxivida saqlanadi. Shoir ijodida ham zilzila yuz bergan yil va oy, sanaga alohida murojaat qilingan holda uning sodir bo'lishiga sabab qilib aholida insof va diyonat, hayo hamda himmatning yo'qolib borayotganligi ko'rsatiladi. "Shoir zilzila talofatlarini tasvirlab, bu ofat xalqda insofu diyonat, hayoyu himmat yo'qolganidan ro'y berdi, deb yozadi. Pisandiy she'rida ham zilzilaning ro'y bergan yili ta'rix orqali berilgan[1]".

Qo'qon adabiy muhitining yana bir vakili Ziyovuddin Xaziniy to'ra ijodida mazkur talofatning tafsilotlariga bag'ishlangan ikkita musaddas uchraydi. Shoirning 1999-yilda nashr qilingan devonidagi "Gunohimni xudoyo..." deb boshlanuvchi musaddasining har bandi oxirgi misralari

O'zing rahm aylagil, Farg'onani zeri turob etma,
Bu dor ul mulkni Toshkand, Andijon yanglig' xarob etma

misralari bilan yakunlanib, Farg'onani ham tuproq ostida qolmasligini Yaratgandan so'rash motivlari yetakchilik qiladi. Shoir musaddasida uning zamondoshlari ijodida kuzatilgan zilzila yuz berishiga sabab – insonlarning Xudodan qo'rqmay gunoh qilishlari, shuning uchun ularning boshlariga balo kelganligida deb biladi:

Ki sandin qo'rqmayin bir necha odam haddidin oshti,
Ziroat o'rnig'a el ma'siyatlar tuhmini sochti,
Gunah daryosi mavj urdi, jahon ichra to'lib-toshti,
Balo boshig'a kelg'uncha xaloyiq turfa ko'p shoshti,
O'zing rahm aylagil, Farg'onani zeri turob etma,
Bu dor ul-mulkni Toshkand, Andijon yang'lig' xarob etma[2].

Shoir musaddasining keyingi bandida diniy-tasavvufiy g'oyalar mujassamlashgan bo'lib, tarixda yuz bergan sabab-oqibatlar bilan bog'liq bo'lgan rivoyatlar misol tariqasida keltiriladi. Ular orqali zilzila tafsilotlarini yanada tasvir imkoniyatlarini kengaytirishga harakat qiladi. Muhammad payg'ambarimizning ummatlariga kelgan bu balolar ularning fe'lidan ekanligidan Xoliq bu yer yuzini tebratganligiga ishora qiladi:

Xatosi haddin oshtiki, Lut qavmini yer yutti,
O'shal Nuhi nabiyni ummati to'fon bila ketti.
Muhammad ummatig'a bu balolar fe'lidin yetti,
Gunohi ko'pligidin Xoliqi bu yerni tebratti,
O'zing rahm aylagil, Farg'onani zeri turob etma,
Bu dor ul-mulkni Toshkand, Andijon yang'lig' xarob etma.

Haziniy to'ra ham o'z zamondosh shoirlari kabi

[1] "Andijon adabiy muhiti" fanidan o'quv-uslubiy majmua / Tuzuvchi: Abdullayeva D. – Andijon, 2021. – B. 63.
[2] Haziniy. Devon / So'zboshi, lugat-izohlar mualliflari va nashrga tayyorlovchilar: Madaminov A., Jo'raboyev O. – Toshkent: Ma'naviyat, 1999. - B.147.

musaddasining so‘nggi bandini Habibdan ummatlarining qilgan gunohlarini kechishini iltijo qilib so‘ragan holda tamomlaydi:

Habibing hurmatidin ummatin kechgil gunosini,
O‘zing afv etmasang, mushkil erur qilg‘on xatosini,
Talab qilg‘on gadoga dargahingdin muddaosini,
Xudavondo, qabul etgil Haziniy iltijosini,
O‘zing rahm aylagil, Farg‘onani zeri turob etma,
Bu dor ul-mulkni Toshkand, Andijon yang‘lig‘ xarob etma.

Shoirning keyingi musaddasida ham mazkur fikrlar mantiqan davom etadi. Musaddasda boshqa shoirlar ijodida kuzatilgan zilzilaga bag‘ishlangan tasviriylik yetakchilik qiladi. Uning nogoh ro‘y berishini esa Xudoning qahri ekanligi deya tasvirlab, Andijon aholisi zilzila yuz bergan paytni oxir zamon bo‘lyapti, deb o‘ylab barcha tashvishda qolganligi haqida bayon etadi:

Zilzila birla xarob bo‘ldi bu mufsid Andijon,
Turfatul-aynida yakson aylading qahring bilon,
Qudratingni bildilar g‘aflatchilar xurdu kalon,
Barcha tashvishda edi, bo‘lg‘aymu deb oxir zamon?
Saxlagil Farg‘onani bul iltijoning hurmati,
Andijon yanglig‘ xarob etma duoning hurmati[1].

Musaddasning keyingi bandida shoirning avvalgi ijodida uchragan diniy-ilohiy qahramonlar: Ayyub, Hazrati Birjis kabi diniy obrazlarning nomlari keltirilgani holda ularning qismatiga yozilgan sinovlar bilan o‘rtoqlashadi. Bu murojaati orqali esa Andijon aholisini insof va diyonatga da’avt etmoqchi bo‘ladi.

Musaddasda payg‘ambarlar hayotidan misollar keltirish orqali odamlarning xatosi haddidan oshib keltganligi, Muhammadning ummatlarini doimo Olloh suyab kelganligi, endi esa u bandalariga o‘z qudratini ko‘rsatib ularga sinov yuborganligini an’anaviy so‘z va uslub orqali tasvirlaydi:

Boshqa mursallarning qavmini qilur erding g‘azab,
Gar xatosi haddin oshib, onlar o‘lsa beadab,
Bul Muhammad ummatini san suyar erding ajab,
Bandalarga qudratingni bilirub qo‘yding sinab,
Saxlagil Farg‘onani bul iltijoning hurmati,
Andijon yanglig‘ xarob etma duoning hurmati.

Haziniy musaddasining so‘nggi bandida boshqa uning zamondoshlari ijodida ham ko‘p bora uchragan insonlarning erta-yu kech duo qilib, tavba qilishlariga chorlash motivlari yetakchilik qiladi. U barcha talofat va ofatlarga sababchi bandalarning o‘zi degan yagona xulosaga kelgan holda o‘z birodarlariga nasihat qiladi. Musaddasining oxirgi bandida uch marta Xudo nomini keltiradi. Shu bilan birga shoirning o‘zi ham kecha-kunduz yig‘lab undan o‘zi tug‘ilib o‘sgan Farg‘onani ham tuproq ostida qoldirmasligi haqida iltijolar qilib, u voyaga yetgan joyni yo‘qotib qo‘yishdan xavfsiragan holda yozadi:

Erta-yu kech, shomu sabo aylang, birodarlar, duo,
Boshimizga g‘oyibidin Haq yubormasdan balo,
Tavba aylab, ey birodarlar, tilang Haqdin pano,
Kecha-kunduz uxlamay yig‘lar Haziniy, der: “Xudo”,
Saxlagil Farg‘onani bul iltijoning hurmati,
Andijon yanglig‘ xarob etma duoning hurmati[2].

Xullas, o‘tgan asrning boshlarida Andijion hududalrida yuz bergan tasodifiy zilzila va u keltirgan salbiy oqibatlar milliy uyg‘onish davri she’riyatiga an’anaviy mavzu sifatida kirib keldi. Davrning shoirlari mazkur ko‘ngilsiz voqeadan ta’sirlangan holda aholining real turmush tarziga yurkadan achinish his-tuyg‘ularini yozgan lirik asarlarida mahorat bilan ifodalashga harakat qildilar.Andijon zilzilasi tafsilotlariga bag‘ishlab yozilgan lirik asarlarda voqeabandlik va tasviriylik usuli yetakchilik qilishi mazkur asarlarning asosiy mazmunini ifodalashda yetakchilik qildi. Davrning ushbu mavzuga bag‘ishlangan nazmiy asarlardagi an’anaviy obraz, detal va so‘z qo‘llash mahorati esa ijodkorlarining bir-birlaridan ta’sirlanganligidan dalolat beradi.

Rezyume. Maqolada o‘tgan asrning boshida Andijon hududida yuz bergan zilzila tafsilotlari Qo‘qon adabiy muhitining vakillari Avazmuhammad Yormuhammad o‘g‘li Pisandiy va Haziniy to‘ra ijodida bir-biriga qiyoslangan holda bayon qilinadi. Har ikki shoirning zilzila bayoniga qaratilgan qarashlari, ularning she’riyatidagi tasviriy ifodalar, obraz va so‘z qo‘llash mahorati haqidagi uyg‘un jihatlar tahlil doirasiga tortiladi.Shoirlar zilzilaning yuz berish sabablariga munosabatlari va ularni atroflicha dalillashlari, Andijon aholisini insof va diyonatga chaqirish haqidagi an’anaviy fikrlari diniy tushunchalar orqali izohlanganligi qiyosiy aspektda tekshirilgan.

Reyume. This article analyzes the depiction of the Andijan earthquake that occurred in the early 20th century through the works of Avazmukhammad Yormukhammad ugli Pisandi and Khazini Tura, two prominent figures of the Kokand literary environment. Their perspectives on the disaster, their use of imagery, and their mastery of language and symbolism are examined through a comparative approach. The poets’ reflections

[1] Yuqoridagi asar. - B.151.
[2] https://kh-davron.uz Bayozi Haziniy.18.07.2014. – B.7.

on the causes of the earthquake, their reasoning, and their calls for the Andijan people to embrace integrity and faith are explored, particularly in the context of religious beliefs. The study also investigates how they interpreted the disaster through traditional moral and theological explanations.

Резюме. В статье подробно рассказывается о землетрясении, произошедшем в начале прошлого века в Андижанской области. В произведениях Писанди и Хазини о сыне Авазмухаммаде Ёрмухаммаде, представителях литературной среды Коканда. В рамки анализа вовлечены взгляды обоих поэтов на описание землетрясения, их образные выражения в стихах, их умение применять образ и слова. Сравнительно проверено, что отношение поэтов к причинам землетрясения и их всесторонние доказательства, традиционные представления о призыве жителей Андижана к справедливости и религиозности трактуются через религиозные концепции.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 11-12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

«RA'NO VA ZEBO» DOSTONIDA XIROMIY BADIIY MAHORATI

Sultanova Raisa Xayrullayevna,
Xalqaro innovatsion universiteti
o'zbek filologiyasi va jurnalistika kafedrasi o'qituvchisi

Mullo Qurbon Xiromiy 1796-yilda Buxoro amirligiga qarashli Kesh viloyatida Kitob shahrining Charmgaron guzarida kosib oilasida dunyoga kelgan. Uning «Chor darvesh»(1834), «To'tinoma» (1854), «Ra'no va Zebo»(1858) dostonlari mavzu ko'lami, badiiy salmoqdorligi bilan XIX asr o'zbek dostonchiligida muhim ahamiyatga egadir. Xiromiyning «Ra'no va Zebo» dostoni shu nomdagi o'zbek tilida sayqal topgan ilk asardir. O'zigacha bo'lgan nasriy, fors tilida yozilgan «Ra'no va Zebo» nomli asarlardan farqli o'laroq Xiromiy bu mavzuda nazmda, vazn va qofiyaga kiritgan holda, turfa badiiy vositalardan foydalanib, masnaviy shaklida ajoyib doston yaratdi.

«O'z xarakteri nuqtayi nazaridan ta'lim-tarbiyaviy, axloqiy-didaktik doston hisoblangan «Ra'no va Zebo» Xiromiy ijodining kamolot bosqichida yaratilgan. Xalq og'zaki ijodida sayyor syujetdan vosita sifatida foydalanish, shu orqali ilg'or g'oyalarni tarannum etish «Ra'no va Zebo»da o'z me'yoriga yetgan.»[1]

«Ra'no va Zebo» dostoni juda qisqa hamd, na't, alqob va munojotdan so'ng muallif yashagan joy – Shahrisabz madhiga bag'ishlangan qasida bilan boshlanadi. Bunda Xiromiy Tangri lutfi bilan zeb-ziynat topgan jannatmisol yurt – Shahrisabzning go'zal tabiati, baland qo'rg'oni, ayniqsa, bahor faslida yanada ko'rkam tus oluvchi shahar tarovati hamda dilkash odamlari haqida faxr bilan so'zlaydi.

G'arazkim, Shahrisabzi jannat oyin
Topibon tangri lutfi birla tazyin.
Iki jonib, iki daryoyi mavvoj.
Falak yuzig'a mavjidin urib koj.
Hisori yetti ko'kdin bosh oshurg'an,
Falak burjig'a burji ta'n urg'an.
Butub shahr ichra har jonib xiyobon,
Yeri payvast sumbul birla rayhon.
Na yuzdin bo'lmasun fasli bahori:
O'tar har ko'chasidin jo'ybori.
Sarosar yer yuzidur sabzai tar,
Degaysenkim, inibdur charxi axzar.
Arig'lar har tarafdin jadvali siym,
Yonida sabza – mo'yak anga taslim.
Ulusni sayd etar andoqki mahvash,
Bu yuzdin oni derlar Keshi dilkash.[2]

[1] Qorayev T. Xiromiy (Hayoti va ijodi). – Toshkent : Fan, 1977. – B. 60.
[2] Xiromiy. Ra'no va Zebo. – Toshkent: O'zadabiynashr, 1962. – B. 5.

Dostonning og‘ir sharoitda – Shahrisabz va Kitob Nasrullaxon tomonidan qamal qilingan vaqtda – yozilganini hisobga olsak, Shahrisabz ta’rif etilgan betakror misralardan ayon bo‘ladiki, muallif tinch, osuda, gullab-yashnagan diyorini juda sog‘ingan. Shahrisabz vasfiga bag‘ishlangan qasida Xiromiyning o‘tkir peyzaj ustasi ekanligini ham ko‘rsatib turibdi.

Go‘yoki ko‘k, ya’ni samo yer yuziga ingandek yashillikka burkangan Shahrisabz shahri ta’rifidan so‘ng Xiromiy soqiyga murojaat etib, qadah keltirishini so‘raydi. «Qadah ichib, bir qissa boshlayinki, har manzilda «Mahfiloro» kabi mashhur bo‘lsin», – deydi. Soqiyga murojaat qilingan ushbu qismda muallifning ko‘tarinki kayfiyati, asar voqealarini ishonch bilan boshlashga tayyorligi seziladi. Dostonda soqiyga murojaat qilingan o‘rinlarda muallifning qiyofasi, ma’naviy dunyosi o‘z aksini topadi.

«Ra’no va Zebo» dostonining qoliplovchi hikoyasi podshoh Malik Rayhon fazilatlari va u boshqargan davlatning adolatli boshqaruvini maqtash bilan boshlanadi.

Xo‘tan mamlakatining Hotamtoy kabi saxovati bisyor, adolatidan xalqi tun-kun bahramand, hatto musofirlar ham iltifotidan xursand, odilligining yoqimli shamolidan dam-badam el jarohatiga malham bo‘ladigan hukmdori Malik Rayhon bor edi.

Shukuhi hashmati olamg‘a mashhur,
Bilodu kishvari obodu ma’mur.[1]

Xiromiy Malik Rayhon sifatlari ta’rifida buyukligini Iskandar, shon-shavkatini Faridun, tabiatini Rustamga qiyoslasa, nasl-nasabining kelib chiqishini Doro bilan tutashtiradi. Yer yuzida askarlari qum hisobi beqiyos, davlati charog‘i yulduzlar hisobi bo‘lgan hukmdor xalqni ruhlantiruvchi, xalqqa ishonch bag‘ishlovchi edi.

Xiromiy podshoh – Malik Rayhon ta’rifida tanosub, tashbeh, talmeh, ta’did, mubolag‘a, sifatlash kabi badiiy san’atlardan unumli foydalangan holda ifoda go‘zalligiga erisha olgan. Aynan Malik Rayhon obrazi orqali muallif xalqparvar, adolatli, dono va tadbirkor hukmdorni orzu qilayotgani ham aks etadi.

To‘satdan bir kuni hukmdor – Malik Rayhon kasallanib, to‘shakka yotib qoladi. Hakimlar har qancha harakat qilishmasin, tuzata olishmaydi. Ahvoli og‘irlashganini sezgan shoh davlat arboblari va yaqin kishilarini chaqirib, vafot etsa, o‘rniga ukasi – Sanavbarshohni podshoh bo‘lishini, o‘g‘li Ra’no ulg‘aygach, uni ukasi – Sanavbarshohning qizi Zeboga uylantirib, taxtni olib berishni vasiyat qiladi. Ko‘p o‘tmay Malik Rayhon vafot etadi. Sanavbarshoh akasi tomonidan qo‘yilgan barcha shartlarni qabul qilib taxtga o‘tiradi. Biroq u va’dalarini ham, vasiyatni ham unutadi. Oradan yillar o‘tib Ra’no bilan Zebo ham ulg‘ayadi. Ular bir-biriga ko‘ngil qo‘yib, ahyon-ahyonda uchrashib turishadi. Malik Ra’no Sanavbarshoh oldiga sovchi yuborib, qizni va taxtni so‘raydi. Sanavbarshoh esa ikkala talabni ham rad etadi.

Sanavbarshoh chu bildi so‘z maoli
Ham ul dam o‘zgacha bo‘ldi xayoli.
Javobiga alarni aydi bir-bir:
– Bu so‘zni aylamangiz manga taqrir!
Kishi tesha ayog‘iga urarmu?!
Sevar yorin kishiga topshirarmu?!
Hukumatdur manga mahbub-u marg‘ub,
Kishi mahbubini hifz etmog‘i xub![2]

Xiromiy Sanavbarshoh qiyofasida xalq, millat taqdirini o‘ylamaydigan, faqat o‘z manfaati, taxtini har narsadan ustun ko‘radigan zolim shoh obrazini hamda o‘sha davr ijtimoiy-siyosiy tuzumida mavjud illat: toj-taxt uchun kurashning salbiy oqibatlarini ham ko‘rsata oladi. U taxtini saqlab qolish uchun hatto o‘z qizini Xitoy hoqoniga berishga rozi bo‘ladi.

Dostonning bosh qahramonlaridan biri Zebo mard, o‘z maqsadi sari ildam harakat qiladigan, qiyin vaziyatlarda ham tushkunlikka tushib qolmasdan kurashuvchanligi, donoligi, tadbirkorligi bilan ajralib turadigan obrazlardan biridir. Zebo otasining Xitoy hoqoniga berishga rozi bo‘lganini eshitgandan so‘ng, nikoh to‘yi kuni kechasi Ra’no bilan saroydan qochadi. Yarim tunda el uyquga ketganda ikkisi: Ra’no bilan Zebo ot minib shitob bilan yo‘lga tushadi. Uzoq tun dam olmasdan jadallik bilan yurib, tong otganda bir katta daryo labiga yetadi va u yerda qayiqchi – Mallohga duch keladi. Ular Mallohdan daryodan o‘tkazib qo‘yishni iltimos qilishadi. Lekin qayiqchi kemaga uch kishi sig’masligini, agar xohlashsa, bitta-bitta o‘tkazib qo‘yishi mumkinligini aytadi. Bu fikr Ra’noga ma’qul tushadi va quvib kelishlari mumkinligini hisobga olib, oldin Zeboni o‘tkazib qo‘yishni so‘raydi. Malloh Zeboni qayiqda olib ketadi. Suv uzra qayiqda borayotgan Malloh Zeboning go‘zalligini ko‘rib oshiqi beqaror bo‘lib qoladi. Qiz Mallohning niyati buzilganini anglab, makr va tadbir bilan ish ko‘rish, shu yo‘l bilan undan qutulish mumkinligini fahmlaydi. Xuddi shu jarayondan qoliplanuvchi hikoyalar boshlanadi. Dostonda qoliplanuvchi hikoyalar jami o‘n bitta bo‘lib, ularning beshtasi Zebo, beshtasi Malloh, bittasi Safdar tomonidan aytilgan. Safdar sarguzashtidan tashqari barcha hikoyalar dengizda qayiq ichida aytiladi. Zebo hikoyachi – Malloh tinglovchi, Malloh hikoyachi – Zebo tinglovchi.

Zebo Mallohni insofga chaqiradigan, yomon niyatidan qaytarishga ko‘mak beradigan, shu bilan birga, vaqtni o‘tkazishga yordam beradigan hikoyalar aytib

[1] Xiromiy. Ra’no va Zebo. – Toshkent: O‘zadabiynashr, 1962. – B. 6.
[2] Xiromiy. Ra’no va Zebo. – Toshkent: O‘zadabiynashr, 1962. – B. 8.

beradi. Zeboning hikoyatlarida sabr-matonat, poklik, to‘g‘rilik, rostgo‘ylik, vafo-sadoqat, insoflilik ulug‘lansa, Malloh aytgan hikoyatlarda g‘arazgo‘ylik, ochko‘zlik, yengiltaklik, maishatparastlik, yolg‘onchilik, bevafolik kabi illatlar fosh etiladi. Mavzu jihatdan Zebo va Malloh hikoyatlari bir-biriga kontrast, qarama-qarshi g‘oyalardan tarkib topganligi oydinlashadi.

Zebo qayiq ichida Mallohga qarshi ham ma’naviy, ham jismoniy kurash olib borishiga to‘g‘ri keladi. U bor kuch-quvvati va aqlini ishga solib, raqibini yengishga harakat qiladi. Uzoq kurash, nihoyat, Mallohni toliqtiradi. U oxirgi hikoyasini aytib, uxlab qoladi. Zebo dengizda tasodifan boshqa bir qayiqqa duch kelib qolib, qayiqchi yigitni aldab, uning qayig‘iga tushib qochadi. Ko‘p yo‘l yurib, mashaqqatlar chekib, o‘g‘rilar oroliga tushib qoladi. Bu orolda qirq o‘g‘ridan bittasi har kuni qorovullik qilardi. U ham Zeboga oshiq bo‘lib qoladi.

Tafakkur qildi Zebo necha soat,
Dedikim: – Yona ish tushdi mashaqqat.
Bu yanglig‘ o‘z ayog‘idin yiqilmoq,
Ki lozim munda ham tadbir qilmoq.[1]

Og‘ir vaziyatlarda ham tushkunlikka tushmasdan, aql-u tadbir bilan ish ko‘radigan Zebo o‘g‘rilar qorovuli qo‘lidan ham o‘zini, ham «tilsimi aflok» (osmonlar qamog‘i)dagi Safdarni ozod qilishga erishadi. Zebo va Safdar o‘g‘rilarning otiga minib, oroldan qochishadi. Uzoq yo‘l yurib, cheksiz zahmatlar bilan bir kampirning uyiga yetadi va o‘sha yerda dam olishadi. Shu yerda Zebo Safdar sarguzashtini tinglaydi va o‘z boshiga tushgan voqealarni ham aytib beradi. Zebo Safdarga qo‘lidagi uzugini berib, Malik Ra’noni topib kelishga yuboradi.

Qayiqchi Zeboni olib qochgandan keyin Malik Ra’no daryo bo‘yida sarson-sargardon kezadi. Qilgan xatosini tuzatish chorasini izlaydi. Bu orada Sanavbarshoh vafot etib, xalq Ra’noni topib, taxtga chiqaradi. U mamlakatni adolat bilan boshqaradi. Uning odilligidan xalq mamnun bo‘ladi. Malik Ra’no vijdoniga quloq tutib, yurt boshqaruvini vaziriga topshirib, o‘zi Zeboni izlab yo‘lga chiqadi. Bir shaharda tasodifan Safdarga duch keladi. Safdar Ra’noga Zeboning nigini, ya’ni uzugini berib, bo‘lib o‘tgan voqealarni unga so‘zlab beradi. Ikkalasi birgalikda Zebo tomon yo‘lga tushadilar.

Uyg‘onib qayiqda Zeboning yo‘qligini ko‘rgan Malloh uni izlab orolga kelib qoladi va o‘zi ham o‘g‘ri tomonidan «tilism aflok»ka bandi etiladi. Malloh saraton quyoshida kuyib, «suv», – deya faryod chekib turgan bir vaqtda orolga Malik Ra’no bilan Safdar kelib qoladi. Malik Ra’noning buyrug‘i bilan o‘g‘ri Mallohni ozod qiladi. Qarshisida Mallohni ko‘rgan Malik Ra’no:

Dedikim: – Har kishi qilsa yomonlig‘,
O‘zini qilg‘usi ozurdajonlig‘.[2]

– deya, unga bir og‘iz ham qattiq gapirmaydi. Faqat Zeboni olib qochganidan keyin bo‘lib o‘tgan voqealarni so‘raydi. Malik Ra’noning buyrug‘i bilan «tilism aflok» yer bilan yakson qilinadi va uchalasi Zebo makon tutgan uyga kelishadi. Ra’no bilan Zebo uchrashib, ularga yaxshilik qilgan kampirni rozi qilishadi va Xo‘tanga yo‘l olishadi.

Malik Ra’no Zeboni topgani sharafiga Xo‘tan mulkidagi barcha mahbuslarni ozod etadi va xush kayfiyatda yurtiga kirib keladi.

Ko‘rubon xalq istiqbol qildi,
Xirojin shah o‘tub xushhol qildi.[3]

Barcha shod-xurram, Malik Ra’no qirq kecha-yu qirq kunduz to‘y-tomosha berib, sevishganlar murod-maqsadiga yetdilar. Asardagi qoliplovchi hikoya shu holatda yakunlanadi.

Dostondagi ikki sevishgan qalb Malik Ra’no va Zeboning nigin orqali bir-birlarini topishi, voqealar jarayonida Zeboning qirq qaroqchi qo‘liga tushishi muallifning xalq og‘zaki ijodi namunalaridan unumli foydalana olganligini isbotlaydi. Doston voqealari an’anaviy xalq og‘zaki ijodi syujeti asosida yaratilgan bo‘lsa-da, qahramonlar xarakteri va voqealar jarayonida muallif o‘zining hamda o‘z davri odamlarining orzu-istaklari, maqsadi, o‘y-xayollarini ko‘rsata olgan.

Binobarin, Malik Rayhon kabi odil, elparvar podshohlarga yurt hamisha ehtiyoj sezgan. Zolim, mansabparast, ikkiyuzlamachi Sanavbarshohdek shohlar xalqning nafratiga duchor bo‘lgan. Asarda Sanavbarshohning vafot etishi yomonliklarning abadiy emasligiga bir ishoradir. Doston yozilgan vaqtdagi tarixiy sharoitni hisobga olsak, Nasrullaxon tomonidan qamal qilingan Shahrisabz va Kitob ahlining ertangi yorug‘ kelajak va istiqbolga umidi, ishonchi muallif qalamida rang-barang bo‘yoqlarda o‘z aksini topadi.

E’tiborli jihatlardan yana biri shuki, ikki yosh Malik Ra’no va Zebo o‘z muhabbati uchun kurashgan, qo‘rqmasdan olg‘a intilgan obrazlardir. Malik Ra’no va Zebo xatti-harakati orqali Xiromiy sof insoniy muhabbatni ulug‘lash, ixtiyoriy nikoh masalalarini baralla yoritadi.

Dostondagi eng faol qahramonlardan biri Zebo obrazidir. U hayotida ro‘y berayotgan qiyinchiliklar oldida umidsizlikka tushmasdan, ishonch bilan harakat qiladi. Shuning uchun ham asar nihoyasida maqsadiga yetib, baxtli hayotga erishadi.

«Ra’no va Zebo» dostonining qoliplovchi hi-

[1] Xiromiy. Ra’no va Zebo. – Toshkent: O‘zadabiynashr, 1962. – B. 89-90.
[2] Xiromiy. Ra’no va Zebo. – Toshkent: O‘zadabiynashr, 1962. – B. 103.
[3] Xiromiy. Ra’no va Zebo. – Toshkent: O‘zadabiynashr, 1962. – B. 106.

koyasida Malik Rayhon, Sanavbarshoh, Ra'no, Zebo, Malloh, Safdar, o'g'ri, begona qayiq egasi va kampir obrazi ishtirok etadi. Xiromiy asar kompozitsiyasida qoliplash usulining mohir bilimdoni sifatida ko'rinsa, syujetda ham o'z ijodiy mahoratini namoyon etadi.

Dostonning har bir qahramoni harakatida o'ziga ishonch, maqsadi sari olg'a harakat qilish, shiddat kuzatiladi. Bu holat bir tomondan asar qiziqarliligini ta'minlasa, bir tomondan muallif ijodiy kamolini ifoda etadi.

Qisqasi, birgina «Ra'no va Zebo» dostonining o'ziyoq Xiromiyning xalq og'zaki ijodi bilimdoni hamda iste'dodli ijodkor ekanligini isbotlaydi.

Rezyume. Ushbu maqolada XIX asrda yashab ijod etgan Mulla Qurbon Xiromiy va uning «Ra'no va Zebo» dostoni kompozitsiyasi, dostonning o'ziga xos syujeti va badiiyati, muallif mahorati, asarning mumtoz adabiyotimizdagi o'rni tadqiq qilingan.

Resume. This article examines the composition of Mulla Qurban Khirami, who lived and worked in the 19th century, and his epic poem "Rana va Zebo," the unique plot and art of the epic, the author's skill, and the place of the work in our classical literature.

Резюме. В статье рассматривается творчество Муллы Курбана Хирами, жившего и творившего в XIX веке, и его эпическая поэма «Рана ва Зебо», своеобразие сюжета и художественного решения эпоса, мастерство автора и место произведения в нашей классической литературе.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 11-12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

«JAVR-U ZULMUNG GARCHI O'LMAKLIK NISHONIDUR MANGA...»

Bo'riyeva Marvarid Hamdamjon qizi,
Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi magistranti

«Xazoyin ul-maoniy» kulliyoti Navoiy ijodining eng go'zal devonlaridandir. Kulliyot tarkibiga kirgan devonlar H.Boltaboyev, H.Sulaymonov I.Haqqulov, Y.Is'hoqov, A.Hayitmetov kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Alisher Navoiy 1491-1492-yillardan boshlab turkiy tilda yozilgan nazmiy asarlari asosida devon tuzishni niyat qildi va 1498-1499-yillarda «Xazoyin ul-maoniy» («Ma'nolar xazinasi») devonini tuzdi. Ma'lumki, mazkur devon inson umrining fasllarga bo'linishi asosida ramziy nomlangan bo'lib, 4 qismdan iborat: devonning birinchi qismiga «G'aroyib us-sig'ar» («Bolalik g'aroyibotlari»), ikkinchi qismiga «Navodir ush-shabob» («Yigitlik nodirliklari»), uchinchi qismiga «Badoe' ul-vasat» («O'rta yosh badialari») va nihoyat, to'rtinchi qismiga «Favoyid ul-kibar» («Keksalik foydalari») degan nomlar berilgan. Mazkur kulliyotdagi 4 devonning har birida 650 tadan 2600 g'azal, umuman 4 devonda 210 qit'a, 133 ruboiy, 86 fard, 52 muammo, 13 tuyuq, 10 muxammas, 10 chiston, 5 musaddas, 4 tarje'band, 4 mustazod, 1 musamman, 1 tarkibband, 1 qasida, 1 masnaviy, 1 soqiynoma mavjud bo'lib, Sharq she'riyati turlarining 16 janri namoyondir. Maqolada germenevtik, statistik, analitik, lingvistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

O'zbek adabiyoti tarixida Alisher Navoiy nomi o'ziga xos davr va maktabni tashkil etadi. XV asrning ikkinchi yarmida yashab ijod qilgan bu buyuk shoir, mutafakkir, davlat arbobi va ma'naviyat targ'ibotchisi turkiy adabiyot tarixida beqiyos o'rin egallaydi. Navoiy o'z asarlari orqali o'zbek adabiy tilini yangi bosqichga ko'tardi, uni xalq tafakkuri, ruhiyati va estetik didi ifodasi darajasiga yetkazdi.

«**Badoye' ul-vasat**» devoni XV asrning 80-yillarida yozilgan bo'lib, unda 650 ta g'azal, qasida, ruboiy, qit'a va boshqa janrlardagi she'rlar jamlangan. «**Badoye**» so'zi «***nodir, g'aroyib***» ma'nosini**, «vasat**» esa «***o'rta, markaz»*** ma'nosini bildiradi. Bu devon Navoiy ijodining yetuk davrini ifodalaydi. Devondagi g'azallarda shoirning inson ruhiyati, ishq, iymon, vafodorlik, ma'naviy barkamollik haqidagi falsafiy qarashlari yuksak darajada ifodalangan.

«Badoye' ul-vasat»da ishq talqiniga oid g'azallarda ikki asosiy yo'nalish seziladi:

1. Ilohiy ishq – Allohga yaqinlashuv, ruhiy poklanish, nafs ustidan g'alaba.

2. Majoziy ishq – sof tuyg'u, sadoqat, visol va hijron azoblari orqali komillikka yetishish.

«Badoye' ul-vasat» tarkibiga kiritilgan «***Javr-u zulmung garchi o'lmaklik nishonidur manga»*** deb nomlanuvchi g'azalini tahlil qilishga harakat qilamiz. G'azal ramali musammani mahzuf (–V– –/–V– –/–V– –/–V–) vaznida bitilgan bo'lib, ulug' shoirning bu yolg'onchi dunyoning o'tkinchiligi, umr mazmuni azal va abad sifatlariga ega Ollohga bo'lgan ehtiyoj va oshiqlikda ekanligi, uning vasli har narsadan a'loligi haqidagi iqrori go'zal poetik shakl va ruhga orom beruvchi ohangda ifoda etilgan. G'azal tasavvufiy mavzuda yozilgan bo'lib, obraz va iboralar, har bir bayt o'zining originalligi, go'zal badiiy tasvirlari bilan kitobxon qalbini o'ziga tortadi. G'azalning to'liq matni quyidagicha:

Javr-u zulmung garchi o'lmaklik nishonidur manga,
Chunki sendindur hayoti jovidonidur manga.
Ul parivash ishqidin, nosih, meni man' etmakim,
Telbalik vaqtiyu oshiqliq zamonidur manga.
To o'qubmen ishq harfin dars-u takror-u sabaq
Vomiq-u Farhod-u Majnun dostonidur manga.
Muztaribmen charx yanglig'kim, nujumi tiyradin
Tanda har kun yuz tuman dog'i nihonidur manga.
Hech ranje zohir o'lmay men xud o'ldum, ey tabib,
Lek bilkim, qasdi jon etkan falonidur manga.
Eyki, dersen ishq aro o'lmak ziyondur, umr sud,
Har ne sudidur sanga, nekim ziyonidur manga.
Ko'rmisham vojib baqosin ravshan, andoqkim quyosh
Toki imkon soya yanglig' ko'zda fonidur manga.
Bu fano dayrin baqosiz erkanin to angladim,
El surudi ishrati motam fig'onidur manga
Ey Navoiy, voizu firdavsi a'lo zikrikim,
Bog'i xuld ul huri paykar ostonidur manga.[1]

G'azal to'qqiz baytdan iborat bo'lib, uning mat-

[1] Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. 5-tom. – Toshkent: Fan, 1990. – B. 15.

la'sida lirik qahramon sevgilisi (Allohning) bergan jabr-u zulmini ham ne'mat sifatida qabul qilmoqda. «Jabr-u **zulm**» bu yerda haqiqiy zulm emas, balki ishqning sinovi. «Nishon»[1] – *belgi, alomat, darak, xabar.* Lirik qahramon ishq yo'lida berilgan azobni o'limlik nishonasi deb qabul qiladi. «**Jovidon**»[2] – *abadiy, doimiy, mangu*. Lirik qahramon uchun sevgili (Alloh) hayotning yagona manbai. Tasavvufda fano – o'zini inkor qilish, yo'qotish, o'lim ramzi. Baqo esa Allohda mavjud bo'lish, haqiqiy hayot. Mazkur baytda shuni ko'rishimiz mumkinki, zulm – fano, sendan kelgan hayot – baqo. Demak, shoirning fikricha, banda ish yo'lida «o'lishi» (ya'ni nafsdan kechishi) bilan haqiqiy hayotga erishadi.

Ul parivash ishqidin, nosih, meni man' etmakim,
Telbalik vaqtiyu oshiqliq zamonidur manga
(Ey nasihatgo'y, menga ul parivashga oshiqlikni man' etma,
Chunki men uchun hozir telbalik vaqti-yu, oshiqlik zamonidur).

Nosih[3] – *nasihat qiluvchi, nasihatgo'y*. Lirik qahramon nasihatgo'y kishidan o'zining parivash go'zallikka oshiq bo'lishini man qilmaslikni so'raydi, chunki uning qalbiga allaqachon ishq olovi tushgan. Shoir bu yerda oshiqning ruhiy holatini – telbalik darajasidagi, boshqarishning imkoni yo'q muhabbatni tasvirlaydi. Ishqning bu shiddatli pallalarida esa nasihat foydasiz, chunki oshiq uchun hozirgi vaqt – haqiqiy oshiqlik zamoni. Baytda oshiqning aql chegaralaridan chiqib, ma'rifat va ilohiy ishq maqomiga ko'tarilgan holati tasvirlangan.

To o'qubmen ishq harfin dars-u takror-u sabaq
Vomiq-u Farhod-u Majnun dostonidur manga
(Toki ishq haqida dars va saboq olganimdan buyon
Vomiq-u, Farhod-u, Majnunlar ishqi menga dostondir).

Baytda lirik qahramon ishq sirlaridan «*dars*» olganidan so'ng, endi uning butun dunyoqarashi o'zgarib ketganini ta'kidlaydi. «*Ishq harfi dars-u saboq*» iborasi tasavvufda ishqning inson uchun haqiqiy maktab, ruhiy tarbiya manbai ekanini bildiradi. Bu darsni olgan oshiq endi dunyodagi mashhur oshiqlar – Vomiq, Farhod, Majnunning kechinmalarini o'zida his qila boshlaydi, ulardek oshiqqa aylanadi (Shoir oshiqni mashhur oshiqlar bilan yonma-yon qo'ymoqda). Oshiq mashhur oshiqlarning ruhiy darajasini o'zida topadi va ularga ma'naviy ravishda yaqinlashadi.

Muztaribmen charx yanglig'kim, nujumi tiyradin
Tanda har kun yuz tuman dog'i nihonidur manga
(Go'yo osmonning bag'ri xira yulduzlar bilan dog'langandek,
mening tanamda ham har kuni yuz tuman dog' yashiringan bo'ladi).

Muztarib[4] – *iztirob chekuvchi, parishon, iztirobda qolgan*. **Tiyra**[5] – *qora, xira*. **Nujum**[6] – *yulduz.* Osmonning bag'rida xira yulduzlar dog'langani kabi oshiqning tanasida ham dog'lar yashiringan. Osmonning dog'lari aslida solik qalbidagi mujohada, ya'ni Haqqa yetishish yo'lidagi ruhiy sinovdir. Tanasidagi dog'lar esa tasavvufdagi riyozat, o'z nafsini sindirish, har bir kunni ma'naviy kurashda o'tkazish. Tasavvufda insonning ichida paydo bo'ladigan har bir jarohat – bu haqqa yaqinlashishdagi bir qadam, qalbni zalolat pardalaridan tozalovchi nurdir. Demak, oshiq tanasidagi dog'lar unga berilgan sinovlar natijasidir. Ma'naviy imtihon, qalbni chiniqtiruvchi tajribalar orqali solik «fano» va «baqo» olamiga yo'l topadi.

Hech ranje zohir o'lmay men xud o'ldum, ey tabib,
Lek bilkim, qasdi jon etkan falonidur manga
(Ey tabib, hech bir kasallik alomati ko'rinmay turib o'ldim,
lekin shuni bilki, mening jonimga qasd etgan – oshiqlikdir).

Ranj[7] – *mashaqqat, azob, qiyinchilik*. Bayt oshiqning tabibga murojaati bilan boshlanadi. Bu murojaat orqali sevgi dardining oddiy tabibga emas, ilohiy tabibga muhtojligi, ishq dardi oddiy kasallik emasligi ta'kidlanadi. Oshiqlik dardi shunchalik kuchliki, tana sog'lom, ammo ruh jununlikda. Baytda *falon* obraziga duch kelamiz. Lirik qahramonga *qasdi jon etgan falon* – bu ma'shuqa. Uning ishqi oshiqni hayot zavqidan, hushyorlikdan mahrum qilgan. Ya'ni «Kuymagan ishq ichra ermas ishqboz[8]« sifatida tasvirlangan. Tasavvufda «ishq bilan o'lish» – eng yuksak maqom. Oddiy tabib dardni davolaydi, ammo ish dardiga faqat Haqdan da'vo yetadi.

Eyki, dersen ishq aro o'lmak ziyondur, umr sud,
Har ne sudidur sanga, nekim ziyonidur manga
(Ey, balki sen «ishq aro o'lmoq – ziyon, umr – foyda», dersan,
Biroq sen foyda deb bilganing – bu o'tkinchi dunyo men uchun ziyondur).

[1] P.Shamsiyev va S.Ibrohimov. Navoiy asarlari lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972. – B. 463.
[2] Ko'rsatilgan asar. – B. 228.
[3] Ko'rsatilgan asar. – B. 468.
[4] Ko'rsatilgan asar. – B. 409.
[5] Ko'rsatilgan asar. – B. 608.
[6] Ko'rsatilgan asar.. – B. 471.
[7] Ko'rsatilgan asar. – B. 521.
[8] Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. 16-t. Lison ut-tayr. – Toshkent: Fan, 1996. – B. 219-220.

Oshiq uchun umr foyda emas, u o‘tkinchi va bu dunyo ziyon. Ishq aro o‘lmoq – bu jismning halok bo‘lmog‘i emas, balki nafsning yovuzlikdan ajrab poklikka o‘tmog‘idir. Bu fanoda o‘lishdan maqsad – Haq nurida tirilmoqdir. Dunyo – bir lahza xayol, bir ko‘z yumilgunchalik, soyadek o‘tkinchi. Uni foyda deb bilish aslida, qilich tig‘idek bir fitnadir. Oshiqning foydasi ishq yo‘llarida kuyib-pishmoq, o‘zni fano yo‘liga solmoqdir. Chunonchi, kufr deb ko‘ringan iztirob uning iymonini ziyoda qilur, o‘lim deb o‘ylangan fano esa abadiy baqoni hadya qilur. Foyda deb sanalgan umr – oshiq uchun ziyon, ziyon degan ishq yo‘lida o‘lmoq u uchun haqqoniy foydadur.

Ko‘rmisham vojib baqosin ravshan, andoqkim quyosh

Toki imkon soya yanglig‘ ko‘zda fonidur manga

(Tangrining abadiy hayotligi quyoshning ravshanligi kabi, insonga imkon sifatida berilgan umrning esa soya kabi o‘tkinchi ekani menga ayondir).

Tangrining abadiy hayotligi – o‘zgarmas, doimiy, cheksiz. Inson umri esa o‘tkinchi, soya kabi vaqtincha, omonat. Ilohiy mavjudotning barhayotligi mutlaq, inson umri esa cheklangan, ma’lum bir vaqtga bo‘ysunadi. Oshiqning ham ishqi quyosh bo‘lmaganda soyaning yo‘qligi kabi o‘tkinchi. Inson umri soyaga o‘xshaydi: nur bilan bor, nur ketganda yo‘q. Inson o‘z umrini abadiyat deb bilmasin, abadiy nurning egasi faqat Haqdir.

Bu fano dayrin baqosiz erkanin to angladim,

El surudi ishrati motam fig‘onidur manga

(Toki bu o‘tkinchi dunyoning omonat va vaqtincha ekanligini anglaganimdan buyon, elning shodligu xursandchilik qo‘shig‘i menga motam yig‘isi kabidir).

Baqo[1] – *abadiy, doimiy, mangu hayot.* Oshiq dunyoning foniy ekanini anglagan sari dunyo quvonchlari unga haqiqatdan uzoqlashtiruvchi mayl sifatida ko‘rinadi. Haqiqatni anglagach, shodligu xursandchiliklar «motamga aylangan». Insonning dunyoga ortiqcha bog‘lanishdan chekinishi, ruhiy hushyorlik holatiga o‘tishi tasavvufda «basiratning ochilishi» sifatida talqin qilinadi. Imom G‘azzoliyning «Aqldan narida o‘zga bir davra bordurki, unda boshqa bir ko‘z, ya’ni basirat ochilur. Basirat ila inson g‘aybni ko‘rur, kelajakda voqe bo‘lajak hodisalarni, aql anglashga ojiz bo‘lgan ayrim narsalarni anglay olur», deyishi taxminiy gap bo‘lmagan. Shuning uchun ham Alisher Navoiy hech ishtibohsiz basiratga inongan, borliq-olamning ichki mohiyati, go‘zallik va haqiqat sirlarini to‘g‘ri, adashmasdan anglamoq istasang, «Ayla basirat ko‘zi birla nazar», deya da’vat etilgan[2].

Ey Navoiy, voizu firdavsi a’lo zikrikim,

Bog‘i xuld ul huri paykar ostonidur manga.

(Ey Navoiy, piri komilning dargohi men uchun abadiy bog‘da Ollohning zikrini qiluvchi hur va parilarning ostonasi kabidir!)

Piri komilning dargohi – shoir uchun dunyodagi barcha moddiy zavqlardan yuksak. Abadiy bog‘– bu jannat. Bu bog‘da poklik, ruhiy osoyishtalik, uzluksiz nur va baraka mujassam. Shoir piri komil dargohini «hur va parilar zikr qiladigan ostona»ga qiyoslab, uni nurli, ruhiy, ilohiy makon tarzida tasvirlaydi. Maqta’ning badiiy mohiyati: pir dargohi – jannatning ostonasi, zikr – ilohiy zavq manbai, dargoh esa abadiy ruhiy bog‘dir.

G‘azal tarkibida uchraydigan she’riy san’atlar baytlarning jozibadorligini ta’minlashga xizmat qilgan. Alisher Navoiyning mazkur g‘azalida, asosan, tazod sana’ati yetakchilik qilib, undan tashqari quyidagi badiiy san’atlar ham shoir poetik maqsadi ifodasi uchun xizmat qilgan.

T/r	She’riy san’atlar	Bayt	Qo‘llanilgan so‘z
1.	Tazod	Bu fano dayrin baqosiz erkanin to angladim, El surudi ishrati motam fig‘onidur manga	Fano – baqo, Surud – motam, Ishrat – fig‘on
2.	Talmeh	To o‘qubmen ishq harfin dars-u takror-u sabaq Vomiq-u Farhod-u Majnun dostonidur manga	Vomiq, Farhod, Majnun
3.	Tashbeh	Muztaribmen charx yanglig‘kim, nujumi tiyradin Tanda har kun yuz tuman dog‘i nihonidur manga.	Charx yanglig‘kim

[1] Navoiy asarlari lug‘ati. Tuzuvchilar: P.Shamsiyev va S.Ibrohimov. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1973. – B. 100.

[2] https://kh-davron.uz.

4.	Husni ta’lil	Javr-u zulmung garchi o‘lmaklik nishonidur manga, Chunki sendindur hayoti jovidonidur manga.	Hayoti jovidon
5.	Istiora	Ey Navoiy, voizu firdavsi a’lo zikrikim, Bog‘i xuld ul huri paykar ostonidur manga.	Firdavsi a’lo, bog‘i xuld, pari paykar

Mazkur g‘azalning har bir baytida oshiqning ruhiy olamida kechayotgan kurashlar nafs bilan mujohada, fano va baqo maqomlari kabi tasavvufiy tushunchalar o‘zining chuqur mazmuni bilan namoyon bo‘ladi. Shoir hayotning foniyligi, dunyo lazzatlarining vaqtinchaligi, haqiqiy baxt esa ilohiy ishqda ekanligi haqidagi g‘oyani badiiy barkamol misralar orqali isbotlaydi. G‘azal yakunida Navoiy fano va baqo sirlarini anglaganini, dunyoning shukuh va shodliklari aslida motam kabi foniy ekanini ta’kidlaydi. Shu tariqa g‘azal nafaqat oshiqning shaxsiy izhori, balki insonning ruhiy kamolot sari yo‘li, ma’rifat bobida ochilgan ramziy haqiqati sifatida ham qimmatlidir.

Rezyume. Alisher Navoiy lirikasi – cheksiz hayrat olami. Shoirning ishq va oshiqlik, olam va odam, fano va baqo, tabiat va jamiyat, hayot va o‘lim, yovuzlik va ezgulik, iymon va e’tiqod, zulm va adolat kabi tushunchalar poetik talqin etilgan g‘azallari olti asrdan beri muxlislar va ilm ahlining diqqat markazida. Nazm durdonalari shu qadar chuqur falsafiy va kuchli hayotiy mazmunga ega-ki, ularni tahlilu talqin etish kishidan katta ruhiy va ma’rifiy tayyorgarlikni talab etadi. Maqolada ulug‘ shoirning «Badoye’ ul-vasat» devoni tarkibiga kiritilgan «Javr-u zulmung garchi o‘lmaklik nishonidur manga» deb nomlanuvchi g‘azali tahlil qilingan.

Resume. Alisher Navoi’s lyrics are an amazing world. For six centuries, the focus of fans and scholars has been the poet’s poetic notions of love and love, peace and man, nature and society, life and death, evil and good, faith and faith, oppression and justice. Masterpieces of poetry have such profound philosophical and life meaning that great spiritual and spiritual preparation is required to analyze and interpret them. The article analyzes the gazelle of the great poet «Badoe’ ul – Vasat», known as «Jawr - u zulmung, although this is a sign of eternity».

Резюме: Лирика Алишера Навои – бесконечно удивительный мир. На протяжении шести столетий в центре внимания поклонников и ученых были поэтические представления поэта о любви и лирическом герое, мире и человеке, природе и обществе, жизни и смерти, зле и добре, вере и вере, угнетении и справедливости. Шедевры поэзии имеют настолько глубокий философский и жизненный смысл, что для их анализа и интерпретации требуется большая духовная и просветительская подготовка. В статье проанализирована газель великого поэта из дивана «Badoye’ ul-vasat», известная под названием «Javr-u zulmung garchi o‘lmaklik nishonidur manga».

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 11-12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

KUPER IJODIDA INDEYS VA O'ZBEK NASRIDA MILLIY QAHRAMON OBRAZLARI

Qosimov Anvar
Shahrisabz davlat pedagogika institute
Xorijiy til nazaryasi va amaliyoti kafedrasi katta o'qituvchisi

Jeyms Fenimor Kuper Amerika romantik epikasining shakllanishida muhim o'rin tutadi. Uning romanlarida tasvirlangan indeys qahramonlari XIX asrning Amerika jamiyati, kolonial siyosati va chegaraviy hayotning ijtimoiy-madaniy murakkabligi bilan uzviy bog'liq. Kuper asarlarida indeys obrazlari bir tomondan tabiiy hayot tarzini saqlab qolishga intiluvchi "oxirgi vakillar", ikkinchi tomondan mustamlakachilik ekspansiyasi oqibatida tarixiy maydondan chekinishga majbur bo'lgan fojiiy timsollardir. Adib ularni romantik idealizatsiya asosida tasvirlasa-da, zamonaviy adabiyotshunoslik ushbu obrazlar orqali Amerika jamiyatidagi murakkab identitet masalalarini, irqiy munosabatlar tarixini va "yo'qolib borayotgan dunyo" fenomenini o'rganadi.[1]

O'zbek nasrida milliy qahramon obrazlari XVIII–XX asrlar davomida Turkistonning siyosiy hayoti, mustamlakachilik siyosati, jadidchilik harakati va milliy ozodlik g'oyalari bilan uzviy bog'liq holda shakllangan. Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Mirmuhsin, Odil Yoqubov va Pirimqul Qodirov kabi ijodkorlar yaratgan tarixiy va ijtimoiy qahramonlar – xalqning o'zligini anglash, milliy birlik, ma'rifiy yangilanish va mustamlakachilikka qarshi kurash g'oyalarini ifodalovchi markaziy badiiy timsollardir.[2]

Mazkur maqolada Kuper indeys qahramonlari va o'zbek nasridagi milliy qahramonlar qiyosiy o'rganilib, ularning epik funksiyasi, badiiy mohiyati, tarixiy ildizlari hamda konfliktlar tabiatidagi o'xshashlik va farqlar tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, milliy qahramonlar va indeys obrazlari har ikki adabiyotda mustamlakachilik jarayoniga nisbatan badiiy munosabatning yorqin namunasidir. Shu bois ushbu mavzu madaniyatlararo tipologik tahlil doirasida katta ilmiy ahamiyatga ega.

Jeyms Fenimor Kuperning romanlari Amerika romantik epikasining shakllanishiga asos bo'lgan adabiy jarayonlardan biridir. Uning asarlaridagi indeys obrazlari o'sha davr Amerika tarixidagi murakkab etnik, madaniy va siyosiy qarama-qarshiliklar bilan uzviy bog'liq. Indeys qahramonlari – Chingachguk, Unkas va boshqa timsollar – o'zining badiiy tabiatiga ko'ra nafaqat tarixiy tiplar, balki "yo'qolib borayotgan dunyo"ning ramziy ifodalaridir.[3]

O'zbek nasrida milliy qahramon obrazlari tarixiy jarayonlar, milliy ozodlik g'oyalari va ma'rifiy harakatlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, XX asr boshidagi jadidlar faoliyati, mustamlakachilik siyosati, xalqning o'zlikni anglash jarayonlari asosida shakllanadi. Cho'lpon, A. Qodiriy, Fitrat, Mirmuhsin va P. Qodirov kabi ijodkorlar yaratgan epik qahramonlar o'zbek milliy adabiy tafakkurining markaziy timsollariga aylangan.[4]

Mazkur tadqiqot Kuper indeys obrazlari va o'zbek nasridagi milliy qahramonlarni epik funksiyasi, ideologik yuklamasi, badiiy struktura va historik talqin nuqtayi nazaridan qiyosiy tahlil qilishni maqsad qiladi.

Tadqiqot ilmiy asoslangan qiyosiy-tipologik yondashuvga tayangan bo'lib, quyidagi metodlar qo'llandi:

Ikki adabiy makondagi qahramon konsepsiyalari – Kuper romanlaridagi indeyslar va o'zbek nasridagi milliy ozodlik qahramonlari – tipologik jihatdan o'rganildi. Ularning xarakter modellari, badiiy funksiyalari, ijtimoiy vazifalari va epik struktura ichidagi o'rni solishtirildi.

Qahramonlar shakllanishiga ta'sir etgan tarixiy davrlar, mustamlakachilik siyosati, xalq ongidagi o'zgarishlar, madaniy kontekstlar tahlil qilindi. Amerika kolonial tarixi va Turkiston mustamlakachiligi o'zaro qiyosiy fon sifatida qo'llanildi.

Epik makon, obrazlar tizimi, ramzlar, konflikt dinamikasi, kompozitsiya va badiiy motivlar o'rganildi. Kuperning romantik poetikasi bilan o'zbek nasrining tarixiy realizmi o'rtasidagi o'ziga xosliklar tahlil qilindi.

[1] Qosimov B. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: O'qituvchi, 2004.
[2] Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
[3] Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
[4] Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

Frontier (chegara) diskursi, “yo‘qolib borayotgan dunyo” konsepsiyasi, ozodlik diskursi, milliy uyg‘onish diskursi kabi tushunchalar kontekstida qahramonlarning ideologik va madaniy yuklamasi o‘rganildi.

Metodologiyaning bunday kompleks qo‘llanilishi mavzuni ko‘p qatlamli ilmiy talqinda ochib berishga imkon berdi.[1]

Kuper indeys obrazlari Amerika tarixidagi ko‘p asrlik irqiy-sivilizatsion to‘qnashuvning badiiy natijasi sifatida shakllangan. Chingachguk, Unkas va boshqa qahramonlar “tugayotgan sivilizatsiya”dan farqli “yo‘qolib borayotgan madaniyat”ning ramzidir. Ularning tragediyasi – tarixiy jarayonning mag‘lub kuchi bo‘lishidadir. Adib ularni jamiyatdan chetlatilgan, ammo axloqiy ustunlikka ega sifatida ko‘rsatadi.

O‘zbek nasrida milliy qahramonlar aksincha – tarixiy jarayonni o‘zgartirishga intiluvchi faol subyektlardir. Otabek, Yusufbek Hoji, jadid qahramonlari, ozodlik uchun kurashuvchi timsollar xalqning shakllanayotgan milliy ongini ifodalaydi. Bu obrazlar tarixiy maydonda mavjud bo‘lgan amaliy harakatlarning badiiy ifodasi sifatida talqin qilinadi.[2]

Kuper epikasida konflikt asosan tabiiy dunyo va sivilizatsiya o‘rtasidagi keskin qarama-qarshilik sifatida namoyon bo‘ladi. Indeys qahramonlari sivilizatsiya tomonidan siqib chiqarilayotgan, ammo ruhiy jihatdan mag‘rur timsollardir.

O‘zbek nasrida konflikt milliy mustaqillik va ma’naviy uyg‘onishning ichki dinamikasi bilan bog‘liq. Qahramonlar jamiyatning ijtimoiy-siyosiy tanazzuliga qarshi ma’rifiy va ruhiy kurash olib boradi. Ular mustamlakachilik ta’siriga qarshi irodaviy pozitsiya namoyon qiladi.

Kuper indeyslari romantik idealga yaqinlashtirilgan bo‘lsa, o‘zbek qahramonlari real tarixiy shaxslar yoki ularning badiiy timsollari sifatida tasvirlanadi. Indeyslar yo‘qolib borayotgan an’ananing, o‘zbek qahramonlari esa yangilanayotgan milliy ongning belgisidir.[3]

Amerika o‘rmonlari, daryolari, tog‘lari Kuper epikasining asosiy ramziy makoni bo‘lib, indeys qahramonlarining tabiiy uyg‘unligini ifodalaydi.

O‘zbek nasrida esa makon tarixiy markazlar – Buxoro, Marg‘ilon, Toshkent, qishloq makonlari – milliy o‘zlikning ramziy sahnasiga aylanadi. Bu farq ikki adabiy makondagi tarixiy jarayonlar tabiatini aks ettiradi.[4]

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Kuper ijodidagi indeys obrazlari, avvalo, yo‘qolib borayotgan xalqning axloqiy ustunligini namoyon etishga qaratilgan. Chingachguk, Unkas kabi qahramonlar tabiat bilan uyg‘unlikda yashovchi, sadoqat, jasorat va or-nomusni oliy qadriyat deb biluvchi obrazlar sifatida tasvirlanadi. Ular Yevropa sivilizatsiyasi vakillariga nisbatan ma’naviy jihatdan ustun qo‘yiladi.

O‘zbek nasridagi milliy qahramonlar esa ko‘pincha tarixiy zulm, ijtimoiy adolatsizlik va mustaqillik uchun kurash fonida shakllanadi. Ushbu obrazlar xalqning sabr-toqati, vatanparvarligi va ma’naviy barqarorligini ifodalaydi. Ularning xarakterida jamoaviylik, ajdodlarga hurmat va milliy an’analarga sodiqlik yetakchi o‘rin tutadi. Har ikki adabiyotda ham qahramon obrazi individual shaxs emas, balki butun bir xalqning timsoli sifatida talqin etiladi.

Natijalar ikki adabiy makondagi qahramon konsepsiyalarining o‘ziga xosligini ko‘rsatadi:

Umumiyliklar:

1. Erkinlik, vatan, o‘zlikni saqlash g‘oyalari markaziy ahamiyatga ega.

2. Qahramonlar jamiyatning inqiroz holatida shakllanadi.

3. Mustamlakachilik jarayoni obrazlarning fojiiy yoki ma’naviy kuchli talqiniga sabab bo‘ladi.

Farqlar:

1. Kuper indeyslari tarixiy yo‘qolish yoqasidagi etnik guruhning badiiy timsoli, o‘zbek qahramonlari esa milliy uyg‘onish manbai.

2. Amerika romantizmi tabiatga murojaat qilsa, o‘zbek nasri tarixiy shahar makonlariga tayangan.

3. Kuper qahramonlarida passiv fojiiylik mavjud, o‘zbek qahramonlarida esa faol tarixiylik ustun.[5]

Mazkur farqlar ikki adabiy maydonning tarixiy-madaniy kontekstidan kelib chiqadi. Amerika epikasi kolonial jarayonning ichki ixtiloflarini aks ettirsa, o‘zbek epikasi milliy ozodlikning ichki irodasini yoritadi.

Qiyosiy tahlil natijalariga ko‘ra, Kuper indeys obrazlari orqali Amerika tarixining murakkab va fojeali sahifalarini ochib beradi. Indeyslar obrazi mustamlakachilikka qarshi ma’naviy norozilik ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, bu obrazlar romantik idealizatsiya orqali yaratilgani bilan ham ajralib turadi.

O‘zbek nasridagi milliy qahramonlar esa ko‘proq real tarixiy sharoit va ijtimoiy muammolar bilan bog‘liq holda yaratilgan. Ular millatning o‘zligini saqlab qolish, tarixiy xotirani tiklash va kelajak avlodni ma’naviy tarbiyalash vazifasini bajaradi.

Demak, har ikki adabiyotda milliy qahramon

[1] Turaev S. Adabiy qahramon va zamon. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2007.
[2] Mirvaliyev S., Sheraliyeva Z. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Fan, 2010.
[3] Saidov U. O‘zbek nasrida qahramon muammosi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
[4] Said A. Qiyosiy adabiyotshunoslik masalalari. – Toshkent: Universitet, 2015.
[5] O‘zME. Qiyosiy adabiyotshunoslik maqolasi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2012.

obrazi turli tarixiy sharoitdashakllangan bo‘lsa-da, ularni birlashtiruvchi asosiy jihat – xalq taqdiri va milliy ongni badiiy ifodalashdir.

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, Kuper indeys obrazlari va o‘zbek nasridagi milliy qahramonlar o‘rtasida epik struktura, konflikt tabiatida umumiyliklar bo‘lsada, ularning tarixiyligini belgilovchi omillar tubdan farq qiladi. Indeys qahramonlari – o‘tmishning fojiaviy yakuni, o‘zbek qahramonlari esa milliy uyg‘onishning boshlanish nuqtasi sifatida shakllanadi.

Ikki adabiyotning qiyosiy tahlili madaniyatlararo tipologik o‘xshashliklarni aniqlash, milliy o‘zlikni badiiy ifodalash mexanizmlarini ochib berish va mustamlakachilik diskursining adabiyotdagi aks-sadosini tushunishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari turli adabiy makonlarda qahramon konsepsiyasining shakllanishiga oid ilmiy izlanishlarni kengaytirishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot natijalari Jeyms Fenimor Kuper ijodida yaratilgan indeys obrazlari hamda o‘zbek nasrida shakllangan milliy qahramon obrazlarining badiiy-falsafiy mohiyatini qiyosiy tahlil qilish orqali ularning adabiy va ijtimoiy ahamiyatini aniqlash imkonini berdi. Qiyosiy tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, har ikki adabiyotda qahramon obrazi shaxsiy xarakter doirasidan chiqib, muayyan tarixiy davrda yashagan xalqning taqdiri, ruhiyati va milliy ongini ifodalovchi umumlashma timsol sifatida namoyon bo‘ladi.

Kuper ijodidagi indeys obrazlari, xususan, Chingachguk va Unkas singari qahramonlar orqali Amerika tarixidagi mustamlakachilik jarayonining fojeali oqibatlari badiiy talqin etiladi. Ushbu obrazlar yozuvchi tomonidan axloqiy poklik, tabiat bilan uyg‘unlik va sadoqat kabi fazilatlar bilan ideallashtirilgan holda tasvirlanib, g‘arb sivilizatsiyasining tajovuzkor va utilitar tamoyillariga qarshi ma’naviy muqobil sifatida ilgari suriladi. Bu holat indeys obrazlarining nafaqat etnik, balki falsafiy-ramziy ahamiyatini ham oshiradi.

O‘zbek nasrida yaratilgan milliy qahramon obrazlari esa asosan xalqning tarixiy sinovlar, ijtimoiy adolatsizlik va ma’naviy inqiroz sharoitida shakllangan ruhiy barqarorligini aks ettiradi. Bu obrazlarda vatanparvarlik, jamoaviylik, ajdodlar merosiga sodiqlik hamda milliy qadriyatlarga hurmat yetakchi g‘oya sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbek qahramonlari ko‘pincha real tarixiy voqealar va ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liq holda yaratilgani bois, ularning badiiy qiyofasida hayotiylik va psixologik chuqurlik ustunlik qiladi.

Qiyosiy tahlil shuni tasdiqlaydiki, Kuper indeyslari va o‘zbek nasridagi milliy qahramonlar turli madaniy makon va tarixiy sharoitda shakllanganiga qaramay, ularni birlashtiruvchi asosiy jihat – xalqning tarixiy xotirasini saqlab qolish va milliy o‘zlikni badiiy ifodalash vazifasidir. Har ikki adabiyotda ham qahramon obrazi millatning ma’naviy kuchini, tarixiy qarshilik ruhini va kelajakka bo‘lgan umidini ifodalovchi estetik vosita sifatida xizmat qiladi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari qiyosiy adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan milliy qahramon obrazlarini o‘rganish nafaqat alohida adabiyotlarning ichki rivojlanish qonuniyatlarini anglashga, balki jahon adabiy jarayonida milliylik va universallik munosabatlarini chuqurroq tadqiq etishga ham xizmat qilishini ko‘rsatadi. Mazkur izlanishlar kelgusida Kuper ijodining boshqa aspektlarini, shuningdek, o‘zbek nasrida qahramon tipologiyasining evolyutsiyasini yanada kengroq ilmiy asosda o‘rganish uchun muhim metodologik zamin yaratadi.

Rezyume. Maqolada Amerika romantik adabiyotida indeys obrazlarining badiiy shakllanishi hamda o‘zbek nasrida milliy ozodlik harakatlari asosida yuzaga kelgan qahramon obrazlari qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilinadi.

Резюме. В статье рассматриваются особенности художественного формирования образов индейцев в американской романтической литературе и эпическое осмысление национальных героев в узбекской прозе.

Resume. The article examines the artistic formation of Native American characters in American Romantic literature and the epic interpretation of national heroes in Uzbek prose through a comparative-typological approach.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 11-12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

"МЕҲРОБДАН ЧАЁН"НИНГ УЧИНЧИ НАШРИ ҲАҚИДА

Қуронов Дилмурод,
филология фанлари доктори, профессор

"Меҳробдан чаён" романининг аслида учинчи – 1935 йил нашри жорий этилганига беш йилгина бўлган лотин алифбоси асосидаги ўзбек ёзуви эндигина яна ислоҳ қилинган бир вақтда амалга оширилган. 1934 йилда ўзбек лотин ёзуви ислоҳ қилиниб, унга жиддий ўзгаришлар киритилди. Алифбодаги унли ҳарфлардан учтаси чиқарилиб, уларнинг сони олтитага келтирилгани бу ўзгаришларнинг энг муҳими эди. Оқибат ёзувда сингармонизм ҳодисасининг ифодаланиши деярли барҳам топди, эшитилгани каби ёзиш принципи устувор бўлмай қолди, имлода ҳукм сурган "анархик" турфаликлар кескин камайиб, ёзма нутқнинг унификациялашиш жараёни кучайди. "Меҳробдан чаён"нинг учинчи нашри айни жараён эндигина ҳаракатга келган бир вақтда амалга ошганки, 1933 йил нашрига қараганда матннинг график шакллантирилиши ва имлосида кузатилувчи кўплаб ижобий ўзгаришлар энг аввал шу билан изоҳланади. Ўзгаришлар, хусусан, матнни абзацларга ажратиш, диалогларни шакллантириш, бош ҳарфларни қўллаш кабиларда яққол кўзга ташланади. Шунингдек, матнга киритилган қатор таҳририй ўзгартиришлар, имловий, услубий ва пунктуацион тузатишлар аввалги нашрларга қарганда, шубҳасиз, романнинг матний сифатини яхшилаган.

Аввало, 1933 йил нашрида йўл қўйилган кўплаб қўпол хатолар бартараф этилган. Жумладан, бундан олдинги фаслда мисол қилиб келтирилган хатолар. Шунинг учун имкон қадар улардан бошқа хатоларга тўхталамиз. Шарти шуки, биз "Меҳробдан чаён"ни илк бор 1933 йил нашридан ўқиётган оддий ўқувчи бўлиб оламиз-да, савол туғилган жойдан яна аслимизга қайтамиз. Масалан, 1933 йил нашридаги тарихий саналар келтирилган "Зулм ўчоғи" фаслида ўқиймиз: "*7-1286 нчи йилларда "Улуғ наҳр" ва "Хон ариғ" деб машҳур ариғни қазитди". Ўқибоқ хаёлимизда "битта ариқни шунчалар узоқ қазийдими? Йўғ-а, шунчаки бошида учта рақам тушиб қолгандир? Хўп, 128 ни жойига қўйса ҳам бўлмас экан-да?!.." каби саволлар бир-бир тизила бошлайди. Уларга жавоб излашга тушамиз.*

Маълумки, эски ёзувда ҳарфлар ўнгдан чапга, рақамлар эса чапдан ўнгга қараб ёзилади. Яъни 1929 йил нашридаги 1286-7 санаси лотин ёзувида ҳам айни шу шаклда ёзилиши керак, чунки бунда ҳам рақам чапдан ўнгга ёзилади. Шуни ҳисобга олганидан табдилчи Улуғ наҳр ариғининг қазилиш даврини беихтиёр 7-1286 ҳижрий йилларга – саодат асрига кўчириб қўяди. Яъни эски ўзбек ёзувини яхши билмаслик оқибатида қўпол ва кулгили бир хатога йўл қўйилган ва 1935 йил нашрида бу хато тузатилган. Хуллас, бизнинг баён усулимиз шундай бўлади: саволу жавобларни тўлиқ шу тарз шакллантирмасак ҳам, 1933 ва 1935 йил нашрлари орасидаги таҳририй ўзгариш жараёнини хаёлда тиклаб олса бўладиган тарзда ёритиш ҳаракатида бўламиз.

Эски ёзув ва адабий тилни яхши билмаслик ҳам кейинги нашрлардаги хатоларни келтириб чиқарган асосий омиллардандир. Масалан, ўзига ишонган дўстини тунқотарга *"сотган" Султонали ҳақида 1929 йил нашрида "хоннинг ҳаққи намагини бенуқсон адо қилиб хотиржам девонға қайтди" дея яширин киноя қилинади. Гап таркибидаги "ҳаққи намак" форсий изофаси "туз ҳақи" маъносида бўлиб, Султонали дўстини сотиш эвазига хоннинг туз ҳақини адо этгани назарда тутилади. Изофа таркибидаги "ҳаққи"* (حەققی) *сўзини "ҳақиқий" деб ўқиш натижасида 1933 йил нашрида "хоннинг ҳақиқий намагини бенуқсон адо қилиб" жумласи пайдо бўлиб, мазмунга жиддий путур етадики, бу нарса ҳам 1935 йил нашрида тузатилади.*

Эски ва янги ёзув орасидаги тафовутлар билан боғлиқ юзага келган яна бир муаммоли ҳолат ҳақида тўхталмасак бўлмайдиган. Персонаж нутқини ўзига хос тасвирлашга интилган адиб Самад бўқоқнинг гап ораси "ийқиллаб" қўйиш одатини таъкидлайди. 1929 йил нашрида бунинг учун унинг гапларида ўрни билан "айн" (ع) ҳарфини сўзга чизиқча билан улаб (بو بۀلە-ع كيمو-ع) *қўяди. Агар ислоҳ қилинган эски ёзувдан "айн" ҳарфи чиқарилгани ва шунга қарамай 1929 йил нашрида ундан фойдаланилаётгани эътиборга олинса, адибнинг бу деталга муҳим аҳамият берганини англаш қийин эмас. Бироқ лотин ёзувидаги 1933 йил нашрида "айн"ни айнан бериш имкони йўқ, шунинг учун унинг ўрнига сўзга чизиқча билан "i" ҳарфини улаш (bu bələ-i kimy-i Ordaqla mirzə boşiliq kim) билан кифояланилган. Табиийки, бу йўл билан араб ёзуви ёрдамида олинган бадиий самарага эришилмаган, аксинча, нутқий хусусият тасвири нотабиийроқ чиқиб қолган. Шуни ҳисобга олиб ва маъқул вариант топмаганидан бўлса керак, 1935 йил нашрида муаллиф бу*

нутқий деталдан умуман воз кечган (bu bala kimu, ordaga mirzabaşiliq kim). Сал қуйироқда персонаж репликасидан сўнг эса *“Самад бўқоқнинг бу сўнгги ғийқиллашида томоғи остидаги йўғон томирлари туртиб чиқди”* дейилган. Модомики, деталдан воз кечилган экан, таҳрирда бу жумла тушириб қолдирилиши лозим эди. Ҳолбуки, учинчи нашрда ҳам, умуман, кейинги нашрларнинг кўпчилигида ҳам бу жумла сақланиб қолган – танадаги ортиқ каби ҳеч бир вазифасиз, шунчаки мавжуд холос.

Иккинчи нашрда Худоёрхон учинчи марта тахтга ўтирган вақтда ўрус истилочилари Қўқонга яқинлашиб қолгани эслатилади-да, ортидан *“Бу кунги шароит тажрибалик хонни бошқача ушлашка мажбур этар эди” дейилади. Мазмуннинг чала экани, нимани-нингдир тушиб қолганини сезиш қийин эмасдек, бироқ умумий тарзда бир нима тушунса ҳам бўладигандек-ку деб ўтаверади кўпчилик. Аслида битта сўз тушиб қолгани катта нарса. Тамсил қилсак, битта тиш тушган каби: бемалол чайнаётган-дексан, лекин кемтик ўрнини, нимадир камлигини мудом ҳис қилиб турасан. Яна илк нашрга қараймиз: “Бу кунги шароит тажрибалик хонни бошқача сиёсат ушлашка мажбур этар эди”. Энди сўзнинг зарурлиги ҳақида гапирса ҳам бўлади. Адиб Худоёрхоннинг ободонлаштиришга катта эътибор қила бошлаши, бир томони, сиёсий зарурат эканига диққатни жалб этмоқда. Талқинда бирёкламаликдан қочиш билан бирга, ўқувчини теранроқ ўйлашга, ҳатто Худоёрхондек “ёмонимиз” ҳам шахсий манфаат доирасидагина қолиб кетмаганини англашга йўналтиради. Демак, “сиёсат” сўзининг бўлиши адиб концепциясини ифода этишда ғоят муҳим, унинг тушиб қолгани катта йўқотиш бўлади. Зотан, мана бу гап ҳам шу сўзга таянади “Абдукаримхондан бери ўнлаб хонларга яраб келган ўрдани бузиб, янги ўрда бино қилиши ўз кайфига қараганда ҳам ўрусларга жонлилиқ кўрсатиш, ялтирасин шаъну шавкат билан Фарғонани ўз қўлида сақлаб қолиш учун эди”.* Эътибор беринг, ўнлаб хонларга хизмат қилган ўрдани бузиб янгисини қуриш – хазинани исроф қилиш бўлиб кўриниши тайин, лекин *“ўрусларга жонлилиқ кўрсатиш”* ҳам жуда муҳим, бу – сиёсат. Шуларни ўйлаганда, “сиёсат” сўзи атайин, ҳукмрон мафкурага мос хону хонликни қора кўрсатиш учун тушириб қолдирилган эмасмикан деган фикр ҳам келиб қолади беихтиёр. Хуллас, 1935 йил нашрида иккинчи нашрда йўл қўйилган жиддий хато тузатилган – сўз ўз ўрнига қайтарилган.

Дарвоқе, “сиёсат” сўзининг мазмуний қиммати англанмагани сабабли бўлса керак, “*ўрдани бузиб, янги ўрда бино қилиш”* жумласида иккинчи “ўрда” сўзи тушириб қолдирилган. Юзаки қараганда “ўрда” сўзининг такрорланиши ортиқчадек кўриниши мумкин, бироқ “*ўрдани бузиб, янги бино қилиш”* дегани илк нашр контекстидаги маънони беролмайди. Негаки, бу ерда гап ўрда ҳақида эмас, умуман *бино* ҳақида бўлиб қолади. Агар сўз такрорланаётгани ёқмаса, у ҳолда “*ўрдани бузиб, янгидан бино қилиш”* дейилганида ҳам бир нави, қабул қилса бўлгудек эди. Бироқ ўшанда ҳам мазмуний ютқизиқ юзага келар эди, чунки бу ҳолда “*ўрдани бузиб, янги ўрда бино қилиш”* жумласидаги таъкид йўқолади. Ҳолбуки, айнан шу таъкид фактга икки турли муносабат: “хон ва унинг ҳарами учун қурилган бинога хазинадан ортиқча сарф” деб қараш билан “сиёсат учун зарур” деб билишни бир нуқтада бирлаштиради. Учинчи нашрда “ўрда” сўзи ҳам ўрнига қайтарилган. Мазкур ҳол бу таҳририй тузатишлар бевосита муаллиф томонидан амалга оширилган деб ўйлашга изн беради.

Сўзнинг механик тарзда тушиб қолиши ҳоллари ҳам мазмунга муайян таъсир қилмасдан қолмайди. Қизиғи шундаки, баъзан сўз тушиб қолгани аниқ билинмай, услубий ғализлик ёки бошқа бир хато ўтиб кетгандек кўринади. Оғача ойим оқила аёл – “*мамлакат иши халалдор бўлиши” Гулшаннинг ўз фаолиятини чеклаши учун камлик қилишини яхши билади, шунинг учун уни “муҳтожликдан қурқсангиз мен бор” дея хотиржам этади, инъом буюради. Айни эпизод тасвирида мана бу гап бор: “Шу ҳолда Аҳсан мунсакни унинг устига қўлига икки тиллони ҳам узатди”. Бир қарашда бу ўринда битта вергул тушиб қолган, шуни ўрнига қўйилса олам гулистондек. Яъни агар “мунсакни” сўзидан сўнг вергул қўйилса, бинойидек жумла пайдо бўлади: “Шу ҳолда Аҳсан мунсакни / унинг устига қўлига икки тиллони ҳам узатди”. Кўриб турганимиздек, пауза “**мунсакни ва унинг устига қўлига икки тиллани” тарзидаги уюшиқ бўлакларни юзага келтиради. Ҳолбуки, 1929 йил нашрида бу гап “***Шу ҳолда Аҳсан мунсакни унинг устига ёпиб қўлига икки тиллони ҳам узатди” шаклида. Гулшан ўрнидан туриб маликага бош эгиб турган ҳолда Аҳсан унинг устига мунсак ёпади ва қўлига икки тиллани узатади – маросим рисола (протокол)га мувофиқ кечади. Қаранг, у қадар сезилмагани ҳолда ҳам сўзнинг тушиб қолиши маросимни оддий олди-бердига айлантириб қўйган эканки, муаллиф 1935 йил нашрида буни тузатган.*

*Аввалги нашрдаги сўзнинг оммага тушунарлироқ бўлган маънодоши билан алмаштирилиши ҳам, бизнингча, кўпроқ муаллиф амалга оширган таҳрир саналиши мумкин. Албатта, бундай таҳрирнинг нашриёт муҳаррири тавсияси билан қилинган бўлиши эҳтимоли ҳам катта. Шундай таҳрирлардан бири, масалан, мулла Абдураҳмоннинг алами акс этган мана бу жумлада кузатилади: “Бир бесавод ятим ва **баднажод** исқирт ўрдадан фалон тилло вазифадор бўлсин ва шу туфайлда Раъно каби бир қизни ҳам ўзиники қилсин...”* 1929 йили нашрида “*баднажод*” (داژند دب) шаклида берилган сўз 1933 йил нашрига “*бад навод” шаклида кўчганки, аввалига бу сўзнинг маъносини луғатлардан*

топмадик. Шунинг учун ҳам уни хато ўқилганга санадик. Хатонинг омилини эса, ўзимизча, форсий алифбодаги қаттиқ "ж" (ژ) ҳарфи устидаги учта нуқта чапланганроқ бўлгани учун "вов" ўқилганмикан деб тахминладик. Кейинроқ луғатда "нажод" (داژن) сўзининг "асл, насаб, насл" маънолари борлигини аниқладикки, бу маъно гап контекстига мос келади. Яъни мулла Абдураҳмон аламли ўйларида Анварни "зоти паст" деб камситмоқда, аламидан чиқмоқда. Гарчи мазмунан ўринли қўлланган бўлса-да, "нажод", "баднажод" сўзлари тилимизда оммалашмаган, аксарият ўқувчиларнинг тушунишида қийинчилик туғдириши мумкин. Шуни ўйлаб бўлса керак, 1935 йил нашрида бу сўз оммага яқинроқ бўлган*"бадасл"* сўзига алмаштирилган.

Бундан фарқли, сўзнинг маъносини билмаслик натижасида 1933 йил нашрида нотўғри табдил қилинган ўринлар ҳам 1935 йил нашрида тўғриланган ёки илк нашрдаги кўринишга келтирилган. Жумладан, Худоёрхоннинг учинчи хонлик даври ҳақида *"Унинг охирги салтанати хонлиқ истибдодининг аччиғ зулм ва таъаддиларининг жонсўз қора сахифаларини ташкил этадир"* дейилади. Изоҳли луғатда "жонсўз" сўзининг маъноси "ўта таъсирчан, таъсирли"[1] деб берилган. Ҳолбуки, бу маъно мисолга олинган гап контекстига унчалик мос тушмайди. Навоий асарлари луғатида эса бу сўзнинг маъноси "жон ўртовчи, азоб берувчи"[2] деб бериладики, бу гапимизнинг мазмуний контекстига кўпроқ тушади. Демак, адиб сўзни айни шу маънода, илгари бизда ҳам, форс тилида эса ҳозирда ҳам кўпроқ фаол бўлган маъносида қўллаган. Бироқ 1933 йил нашрида сўз "жонсиз" (çansьz) шаклида табдил қилинганки, натижада гапда мазмунан ғализ ва тушунарсиз ҳолат юзага келади. 1935 йил нашрида сўз яна "жонсўз" (çansoz) шаклига келтирилган.

Раънонинг Шайх Саъдий девонига яширилган хатини ўқиган Анварнинг руҳий ҳолати ғоят маҳорат билан очиб берилган. Жумладан, 1933 йил нашри ўқувчиси ҳам Раънонинг *"Мен билан охирги марта видоълашингиз, сиз нашъу намо қилган жойда мени ҳалокат кутадир" жумласи ҳар қандайдир андишликни енггарлик ва бу жонсўз хитобадан кўз юмиш йигитлик шаънига ярашатурган кўрунмас эди"*,- дейилганига бешак ишонади. Зеро, сўз хато ёзилгани туфайли юзага келган ғализликка қарамай, "*андишлик*" деган асос бор – "андишани енгадиган экан" деб тушунилаверади. Ҳақиқатда эса, бу ерда адиб "дурандешлик" сўзини қўллаган. Навоий луғатида "мулоҳазалилик, узоқни кўрувчилик" деб изоҳланган бу сўз 1929 йил нашрида, афсуски, хато шаклда – *"ҳар қандайдур андешликни"* кўринишида берилган: биринчи бўғин ("дур") ўзидан олдинги сўзга қўшимчадек қўшилиб қолган. Шундан бўлса керак, 1933 йил нашрига ҳам сўз хато (qandajdьr əndişlikni) кўчганки, бу бирикма "қандайдир андишаликни" тарзида (яъни гўё учинчи бўғиндаги "а" қисқа унлиси ёзилмасдан ё тушиб қолган деган ўйда) ўқилиши мумкинки, "андишали" ва "дурандешалик" сўзлари маъносига кўра айнан эмас. Контекстга "дурандешлик" маъноси қўпроқ мос деб ҳисобланган учун ҳам 1935 йил нашрида айнан шу сўз ўқиладиган шаклда таҳрирланган.

Тан олиш керак, 1933 йил нашрида ўқувчини хайрон қолдирадиган ўринлар тез-тез учраб туради. Жумладан, *"Худоёр хотинини ташлаб Бухороға қочишға мажбур бўлғандан кейин..." деган жумлани ўқиб хайрон бўлиши тайин. Ахир, Худоёрхонда хотин деганнинг саноғи йўқ дейилганди, қандай қилиб битта "хотинини ташлаб қочади"?! Бунинг устига гапнинг давомида "оғасини ғайри шаръий ишларда, жумладан, хотунбозликда айблаб, тахтга минган Маллахон ўз даъвосига мувофик, Худоёр ҳарамидаги юзлаб хотунларни ўз йигитлари орасида хотунликка тақсим қилиб юборди" дейилади. Кўриб турганимиздек, гапнинг бошланиши билан охири мазмуний-мантиқий зидлик ҳосил қилмоқда. Ҳолбуки, аслида 1929 йил нашрида "хотинини ташлаб" эмас, "тахтни ташлаб" дейилган. Иккинчи нашрда сўзнинг алмаштирилишига ҳеч бир зарурат йўқ, демак, бунда муаллиф ихтиёрини истисно қилиш мумкин. Фақат, "тахт" сўзининг "хотин"га алмашиб қолишига шунчаки техник хато дея енгил қараб ҳам бўлмайди, бунга нашрга тайёрловчиларнинг эътиборсизлиги сабаб бўлганини таъкидлаб айтиш керак. Албатта, бунақа мазмуний зиддият муаллиф нигоҳига чўпдек санчилганини тасаввур қилиш қийин эмас – учинчи нашрда хатолик бартараф қилинган.*

Ҳатто бир ҳарф алмашиши ҳам мазмунни тамом ўзгартириб юбориши ёки тушунарсиз қилиб, мисоли бир нуқтанинг "кўз"ни "кўр" қилиб қўйиши мумкинлиги ҳақида муттоз шоирларимиз кўп айтганлар. Чамаси, ноширлар бу қоида замонавий ёзувга тааллуқли эмас деб билганларми, эътиборни жуда сусайтирганлар. Маълумки, романда ҳарам тасвирига кенг ўрин берилган. Ўз тасвир усулига содиқ адиб ҳарам тафсилотларини Гулшаннинг кириб бориши асносида бир-бир ёритиб боради. Ўқувчи бир эшикдан ичкарилаган Гулшанга эргашиб киради: "Бу ҳарамнинг кичкинагина сув ҳавлиси эди. Ўртадаги мис ҳовузда кўм-кўк сув мавж уриб, бир неча канизлар ҳовуздан сув олмоқда эдилар",- дея тушунтириш беради муаллиф. Кўриб турганимиздек, бинойидек гап – шакли ҳам, мазмуни ҳам жойида. 1933 йил нашрида бу гапдаги "ўрта" сўзида "т" ҳарфи "д"га айланиб, жумла "Ўрдадаги мис ҳовузда кўм-кўк сув мавж уриб..." деб бошланадиган бўлган. "Хўп, нима бўпти шунга?!" дегувчи ҳам топилар, балки. Фақат, келтирганимиз ўша

[1] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 6 жилдлик. 2 ж.- Т.,2023.- Б.682

[2] Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Т.1.- Т., 1983.- Б.592

“нима бўпти?” дегувчининг оғзига урадиган мисол-да! Қаранг: ровий “кичкинагина сув ҳавлиси” ҳақида гап бошлаб, сўнг унинг “ўртасидаги мис ҳовуз”га ўтди. Шу фасл бошида аввал Янги ўрдани обдон таърифланиб, сўнг Гулшаннинг соқчилар ҳеч кимсани киритмаётган ўрдага бемалол киргани ва ҳарам “дарбозасини чоғлаб борғани” айтилади. Яъни бадиий макон яратилмоқда – муҳташам қурилган Ўрда бор, унинг ичида алоҳида дарбозали Ҳарам бор, унинг ичида эса ўнлаб ҳовлилар, “Сув ҳовли” дегани шуларнинг биттаси. Гап шу сув ҳавли ўртасидаги мисдан ясалган ҳовуз ҳақида эди, у ўрданинг ўртасидаги ҳовузга айланди-қолди – ўқувчи тасаввурида сўз воситасида жонланаётган бадиий макон манзараси хиралашиб-чаплашиб кетгандай бўлди гўё.

Гулшанга эргашган ўқувчи сув ҳовли жанубидаги эшикдан ҳарамнинг биринчи ҳовлисига киради: “У қадар кенг бўлмаган саҳн остига ҳишт тўшалган, ҳавли юзида тўрт-бешта қизил шолдан кўйлак ва бошларига сариғ шолдан рўймол ўраб, оёқларига бедонадан кафш, маҳси кийган ёш канизлар сочилган ҳолда вазифалари оркасидан юрар эдилар”. Яъни ўқувчи ҳовлининг турли жойига “сочилган” ва ҳар бири ўз юмуши билан машғул канизларни кўради. 1933 йил нашрида сочилган сўзидаги биринчи ҳарф тушиб қолади ва канизлар “очилган” ҳолда юрган бўлиб қолади. Ҳолбуки, ҳарам ичида ҳеч ким паранжи-чачвонда юрмайди, яъни “очилган” ҳолда бўлади, буни таъкидлашга ҳеч зарурат йўқ, аниқроғи, бу ортиқча ҳам. Зеро, Гулшаннинг ҳарам ҳовлисига кирибоқ “паранжи остида босилиб тартибсизланган сочларини тузатиши”, кейин паранжисини қўлига олиб юриши шуни англатади. Демак, ёзувчи канизларнинг ҳовлида айнан “сочилган” ҳолда юрганларини айтмоқчи, холос, уларнинг “очилиб” юрганини эмас. Эҳтимол, нашрга тайёрловчи хотин-қизлар озодлиги ғоялари, паранжи ташлаш жараёнлари таъсирида шакллангандирки, унинг кўзи канизларнинг “очилиб” юришларига тушган бўлса?! Ахир, оламни ҳар ким ўзи хоҳлаганидек кўради, деган гаплар ҳам бор-ку.

Ҳарф тушиб қолганини кўрдик, аксинча, ҳарф қўшилиши натижасида шунга ўхшаш ҳолат юзага келган ўринлар ҳам бор. Гулшаннинг “қирқ қизлар”даги канизлар билан баҳс бойлашиб тўп ўйнаши ёдингиздадир. Шунда Гулшаннинг ўйинни бошлаганини айтибоқ, орқасидан “Тўп чиқағон эди” дейилади. Ўйин учун тўпнинг “чиқағонлиги” – ерга урганда қай даражада тепага кўтарилиши жуда муҳим. Гап шундаки, тўпнинг чиқағонлиги унинг нимадан ва қай даражада усталик билан ясалганига боғлиқ. Сўз бораётган тўпни ҳарамдаги қизлар ипакдан, ўзлари учун ғоят ҳафсала билан ясаганлар – у бошқаларга қараганда сифатли бўлади. Гулшаннинг шу ёшида, майли ўйин бошларида бўлса ҳам, ёш қизлар даражасида ўйнаши шунга далолат қилади. Хуллас, ўйин моҳияти ва қай тарзда ўйналишини яхши билган кишилар учун бу тафсилот жуда муҳим, шу боис у алоҳида гапда таъкидлаб айтилган. Лекин табдилчи бошқача ўйинлар ва ўйинчоқлар ўйнаб ўсган авлод вакили бўлса керакки, тўпнинг бундай сифатини билмаганидан 1933 йил нашрида кам қўлланувчи “*чиқағон” сўзини тушунмаган ва “чиқарғон” деб таҳрирлаган бўлса, эҳтимол. Нима бўлганида ҳам бу таҳрир – хато, шунинг учун учинчи нашрда у яна эски ҳолига қайтарилган.*

Сўзнинг контекстдаги маъносини, гап нима ҳақида бораётганини яхши тушунмаган ҳолда тузатишга жазм этиш муқаррар равишда услубий ғализлик, мазмуннинг хиралашиши ёки буткул ўзгариб кетишига олиб келади. Раънодан хат олган Анварнинг зиддиятли ўйлари ҳақида адиб ёзади: “Чунки, Раънога учрашишдан ҳеч бир фойда тасаввур қилмаган муҳокамаси қаршисидаги кучлик бир майл, Раънога йўлиқишда фойда эмас, маъно кўрсатар эди...” Тўғри, гапнинг қурилиши бирмунча мураккаб, лекин унда мазмунни тўғри тушунишга йўналтирувчи “муҳокама – майл”, “фойда – маъно” зидлашлари мавжуд. 1933 йилда нашрида “фойда – маъно” зидлаши “фойда – Раъно” шаклига келиб, гап “Раънога йўлиқишда фойда эмас, Раъно кўрсатар эди...” деб тугалланади ва мазмундан мосуво бўлади. Таҳрирда “маъно” сўзининг “Раъно”га ўзгаргани табдилчининг муҳим зидлашни, демакки, гап мазмунини англамаганига далолат қилади. Тан олиш керакки, бу равон ўқиб боргандаёқ тушунилаверадиган гап эмас, бироз секинлаш, мазмуний-мантиқий боғланиш ва грамматик алоқаларни аниқлаб олишни тақозо этади. Фикримизча, бунда “майл” сўзидан кейин қўйилган вергулнинг олиб ташланиши катта ёрдам бериши мумкин. 1935 йил нашрида “маъно” сўзи тиклангани ҳолда, мазкур вергул қолдирилган (“чунки”дан кейинги вергул туширилган). Ҳолбуки, агар вергул туширилганида эди, эга билан кесимнинг ажралиб қолиши бартараф этилиб, уларнинг мазмуний-грамматик алоқаси яққол илғанар, демак, гапни тушуниш ҳам осонлашар эди.

Жумланинг қурилиши, гап бўлаклари ва қисмларининг ўзаро мазмуний алоқаларини етарли даражада англамасик ҳам баъзи хатоларга сабаб бўлган. Раънонинг юқорида эслатилган хатида “Анвар ака, оғир соатларда ёнингизда турғучи дўстдир, қочқучи эса ким, буни сизнинг ҳукмингизга ҳавола қиламан” деган гап бор. Кўриб турганимиздек, Раънонинг гапи “ёнингизда турғучи – дўст, қочқучи эса – ...” тарзидаги мазмуний асосга қурилган. Яъни қочқучи кимлигини айтишни Анварга ҳавола этиш билан Раъно ошиғининг виждонига мурожаат қилади. Худди шу гап 1933 йил нашрига “*Анвар ака оғир соатларда ёнингизда туручи дўстдир, қочучи эмаски, буни сизнинг ҳукмингизга ҳавола қиламан”* шаклида ўтган. Бу гап “ёнингизда турғучи – дўст, қочқучи

эмас” тарзидаги мазмуний асосда турибди. Яъни унда ҳукм ифодаланиб бўлган, Анварнинг ҳукмига ҳавола қилинадиган нарса қолмаган. Демак, гапнинг “*буни сизнинг ҳукмингизга ҳавола қиламан”* деган иккинчи қисми мутлақо ортиқча бўлиб қолмоқда. Энг муҳими, бу шаклида гап Раънонинг Анварга иддаосигина бўлиб қолади, ошиғининг виждонига мурожаати эмас. Шунинг учун ҳам 1935 йил нашрида жумла яна эски шаклига қайтарилган.

Афсуски, бу каби гапларнинг қурилиши ўзгариб кетган ҳолатлар ҳам оз эмас. Масалан, 1929 йил нашридаги мана бу гапни олайлик: “*Меҳмонхонада Анвар йўқ, Анвар ўрнида бегона бир киши – Султонали мирзо ўлтурар эди”*. Агар Анвар исмининг такрорланганига кўз юмсак, гап услубий жиҳатдан жуда яхши қурилгани, имлоси ва пунктуацияси ҳам бинойидек эканини эътироф этиш лозим. Зеро, бу гапда Сафар бўзчи нигоҳи билан кўрилган ҳолат акс эттириляпти. Сафар бўзчи эса Анвар билан кўришаман деб меҳмонхонага кирди, унинг ўрнида бошқа одам ўтирганини кўрди ва бир қадар шошди – учала жумла (Анвар йўқ – бошқа одам – Султонали ўтирибди)даги ҳолат битта фокусда ва бир онда аксланмоқда. Шу маънода жумланинг қурилиши ҳолатга ниҳоятда мосдир. Бироқ айни шу гап 1933 йил нашрига учта гапга бўлиниб ўтган: “*Меҳмонхонада Анвар йўқ. Анвар ўрнида бегона бир киши. Султонали мирзо ўлтурар эди”*. Эътибор беринг, энди юқорида тавсифланган бадиий-услубий эффект йўқотилган. Аслида буни айтиб ўтиришга ҳам ҳожат йўқ: ўқиб кўрибоқ ҳар ким ҳам англаб олавериши мумкин. 1935 йил нашрида бундаги йўқотиш қисман қопланган: “*Меҳмонхонада Анвар йўқ. Анвар ўрнида бегона бир киши – Султонали мирзо ўлтурар эди”.* Кўриб турганимздек, бунда тасвир динамикаси сусайган, Сафар бўзчи нигоҳида жамланган “бир ондалик” иллюзиясига путур етган. Ҳолбуки, агар гап 1929 йилдаги шаклда қолиб, иккинчи гапдаги “Анвар” исми “у” олмошига алмашса, мазкур эффект янада кучлироқ намоён бўлур эди. Дарвоқе, шунга ўхшаш йўқотиш 1929 йил нашридаги *“Кечаси. Ёмғур савалагандек ёгиб турадир” жумласининг бошқа нашрларнинг деярли ҳаммасида “Кечаси ёмғур савалагандек ёгиб турадир” шаклида берилгани сабаб ҳам юз берган. Зотан, илк нашр шаклида* ***тасвир, кейингисида хабар мазмуни устувор. Матннинг айни композицион бўлагида диалог кечадиган жой тасвири берилганки, биринчи шакл шунга узукка кўз қўйгандек тушса, иккинчи шакл разм солган кишига анчагина “ўдур-будур”ли, сайқаллашга муҳтож бўлиб кўринади.***

Сираси, баъзи хатоларга дуч келганда, “бунга қандай қилиб йўл қўйиш мумкин?” дея ўйлаб бошинг қотади киши. Масалан, маликалардан бирининг чиқиб келиши тасвиридаги мана бу жумлаларда: *“Розия хоним орқасидан саккиз-тўққуз ёшлар чамалиқ, кўз ва тишидан бошқа аъзосида оқи йўқ бир бола кўриниб, хонимни таъқиб этди. Бу ёш югурдак қулча хонимнинг ҳар бир майда хизматларига тайёр каби оёғ олар эди”. Кўриб турганимиздек, бу ерда гап ҳабаш қулбачча ҳақида бораётирки, буни тушунмасликнинг ҳеч иложи йўқ. Шунга қарамай, 1933 йил нашрида иккинчи гапдаги “қулча” сўзи бош ҳарф билан ва кейинги сўзга қўшиб берилган. Аввало, моҳиятан битта кишини атаётган “ёш югурдак қулча” сўз бирикмасидан бош ҳарф билан ёзилган “Қулча” сўзи ажралиб, “хоним” билан қўшилган ҳолда янги сўзни ташкил қилмоқда. Натижада энди yaş jygyrdək аввалги гапга мазмунан боғланиб, Розия хонимнинг эмас, балки Қўлчахонимнинг “ҳар бир майда хизматларига тайёр каби оёғ олаётган” бўлиб қолади. Шуниси қизиққи, 1935 йил нашрида яна Розия хоним хизматига тайёрлик мазмунини ифодалашга ҳаракат қилинган ва жумла мана бу шаклга келтирилган: “Bu yaş jugurdək Qolca, xanimniŋ hər bir məyda xizmatlariga tajjar kabi ajaq alar edi...” Яъни энди гўё Қўлча исмли ёш югурдак хоним (аввалги гапга боғланган ҳолда Розия хоним)нинг хизматига тайёр деган мазмун келиб чиқади. Хуллас, жумла мазмуни бунчалик ўзгариб кетгани уни муаллиф таҳрирламаган деган тўхтамга олиб келади.*

Юқорида айтилганидек, учинчи нашрда 1933 йил нашри матнидаги жуда кўп имло ва пунктуацион хатолар тузатилганки, уларнинг барини санашга имкон ҳам, зарурат ҳам йўқ. Бироқ бу 1935 йил нашрининг мукаммаллигига асло далолат қилмайди, негаки, унда тузатилмай қолган, чала ёки нотўғри таҳрир қилинган, шунингдек, фақат шу нашр матнида пайдо бўлган хатолар ҳам анчагина учрайди. Масалан, “Зулм ўчоғи” фаслида Худоёрхон “Мадрасаи олий-”ни ва “Даҳмаи шоҳон”ни бино қилдиргани ҳақида маълумот берилади. 1935 йил нашрида бу икки обида номи ҳам хато берилган: “Мадрасаий али” (“Madrasaij ali”) ва “Даҳмаи жаҳон” (Daxmai çahan). Шундайки, бу тарздаги ёзилиш 1933 йилдаги билан қарийб бир хил, яъни аввалги нашрдаги хатолик кўрилмаган ҳам, тузатилмаган ҳам. Шунга ўхшаш, қизиқлар томошасини бошлаш олдидан Зокир говнинг хонга мурожаатида “*биз ахли тамаъ бечора, нафс илгида овора ғариблар ҳар қайсимиз беш пайса, ўн пайса тамаъ хапидан ютиб, даргоҳингизга юзландик”* деган иқрор бор. Яъни Зокир гов тама илинжида томоша қўйишлари, бу ерга қизиқларнинг ҳар қайсиси *“таъма хапи”* – ***таъма таблеткаси*** ичиб келганини айтади. 1935 йил нашрида ушбу сўз бирикмаси *“таъ ҳапи”* шаклида берилган ва маънодан тамом айрилган.

Таҳрирда “қош қўяман деб кўз чиқарилган” ўринлар ҳам, афсуски, йўқ эмас. “Қирқ қизлар” фаслидаги базм бошланиши тасвирида мана бу жумла бор: “*Нозик ўртада хиромон бир тарафка ўткан эди қизларнинг баъзисидан соз каби шўх ва нафис оҳанг эшитилди”. Кўриб турганимиздек, жумла яхши ту-*

зилган, эътироз қилишга ўрин йўқ. Иккинчи нашрда "эшитилмоқ" феълига орттирма нисбат қўшимчаси қўшилгани истисно қилинса, 1929 ва 1933 йил нашрларида бу жумла бир хил шакллантирилган. Бироқ 1935 йил нашрида у мана бундай таҳрирланган: "Нозик ўртада, Хиромон бир тарафка ўткан эди, қизларнинг баъзисидан соз каби шўх ва нафис оҳанг эшитилди". Кўриб турганимиздек, таҳрир натижасида ўртада бир эмас, икки каниз – Нозик билан Хиромон ҳаракатланаётган бўлиб қолмоқда. Ҳолбуки, бу ерда "хиромон" киши исми маъносида эмас, балки "ноз карашма билан чиройли юрувчи" маъносида. Яъни гап Нозикнинг ўртада ноз карашма билан чиройли юриб бир томонга ўтгани ҳақида эди. Таҳрирда эса Нозик ўртада туриб қолиб, йўқдан бино бўлиб қолган бошқа бир қиз – Хиромон бир томонга шунчаки (яъни рақсга хос хиром билан эмас) юриб ўтган бўлиб чиқади.

Таҳлил ва кузатишларимиз, 1935 йил нашрида матн бир қатор таҳрир қилингани, имло ва пунктуация жиҳатидан бироз яхшилангани, қатор бадиий-услубий ва мазмун жиҳатидан яхшилашга қаратилган таҳририй ўзгаришлар қилинганини кўрсатади. Шу билан бирга, матнда ҳамон тузатилиши, таҳрир қилиниши зарур ўринлар қолгани, боз устига, унда янги имло ва пунктуация хатолари, услубий камчиликлар вужудга келгани ҳам яққол кўзга ташланди. Шунга кўра, адиб ҳаётлигида чоп қилинган ва унинг назаридан ўтган бўлса-да, ушбу нашрни ҳам, худди аввалги икки нашр каби, эталон санаб бўлмайди.

* * *

Хуллас, нашрларда юқорида кўриб ўтилган каби мисоллар жуда кўп, ҳаммасини санаб, бир-бир таҳлил қилишнинг иложи йўқ. Умид қиламизки, "Меҳробдан чаён"нинг адиб ҳаётда эканида амалга оширилган нашрларида кўплаб услубий ғализликлар, имловий ва пунктуацион хатолар мавжудлиги, улар объектив ва субъектив сабаблар билан изоҳланишини, бунда муҳаррир ва мусаҳҳиҳлар ҳиссаси ҳам катта эканини етарли даражада ишонарли кўрсатдик. Холис айтганда, матн ҳозирда ҳам деярли ўшандай ҳолида ўқувчига тақдим этилмоқдаки, бу ўқувчини асардан совутадиган ғоят кучли омилдир. Афсус, қай бир ўқувчида англанган тарзда, қай бирида ўзи ҳам англамасдан кечади бу жараён, энг ёмони, биз – адабиётшунослару аҳли қаламнинг асар ҳақидаги изҳори ҳайратларию мақтовларига қарамай кечади у. Ҳеч ажаб эмас, ахир, биз то ҳануз на нашрлардаги, масалан, мана бу каби турлича шакллардан энг маъқулида тўхталиб билдик ва на сезилар-сезилмас таҳрир билан сайқаллаб юборишга журъат этдик:

Раънога бузуқ қиз билан қилган каби муомаласи... 1929

Раъноға бузуқ қиз бўлған каби қилган муомаласи... 1933

Раънога бузуқ қиз билан бўлган каби қилған муомаласи... 1935

Ахир биз, шунча тилшуносу матншунос, қолаверса, қодирийшунос олимлар бўла туриб, ҳануз ёзув ва имло ислоҳотлари кечган 15-20 йиллик давр тилини пухта ўрганган ҳолда адиб асарлари тилининг аслига яқин вариантини тиклай билмадик. Ахир, "онангни отангга бепардоз кўрсатма" деганлар, тоқай *"аслига содиқлик"* деган принципни асоссиз тутган ҳолда шу нашрлардан бирига таяниб қайта нашр қилаверамиз? Ахир, Абдулла Қодирий асарлари тилини дахлсиз санашга монелик қилувчи кучли омиллар бор-ку? Адиб ўз замонида муҳаррир ва мусаҳҳиҳлардан нолиган, наҳотки энди – бир аср ўтиб ҳам уни норози этган омилларни бартараф этишга ярамасак?! "Меҳробдан чаён"нинг илмий-танқидий матнини тайёрлаш ҳануз ўта долзарб вазифа бўлиб қолаётганини айтиш кам, жар солмоқ керак.

Resume. The article is devoted to the study of the third edition of Abdullah Qodiri's novel The Scorpion from the Altar, published in 1935. By comparing it with the first and second editions and analyzing the changes introduced into the text, it is concluded that, for the most part, these changes served to improve the text, enhancing its style, adding various clarifications through detailed elaboration, and so on. At the same time, the text also contains changes that cannot be considered authorial: some of them are editorial corrections, which are occasionally inappropriate, while others arose simply as a result of technical oversights.

Резюме. Статья посвящена изучению третьей редакции романа Абдуллы Кадыри «Скорпион из алтаря», опубликованной в 1935 году. Путем сопоставления с первой и второй редакциями, анализа внесенных в текст изменений, делается вывод о том, что в большинстве своем эти изменения послужили совершенствованию текста, улучшению стиля, различного рода уточнениям путем детализации и пр. Вместе с тем, в тексте встречаются и такие изменения, которые нельзя считать авторскими: одни из них являются редакторскими правками, которые иногда не уместны, а другие возникли просто как результат технических упущений.